O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

B.E. Karimova

KREATIV PEDAGOGIKA

Bakalavriyat yo‘nalishi talabalari uchun
darslik

Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2023

UO'K 577(075.8)
KBK 28.07ya7
B 21

B.E. Karimova
Kreativ pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 320 b.

Ushbu darslik pedagogika va psixologiyabakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv adabiyoti bo`lib, unda "Kreativ pedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar bilishi lozim bo`lgan ma'ruzalar va amaliy mashg`ulotlar namunalari berilgan.

Shuningdek, Kreativ pedagogika fani mazmuni, kreativ pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari, zamonaviy ta'lim mazmunini belgilovchi muhim omillar, fanning tamoyil va mezonlari, o'qituvchini kreativ shakllantirishning modeli ko'nikma va malakalari, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar bayon etilgan.

Taqrizchilar:
Sh.S. Shodmonova
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori
M.T. Ahmedova
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7261-4-7

© B.E. Karimova, 2022.

© “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.

KIRISH

Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'ldi. Bu borada 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda "Ta'lim va ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovasion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish..." kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Fanning maqsadi – bakalavr talabalariga ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va strategiyasi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangiliklarini o'zlashtirish, ularni amaliyotda sifatli qo'llash, to'ldirish va yangilash qobiliyatiga ega bo'lishga yo'naltiradigan nazariy va amaliy ma'lumotlar berishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarni kreativ pedagogika asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni kreativ samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; kreativ pedagogika fanini o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy yangi texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikni oshirish; yangiliklarni yaratadigan ijodiy shaxsni shakllantirishdan iborat.

"Kreativ pedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr talabalari:

- kreativ pedagogika fani mazmuni, kreativ pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari, zamonaviy ta'lim mazmunini belgilovchi muhim omillar, kreativ pedagogika fanini tamoyil va mezonlari, kreativ pedagogika fanini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyati, kreativ pedagogika fanini o'qitish metodlari haqida bilimga ega bo'lishi lozim;

- kreativ ta'lim muhitining asosiy talablari, kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik shartlari, o'qituvchining kreativ shakllantirishning modeli ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi zarur;

- o'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashuv; nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashuv; o'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlashda pedagogning kreativlik sifatlari; o'qituvchining kasbiy faoliyatida kreativ muloqot; kommunikativ qobiliyat kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

I BO‘LIM. KREATIV PEDAGOGIKA PREDMETI

1-MAVZU: “KREATIV PEDAGOGIKA” FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Mavzu rejasi:

1. Kreativ pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Kreativ pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.
3. Kreativ pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tayanch tushunchalar: *kreativlik, pedagogika, “Kreativ pedagogika” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning obyekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ilmiy- tadqiqot metodlari.*

1. Kreativ pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda

kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab, to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010-y.), Ken Robinson (2007-y.), Fisher, Frey (2008-y.), Begetto, Kaufman (2013-y.), Ali (2011-y.), Treffinger (2008-y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko‘rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007-yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavha YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o‘qituvchilar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013-y.). O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta’lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan’anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta’lim departamenti, 2013).

Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – **kreativlik** sanaladi[1].

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi.

Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik

[1] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

– shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005).

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993; Shternberg, 1985). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002; Rudovich, Xui, 1997; Rudovich, Yue, 2000). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012). Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. *Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga*

intilishingizdadir”[2]*.*

Patti Drapeau nuqtai nazariga koʻra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. ***Har tomonlama fikrlash*** talabalardan oʻquv topshirigʻi, masalasi va vazifalarini bajarishda koʻplab gʻoyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda ***bir tomonlama fikrlash*** esa birgina toʻgʻri gʻoyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va koʻp tomonlama fikrlashdan birini inkor etib boʻlmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechim ning bir necha variantini izlaydi (koʻp tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina toʻgʻri yechim da toʻxtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Kreativlik *(lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor)* – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi oʻqituvchilar ham oʻzlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan oʻtadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, oʻziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar boʻyicha baholash imkoniyatini yaratadi. Oʻquvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu toʻrtta mezonni qanoatlantirishi lozim[3].

E.P.Torrens fikricha, ***“kreativlik”*** [4] tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va oʻzgartirish;

[2] Oʻsha asar, 4-5-betlar.

[3] Oʻsha asar, 4-5-betlar.

[4] Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009.

- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechim ini topishda bilim va amaliy harakatlarning oʻzaro qarama- qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin[5]. Oʻqituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. Soʻnggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. "Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) oʻqituvchilar tomonidan oʻquv fanlarini past oʻzlashtirayotgan va ularini oʻrganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini oʻzlashtirishga jalb etish;

2) oʻqituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini ragʻbatlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish-qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish[6].

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega boʻlmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib gʻoyalarga ega boʻlsalar-da, biroq ularni ifodalashda sustkashlikka yoʻl qoʻyadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qoʻllanilayotgan metodlar talabalarda *erkin, mustaqil fikrlash* koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon boʻladi.

Pedagoglar tomonidan kreativlik sifat va koʻnikmalarining oʻzlashtirilishida fan sifatida "Kreativ pedagogika" muhim oʻrin tutadi.

Kreativ pedagogika – 1) pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga boʻlgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish;

2) talabalarda oʻquv materiallarini oʻzlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, oʻquv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ gʻoyalarni ilgari surish qobiliyati koʻnikmalarini

[5] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4

[6] Oʻsha asar, 7-bet

shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o‘rganuvchi fandir.

Har qanday fan kabi “Kreativ pedagogika” o‘quv predmeti ham aniq maqsadni ko‘zlaydi. “Kreativ pedagogika” fanining **maqsadi** shaxsni kreativ o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

“Kreativ pedagogika muayyan vazifalarni bajaradi.

Ular quyidagilardan iborat:

1) ta’lim mazmuni, o‘quv rejalari va dasturlarini saralash;
2) o‘quv moduli (fani)ni o‘qitishning taktika va strategiyalarini belgilash;
3) mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash;
4) ta’lim oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash;
5) kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tizimini ishlab chiqish

Ma’lumki, har bir fan o‘zining tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo‘ladi. “Kreativ pedagogika” ham o‘z obyekti va predmetiga ega.

Ular:

Obyekti – Barcha yosh bosqichlarida kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni.

Predmeti – Kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, yetakchi g‘oyalari, muhim yo‘nalishlari, asosiy bosqichlari va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so‘z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;
- oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;
- mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;
- talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tatbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Har qanday fan singari “Kreativ pedagogika” fani ham o‘zining ***tarkibiy tuzilmasiga*** ega. Ushbu fan quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

- ***kreativ ta’lim asoslari***: maqsadi. vazifalari, obyekti, predmeti, subyekt lari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari;
- malakali kadrlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish ***bosqichlari***

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konsepsual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni

amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

Ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki

faoliyati natijasi

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo‘naltirilgan masalalar tizimi

Kasbiy-ijodiy imkoniyat –

1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;
2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik;
3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;
4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot;

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi;

Kreativ qobiliyat – shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta’minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati;

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyati

O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoli

Pedagoglarning kasbiy-ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi.

2.“Kreativ pedagogika”ning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit pedagogik jarayon muayyan

turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan oʻrganiladi. Shu bilan birga “Kreativ pedagogika” fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan oʻzaro aloqadorlikda kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi masalalarini tadqiq etadi :

Kreativ pedagogikaning pedagogika turkum va ijtimoiy fanlar bilan oʻzaro aloqadorligi pedagogik texnologiyalarni yaratish va ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish masalalarini oʻrganadi.

Korrektsion (maxsus) pedagogika – imkoniyati cheklangan kar-soqov (surdopedagogika), koʻr (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortda qolgan (oligofrenopedagogika) bolalarga ta’lim berish va ularni tarbiyalashning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganadi.

Xususiy metodika (xususiy fanlarni oʻqitish) – turli oʻquv fanlari (m: fizika, matematika, biologiya, kimyo, tarix, huquq, jismoniy tarbiya va h.k.lar)ni oʻqitishning oʻziga xos jihatlarini tadqiq qiladi.

Kasbiy pedagogika – turli (ijtimoiy, texnik, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish) yoʻnalishlarida tegishli soha (mas., qishloq xoʻjaligini rivojlantirish, madaniy-maishiy xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish va boshqalar) boʻyicha kasbiy faoliyatni samarali yoʻlga qoʻyish yoʻllarini oʻrganadi.

Ta’lim menejmenti – ta’lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish masalalarini tadqiq qiladi.

Qiyosiy pedagogika – ta’limning jahon, mintaqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendentsiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini oʻzaro solishtirish, qiyoslash asosida oʻrganadi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlaydi.

Hamkorlik pedagogikasi – turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta’lim beruvchi hamda oluvchilar oʻrtasidagi oʻzaro muloqot asosida samarali oʻrganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalarini koʻrsatib beradi.

Neyropedagogika – inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktsional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy xulq-

atvorni psixologik korreksiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, shuningdek, yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Pedagogik texnika – nopedagogik OTM pedagoglarini pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari bilan tanishtirish orqali ularda ta’lim jarayonini sifatli, samarali tashkil etish koʻnikma, malakalarini rivojlantirish masalalarini oʻrganadi.

Pedagogik kvalimetriya – ta’lim sifatini izchil nazorat qilish va samarali boshqarishga oid muammolarni tadqiq etadi.

Pedagogik jarayonlarning tizimli tahlili – pedagoglarda ta’lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini yaxlit tizim sifatida anglash, turli, shu jumladan, muammoli vaziyatlarni yaxlit, izchil tahlil qilish malakalarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etadi.

Pedagogik prognostika va pedagogikaning istiqbolli yoʻnalishlari – mavjud sharoitda pedagogik turkum fanlarni sifatli oʻqitish, ta’lim va tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yoʻllarini izlash, istiqbolli yoʻnalishlarini belgilash masalalarini tahlil etadi.

Pedagogik jarayonni boshqarishda qarorlar qabul qilish – pedagoglar tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarining izchil, tizimli, samarali boshqarilishini ta’minlash, mavjud pedagogik vaziyatlarda tizimli tahlil asosida oqilona qarorlar qabul qilinishiga erishish masalalarini oʻrganadi.

Falsafa – tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini oʻrganadi.

Estetika asoslari – nafis san’atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi goʻzallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq oʻrtasidagi qadriyatlar munosabatini oʻrganadi.

Psixologiya – inson faoliyati, shaxs xatti-harakatlarida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarning mohiyatini yoritadi.

3.Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining gʻoyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta’minlanadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan

yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyekti va subyekt iv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

Zamonaviy sharoitda “Kreativ pedagogika” tomonidan kreativ shaxsni kasbiy shaklantirish va rivojlantirish yo‘lida quyidagi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlardan foydalanilmoqda:

Quyida mazkur metodlarning mohiyati to‘g‘risida qisqacha so‘z yuritiladi:

1. Suhbat metodi pedagogik kuzatish chog‘ida talabaning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyekt lari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat **indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda** o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lishiga erishish muhim.

Suhbatning samarali kechishini ta’minlovchi shartlar:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;

4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;

6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish

2. Pedagogik tahlil. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatlari, imkoniyatlari va malakalarining o‘zlashtirish darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan

haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

3. **Pedagogik-psixologik tashxis metodlari.** Bu kabi metodlar shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil etish koʻnikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyatni tashkil etish koʻnikmalariga egaligini tashxislashda oʻnlab metodlar qoʻllanilmoqda. Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali boʻlib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qoʻllanilmoqda. Gauenaning "Zahiraviy model", Slosson testi, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi ("WPPSI" testi), boshlangʻich maktablar uchun moʻljallangan Stanford testi hamda Torrens testlari (jumladan, "Tugallanmagan rasmlar" testi) shular jumlasidandir.

4. **Pedagogik tajriba** (lot. "eksperiment" – "tajriba qilib koʻrish") metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini oʻrganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda oʻz in'ikosiga ega boʻla olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi **turlari** mavjud.

Pedagogik tajribalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor ularning samarali kechishiga qaratiladi. Bunda esa bir qator shartlarni inobatga olish lozim. Ya'ni:

Pedagogik tajriba samaradorligini ta'minlovchi:

- tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi; tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- tadqiqot obyektlari va usullarining toʻgʻri tanlanishi; tajriba oʻtkazilish vaqti va davomiyligining aniqlanishi;
- zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5. **Anketa (fr. "tekshirish") metodi** yordamida pedagogik

kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Metod tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma shaklda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo‘ladi:

1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega;

2) yopiq savollar (“ha”, “ yo‘q”, “ijobiy”, “salbiy” va h.k. tarzdagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar)ga ega anketalar. Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur.

Anketa samaradorligini ta’minlovchi shartlar:

3) savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

4) savollar yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

5) savollar o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

6) savollarga to‘la javob qaytarilishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi kerak;

7) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur;

8) javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart

1. **Pedagogik kuzatish** metodini qo‘llashda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq tahlil qilinadi. PK murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbya sifatini oshirish, shaxsda kreativlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishga qo‘yiladigan shartlar:

kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;

xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

2. **Pedagogik kvalimetriya** ta’lim sifatini nazorat qiish va samarali boshqarish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda turli darajadagi testlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish (keyslarni yechish) asosida shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil eta olish ko‘nikmalariga egaligi, ularning darajasi o‘rganiladi hamda baholanadi.

3. **Bola (talaba)lar ijodini o‘rganish metodi** talabalarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma’lum fan sohalari bo‘yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – ikki varaqli kundalik, insho, yozma ish, kichik esse, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik amaliyot hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metod ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bola (talaba)lar ijodini o’rganishda:

1) fan olimpiadalari;
2) tanlovlar;
3) maktab ko‘rgazmalari;
4) festivallar;
5) musobaqalar va h.k.larning natijalarini tahlil qilish, samaradorligini baholash orqali shaxsning muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlar va amaliy faoliyat ko‘nikmalariga egaliklari baholanadi

4. **Ekspert baholash** metodi zamonaviy sharoitda deyarli barcha sohalara olib boriladigan tajribalarda jarayonida qo‘llaniladigan va keng ommalashgan ilmiy-tadqiqot metodlardan biri sanaladi. Ko‘p holatlarda shaxsda kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari – malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Ammo ta’lim jarayonida hamkorlik ta’limi tamoyillariga muvofiq talabalarning o‘rtasida ham ularning o‘quv topshiriqlarini bajarishga nisbatan kreativ yondashuvlarining samaradorligini baholash maqsadida ekspert guruhi

shakllantirilishi ham mumkin. Bu guruh talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlar va ularning sifatini baholaydi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda ta'lim va tarbiya jarayonlarining ifatli, samarali tashkil etilishi ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Mazkur zaruriyatning qondirilishi pedagoglarning yuqori darajada kasbiy kompetentlik, mahorat va malakalarga ega bo'lishlarini taqozo etadi.

Pedagoglarning ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvlari talabalarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarning mutaxassis sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko'nikma, malakalarini faol o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi. "Kreativ pedagogika" fanining asoslari talabalar va pedagoglarda kreativlik sifatlari va ijoiy faoliyat ko'rsatish malakalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. "Kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. "Kreativ pedagogika"ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
3. "Kreativ peagogika"ning obyekti va predmetini nima tashkil etadi?
4. "Kreativ pedagogika"ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. "Kreativ pedagogika" qanday fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi?
6. Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy- tadqiqot metodlari qo'llaniladi?

2-MAVZU. KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

Mavzu rejasi:

1. Pedagoglarga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari.
2. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari..
3. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar.
4. Kreativ ko‘nikmalar va talabalarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish
5. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar

Tayanch tushunchalar: *sifat, kreativlik sifatlari, malaka, ijodiy faoliyatning malakalari, kreativ sifatlarni rivojlantirish yo‘llari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar*.

1. Pedagoglarga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo‘sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo‘ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansa-da, biroq bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

Kreativ pedagogik tafakkurga ega bo‘lish uchun talabalar pedagogika oid bilimlarni puxta o‘rganish asosida quyidagi ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtira olishlari zarur: kreativ

pedagogikaning asosiy g‘oyalari, konsepsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; kreativ pedagogikaning eng muhim nazariy g‘oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy kreativ pedagogik faktlarni bilish; ta’lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash[7].

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko‘ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi.

Ular quyidagilardir:



E.P.Torrensning shaxsa kreativ sifatlarini namoyon bo‘lishini aniqlovchi testlarning turlari

Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta’lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o‘qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo‘ladi (Sternberg & Williams, 1996). Kreativlik xarakteridagi o‘quv-bilish muhiti talaba-o‘quvchilarda ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishiga olib keladi (Boykin & Noguera, 2011, 2012; Marks, 2000, as cited in Jensen, 2013)[8].

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kreativ tafakkurga

[7] Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-bet

[8] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 6-7.

ega bo‘lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog‘liq. *“To‘laqonli kreativlik xarakteriga ega ta’lim muhitini yaratish puxta o‘ylangan rejaga tayanadi. O‘qituvchilar agarda o‘zlarining kreativ o‘qitish metod va strategiyalarini qo‘llash (ya’ni keng ko‘lamda o‘ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni talabalar ongiga singdirishlari va o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim (Higgins, Hall, Baumfield, & Moseley, 2005)”*[9]*. Qolaversa, “kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000)”*[10]

Ta’lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. M: xorijiy mamlakatlarda Begetto, Kaufman, Kirshner (2010), Sveller, Klark (2006) kabi tadqiqotchi-pedagoglar buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: “Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq fikrlash jarayoniga katta ahamiyat va e’tibor va talablar qanday rivojlanishlari mumkinligi haqida hech qanday ma’lumot bermaydilar.

O‘qituvchining palapartish yo‘riqlar berish yondashuvining samaradorligi talabalar o‘quv faoliyatini oshirishga yo‘naltirilgan metod va strategiyalardan sezilarni darajada past (Beghetto, Kaufman, 2010; Kirschner, Sweller, Clark, 2006). Vaholanki, talablarda fikrlash ko‘nikmasi bo‘yicha yo‘riqlarni aniq va tushunarli etkazib berish uchun o‘qituvchi (tanqidiy, kreativ) fikrlash usullari, ko‘nikmalarni samarali shakllantitrish yo‘llari bilan talabalarni tanishtirish, orqali talabalar o‘quv faoliyatini nazorat qilish va uni yo‘naltirishi lozim”[11].

Mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarning misollar yordamida yoritilganligi o‘qituvchi va talabalarning kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish to‘g‘risidagi fikrlarini oydinlashtirishga yordam beradi. “M: talabalar “Immigratsiya

[9] O‘sha asar. – 7-bet
[10] O‘sha asar. – 7-bet
[11] O‘sha asar. – 7-bet

hodisasining mohiyati”ni “Aqliy hujum” strategiyasi asosida o‘rganish jarayonida, eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim”[12].

Shaxs kreativligini rivojlantirish jarayonida “tabaqalashtirish”, “davrlashtirish” tushunchalarining muhim ahamiyat kasb etishi e’tiborni tortadi. Xo‘sh, bu ikki tushuncha qanday mazmunni ifodalaydi?

Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak:

Kreativlikning rivojlanish davri – ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi.

Kreativlikning rivojlanish bosqichi – muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi.

Shunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Kreativ tafakkurga ega talabalar: boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi; o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi; ba’zan mavzu aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi; yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi; g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi;

Muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:



[12] O‘sha asar. – 7-bet

MAVJUD TAJRIBA VA BILIMLAR ASOSIDA YANGI QARORLARNI QABUL QILISH MALAKASI

Shaxsga xos kreativlik sifatlarining turlari

Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur:

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari: bilishga oid (gnostik) malakalar;

- loyihalash malakalari;
- ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- tadqiqotchilik malakalari;
- muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- tashkilotchilik malakalari;
- izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar;
- texnik-texnologik malakalar

Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi: Kreativ bilishga oid (gnostik) malakalar:

- talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;
- zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va kreativ holatda tahlil qilish;
- ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning kreativ shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;
- talabalar tomonidan o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o‘zlashtirganlik natijalarini, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik, kreativlik darajasini aniqlay bilish;
- talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo‘yicha turli ko‘rinishdagi ishlarni olib borish;
- darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, to‘garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni kreativ yondoshgan holda olib borish;
- talaba, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;

- talabada sog‘lom turmush kechirishga bo‘lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko‘nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish malakalarini shakllantirish;

- ta’lim jarayonida turli ko‘rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;

- didaktik material va ko‘rsatmali qurollarni ishlab chiqish;

- ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o‘ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o‘rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan kreativ xabardor qilish;

- o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish.

Loyihalash malakalari:

- dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning kreativ loyihalarini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;

- ta’limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;

- maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;

- o‘quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish;

- o‘quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;

- o‘quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma’lumotlar o‘rtasidagi o‘zaro izchillikni ta’minlash;

- talabalarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash;

- dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;

- yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy(kreativ) yondashuvlarni qo‘llash;

- muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;

- talabalarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash;

- talabalar jamoasi hamda alohida talabaning

tarbiyalanganlik va rivojlang darajasini tashxislash jarayonini asoslash.

Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar quyidagilar:

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit oʻquv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;
- oʻquv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;
- oʻziga xos, orginal oʻquv materialini tayyorlash;
- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
- oʻquv mashgʻuloti (dars) va tarbiya tadbir uchun koʻrsatmali qurollar toʻplamini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
- oʻquv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun talabalarning faol ishtirokida videoroliklar yaratish;
- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.

Tadqiqotchilik malakalari:

- ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;
- manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis, konspekt, referat, kartoteka bilan ishlash, adabiyotlar roʻyxatini tuzish);
- nashr manbalari va axborot texnologiyalari (Internet) materiallari bilan tanishish;
- anketa soʻrovini tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash;
- mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini oʻrganish;
- pedagogik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;
- uch (yoki toʻrt) bosqichli pedagogik tajribani ilmiy-metodik tashkil etish;

- ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;
- ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;
- pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;
- tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;
- statistik tahlil natijalariga koʻra xulosa chiqarish va ilmiy-tavsiyalarni ilgari surish;
- pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qoʻyish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish)

Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari:

- talabalar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;
- pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat oʻrnatish;
- talabalarga ma'lumotlarni yetkazishning samarali yoʻl va vositalarini topish;
- topshiriqlar yuzasidan talabaning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;
- pedagogik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;
- jamoa va turli bosqichdagi talabalar oʻrtasida oʻzaro munosabatlarni mustahkamlash;
- jamoada sogʻlom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;
- talabalarning faoliyatlarini ragʻbatlantirish;
- talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;
- talabalar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish.

Tashkilotchilik malakalari:

- talabalarning oʻquv-bilish faoliyatini boshqarish;
- talabalarda ilmiy bilimlarni oʻzlashtirish koʻnikma, malakalarini shakllantirish;
- dars jarayonida vaqtni toʻgʻri taqsimlash va rejani samarali bajarish;
- talabalar bilan individual ishlarni tashkil etish;
- guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;

- talabalarda ta’lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya etish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- talabalarga o‘quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
- o‘quvchilarning diqqatini boshqarish;
- talabalar o‘rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;
- darslarda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish;
- talabalarning o‘quv faolliklarini oshirish, ularning mustaqilligini ta’minlash;
- kichik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini ta’minlash;
- talabalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar ro‘yxatini ishlab chiqish.

Izchillikni ta’minlovchi (protsesssual) malakalar:

- o‘quv materiali mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni ta’minlash;
- og‘zaki va yozma nutqni bayon qilishda o‘zaro izchillikni qaror toptirish;
- talabalarning mavjud bilimlari bilan yangi o‘zlashtiriladigan bilimlar o‘rtasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
- talabalarning mavjud hayotiy qarashlarini yangi g‘oyalar bilan boyitish;
- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlaarda talabalarni faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;
- talabalar BKM darajasining DTS talablariga muvofiq kelishida ma’lum izchillikka erishish;
- guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini o‘rganish metodlaridan foydalanishda pedagogik faoliyat izchilligini ta’minlash;
- talabalarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish.

Texnik-texnologik malakalar:

- ta’lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
- dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
- o‘quv materiali mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;

- o‘quv mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- o‘quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- talabalarda o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo‘llash;
- kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- talabalarning BKMni baholashni kompyuter asosida tashkil etish;
- talabalarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompyuter yordamiga tayanish va b.

2. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Aytib o‘tilganidek, barcha shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglara ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Shunga ko‘ra tadqiqotlarda shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari yoritiladi. *Patti Drepeau*[13] *tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:*



Kreativ sifatlarni rivojlantirish yo‘llari

Quyida mazkur yo‘llarning mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

1-yo‘l: Kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bunda

[13] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – r. 9.

asosiy urg‘u

kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e’tibor markazida bo‘lib, talabalar fe’llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe’llarning bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta’riflab bering” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting” deyish bilan teng.

2-yo‘l: Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so‘z

(fe’l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra pedagoglar turli, antiqa, noan’anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so‘z (fe’l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

M: “bog‘liqlikni toping”, “yarating”, “bashorat qiling”, “fikrni mantiqan bayon eting”, “tasavvur qiling” kabi so‘z (fe’l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog talabalardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab berish”ni talab qilish o‘rniga, “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikning barcha turlarini keltirish”ni so‘rashi lozim. Natijada talabalar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ladi.dz

Pedagoglar birinchi yo‘lni qo‘llash – talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda yosh o‘qituvchilarning “Kreativlik xaritasi”dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

3-yo‘l: Amaliy kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar

talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq talabalarda interfaollik va kirishimlilikni

rivojlantirmaydi.

Patti Drepeau o‘z asarida bir qator talabalarda interfaollik va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lgan yo‘l va metodlarni keltirib o‘tadi. Xususan:

- Veb-saytlar bilan ishlash;
- vizuallashtirish;
- barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish;
- muhim g‘oyalarni turli vaziyatlarda va o‘rinli qo‘llash (g‘oyani boshqa sharoitga ko‘chirish – transformatsiya);
- ramziylashtirish kabi yo‘llar;
- “Aqliy hujum”;
- “Keys-stadi” kabi metodlar[15]

4-yo‘l: Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo‘l talabalarni

muammoni yechish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. M: “Yurak va qon aylanishi tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish” (Isaksen & Treffinger, 1985). Topshiriqni bajarar ekan, talabalar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

5-yo‘l: Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo‘lni tutishda

pedagog talabalarga “Odamning qon aylanish tizimi” mavzusida Power Point dasturi yoki mulьtimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi.

Talabalar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash

koʻnikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash koʻnikmalarini baholashda qoʻllaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi[14].

Nima deb oʻylaysiz: oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yoʻllardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu oʻrinda **Patti Drapeau** quyidagi maslahatni beradi: "Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan koʻp yoʻnalishlarni bosib oʻtamiz"[15]. Bu fikr quyida bildiriladigan koʻrsatmalarga ham taalluqlidir. Oʻqituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yoʻllardan foydalanishi mumkin. Oʻqituvchi kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantiruvchi yoʻllarni (1-yoʻl) qoʻllashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (3-yoʻl) ustida ish olib borayotgan talabalarni kreativ fikrlash strategiyalari (2-yoʻl)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4-yoʻl) ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Kreativ fikrlash jarayonining mohiyatini yorituvchi xarita oʻqituvchilarga dars jarayonida namoyon boʻladigan kreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi"[16]. Koʻp holatlarda oʻqituvchilar hamda talabalarning oʻzlari ham shunday savolga duch kelishadi: kreativ fikrlash jarayonining odat sifatida namoyon boʻlishiga erishish mumkinmi? Bu oʻrinda Patti Drapeau shunday fikrlarni ilgari suradi: "Miya tadqiqotlari kreativ fikrlash koʻnikmasini rivojlantirish usullari va uni qanday qilib odatga aylantirish mumkinligini tushunish imkonini beradi. Kreativlik miyaning old (gʻoyalar yuzaga keladigan) va chekka (tahlil qilish) sohalarining oʻzaro muvofiqlikda ishlashi va dopamin (kishining oʻzini yaxshi his etishiga yordam beruvchi) moddasining ishlab chiqarilishi natijasida roʻy beradi. Ta'lim olish miyada kichik burmalarining paydo boʻlishiga olib keladi hamda miyaning faol ishlashi natijasida bu jarayon kuchayadi. Inson miyasi obraz, bashorat, his-tuygʻu, emotsiya va ma'noga boy ma'lumotlar olishni ma'qul

[14] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – r. 8-10.

[15] Oʻsha asar. – 10-bet..

[16] Oʻsha asar. – 12-bet

koʻradi. “Agarda ma’lumot hech qanday hissiyot va fikriy jarayonlardan holi boʻlsa, u miyada saqlanmaydi” (Willis, 2006, p. 44). Biroq, kreativ fikrlash miyada uning “ta’lim olish va oʻrganish metodlariga zid boʻlgan” yangi usullarni qoʻllash va noan’anaviy, orginal gʻoyalarning ishlab chiqilishini taqozo etadi (DiSalvo, 2011, 1-bob). Kreativ fikrlash koʻnikmasini mashq qildirish natijasida talabalar faqatgina oʻrnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma’noga boy aloqalarni oʻrnatish, yangi gʻoyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil boʻladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega boʻladi. Inson miyasi doimo toʻgʻri ishlashga odatlangan, ya’ni miya uchun faqat birgina toʻgʻri javob mavjud boʻladi. Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik – talabalarning oʻz qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar toʻgʻri boʻlishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun talabalar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim. Talabalar kreativlik ragʻbatlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda oʻqituvchi va talabalar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda boʻlishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni oʻrganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qoʻrqish, haddan tashqari baxolarga e’tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qoʻrqish xissi mavjud talabalarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, talabalarning oʻqishdagi muvafaqqiyat va oʻz- oʻziga boʻlgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qoʻllash orqali va sogʻlom muhitdagina erishish mumkin”[17].

Xorijlik pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, oʻqituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.“Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ boʻlish uchun kishi koʻproq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda boʻlishi lozim. Har qanday koʻnikmani shakllantirish mumkin boʻlganiday,

[17] Oʻsha asar. – 12-13-betlar.

kreativ fikrlash qobiliyati yoki koʻnikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli boʻlib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, talabalarni ruhlantirish va kreativ boʻlishga undash oʻqituvchining qay darajada malakali ekanligiga bogʻliq. Kreativlik boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik koʻnikmasini shakllantirishda qoʻllanma sifatida xizmat qiladi (2.1-jadval). Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, oʻqituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini oʻz ichiga oladi"[18].

2.1-jadval. Talabalarda kreativlikni shakllantirish[19]

Talabalarda kreativlikni shakllantirish	
Talabalarni ...	*- qiziqarli;* *- murakkab vazifalar;* *- aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash*
Talabalarga ...	*- kreativlik muvozanatsizlik hissini yuzaga keltirishini anglatish;* *- bezovtalik va qoʻrquv hissidan xalos boʻlishga yordam berish;* *- kreativ fikrlash koʻnikmalarini boshqa koʻnikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish;* *- "qutqarib" qolish emas, balki yoʻl-* *- yoʻriq koʻrsatish*
Talabalarni ...	*- suhbatlar orqali ragʻbatlantirish;* *- konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash;* *- yangi koʻrsatmalar bilan tanishtirib borish*
Talabalar ...	*- oʻzlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari;* *- guruhda ishlay olishlari;* *- hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega boʻlishlari uchun poydevor boʻladigan muhitni yaratish*

[18] Oʻsha asar. – 14-bet.
[19] Oʻsha asar. – 15-bet

Talabalarda kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishda oʻqituvchi alohida oʻrin tutadi. Bu jarayonda “oʻqituvchining roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Pannels va Klakstonlar (2008) qayd etganlaridek, muhit (auitoriya haqida gap ketganida maqsad va vazifalar) kreativlikni shakllantirishga ta’sir etadi, boshqa tadqiqotchi Pirtoning (2004) fikricha esa, kreativlik tavakkal qilishni talab etadi. Vaholanki, oʻqituvchi sinfda talabalar oʻzini erkin seza oladigan va oʻz fikrlari, gʻoyalari bilan boʻlisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talabalar kreativlik sinf xonasida oʻz gʻoya va fikrlarini turli yoʻllar bilan ifoda etishlari mumkin va ular buni qadrlamoqlari lozim. Talabalar miyada yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun oʻrnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Oʻqituvchi talabalardagi kreativlikni noodatiy gʻoyalarni oʻrtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda ragʻbatlantirish orqali qoʻllab-quvvatlaydi. Oʻqituvchining talabalar berayotgan kreativ gʻoyalariga nisbatan toʻgʻri munosabati ularning mumkin boʻlgan va mumkin boʻlmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi oʻqituvchi-talaba munosabatining muhim qismi boʻlib, talabalar muvaffaqiyatini ta’minlaydi *(Hattie, 2011)”*[20]*.*

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga toʻsqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda oʻqituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga toʻsqinlik qiladi:

1) oʻzini tavakkaldan olib qochish;
2) fikrlash va xatti-harakatlarda qoʻpollikka yoʻl qoʻyish;
3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
4) boshqalarga tobe boʻlish;
5) har qanday holatda ham faqat yutuqni oʻylash

“Kreativ muhitda oʻqituvchi talabalar diqqat-e’tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uygʻotuvchi ma’lumot talabalarni oʻziga jalb etib, ularda oʻqishga boʻlgan intilishni kuchaytiradi (Koutstaal, 1997;

[20] Oʻsha asar. – 15-bet.

Willis, 2006). Olib borilgan miya taqiqotlari shuni koʻrsatdiki, yangilik hamisha miyani faollashtiradi.

Oʻqituvchi talabalarni yangi maʼlumot va manbalar bilan taʼminlaganda yoki yangi strategiyalarni qoʻllaganda, miya "uygʻonadi" va eʼtibor qaratadi. Masalan,biror bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga oʻxshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar oʻrnini almashtirish, oʻyinlar oʻynash (bu oʻrta maktab oʻquvchilari va oliy taʼlim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini oʻzgartirish. Kreativ muhitda oʻqituvchi talabalarga tez-tez tanlash imkonini beradi. Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir (Sprenger, 2010) va u talabalarni ruhlantirib, ularga oʻqishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi. Tanlov huquqi nafaqat oʻqituvchi-talaba munosabatini yaxshilash, balki har ikki tarafning ham individualligini ifodalashga zamin yaratadi (Deci, 1995). Tanlov huquqi faqat bir tomonlama boʻlishi ham mumkin, yaʼni tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan koʻp shaklda taqdim etilishi mumkin"[21]

Oliy taʼlim muassasalarida ham oʻqituvchilar talabalarda kreativ fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa boʻlib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

"Oʻqituvchi kreativlik darslarida jamoa tuygʻusining ahamiyatini anglagan holda, doimiy ravishda guruhlarni oʻzgartirib, talabalarda jamoa boʻlib ishlash, boshqalar qobiliyati va mahoratini hurmat qilish koʻnikmasi shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash maʼlum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik darslarida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik koʻnikmasi ijtimoiy fenomendir (Farrell, 2001; John-Steiner, 2000; Sawer, 2003, 2006); Soyerning fikriga koʻra, kreativ qarashlar jamoa boʻlib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi (Sawer, 2006a, p. 42).

[21] Oʻsha asar

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish mezonlari:

▪*talabalarni* ***ma’lum sohadagi qobiliyatlariga*** *ko‘ra kichik guruhlarga bo‘lish; talabalarni bunday qobiliyatiga ko‘ra bo‘lish aslo kreativ fikrlash ko‘nikmasiga bog‘liq bo‘lmasligi lozim. Bunday guruhlarda talabalar erkin harakat qila olishlari va vaqti kelsa boshqa guruhga o‘tishga tayyor bo‘lishlari lozim;*

▪***hamkorlik guruhlari*** *talabalarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi; bunday guruhlar turli bilim va qobiliyat darajasiga ega talabalardan iborat bo‘lishi ham mumkin. Ko‘p hollarda bunday guruhdagi talabalar ma’lum bir rol, ya’ni mas’uliyatni o‘z yelkalariga oladilar. Mazkur guruhni shakllantirishda asosiy e’tibor talabaning kognitiv xohish-istaklariga emas, balki uning ilmiy va ijtimoiy bilimiga beriladi;*

▪***moslashuvchan guruhlar*** talabalarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va xohish-istaklari asosida tashki etiladi. Guruhning qiziqishlari o‘zgarsa, shunga ko‘ra uning a’zolari ham o‘zgaradi. Bunday guruh talabalarda moslashuvchanlik ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘qituvchi talabalar muvafaqqiyatga erishishlari uchun ularni qiziqarli, murakkab vazifalar va aniq maqsad va vaqt bilan ta’minlaydi. Ma’lum vazifani bajarish jarayonida talabalar ishga “berilib” ketishlari sababli ular vaqt tushunchasini unutib qo‘yadilar. Vaholanki, talabalar maktab sharoitida kamdan-kam bunday holatga tushsalar-da, o‘qituvchilar bunday muhitni yaratishga intilishlari lozim”[22].

3. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar. Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi.

O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

[22] O‘sha asar. – 16-17-betlar

Darslarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi: 1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish; 2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish; 4) kutiladigan natija.[23]

Pedagogning kreativlik potensiali ko‘p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:

5. Kreativ ko‘nikmalar va talabalarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining mohiyati.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta kreativlik ko‘nikmasini aniqlagan (1987). Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin (7-bob):

***1. Ravonlik**. Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.*

***2. Moslashuvchanlik**. Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.*

***3. O‘ziga xoslik**. Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.*

***4. Yaratuvchanlik.** G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi.*

Kreativlik darslarida talabalardan ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Ravonlik

Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi talabalarda bir emas, balki bir nechta g‘oyalarni o‘rtaga tashlash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Son asosiy maqsaddir; bir qator g‘oyalar ichidan bir yoki undan ko‘p maqbulini topishimiz mumkin. Ko‘p

[23] O‘sha asar. – 22-25-betlar.

[27] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –188

hollarda o‘qituvchilar talabalarda ravonlik ko‘nikmasini shakllantirish uchun “aqliy hujum” strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq og‘zaki yoki yozma (g‘oyalarni qog‘ozga yozib, keyingi talabaga qo‘shimcha g‘oyalar kiritish uchun uzatishi lozim) tarzda bajarilishi mumkin. “To‘xta va boshla” mazmundagi “Aqliy hujum” mashqida talabalar g‘oyalarni o‘rtaga tashlab, ularni tahlil qiladilar va baholaydilar, so‘ng bu yana bir bor qaytariladi. Talabalar bu mashqda yaxshi natijalarga erishsalar, ulardagi kreativlik ko‘nikmasi erkin va ravon fikrlash ko‘nikmasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Agarda aksi bo‘lsa, doimiy mashq va tajriba yordamida yaxshi natijalarga erishi mumkin. O‘qituvchi mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchragan talabalarni kuzatishi tabiiy. Faqatgina yuzaki ma’lumotga ega bo‘lgan talabalar cheklangan bilimga ega bo‘lganliklari sababli turli va qiziqarli g‘oyalarni o‘ylab topishda qiynaladilar. Ba’zi hollarda esa, yetarlicha ma’lumot va bilimga ega talabalar ham mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchrashlari mumkin. Bunday vaziyatda o‘qituvchi quyidagi strategiyalardan foydalangan holda talabalarga yordam berishi mumkin:

▪*Sinfda talabalarga ruh bag‘ishlovchi muhitni yaratish. O‘qituvchi talabalarga sinfdagi barcha buyumlar, jihoz, deraza va devorga osilgan rasm, jadval, sxemalarga e’tibor qaratishni va ularga sinchiklab qarashni so‘raydi. Sinfdagi barcha narsalar talabalarda qanday g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ularga bu jihoz va buyumlar nimalarni eslatdi yoki qanday ma’lumot bilan bog‘liqligi bor? Masalan, agarda talabalar sunami haqida “aqliy hujum” mashqini bajarayotgan bo‘lsalar, tashqarida nur sochib turgan quyosh ularga sunami quyoshli kunda ro‘y berishini eslatishi mumkin. Yangi g‘oyalarni o‘ylab topishda talabalar qiziqishlaridan foydalanish. “Aqliy hujum” mashqi ma’lum bir adabiy asar haqida bo‘lsa, asar qahramonlari xarakteri va ularning xatti-haraktlarini ular yoqtirgan asar qahramonlari, televizion ko‘rsatuv ijodkorlari yoki mashhur sportchilarning fe’l-atvori va xatti-harakatlari bilan solishtirishlari mumkin.*

Talabalar kreativlikda ravonlik va erkinlikka erishmasalar, mashq va darslar jarayonida ularning miyasiga birinchi kelgan g‘oyagagina tayanib qoladilar, vaholanki bunday g‘oya

boshqalarning g‘oyasida ajralib turmaydi va talabaning keng fikrlashidan dalolat bermaydi. Qolaversa, muammoning yechimini topishda qancha ko‘p g‘oya topilsa, to‘g‘ri javob yoki variantni tanlash imkoniyati shuncha katta bo‘ladi. Masalan, tarix darsi jarayonida yevropalik bosqinchilar Amerika mintaqasiga ilk bor qadam qo‘yganda, ular topgan birinchi narsa “kompyuter” degan javob ham noto‘g‘ri bo‘lar edi; javoblar berilayotgan savollar doirasida bo‘lishi lozim. Savol qancha ko‘p detallarni o‘z ichiga olsa, talabalar ham muvofiq ravishda javob topishga harakat qiladilar.

Moslashuvchanlik

O‘quvchilar keng fikr yurita olsalar, vaziyat va muammoga ham bir qancha va turli yechim topadilar. Talabalarda moslashuvchanlikni ular turli nuqtai nazar va fikrlarni inobatga olganlari va ularni tahlil qilganlarida, turli fikrlarni bir-biri bilan solishtirganda va ularning o‘xshash va farqli tomonlarini topganlarida va nihoyat muvafaqqiyatga erishib, yaxshi natijalar ko‘rsatayotganlarida kuzatish mumkin.

Moslashuvchan bo‘lish uchun talabalar ma’lumotning faqat yuzaki qismini emas, balki uning chuqur mohiyatini anglab yetishlari lozim. Moslashuvchanlik ko‘nikmasini shakllantirishda talabalar amaliyot bilan ta’minlansa va ularga yo‘l- yo‘riq ko‘rsatilsa, kelgusida turli g‘oyalarni topishda bu kuchli stimul bo‘lib xizmat qiladi.

Agarda talaba ko‘plab g‘oyalar topgan bo‘lsa, u moslashuvchanlikni emas, balki ravon fikrlashni namoyon qilmoqda, chunki bunda barcha e’tibor bitta yoki bir turdagi javoblarga qaratiladi. Talabalarda moslashuvchalik ko‘nikmasini shakllantirishda soni jihatdan ko‘p emas, balki turli mazmundagi g‘oyalarni topish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Muammoning mazmunini chuqur anglagan holda ham, talabalar turli g‘oyalarni topishda qiynaladilar yoki umuman bunga qodir bo‘lmaydilar. Bu esa, o‘z o‘rnida, ularda moslashuvchanlik ko‘nikmasini shakllantirish kerakligidan dalolat beradi.

Tajriba va doimiy mashq yordam bersa-da, o‘qituvchi talabalarga murabbiy sifatida turli strategiyalardan foydalanishni

oʻrgatishi kerak. Talabalarga turli gʻoyalar turli toifa (kategoriyalar)ga boʻlinishini anglashida yordam berish mumkin. Masalan, “hayvonlar” kategoriyasiga talabalar hayvonlar nomlarini keltiradilar. Birozdan soʻng, “taomlar” kategoriyasiga talabalar avval milliy keyin boshqa xalqlar taomlari roʻyxatini tuzadilar. Mashq shu yoʻsinda davom etadi. Bu talabalar bir kategoriya, ya’ni bir fikrdan ikkinchisiga oʻtish va unga tezda moslashish koʻnikmasini oʻzlashtirmaguncha davom etadi. Talabalarda bunday koʻnikma shakllangach, ulardan moslashuvchanlik bilan fikrlashni talab qilish mumkin. Masalan, “Agarda Zolushka yetim va kambagʻal boʻlmaganida, voqealar rivoji qanday tus olgan boʻlardi?” va “Janubiy shtatlar fuqarolik urushi davrida qanday strategiyani qoʻllanganda, urushda gʻolib boʻlardi?”. Turli kategoriyalarga mansub savollar talabalarda moslashuvchanlik koʻnikmasini rivojlantiradi.

Talabalarni birgina kategoriyada “qotib” qolishini oldini olish uchun majburiy solishtirish strategiyasini qoʻllash mumkin. Masalan, oʻqituvchi “intilganga tole yor” shiori Zolushka voqeasi yoki matematik tenglama, “perpettium mobile”, ya’ni abadiy gʻildirakka nisbatan qanday qoʻllanilishi mumkinligi haqida soʻrashi mumkin.

Mazkur strategiya moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar oʻrtasida bogʻliqliklarni topishga yordam beradi. Koʻp yillar avval Aleks Osborn moslashuvchanlik bilan fikrlashni kuchaytiruvchi savollar toifasini tuzib chiqqan (1963). Eberlening 1971-yilda ishlab chiqqan SCAMPER mnemonik sxemasi substitute (almashtirmoq/oʻzgartirmoq), combine (birlashtirmoq),adapt (moslashtirmoq), modify (oʻzgartirmoq/boshqa shakl bermoq), maximize/minimize (maksimallashtirmoq/minimallashtirmoq), put to other uses (boshqa soha/usulda qoʻllash), eliminate (oldini olmoq) va rearrange (qoʻllanilishini oʻzgartirish) kabi tushunchalar asosida ishlab chiqilgan. 2.2-jadval 4-sinf oʻqituvchisi ***SCAMPER*** mnemonik sxemasidan talabalarda moslashuvchan fikrlashni rivojlantirishda istiqomat qilayotgan shahri, tuman, mahallasining ramzi yoki iqtisodiyot, sanoat, oziq-ovqat sohasiga tegishli ma’lumotlarni va aynan Mayn shahrining ramzi boʻlgan mashhur

olmali pirogidan o‘quvchilar e’tiborini tortishda foydalanganini ko‘rsatadi. O‘quvchilar mnemonik sxemadan foydalangan holda agarda mashhur olmali pirogni pishirishda shokoladdan foydalanilsa va pishirish jarayonida pirogning tarkibi yoki shakli o‘zgartirilsa, qanday natijaga olib kelishi va qanday qilib bu shokoladli pirogni Mayn shahrining mashhur pirogiga aylantirish mumkinligini tahlil qiladilar”[24].

2.2-jadval. SCAMPER strategiyasini qo‘llash asosida kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish[25]

SCAMPER mnemonik sxemasidan moslashuvchan fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda foydalanish		
SCAMPER	***Savollar***	***Vazifalar***
Substitute(almashtirmoq/o‘zgartirmoq)	*Agarshokoladning o‘rniga vanilladan foydalanilsa, qanday pirog hosil bo‘ladi?*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, rasmini chizing*
Combine (birlashtirmoq)	*Agar shokoladli pirog qaymoqli krem bilan bezatilsa, qanday ta’mga ega bo‘ladi?*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, rasmini chizing.*
Adapt (moslashtirmoq)	*Yumaloq pirog shaklini qanday o‘zgartirish mumkin?*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni*
Maximize/minimize (maksimallashtirmoq/ minimallashtirmoq)	*Pirogning eng kichik/katta bo‘lagi qanday shaklga ega?*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing va undanbirini tanlab olib, uni ta’riflang.*
Put to other uses (boshqa soha/usulda qo‘llash)	*Shokoladli pirog bilan yana nimalar qilish mumkin?*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing.*
Eliminate (oldini olmoq)	*Shokoladli pirogga shakar solish esdan*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing.*

[24] O‘sha asar. – 18-21-betlar.
[25] O‘sha asar. – 21-bet.

	chiqqanda nima bo‘lar edi?	
Rearrange (qo‘llanilishini o‘zgartirish)	*Shokoladli pirogni insonlar taom o‘rnida iste’mol qilsalar qanday natijaga olib kelar edi?*	*Variantlar ro‘yxatini tuzing*

O‘ziga xoslik

O‘ziga xoslik noodatiy g‘oyalar o‘ylab topish ko‘nikmasidir. O‘quvchilar o‘zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko‘nikmalarini shakllantirib, so‘ng noodatiy, original g‘oyalarni kashf etish ko‘nikmasini hosil qilishlari lozim. Ravon fikrlash ko‘nikmasi o‘quvchilarda originallikni rivojlantirishda boshlang‘ich va asos soluvchi qadam bo‘lib xizmat qiladi; agarda talaba ko‘p g‘oyalarni o‘rtaga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi, albatta, boshqa talabaning g‘oyasi ham bo‘ladi (Simonton, 1999). Moslashuvchan fikrlash o‘quvchilarga ularning har bir g‘oyalari bir-biridan farqlanishini ko‘rish va anglash imkonini beradi; ularning orasida hammasidan ajralib turuvchi g‘oya bo‘lsa, demak ana shunisi original (o‘ziga xos) g‘oya hisoblanadi.

Talabalar original g‘oya kontekstdan kelib chiqishi lozimligini anglashlari lozim. G‘oya bir dars jarayonida, birgina sharoitlar va bir vaqt oralig‘ida taqdim etilishi lozim. Talabalarda ravon fikrlash va moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida o‘ziga xos tarzda (original) fikrlash to‘g‘risida ham ma’lumot berib o‘tish lozim. Masalan, talabalarni “aqliy hujum” strategiyasi yordamida ocharchilikka qarshi kurashish mavzusida muammoning yechimi ro‘yxatini tuzish (ravonlik), so‘ng berilgan g‘oyalarni bir necha kategoriyalarga bo‘lib chiqish (moslashuvchanlik) va ulardan qay biri o‘ziga xos (originallik) g‘oya ekanligini aniqlash talabalarda shakllangan ko‘nikmalarning bir paytning o‘zida qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi. (Mazkur yondashuv iqtidorli insonlarning keng fikrlash modeli asosida yaratilgan; Schlichter, 1986). Moslashuvchan fikrlash ko‘nikmasini shallantirishda talabalar qiziqishlari va madaniy qarashlaridan foydalanish ularda originallikni tarbiyalashda katta samara beradi. Mayn shahrida istiqomat qiluvchi o‘rta ta’lim mavtabi o‘qituvchisi mazkur

strategiyani o‘quvchilarda o‘ziga xos (original) tarzda fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llagan. U ravonlik va moslashuvchanlik bo‘yicha mashq va o‘yinlarni o‘z ichiga olgan elektron dastur ishlab chiqqan. O‘quvchilar berilgan vazifalarni PowerPoint prezentatsiyasi, portfolio yoki boshqa shaklda bajarish tanloviga ega edilar. Talabalar natijalarni qo‘shiq PowerPoint prezentatsiyasi shaklida taqdim etdilar. Bunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan, keyinchalik o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida mashhur bo‘lib, u vazifa mazmunini chuqur anglash va natijalarni original tarzda ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Yaratuvchanlik

“Yaratuvchanlik” tushunchasi boshqa bir g‘oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya’ni berilgan vazifalar anu shu g‘oya asosida bajariladi. Bir g‘oyani kengaytirish uchun talabalar mavzu, muammo yoki vazifa mazmunin chuqur anglab etishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Talabalarga “yaratuvchanlik” tushunchasi haqida gapirganda, ularga hayotiy misollar keltirish maqsadga muvofiqdir (masalan, kompyuterlar, rekonstruksiya, kino va adabiy asarlar, ilmiy tushunchalar va nazariyalar, insonlar hayotida yuzaga keladigan muammolarni yechish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar). Talabalarda ishlab chiqish ko‘nikmasini shakllantirishda adabiy yoki asarlarni bir-biri bilan taqqoslash (ba’zan ko‘p betli asarlar kichkina kam betli asarlar kabi ko‘p ma’lumot bermaydi) mashqi katta samara beradi”[26]*.*

*5.***Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar.** Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni

[26] O‘sha asar. – 22-25-betlar. kutiladigan natija.

ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. Darslarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
2) talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;

Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari. Pedagogning **kreativlik potensiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi.

U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z- o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potensiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik; noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish; hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari

pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va oʻzaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog oʻz-oʻzidan ijodkor boʻlib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil oʻqib-oʻrganish, oʻz ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda boʻlgani kabi boʻlajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega boʻlishlari uchun talabalik yillarida poydevor qoʻyiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning oʻzini oʻzi ijodiy faoliyatga yoʻnaltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog oʻz oldiga muammoli masalalarni qoʻyish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid boʻlgan dalillar bilan toʻqnash keladi. Buning natijasida oʻz ustida ishlash, mustaqil oʻqib oʻrganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Oʻqituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta’minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi.

“Kreativlik darslarida talabalar birgina “toʻgʻri” javobni izlash oʻrniga oʻzlarini erkin va xotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha koʻp gʻoya va fikrlarni oʻrtaga tashlasalar, shuncha koʻp gʻoyalar kreativ boʻladi (Simonton, 1999). Oʻquvchilar “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qoʻyib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq boʻlsa-da, turli gʻoyalarni oʻylab topishga boʻlgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday, “Qoʻrquv hissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; xavotir kreativlikning xizmatkoridir” (Goleman, Kaufman,

& Ray, 1992). Talabalarni yo‘naltirish talabalarda o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o‘z o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishaga o‘z ta’siri o‘tkazadi (Amabile, 1998). O‘qituvchilar talabalarga manbalar bilan ta’minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs talabalari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni yechish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)”[27].

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya, taqqoslash va b.) larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning kreativ potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi:

1. **Maqsadli-motivli yondashuv** (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi).
2. **Tezkor-faoliyatli yondashuv** (o‘zida ma’lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus,

[27] O‘sha asar. – 17-18-betlar.

texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi.

3. **Mazmunli yondashuv (**o‘zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi).

4. **Refleksiv-baholash** (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z- o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi

5. **Pedagoglarning kreativlik fikrlashi:**

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – krativ potensiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kreativlik potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi:



Pedagogning kreativ potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar

Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potensialini uch darajada aniqlash imkonini beradi:

Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari

№	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1.	Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan
2.	O‘rta	Ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi
3.	Past	Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surishga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi

Shunday qilib, malaka oshirish kurslarida “Kreativ pedagogika” moduli (fani)ni o‘qitish pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Pedagoglarda kreativlik sifatlari, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalik tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo‘llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida ish ko‘rish aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko‘rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora- tadbirlarini belgilash mumkin bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo‘lishi zarur?
3. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo‘llari

mavjud?

4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?

5. Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?

6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?

7. Pedagoglar kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslari nimalardan iborat?

8. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?

9. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo‘ladi?

3-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISH MAZMUNI *(ma’ruza)*

Mavzu rejasi:

1.“Kreativ pedagogika” fani mazmuni.

2.Zamonaviy ta’lim mazmunini belgilovchi muhim omillar.

3.Kreativ pedagogika fanini tamoyil va mezonlari.

Tayanch tushunchalar: kreativlik sifatlari, kreativlik sifatlariga egalikni aniqlash, shakl, metod, vosita, kreativlik sifatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari.

1. **Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlovchi shakl, metod va vositalar.** Xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘plab metod va strategiyalar qo‘llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o‘quvchilarni o‘quv materiallari yuzasidan chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatlari nihoyatda past rivojlangan o‘quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo‘llab bo‘lmaydi.

Kzikszentmixayli **(**Csikszentmihalyi, 1996**)** kreativ shaxslar

ikki toifaga bo‘linadi, degan fikrni ilgari suradi:

1. Katta kreativlar (“katta K”). Ular o‘zlari faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilari bo‘lib, sohada doimo o‘zgarishlarni sodir etishga intiladi.

2. Kichik kreativlar (“kichik K”). Ular o‘zlarining kreativlik sifatlaridan faqatgina kundalik hayotda muayyan foydaga erishish uchun foydalanadi.

Aksariyat talabalar o‘zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning nazarlarida kreativlik go‘yoki ular yetisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli

shaxslardagina namoyon bo‘ladi. Bunday fikrga ega talabalar kreativlik sifatlariga egalik o‘z sohasining yetakchilari (ya’ni “katta K” toifasiga kiruvchi shaxslar), san’at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan talabalarda bo‘lishiga ishonadilar. Talabalar qachonki kreativ shaxs bo‘lish uchun o‘z sohasining yetakchisigina bo‘lish shart emasligini tushunsalar, o‘zlarida kreativlik sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Shundagina ular o‘zlarini past baholashga barham berib, yangi, ilg‘or g‘oyalar bilan o‘zlarini namoyon etishlari, ta’lim jarayonida kun sayin faollik ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladilar, ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yanada yaxshilanadi. O‘zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko‘rsatkichlardan ko‘ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, talabalar qancha ko‘p kreativlik sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko‘p faollikka erishadilar.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bugungi kunda iqtidorli bolalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta’lim tizimida iqtidorli bolalarni aniqlash va ularga ta’lim berishga oid ko‘plab metodikalar mavjud. Quyida ularning ayrimlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladi:

Slosson testi[28]. Katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o‘lchashga xizmat qiladi. Berilayotgan barcha testlarga

[28] Одаренные дети (Пер. с анг.). – М.: Прогресс, 1991. -С. 177-178.

javoblar ogʻzaki tarzda olinadi. Kichik yoshli bolalarga berilayotgan topshiriqlarning ayrimlari bolalar tomonidan ayrim harakatlar (masalan, qogʻoz, qalam yoki ruchkalardan foydalanish)ning bajarilishiga oiddir. Test aqliy qobiliyat darajasining oʻrganilayotgan sifatlarga nisbati tarzida aniqlanadi. Bu oʻrinda yuqori natija 120 va undan ortiq koʻrsatkich sanaladi.

Veksler shkalasi[29]**.** Veksler shkalasi (“PPSI” testi) aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi. U ikki qismdan iborat:

1) ogʻzaki shkala (ma’lum materialni oʻzlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, oʻzaro oʻxshashliklarni topish, lugʻat boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta koʻrsatkich boʻyicha baholanadi);

2) harakat shkalasi (kubiklardan konstruktsiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan surat (kartinalar)ni yakuniga yetkazish, tavsiya etilayotgan kod (tasvir)lar mohiyatini ochib berish (“Hayvonlarning uylari” mavzusi boʻyicha) kabi beshta holat koʻrsatkichlari boʻyicha baholanadi.

Torrens (I) testi[30]**.** Torrens (I) testi yozma shaklda boʻlib, tafakkurning quyidagi sifatlarini aniqlashga yordam beradi:

1) tezkorlik; aniqlik;
2) tasavvurning boyligi va oʻziga xosligi.

Test notoʻgʻri shaklda yoritilgan surat (kartina)ni toʻgʻri shaklda ifoda etishga asoslanadi. Bunda boladan juda yorqin ranglarda notoʻgʻri tasvirlangan kartinani alohida qogʻozga toʻgʻri shaklda qayta tasvirlay olish talab etiladi.

Torrens (II) testi[31]. Torrens (II) testi ogʻzaki shakldagi test boʻlib, bolalar va kattalarning ijodiy qobiliyatini ogʻzaki usullar yordamida aniqlashga xizmat qiladi. Test quyidagi tavsifga ega:

1) savollarni bera olish malakasiga egalik;
2) surat (kartina)lar majmuida tasvirlangan vaziyatlarga mos keluvchi holatlarning sabab va oqibatlarini aniqlay olish;
3) kundalik hayotda eng oddiy va ommaviy predmetlarni qoʻllashning oʻziga xos usullarini taklif eta olish;

[29] Тот источник. – С. 177.
[30] Тот источник – С. 183
[31] Тот источник. – С. 183

4) barcha uchun yaxshi tanish bo‘lgan predmetlar bo‘yicha kutilmagan savollarni bera olish;

5) taxminlarni ilgari sura olish.

Pedagogik manbalarda pedagogning kreativ tafakkuri darajasini quyidagi metodlar[32] yordamida baholash mumkin ekanligi ko‘rsatilgan:

1) ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi shaxsi va faoliyatini bevosita o‘rganish metodlari (pedagogik kuzatish, o‘qituvchining ish hujjatlari va rejalarini o‘rganish, suhbat va h.k.);

2) pedagogik tafakkurni tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, reyting, test va b.)

Ushbu metodlar yordamida oliy ta’lim muassasalari talabalarining pedagogik bilimlari darajasini ham baholash mumkin. Faqat bu o‘rinda o‘qituvchining ish hujjatlari, rejalarini o‘rganish emas, balki talabalarning individual, mustaqil ta’lim olishlari va ularning natijalarini tahlil etish maqsadga muvofiq.

2.**Talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirishda DTSning ahamiyati.** Shaxsning kreativlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishida yuqorida aytib o‘tilganidek, ta’lim jarayonini muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ta’lim mazmunida kreativlik g‘oyalari hamda talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir yondashuv o‘z ifodasini topishi zarur. DTS esa haqli ravishda o‘zida ta’lim mazmunini to‘laqonli ifoda etadi. Shu sababli Patti Drepeau AQSHning DSUA (Davlat standartlarining umumiy asoslari – SSSS)da o‘quvchi va talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi g‘oyalarning qay darajada o‘z ifodasini topganligini tahlil etadi. Uning bu boradagi fikrlari amaliy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda quyidagi muallifning bu boradagi mulohazalari batafsil keltiriladi[33].

Davlat standartlarining umumiy asoslari (DSUA – CCSS) talabalar tomonidan tegishli fan yoki mutaxassislik asoslari bo‘yicha belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal

[32] Занина Л.В., Мнеьшикова Н.Л. Основы педагогического мастерства /Учеб.пособие для студ. пед. Вузов.– Ростов-на-Дону, Феникс, 2003. – С. 238.

[33] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. - 42-58-betlar.

darajasini o‘zlashtirish va tushunilishini talab etuvchi maqsadni qanoatlantiradi. Mazkur standartlar, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan o‘qitish tizimining tashkiliy jihatdan tashkil etilishini ta’minlaydi. Davlat standartlarining umumiy asoslari (DSUA – CCSS)ning mohiyati: axborot matnining murakkabligi hamda unga nisbatan tanqidiy yondashuv talabalarga malakali mutaxassis bo‘lishlari va xizmat bo‘yicha (kasbiy sohada) o‘sishlarini ta’minlash imkoniyatini yaratadi. Davlat standartlari o‘z mohiyatiga ko‘ra talabalarga rag‘batlantiruvchi mazmunni o‘rganish imkoniyatini ta’minlash orqali ular tomonidan akademik bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli o‘zl tirish yo‘llarini belgilab beradi. Shunday ekan, nima uchun DSUA (CCSS)ni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish vositasi sifatida ularning kreativ potensialidan foydalanish mumkin emas?

Asarning 1-bobida ta’kidlab o‘tilganidek, talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarining namoyon bo‘lishi ular tomonidan kasbiy bilim va ko‘nikmalarning sidqidildan, mamnun holda o‘zlashtirish darajasini kuchaytiradi (Beghetto, Kaufman, 2010). DSUA (CCSS)dagi matnli murakkablik talabalardan kreativ fikrlashni hamda kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi. Ammo, (42) filologiya fanlari bo‘yicha ingliz standarti (Eng yaxshi metodistlar Assotsiatsiyasining Milliy markazi, Davlat maktablari rahbarlarining Boshqaruv Kengashi (NGA) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarning umumiy tahlili ularda ta’lim oluvchi shaxsida kreativ potensialni oshirish choralari belgilanmaganligini ko‘rsatadi. Ularda ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini belgilash maqsadida qayta sanab o‘ting, izohlang, keltiring kabi fe’llar qo‘llanilgan bo‘lsa, kreativ fikrlash holatini ifodalovchi – aloqani hosil qiling, birlashtiring va xulosani ilgari suring tarzidagi fe’llar kam qo‘llanilgan yoki mutlaqo qo‘llanilmagan. Xuddi shuningdek, matematika fanlari bo‘yicha standartlar (NGA Markazi, 2010)ida ham hal qiling, qo‘llang, izohlang va tushuntiring kabi fe’llar kreativ fikrlash holatini ifodalovchi – sharhlang, e’tiborni qarating yoki taqqoslang kabi fe’llarga nisbatan ko‘p qo‘llanilgan.

Ushbu holat o‘qituvchidan o‘z faoliyatida DSUA (CCSS) talablarini qondirish yo‘lida talabalarning kreativ potensialini

oshirishga xizmat qiladigan ijodiy nutqdan foydalanishga e'tibor qaratishni talab etadi. Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini birlashtirish uchun esa o'qituvchi o'zining dars rejalarini shunday tuzishi kerakki, buning natijasida o'quv axborotlarini ijodiy qayta ishlash orqalitalabalar kreativ fikrlash imkoniyatiga ega bo'lsin. Bunga erishish uchun fikrni rivojlantiring (m: "fikrni rivojlantiring", tuzing (m: "reja tuzing", ishlab chiqing (m: "harakat mexanizmini ishlab chiqing").

Birinchi darajali DSUA (CCSS) hamda talabalar uchun mo'ljallangan Amaliy standartlari (NGA Markazi, 2010) "hisob-kitob oqibatlarini kengaytirish"ga xizmat qila olishi zarur. Agarda talabalardan 2, 4, 6, 8 ko'rinishdagi sanoq tartibini kengaytirish (davom ettirish)ni so'rasa, u holda o'qituvchi talabalarni kreativ fikrlashga unday olmaydi. Bunday holatda talabalar raqamlarning mohiyati va tartiblanishi haqidagi mavjud bilimlarini rivojlantirmagan holda 2, 4, 6, 8 ko'rinishdagi sanoq tartibini shunchaki kengaytirish (davom ettirish)lari mumkin. Agar, bordi-yu, o'qituvchi talabalarning e'tiboriga 1, 2, 3, 2, 1 ko'rinishdagi sanoq tartibini taqdim etish orqali ulardan mazkur sanoq tartibi oqibatlarini imkon qadar ko'p usullar bilan ifodalashni talab etsa, u holda talabalarning raqamlar mohiyati va ularning tartiblanishi haqidagi qarashlarini rivojlantirishga erishadi. Zero, bu jarayonda talabalar tahlil asosida bir necha darajali javoblarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qituvchilar talabalarning kreativ fikrlashga undashni xohlar ekan, bu vaqtda ular darslar jarayonida talabalarning kreaktiv fikrlash qobiliyatlaridan unumli foydalanish yoki ana shu ko'nikmalar negizida uyushtiriladigan darslarni tashkil etishda o'zlarining tasavvur imkoniyatlari hamda kreativ potensiallarining samarali foydalana olishga erishishlari zarur. Garchi bunga bir qarashda erishish qiyindek tuyulsa-da, biroq, mazkur jarayon u qadar qiyin kechmaydi. Qolaversa, o'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan axborot vositalari (m: tartiblashga doir matematik misolning ko'rsatmali namoyish etilishi) ham talabalarning kreativ fikrlash qobiliyati, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'zlari tomonidan tashkil etilaigan darslarda adolatli tarzda talabalarning kreativ

fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yoʻl, shakl, metod va vositalardan foydalansalar, buning natijasida bu boradagi gʻoyalar asta-sekin DSUA (CCSS)da ham oʻz inʼikosiga ega boʻlib boradi. DSUA (CCSS)da aks etadigan qarama-qarshiliklarni yaxshi anglash uchun dastlab mazmun, mavzular, kichik mavzularni ifodalovchi tushunchalarni bayon etib oʻting: odatda ular ot sifatida qayd etiladi. Soʻngra standartda oʻz ifodasini topgan feʼllarni bayon eting: feʼllar talabalarni fikr yurishga undaydi (m: tasvirlang (taʼriflang), tahlil qiling, ifodalang, aniqlang). Talabalarning kreativ potensialini namoyon etishga xizmat qiladigan topshiriqlarni standartga kiritishning bir usuli unda ifodalangan feʼllarni kreativ fikrlashga koʻnikmalarini ifodalovchi feʼllarga almashtirish hisoblanadi; boshqa usul esa talabadan talab etiladigan javobning darajasini belgilash maqsadida mavjud soʻzlarni sifat va ravishda ifodalanishini taʼminlashdan iborat.

(CCSS)da “oʻqish” tushunchasi “kichik paragraf mohiyatini asosiy mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda paragraflar oʻrtasidagi chegara boʻyicha aniqlagan holda izohlash” (RI.2.2; NGA Markazi, 2010a)dan iborat boʻlishi zarur. Standart, asosan, talabalar qaysi asosiy mavzu va paragraflarning “yadrosi” nimadan iborat ekanligini bilishlari kerakligini taqozo etadi; talabalar, shuningdek, kichik matnlar boʻlaklarini ifodalovchi tushunchalar bilan tanish boʻlishlari lozim. Mohiyatiga koʻra feʼl nafaqat past darajadagi, unchalik qiziqarli boʻlmagan fikrni boshqa fikrlar bilan oʻzaro tenglashtiradi. Standartni qayta koʻrib chiqishda feʼllar kreativ fikrlar bilan almashtirish taqozo etiladiki, oqibatda talabalar zarur kreativ fikrlash koʻnikmalarini oʻzlashtirishga muvaffaq boʻladi. Hozirda qayta koʻrib chiqilgan standartda “oʻqish” tushunchasi “kichik paragraf matnining asosiy mavzusini almashtirishda paragraflarni matn chegaralarida aniqlashga eʼtiborni qaratish” tarzida talqin etiladi. Bunda talabalardan ularning asosiy mavzuni izohlay olish imkoniyatiga ega boʻlishlari, bu jarayonga ijodiy yondasha olishlari talab qilinadi. Talabalar matn xususida chuqurroq oʻylashlari va mavzu toʻgʻrisidagi tushunchalarini mustahkamlay olishlari kerak. Asosiy mavzuni oʻzgartirish asosiy mavzuni izohlashga nisbatan koʻproq

darajada intellektual o‘yin va ilgari surilayotgan chaqiriq sanaladi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni ifodalovchi fe’llarning almashtirilishi natijasida standart o‘zida 1-bobda aytib o‘tilganidek, o‘quv majburiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Qiziquvchan talabalar bu yo‘l bilan o‘quv majburiyatlarining o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lishiga erishadi (Grant, Gallate, 2012).

Quyida yuqorida bildirilgan fikrlarni yorituvchi jadvallar keltiriladi.

Qayta shakllantirilgan standart: paragraflarni matn chegaralarida aniqlash orqali ularni tugal fikrni ifodalovchi so‘zlar yordamida kichik paragraf matnining asosiy mavzusi bilan o‘zaro muvofiqlashtirish

Qayta shakllantirilgan standart: har bir media uchun noyob bo‘lgan metodlarning ***kreativ*** samaradorligini tahlil qilish orqali yozma tarixiy solnoma, drama va she’rni ularni audio yoki multimediya varianti (m: yorug‘lik, ovoz, rang, yoki kamera markazi va filmdagi burchaklar) bilan solishtirish va taqqoslash.

2. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Ta’lim jarayonini kuzatish, bevosita pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida quyidagi metodlar[34] talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagoglarda kasbiy faoliyatni tashkil etishda namoyon bo‘luvchi ijodiy malakalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Quyida mazkur metodlarni qo‘llash imkoniyati “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanining negizidan joy olgan “Pedagogika tarixi”[35] bo‘limi bo‘yicha misollarni keltirish orqali ochib berilgan (keltirilgan misollar o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxs kreativligini rivojlantirishga yordam beradi:

1. Guruhlashtirish. Metodni qo‘llashda talabalar o‘quv materialini mazmunan yoki unda faol qo‘llanilayotgan tayanch tushunchalar asosida guruhlarga ajratib oladilar. Bu usul o‘quv materialining kichik bo‘lagida ilgari surilgan g‘oyalarni puxta o‘zlashtirib olish asosida navbatdagi bo‘lak matni bilan ishlashga

[34] Turdiyeva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 36-40-b.

[35] Turdieva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.

asoslanadi. Guruhlashtirishda dastlabki bo‘lak o‘quv materiali mohiyatini chuqur anglamay turib, keyingi bo‘lak matni bilan ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Zaruriyat bo‘lsa, har bir bo‘lak materiali talabalar tomonidan qayta-qayta o‘rganiladi. Guruhlashtirish reja tuzish usuli uchun dastlabki asos bo‘la oladi.

Ta’lim jarayonida talabalarda guruhlashtirish metodini qo‘llash ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash uchun guruhlar shakllantirildi.

Misol uchun: Mahmud Qoshg‘ariyning pedagogik qarashlarini o‘rganishda yaxlit o‘quv materialini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

a) Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari va uning ommalashish tarixi;

b) asarda bilim olishning ijtimoiy ahamiyati va bilimli kishilarning shaxsi haqidagi qarashlarning yoritilishi;

v) insoniylik fazilatlari to‘g‘risidagi fikrlar asar mohiyatini ochib beruvchi jihatlardan biri ekanligi;

g) mehmon va uning ijtimoiy mavqeini asarda aks ettirilishi;

d) asarda mol-mulk va unga munosabat masalalarining bayon etilishi;

j) xalq maqollarining asar mohiyatini ochib berishdagi o‘rni

2. Reja tuzish. Talabalarni o‘zlashtirilayotgan mavzu bo‘yicha reja tuzishga undash va dastlabki ko‘nikmalarni hosil qilish ular tomonidan o‘quv materiali mohiyatini chuqur anglanishiga zamin yaratadi. Binobarin, bu holatda tinglanayotgan (o‘qituvchi hikoyasi) yoki o‘qilayotgan (darslik, qo‘llanma, yordamchi adabiyotlar, Internet materiallar va boshqalar) o‘quv materialini mantiqiy ravishda guruhlarga ajratish va har bir guruhga kiritilgan materialning tub mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi iboralarni ajratish talabadan barqaror diqqat, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Usulni qo‘llashda shior bo‘lgan talab – rejaning har bir bandi uchun belgilanayotgan ibora o‘zida o‘quv materiali muayyan bo‘lagida ilgari surilayotgan fikr va qarashlar haqidagi ma’lumotni reja bilan tanishayotgan vaqtdayoq anglata olishi

zarur.

Ta’lim jarayonida talabalarda reja tuzish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha rejalar tuzildi.

M.: Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning pedagogik qarashlarini o‘rganish chog‘ida talabalar tomonidan rejaning quyidagi tarzda tuzilishi maqsadga muvofiq:

3.Tayanch tushunchalarni aniqlash. Ushbu metodni qo‘llashda talabalar ularning e’tiborlariga havola etilayotgan o‘quv materialida ilgari surilayotgan fikrlar mohiyatini anglatuvchi asosiy tushunchalarni ajratib ko‘rsata olishlari lozim.

Talabalarning tayanch tushunchalarni aniqlay olishlari ularni o‘quv materiali mohiyatini yetarli darajada anglay yoki o‘zlashtira olganliklaridan dalolat beradi. Ta’lim jarayonida talabalarda tayanch tushunchalarni aniqlash ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha tayanch tushunchalar ajratildi.

Misol uchun: sohibqiron Amir Temurning pedagogik qarashlarini o‘rganish chog‘ida talabalarning o‘quv materiali bo‘yicha quyidagi tayanch tushunchalarning aniqlay olishlari ularning bu borada muayyan ko‘nikmalarga ega ekanliklaridan dalolat beradi:

Xo‘jailg‘or qishlog‘i (Kesh viloyatidagi), Ko‘ragon, “Temur tuzuklari”, shariat, davlatni boshqarish, kengash o‘tkazish, podsho va vazirlar, axloq- odob, do‘stlik, shirinsuxanlik.

4. Mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish. O‘qituvchi talabalar e’tiborini o‘rganilayotgan o‘quv materialini mazmuniga ko‘ra mustaqil kichik mavzularga ajratishga qaratadi. Bu usulni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda berilayotgan o‘quv axborotlar orasidan eng muhim fikrlar yoki qarashlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Binobarin, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarga eng muhim axborotlarni uzata olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Bu holat o‘quvchilarni jismonan toliqishdan saqlaydi.

Ta’lim jarayonida talabalarda mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha mavzu ichida kichik mavzular hosil qilindi.

Misol uchun: Unsurul-Maoliy Kaykovusning pedagogik qarashlarini o‘rganish davrida talabalarni taxminan mavzu ichida quyidagi kichik mavzularni hosil qilishga undash maqsadga muvofiqdir:

I.Unsurul-Maoliy Kaykovus va “Qobusnoma” asarining pedagogik fikrlar taraqqiyoti tarixidagi o‘rni.

II. “Qobusnoma” asarida juvonmardlik ruknlari va odobi to‘g‘risidagi qarashlarning yoritilishi.

III. “Qobusnoma” asarida bilim olishga bo‘lgan munosabatning ifodalanishi.

IV. Asarida turli kasb egalari ijtimoiy mavqeining baholanishi.

V. “Qobusnoma” asarida axloq tarbiyasi asoslarining bayon etilishi.

VI. “Qobusnoma” asarida ota-onaning oiladagi o‘rni masalalarining tahlil etilishi.

VII. “Qobusnoma” asarida do‘st tutish odobining yoritilishi

5. **Turkumlashtirish**. Pedagogik bilimlarni muayyan yo‘nalishlar, jihatlar yoki muhim belgilariga muvofiq ajratish ularning talabalar tomonidan ma’lum tizim asosida o‘zlashtirilishiga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida talabalarda pedagogik bilimlarni turkumlashtirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha pedagogik bilimlar turkumlashtirildi.

M: turkumlashtirish usulidan foydalanish “Pedagogika tarixi”dan Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari o‘rganishda quyidagi andozaga muvofiq qo‘llanilishi mumkin:

Alisher Navoiyning insoniy sifatlar haqidagi qarashlari

Insoniy sifatlar haqidagi qarashlar		
Ma’naviy- axloqiy sifatlar	Salbiy sifatlar	O‘qituvchi va uning odobi

6. Qayta bayon etish. O‘rganilgan mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch so‘zlar yordamida o‘quv materiali mazmunini o‘z fikrlari bilan ifodalash. Misol uchun Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlarini o‘rganish jarayonida quyidagi tayanch tushunchalar talabalar tomonidan o‘rganilgan mavzu mazmunini qayta bayon etilishiga imkon beradi:

1952-yil, “Ugorskiy Brod” (Moraviya), “Chex qardoshlari”, “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi” (1631-yil), “Buyuk didaktika” (1632-yil), “Pan sofiya” ideyasi, “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” (1648-yil), dunyoqarash, tarbiya yo‘nalishlari, yosh davrlari, didaktik tamoyillar, sinf-dars tizimi, axloqiy tarbiya, o‘qituvchi shaxsi.

7. Sxemalashtirish. Talabalar o‘rganilgan o‘quv materiali bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvirlar asosida namoyish etadilar.

Ta’lim jarayonida talabalarda sxemalashtirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha sxemalar yaratildi. Shuningdek, rasm, shakl va tasvirlarning yaratirilishiga ham erishildi.

M: Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlarini o‘rganish chog‘ida talabalarning quyidagi tarzda sxemalarning ishlay olishlari kutilgan maqsadga erishilganlikni ifodalaydi:

Moslavshuvchanlikni shakllantirishda “aqliy hujum” mashqlari katta samara beradi. Bunda talabalar nafaqat bir qator g‘oyalar, balki turli-tuman g‘oyalarni topishlari lozim. O‘quvchilarda moslavshuvchan fikrlashni faollashtirishda quyidagi savollar qo‘l keladi[36]:

- *... vaziyat qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?*
- *... amalga oshirishda qanday usullardan foydalanish mumkin?*

[36] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 21-44-betlar.

▪ *agar …bo‘lsa bu nimaga olib kelishi mumkin?*

▪*Sizningcha hayotda va ta’lim tizimida nimalarga o‘zgartirishlar kiritish lozim?*

▪*…ta’sir etishi mumkin bo‘lgan vaziyat, muammo, mavzular ro‘yhatini tuzing.*

▪*… rivojlantirishning qanday usullari mavjud?*

O‘ziga xoslikni (originallik) shakllantirishda quyidagi savollardan foydalanish o‘quvchilarda original javoblarni berishni faollashtiradi:

▪*…ni qanday ishlab chiqish mumkin?*

▪*…ni rivojlantirish usullari ro‘yxatini tuzing?*

▪*…ni ihtiro qiling?*

▪*…ni amalga oshirishda o‘z yondashuvingizni ifodalang?*

▪*…ni yaratishda o‘z taklifingizni kiriting?*

Ishlab chiqish mavzusida esa, quyidagi savollar talabalardan muvofiq javoblarni olishda qo‘l keladi:

▪*…ga qo‘shing;*

▪*…ni quring;*

▪*…ni kengaytiring;*

▪*…ni oshiring;*

▪*…ni ishlab chiqing.*

▪**Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining mohiyati va bu jarayonning borishi.** Shaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish o‘ziga xos murakkab jarayon sanaladi. Shu sababli mazkur jarayonni samarali tashkil etish uni metodik jihatdan to‘g‘ri, oqilona tashkil etishni taqozo qiladi. Amerikalik pedagog Patti Drapeauning bu boradagi fikrlari amaliy ahamiyatga ega. Muallifning talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish hamda rivojlantirishga oid yondashuvlarini ifodalovchi g‘oyalari quyida keltirilgan jadvallarda o‘z ifodasini topgan[37].

▪**“Aqliy hujum” strategiyasi** talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalaridan

[37] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 61-79-betlar

ijobiy foydalanishga doir koʻnikma, malakalarni hosil qilishga ragʻbatlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashgʻulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (oʻziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tugʻiladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil gʻoyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashgʻulotda strategiyani qoʻllashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1)talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish;

2)talabalarning har bir fikri ragʻbatlantirilib boriladi, fikrlar orasidan samaralisi tanlab olinadi; fikrlarning ragʻbatlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tugʻilishiga olib keladi;

3)har bir talaba oʻzining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni oʻzgartirishi mumkin; fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni oʻzgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi

Strategiya qoʻllanilganda talabalarning faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yoʻl qoʻyilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qoʻllashdan koʻzlangan asosiy maqsad talabalarni muammo boʻyicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir).

"Baliq skeleti" grafik organayzeri (GO) talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qoʻllashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish koʻnikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1) oʻqituvchi talabalarni GOni qoʻllash sharti bilan tanishtiradi;
2) talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi;
3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
4) guruhlar oʻz yechimlarini jamoaga taqdim etadi;

5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

“Bumerang” strategiyasi. Texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko‘p bilimga ega bo‘lish, o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o‘qituvchiga tarqatma materiallarning o‘quvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o‘zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta’minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin.

“Venn diagrammasi” GO talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish, tushunchalarni sintezlash ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish samaralidir.

“Zinama-zina” strategiyasi talabalarda o‘rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u talabalarda mavzuni o‘rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o‘zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko‘rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Insert” GO yangi mavzu bo‘yicha talabalarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”) metodi (ingl. “case” – metod, “sudy” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga

xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni oʻrganish va tahlil qilishga oʻrgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni toʻplash, ularni oʻrganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, oʻquv natijalari.

"Kichik esse" strategiyasi kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega boʻlib, oʻrganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U talabalar tomonidan oʻrganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala boʻyicha erkin fikr bildirish, mazmun- mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik esseni yaratishda talabalar mavzu gʻoyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega boʻladi.

"Klaster" GO ("Klaster" – gʻuncha, toʻplam, bogʻlam) puxta oʻylangan strategiya boʻlib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlarda qoʻllash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan gʻoyalarni umumlashtirish, ular oʻrtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

"Kontseptual jadval" GO talabalarni oʻrganilayotgan mavzu (masala, muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari boʻyicha taqqoslashga oʻrgatadi. Undan foydalanishda talabalarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

"Mantiqiy chalkash zanjir" strategiyasi tushunchalar, bildirilgan fikrlar oʻrtasida bogʻliqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda toʻgʻri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga oʻqituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni toʻgʻri va notoʻgʻri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan notoʻgʻri ifodalangan ma'lumotlarni toʻgʻri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy

chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda turli didaktik, texnik va axborot-kommunikatsion vositalardan ham samarali foydalanish mumkin.

Ana shunday vositalardan biri Patti Drepeau tomonidan taklif etilgan “Kreativlik xaritasi”dir.

Mavjud tushunchalarni boyitish. Mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan mavjud tushunchalarga mazmunan yaqin bo‘lgan pedagogik yoki psixologik terminlarni qo‘shish. M: “So‘fiylik ta’limotida yetuk inson muammosining talqin etilishi” mavzusini o‘rganish chog‘ida o‘quv materialining mohiyatini quyidagi tushunchalar yordamida yetarli darajada anglash mumkin:

Sunniylik, shialik, tavhid, so‘fiylik, ma’naviy komillik, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya tariqati

Ushbu tushunchalar mohiyatini o‘rganish asosida talabalar qo‘shimcha ravishda komil inson, komillikning ijtimoiy ahamiyati, ijtimoiy omillarning shaxs kamolotiga ta’siri kabi tushuncha va iboralarni ham o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Pedagogik vaziyatlarni hal qilish. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkur va kreativlik sifatlarini shakllantirishda ularning turli pedagogik vaziyatlar yechimlarini topish layoqatiga ega bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagicha ish ko‘rildi:

1)talabalar turli mazmundagi pedagogik vaziyatlar bilan tanishtirildi;

2)ularning taqdim etilgan pedagogik vaziyat yuzasidan mushohada yuritishlariga imkon berildi;

3)muayyan talabaning pedagogik vaziyatlarning ijobiy yechimlarini topish borasidagi shaxsiy qarashlari tinglanib, auditoriyada pedagogik vaziyat yechimining qay darajada to‘g‘ri ekanligiga baho berildi

Talabalarning pedagogik vaziyatlar yechimini topishlarida

L.V.Zanina hamda N.P.Menshikova[38]larning g‘oyalariga tayanishlari tavsiya etildi. Ya’ni, ular bu jarayonda:

1)dastlab pedagogik vaziyat yechimini topishga yordam beruvchi bir necha farazlarni ilgari surishlari;

2)harakat yo‘nalishlari, faoliyat turlari, shuningdek, pedagogik ta’sir yoki tarbiya metodlarini belgilashlari;

3)ularning natijaviyligini taxmin qilishlari;

4)yechimni topishga yo‘naltirilgan faoliyatning bir necha variantlarini ishlab chiqishlari;

5)samarali usullarni tanlashlari;

6)maqbul tashkiliy shakllarni belgilashlari mumkinligi ta’kidlab o‘tildi

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda bir qator interfaol metodlardan foydalanish bu borada samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Quyidagi interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxsda vaziyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, muammoni tahlil qilish, sintezlash, tizimning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni topish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Quyida ulardan ayrimlari namuna sifatida keltiriladi:

“AJIL” (“Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar”) strategiyasi talabalarda ijodiy faoliyat malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko‘nikmalarini shaklllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to‘g‘risidagi tushunchani hosil qilishga ko‘maklashishga xizmat qiladi. “Ajil” texnologiyasini o‘quv jarayonida “Jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish” mavzusidagi suhbat yoki “Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman” nomli blits-o‘yin o‘tkazilgandan so‘ng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish. Ta’lim jarayonida tobora faol qo‘llanilayotgan zamonaviy vositalardan biri axborot texnologiyalari sanaladi. Ularning texnik, texnologik imkoniyatlari ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, samarali tashkil etishda pedagoglar uchun nihoyatda qo‘l keladi. Bugungi kunda ta’limda

[38] Занина Л.В., Мнеьшикова Н.Л. Основы педагогического мастерства /Учеб.пособие для студ. пед. Вузов.– Ростов-на-Дону, Феникс, 2003. – С. 288.

radio eshittirish, teleko‘rsatuvlar, filmlarni namoyish imkoniyatlari mavjud. Ulardan foydalanish o‘qitish sifatini yaxshilaydi, shaxsning kreativ sifatlari, kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari orasida kompyuterlarning alohida o‘rni bor. Zamonaviy o‘qitishda komp’yuter texnologiyasi pedagoglar uchun eng yaqin “yordamchi” bo‘lmoqda. Ta’lim jarayonida ulardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

1) real ishlab chiqarish faoliyatiga mos keluvchi hajm, psixologik va mantiqiy- tarkibiy tuzilma mohiyatga ko‘ra o‘quv axborotini to‘la taqdim etilishini ta’minlaydi; 2) o‘quv axborotlarining tezkor yangilanishini inobatga olgan holda ularni taqdim etish tezligini zarur darajada bo‘lishiga ko‘maklashadi; 3) o‘quvchilarga bajarilayotgan ish-harakat yoki faoliyat sifati haqidagi ma’lumotni berishda tezkorlikni ta’minlaydi;

4) ishlab chiqarish ustasiga o‘quvchi faoliyatini nazorat qilish va unga zarur o‘rinlarda maslahat, yo‘nalish hamda ko‘rsatmalar berish imkoniyatini yaratadi.

Axborot texnologiyalarining moslashuvchanlik va interaktivlik xususiyatiga egaligi talabalarning o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq holda o‘tilgan mavzuni qaytarish, mavzu ustida ishlashlarni individual tempda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya’ni, elektron darslik matni bilan talaba o‘rtasida muloqot o‘rnatib, so‘rovnoma, verbal, noverbal, ovoz va b. yordamida o‘qituvchi mavjudligini his etish imkoniyatini yaratadi. Bu turdagi texnologiyalar yordamida mulьtimedia mahsulotlari, elektron alьbom, elektron atlas, raqamli video lavhalar, virtual stendlar, audio va video vizual materiallar, shuningdek, prezentatsiyalar tayyorlash imkoniyati mavjudki, ular ta’lim jarayonining qiziqarli tashkil etilishini ta’minlaydi. Qolaversa, ular vositasida talabalar, pedagoglarning hissiy-estetik tuyg‘ulari shakllanadi. Bu esa shaxsning kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi axborot, shu jumladan, kompьyuter texnologiyasi yordamida pedagog tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin

bo‘lgan ijod mahsulotlari sanab o‘tiladi.

Multimedia – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam

Elektron atlas (yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv

moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi

Raqamli video lavhalar – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manbai

Virtual stendlar – 1) real obyekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita

Imitatsion virtual trenajyor (ingl. “train” – “tarbiyalamoq”, “o‘qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi.

Axborot texnologiyalarining imkoniyati va pedagoglarning kasbiy faoliyatlariga ijodiy yondashishlari natijasida yaratilgan mulьtimedia mahsulotlari, audio va video materiallar, xususan, video animatsiyalar ham ta’lim jarayonida faol qo‘llaniladi.

Multimedia mahsulotlari – o‘zida AKTning dasturiy va

texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida oʻquv materialini tinglovchilarga etkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar

Audio va video vizual materiallar – oʻquv axborotlarini kompьyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materallar

Video animatsiyalar – chizilgan (rasmli) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qoʻgʻirchoq yoki oʻyinchoqli obyekt)larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar

Prezentatsiya (taqdimot; lot. "praesentatio" – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo boʻyicha oʻquv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qogʻozlari (oddiy yoki vatman qogʻozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proyektor, protsesor va boshqa qurilmalar) yordamida taqdim etilishi

Mohiyatiga koʻra axborot texnologiyalari yordamida tayyorlangan va ta'limiy maqsadlarda foydalaniladigan ijod mahsulotlar talabaning bilish faoliyatini faollashtirishi, uning oʻquv materialani oʻzlashtirish maqsadlari bilan qurollantirish, oʻquv materialini tushunishi va oʻzlashtirishini kuchaytirish, fanlararo aloqani chuqurlashtirish imkoniyatiga ega boʻlishi lozim. Buning uchun elektron shakldagi ijod mahsulotlari turli jarayon va hodisalarni tushunishni osonlashtirishga, tajribalarni bajarish usullari bilan tanishtirishga, laboratoriya jihozlarida ishlashni yengillashtirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur.

Talabalarning kreativ fikrlash koʻnikmalariga egaliklarini baholash. *Kreativlik oʻqituvchining yondashuvi oʻquvchilarning qiziqishlari va koʻrsatgan natijalari asosida baholanishi mumkin. Agar oʻquvchilarga biror bir adabiy asar yoki hikoyaning oxirini oʻzgartirish vazifasi berilgan boʻlsa, ular asar yoki hikoyaning mazmunini saqlab qolgan holda, qancha va qanday (original) gʻoya (variant)lar oʻylab topganiga qarab baholanadilar.*

"Talabalarning kreativlik koʻnikmalariga egaliklarini baholashda muhim omillarni inobatga olish. Baholash kreativlikni oʻldiradimi? "Bu vaziyatga bogʻliq" (Beghetto, 2005, 255-bet). Baholash kreativlikni sinfda oʻquvchilar bajarishi shart

bo‘lgan majburiy kriteriyaga aylantirishi mumkin (Kaufman, Plucker& Baer,2008). Bu turdagibaholash nafaqat o‘quvchilarning erishgan yutuqlari, balki ularning kreativ fikrlash tarzi va yangiliklarga intilishini yanada chuqurroq tushunishda yordam beradi. Ta’lim jarayonida o‘quv rejasiga kreativ o‘yinlarni kiritishning birgina o‘zi yetarli emas.

Baholash o‘quvchilarda metakognitiv, ya’ni fikrlash to‘g‘risida fikralash ko‘nikmasini shakllantirish uchun kerak. Agarda o‘quvchilar fikrlash, nima uchun aynan shu yechimni tanlaganliklari va ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topishda qanday strategiyadan foydalanganliklarini sharhlay olsalar, demak bu metakognitiv fikrlash deb ataladi. Talabalar kreativ fikrlash va innovatsion usullardan muammolarning yechimini topishda foydalansalar, demak ular metakognitiv fikrlash strategiyasini amalda qo‘llagan bo‘ladilar.

O‘quvchining ishlarini izohlash. Sharh berishning asosiy maqsadi talabalarni ruhlantirish, kirishimliligini oshirish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi to‘siqlarni olib tashlash va yutuqlarga erishishda ko‘maklashishdan iborat. Sharh shakllantiruvchi, obyektiv va spetsifik bo‘lsagina samara beradi. Villiamning (2011) fikriga ko‘ra sharh o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni oshiradi, boshqa bir olimning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra “sharh” o‘quvchilar o‘qish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Hattie, 2009, 2012, 18-bet). Biroq, shuni aytib o‘tish kerakki ba’zan o‘quvchining bajargan ishiga qo‘yilgan baho o‘qituvchi tomonidan berilgan sharhni inkor etishi mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar (Butler, 1988, Wiliam, 2011) natijasiga ko‘ra, bir guruhdagi talabalarga bajargan ishlari yuzasidan berilgan sharh (bahosiz) natijasida keyinroq ular o‘z bilim darajalarini oshirganlar va vazifalarni yanada yaxshiroq bajarganlar, ammo, ikkinchi guruhdagi talabalarning bajargan vazifalariga berilgan baho va sharh natijasida, talabalar faqat berilgan baho bilan qiziqqanlar, sharh esa e’tibordan chetda qolgan. Asosiy e’tibor bahoga berilgani sababli sharh keraksiz narsa bo‘lib qolmoqda.

Sharhni qachon va qaysi paytda berishni bilish ham muhimdir. “Agarda sharh tez berilgan bo‘lsa, o‘quqchilar unga

oʻrganib qoladilar va muammoni mustaqil hal qilish oʻrniga hamisha oʻqituvchining sharhini kutadi" (Bangert-Drowns, Kulik, Kulik, Morgan, 1991, Goodwin, Miller, 2012, 83-bet). Talabalarga yangi materiallarni oʻzlashtirish jarayonida berilgan sharh ularni notoʻgʻri qaror qabul qilish, maʼlumotlarni notoʻgʻri tushunish va notoʻgʻri fikrga qilishini oldini oladi. Oʻquv jarayonida talabalar oʻzlashtirgan materiallari va olgan bilimlarini tajribada tatbiq etayotganlarida sharh berishdan oldin ularga oʻz ishlariga oʻzlari baho berishlari va kerak boʻlsa, yoʻl qoʻygan xatolarini tuzatishga imkon berish zarur. Oʻz-oʻziga baho berish (aynan xatolari ustida ishlash) strategiyasi talabalarda metakognitiv fikrlash doirasini kengaytirib, fikrlash toʻgʻrisida fikrlashga ham daʼvat etadi. Oʻz-oʻziga baho berish (xatolari ustida ishlash)da talabalar nafaqat koʻnikma, balki vaqtni ham inobatga olishilari zarur. Bunday strategiyani qoʻllashda oʻqituvchining asosiy vazifasi talabalarni yoʻnaltiradigan savollar berishdan iborat, masalan, "Qanday usullardan foydalandingiz?", "Vaqtingizni yanada mazmunli oʻtkazishning qanday yoʻllarini bilasiz? va h.k.

Kerakli paytda sharh berish oʻqituvchining vaqtini tejaydi. Fisher va Freyning (2012) fikriga koʻra, xatolarni emas, balki yanglishishlarni oldini olish kerak, chunki xatoni tuzatish mumkin; u oʻquvchining bilim darajasi pastligini aks ettirmaydi. Biroq, yanglishish boshqa omil boʻlib, u oʻquv jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Fisher va Frey yanglishishni toʻrt turga ajratishgan:

- Amaliy yanglishish talabaning bilim darajasi pastligi yoki fikrlash doirasi torligini aks ettiradi.
- Metodik yanglishish talabalar oʻzlashtirgan bilimlarini amalda qoʻllay olmasligi natijasida yuzaga keladi.
- Oʻzlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda yanglish qoʻllash.
- Notoʻgʻri, yolgʻon maʼlumot asosida yanglish fikrlarni shakllantirish.

Kreativlik va mazmunning bevosita bogʻliqligi. Mazmun va kreativlik oʻrtasida ramziy bogʻliqlik mavjuddir: mazmun boʻlmasa, kreativlik ham shakllanmaydi, yaʼni kreativ boʻlish yoki kreativ fikrlash uchun saba boʻlishi kerak. Talabalarning bajargan ishlari yoki savollarga berayotgan javoblarini baholash jarayonida

o‘qituvchi ular yanglishish yoki xatoga yo‘l qo‘yayotgaliklarini aniqlashi zarur. Talaba mazmun jihatdan yetarli bilimlarga egami? O‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llay olyaptimi? Kreativ fikrlashda ko‘proq tajribaga muhtojmi?

O‘quv jarayonida kreativ maqsadlarni belgilash. Viggins (Wiggins, 2012, 11-bet) sharhga “oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erirish yo‘lida bajargan amallarimiz haqidagi ma’lumot” deya izoh beradi. Samarali sharh berish uchun talabalarning maqsadi, unga erishishda bajargan xatti-harakatlari bo‘lishini talab etadi. Agarda talabalarning maqsadi bo‘lsa, sharh berishdan ma’no topsa bo‘ladi, aks holda bu shunchaki “nima qilishi zarurligi haqidagi” ma’lumot bo‘lib qoladi (Brookhart, 2012, 24-bet).

Kreativ o‘quv jarayonida talabalarning maqsadi “ular bilishi zarur bo‘lgan va qila olishi mumkin bo‘lgan vazifaning ifodasi”dir (Marzano, 2009, 13-bet) va u mazmun, fikrlash jarayoni va natija (mahsulot)ga asoslanishi zarur”[39]

Amerikalik pedagog Patti Drepeau talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllanganlik hamma rivojlanganlik darajasini baholashga doir samarali metodikani ishlab chiqqan. Quyida muallifning bu boradagi metodikasining mohiyati to‘laqonli aks ettirilgan jadvallar keltiriladi[40].

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, ular o‘zlaridagi mavjud kreativlik sifatlari, ularning darajasi borasida aniq tasavvurga ega bo‘ladi, ikkinchidan, ular tomonidan tashkil etilayotgan ta’lim jarayoning sifati hamda samaradorligi xususida bir to‘xtamga kelish mumkin. Shuningdek, kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash orqali pedagoglarning bu boradagi faoliyatlari yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish muayyan bosqichlarda kechadi. Mazkur bosqichlarning har birida kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarining maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni

[39] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 142-144-betlar.

[40] O‘sha asar. – 150-171-betlar.

tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish o‘qitish sifatining yaxshilanishi, samaradorligining oshishi uchun qulay sharoitni yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini qanday metod va vositalar yordamida aniqlash mumkin?
2. Pedagoglarda kreativlik sifatlarning rivojlanishi qanday bosqichlarda kechadi?
3. Qanday metodni pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi?
4. Patti Drapeau tomonidan talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan qanday vosita taklif etilgan?

4-MAVZU : KREATIV TA’LIM MUHITI: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI

(ma’ruza)

Reja:

1. Kreativ yondashuv asosida o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratish.
2. O‘quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashuv va ularni samarali tayyorlash tamoyillari.
3. O‘quv mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.

Tayanch tushunchalar: *o‘quv dasturlari, o‘quv manbalari, o‘quv materiallari, tamoyillar, o‘quv materiallarini samarali tayyorlash tamoyillari, didaktik ishlanmalar, didaktik ishlanmalarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar*.

1. Kreativ yondashuv asosida o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratish. Bir qarashda ta’lim jarayonini kreativ g‘oyalar asosida tashkil etish o‘quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdan tasavvur qoldiradi. Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o‘quv mashg‘ulotlarini mavjud DTSga moslashtiradi. Qolaversa, o‘qituvchilardan o‘qitish jarayoniga

nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg‘ulotlarni metodik jihatdan samarali, to‘g‘ri olib borilishini ta’minlaydi.

Pedagoglarning o‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko‘rishlari kutilgan ta’limiy natijaning qo‘lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi; o‘quv axborotlarining asoslanganligi;

talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish imkoniyatiga egalik;

talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratish;

talabalarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

zamonaviy ahamiyat kasb etishi;

estetik jihatdan sifatli bo‘lishi;

noaniq tushuncha va iboralardan holi bo‘lishi; aniq natijani kafolatlay olishi;

turli vaziyatlarda qo‘llay olish imkoniyatiga egalik; mavjud BKMni mustahkamlashga xizmat qilishi va boshqalar.

O‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o‘quv manbalari (darslik, o‘quv, metodik va o‘quv-metodik qo‘llanma, yo‘riqnoma, tavsiyanoma, lug‘at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma’lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o‘rinda olingan ma’lumotlarning ishonchliligi muhim. Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o‘quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e’tiborni qaratishlari zarur. Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar talabalarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, pedagoglarning o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari talabalarning umumiy

rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab etiladi. Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, talabalarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydigan tamoyillarni inobatga olishlari zarur. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar zamonaviy talablar.

Nazorat savollari:

1. O'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashuv o'zida nimani ifodalaydi?
2. O'quv manbalarini yaratishga kreativ yondashishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
3. O'quv materiallarini kreativ yondashuv asosida tayyorlash qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz?
4. O'quv materiallarini kreativ yondashuv asosida samarali tayyorlashda qanday tamoyillar inobatga olinadi?
5. O'quv mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlashga qo'yiladigan zamonaviy talablar nimalarda iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Pedagogika nazariyasi/OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjayeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moiya", 2010. 136-140-b.
3. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika

universiteti, 2012.193-b.

5-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISH SHAKLLARI
(ma’ruza)

Reja:

1.Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda ta’lim turlari va shakllari tavsifi.

2.Ta’limni tashkil etish tizimi.

3. Kreativ pedagogika fanini o‘qitishning asosiy shakllari.

Tayanch tushunchalar: *matn, vizuallik, matnning vizuallik xususiyati, o‘quv topshiriqlari, o‘quv topshiriqlarining turlari, ish qog‘ozlari, keys, darajali test, auditoriyani jihozlash.*

Ma’ruza mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi. Shaxsda kreativlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar faqatgina ko‘ngilochar xarakterdagi topshiriq, mashq yoki vazifalardan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Balki, talabalarga beriladigan barcha topshiriq, mashq va vazifalar mavjud davlat ta’lim standartlarga mos kelishi, talabalarga bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘laqonli namoyish qila olish imkoniyatini yaratishi zarur. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar talabalarni asta-sekin mas’uliyatdan ozod qilish orqali mustaqil ta’lim olishga rag‘bat bildiradigan shaxs bo‘lishlariga erisha olishlari lozim (Fisher, Frey, 2008)[41].

Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo‘lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur. Quyida ularning ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tiladi.

[41] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014

Matnli axborotlarni grafik shakliga o‘tkazish. Matnli, ayniqsa, katta hajmdagi matnli axborotlar talabalar tomonidan qiyin qabul qilinadi. Zamonaviy sharoitda matnli axborotlarni grafik shakliga o‘tkazish talab etilmoqda. O‘quv axborotlarini grafik shakliga o‘tkazishda ma’lumotlarni model, sxema, jadval, diagramma, tasvir, klaster, matematik, fizik, geometrik ko‘rinishlarida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarzda talabalarga taqdim etilgan axborotlar talabalar tomonidan samarali qabul qilinadi. Ayni vaqtda OTM talaba, o‘quvchilarni “Innovatsion ta’limtexnologiyalari” yo‘nalishida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar bilan quyidagi matnli axborotni klasterda ifodalash ko‘nikma, malakalari bilan qurollantirildi:

B.Blum taksonomiyasi kategoriya (mezon)lari

№	Mezonlar	Mazmuni
1.	Bilish	Bilimlardan xabardor bo'lish, ularni o'zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi
2.	Tushunish	Bilimlar yuzasidan fikrlash, mushohada yuritish, nazariy holatdan amaliyotga ko'chish mantig'ini o'zlashtirish
3.	Qo'llash	Bilimlarni amaliyot (amaliy haraktlar)da qo'llash
4.	Analiz	Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit,birbutunobyekt, hodisa, voqelik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o'rganish, juz'iy xulosa chiqarish
5.	Sintez	Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun obyekt, hodisa, voqelik va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarish
6.	Baholash	Shaxsning nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma, malakalarga egaligini baholash

Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra “taksonomiya” tushunchasi “tartib bilan joylashtirish qonuni” ma’nosini anglatadi. Obyektlarni ularning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan holda murakkablashib boradigan darajalar ketma-ketligi (iyerarxik tarz)da joylashtirgan holda turkumlashtirish, tizimlashtirish “taksonomiya” deb ataladi. Pedagogik taksonomiya – pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq va xossasiga ko‘ra ko‘p bosqichli (iyerarxik) tuzilishga ega obyektlarini tavsiflash, tartibga solish va tizimlashtirish nazariyasi. B.Blum rahbarligida 1956-yilda AQSHda “Pedagogik taksonomiya” g‘oyalari e’lon qilindi. XX asrning 60-yillarida D.Kratvol va boshqalar tomonidan pedagogik maqsadlarni ifodalovchi taksonomiyaning navbatdagi g‘oyalari shakllantirildi



1. **Maxsus testlar bilan ishlash.** Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarda kreativlik qobiliyati va sifatlari mavjudligini aniqlashda E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalanish samarali natijalarni beradi.

2. Mazkur test quyidagi shtrixlaran iborat noaniq tasvirlardan iborat bo‘lib, tinglovchilarga ularni tugatib berish topshirig‘i beriladi:



OTM talaba, o‘quvchilarni P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi qo‘llash jarayonida tinglovchilar tomonidan ko‘plab takliflar beriladi. Berilgan takliflar tinglov-pedagoglarning qay darajada kreativlik sifatlariga egaligi, tasavvurining qanchalik boyligini ifodalaydi.

Ta’limni tashkil etish tizimi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o‘tgan qisqa vaqt ichida o‘zbek xalqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o‘z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug` ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o‘rganish sharafiga muyassar bo‘ldi, milliy g`ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilmoqda; o‘tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g‘oyalarini xalq hayotiga tatbiq etishdek ulug‘ ishlar amalga oshirilmoqda.

Asrimizning boshlarida Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan edi. Bu fikr hozirda demokratik jamiyat qurayotgan, kelajakda buyuk davlat barpo qilish niyatida bo‘lgan O‘zbekison Respublikasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Keng pedagogik ma'nodagi tarbiya ma’lum maqsadga

yo‘naltirilgan bo‘lib, jamiyat tomonidan tayyorlangan, ajratilgan kishilar yoxud o‘qituvchilar yoki tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi va turli xildagi o‘quv mashg‘ulotlari, maxsus o‘tkaziladigan bir qator tarbiyaviy tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Bizning mamlakatimizda yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning yagona tizimi yaratilgan bo‘lib, talabalarni ilmiy-dunyoqarash, insonparvarlik, g‘oyaviylik, ijtimoiy gumanizm hamda internatsionalizm, vatanimizga cheksiz muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash usuli qo‘llanib kelinmoqda.

Fanning bakalavr tayyorlash tizimida pedagogik qonuniyatlarini ishlab chiqarish taraqqiyoti, kollejlardagi tarbiyaviy munosabatlar, umumpedagogik mutaxassislik ta’limining o‘zaro bog‘liqligi metodlari bilan talabalarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlab borish ko‘zda tutiladi.

Pedagogika fani bo‘yicha mazkur ma’ruzalar matni kasbiy pedagogik tayyorgarlik bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv yurtning tarixan taraqqiy etish davrida ta’limni tashkil qilish shakllari turlicha bo‘lgan. Ta’limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya. A. Komenskiy (1592 - 1670) tarixda birinchi bo‘lib maktab ta’limida sinf-dars tizimini yaratdi.Ya. A. Komenskiyning ta’limni tashkil kilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo‘lsa ham g‘arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta’limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi.

Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan, Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tatbiq bo‘lmadi. Ularda oktyabr to‘ntarishiga qadar o‘rta asr maktablariga xos ta’lim tizimi davom etib keldi.

Sinf – yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘quvchilar guruhidir.

Dars deb bevosita o‘qituvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars – o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars – o‘quv ishlarining markaziy qismidir.

Ayni paytda, o‘quv yurtlarimizda ta’limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1.Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2.Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Darsga bo‘lgan talablar. Dars, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘qitishni tashkil etishning o‘zgarmas shakli emas. O‘quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko‘rik-tanlovlar, respublika miqyosida o‘tkazilayotgan pedagogik o‘qishlarda o‘rtaga qo‘yilayotgan ilg‘or o‘qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim.
2. Har bir dars mustahkam g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozim.
3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i lozim.
4. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog‘i lozim.
5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.
6. Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning faolligi birligini ta’minlamog‘i lozim.
7. Darsda o‘quv materiallarining mazmuniga oid ko‘rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.
8. Dars mashg‘ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o‘quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.
9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan fondalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Kreativ pedagogika fanini o‘qitishning asosiy yo‘nalishlari.

Pedagogik kreativning yo‘nalishlari ko‘p bo‘lib, ulardan ba’zilarini keltiramiz.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan pedagogik kreativlar: hamkorlik pedagogikasi, ta’limning insonparvarlikka asoslangan kreativlik va boshqalar.

Ta’lim oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik kreativlik. Muammoli ta’lim, o‘yinlar, tayanch signallar konspektlari kreativligi va boshqalar.

O‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik kreativlik. Bu kreativlar o‘rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo‘lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, ta’lim oluvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan kreativlik. Bu tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta’lim kreativligi; ta’limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta’lim kreativligi kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik kreativlik. Bularga ta’lim oluvchining tabiiy imkoniyatlari, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil kilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik kreativlar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta’lim kreativlari. Bularga ta’lim oluvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy

Bulardan tashqari, **xususiy (o‘quv fanlari), alternativ hamda mualliflik pedagogik kreativlari** yo‘nalishlari ham mavjud.

Shuningdek, hozirda pedagogik kreativlikning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv,

evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik kreativlardir. Bu yo‘nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha.

Empirik - sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu kreativda asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv – atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish kreativi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi.

Topkirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi bo‘lib, optimallashgan (bir necha variantlardan eng ma’qulini, mosini, muvofiqini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ – tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion – axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv – axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda

o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv – o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchining o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Hozirda pedagogik kreativning yuqorida aytilganlardan tashqari mutaxassislar tomonidan tajriba-sinovlar olib borilayotgan boshqa yo‘nalishlari ham mavjud.

Ta’lim jarayoniga pedagogik kreativlikni joriy etishning o‘rni. Oliy ta’limni isloh qilish bu masalalarga ilmiy asoslangan

nuqtai nazardan yondashishga majbur etadi. Har qanday loyihalash, o‘qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo‘lgani holda uning texnologikligi hisoblanmaydi. Loyihalash *metodologik funksiya* bajaradi. U talabaning psixik rivojlanish qonuniyatlari, o‘quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Oliy o‘quv yurtida ta’limni *takomillashtirish maqsadida* pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o‘quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta’lim kreativini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O‘qitish kreativi ta’limning faoliyatini ta’minlaydi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta’minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo‘liga ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy o‘qitish kreativ shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo‘lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta’lim kreativlari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo‘naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo‘lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o‘qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda *pedagogik kreativlar* ishlab chiqiladi.

Pedagogik kreativlar ta’riflariga bo‘lgan turli yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, haqiqatdan ham o‘qitish kreativlari fan va ishlab chiqarish hamda o‘quv-pedagogik jarayon oralig‘idan o‘rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo‘lib, u o‘qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. U o‘quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o‘zida qamrab oladi.

O‘qitish kreativsi tarkibiga o‘quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o‘qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O‘quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

*O‘qitish kreativligi, o‘qitish nazariyasi, o‘qitish texnikasi***.** Ular o‘quv faoliyatini boshqarish haqidagi pedagogik sohalardir, ular umumlashtirilgan darajasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Pedagogik kreativ ta’lim istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir. ***o‘qitish kreativligini*** *belgilash* **–** bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta’limiy va takomillashish samarasini ta’minlovchi o‘quv jarayonini me’yoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik kreativning ***uch aspekti*** to‘g‘risida fikr yuritiladi:

- ***ilmiy*** *aspektda* o‘qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.
- ***tavsifiy*** *aspektda* rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.
- ***amaliy*** *aspektda* pedagogik kreativ jarayoni amalga oshiriladi. Ta’lim amaliyotiga nisbatan pedagogik kreativning ***uch sathi*** belgilanadi:
- ***umumpedagogik*** kreativ yaxlit ta’lim jarayonni ifoda qiladi.
- ***xususiy metodik*** kreativ bir fan doirasidagi o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo‘ladi.
- ***lokal yoki modul*** kreativ o‘quv tarbiya jarayonining maxsus bo‘limlariga kreativni tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu kreativ xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Pedagogikada *o‘qitish* kreativlari bilan birga ***ta’limiy kreativlar*** ham o‘rin olgan. Ta’limiy kreativlar *mazmun-axborot aspektni* bildirsa, o‘qitish kreativsi *jarayonga aloqador* deb hisoblanadi, ya’ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik kreativ talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo‘lishi lozim.

Kasbiy ta’lim tizimida o‘qitish kreativlari *fundamental va amaliy* bilimlarning o‘zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o‘z kasbiy faoliyatini shakllantiradi. Pedagogik kreativ o‘qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko‘ra ***pedagogik kreativning tuzilmasi*** aniqlanadi: ***konseptual asos, ta’lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayondan*** iborat bo‘ladi.

Har bir pedagogik kreativ muayyan *ilmiy konsepsiyaga* asoslanadi. Pedagogik kreativning ilmiy konsepsiyasi ta’lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi. *Texnologik jarayon* o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o‘quv jarayonini boshqarish usullari, o‘quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik kreativni qanoatlantiradigan ***mezonlarni*** belgilaydilar:

- ***izchillik*** pedagogik kreativning mezoni sifatida jarayonning mantiqiyligi, pedagogik kreativning barcha qismlarining o‘zaro bog‘likligi, yaxlitligini o‘z ichiga oladi.
- pedagogik kreativning mezonlaridan biri ***boshqaruv***ga asoslanganligidir. U o‘quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o‘qitish metodlari va vositalari bilan o‘zgartirib turishdan iborat bo‘ladi.
- pedagogik kreativning ***samaradorlik*** mezoni ta’lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko‘zda tutadi.
- ***qayta tiklash*** pedagogik kreativlar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik kreativlarni boshqa o‘quv yurtlarida qo‘llash imkoniyati tushuniladi.

Shunday qilib, oliy va o‘rta maxsus maktabda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo‘lg‘usi o‘qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o‘rin tutadi. U bo‘lg‘usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o‘qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo‘nalganligani idrok qilish, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog‘langan. Bo‘lg‘usi

pedagogning texnologik tayyorgarligi oliy o‘quv yurtida pedagogik kreativlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurti ta’lim jarayonida ***foydalaniladigan va keng tarqalgan*** pedagogik kreativ holatlar:

- *muammoli o‘qitish;*
- *o‘yinli kreativlar;*
- *tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi kreativlar;*
- *o‘qitishning tabaqalashtirilgan va individual kreativsi;*
- *programmalashtirilgan o‘qitish kreativsi;*
- *kompyuter axborot kreativsi.*

Muammoli o‘qitish jarayonida kreativ holatlar:

“***Fikrlar hujumi***” - bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni engishdir, bu metod A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan. bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g‘oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibani rag‘batlantirishdir, bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi – mashg‘ulot rahbariga bog‘liq. “Fikrlar hujumi” ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak, mashg‘ulotning davomiyligi bir soatgacha.

Yalpi “fikrlar hujumi”, bu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan, u katta guruhlarda - 20 dan 20 tagacha bo‘lgan yangi g‘oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta’minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo‘yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o‘zaro “fikrlar hujumi” o‘tkazadi. Shundan so‘ng har bir kichik guruh vakili o‘z guruhlarida ishlab chiqilgan g‘oya haqida axborot beradilar va o‘qituvchi rahbarligida jamoa bo‘lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” – destruktiv berilgan baho bilan dialog, bu metod E.A. Aleksandrov tomonidan taklif qilingan, G.YA. Bo‘sh tomonidan o‘zgartirilib yo‘lga qo‘yilgan dialogning mohiyati shundaki, kollektiv bo‘lib g‘oyalar ishlab chiqishda

ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g‘oyalar qo‘yiladi.

Mashg‘ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o‘tkaziladi: 1-bosqich: miqdor va psixologik muloqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarni shakllantirish; 2-bosqich: vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash; 3- bosqich: to‘g‘ridan-to‘g‘ri “fikrlar hujumi” qoidasiga asosan har bir guruhda g‘oyalar ishlab chiqish; 4-bosqich; g‘oyalarni tartibga solish va tasniflash; 5-bosqich: g‘oyalarni destruktivlash, ya’ni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash; 6-bosqich: avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish.

“Tarmoqlar” - fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“Bumerang” – mazkur kreativ bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida chiqishi mumkin. “Bumerang” kreativsi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati; muomalalik; xushfe’llik; ko‘nikuvchanlik; o‘zga fikriga hurmat; faollik; rahbarlik sifatlarini

shakllantirish; ishga ijodiy yondashish; o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish; o‘zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

- *ochiq savollar* – bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.
- *yopiq savollar* – bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq, javoblarni berishni ko‘zda tutadi.
- *ko‘ndalang so‘roq* – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.
- ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas, bu vaqtda *faqat savollar beriladi*, munozaraga kirishilmaydi.

Kreativ faoliyatining nazariy omillari:

A.I. Prigojin **innovatsiya-kreativ** deganda *muayyan ijtimoiy birlikka – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.* Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: *yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta’siri mikrosathi.*

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi. **Ikkinchi yondashuvda** alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’siri,

ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar.

Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- *fikrining ravonligi;*

- *fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;*
- *o‘ziga xoslik (originallik);*
- *qiziquvchanlik;*
- *farazlar yaratish qobiliyati;*
- *xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)*

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial – ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon – natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt – shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko‘rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- *rag‘batlantirishning samarali yoki sustkashlik bosqichi. Shaxsning bu bosqichiga unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;*
- *intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o‘z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish, oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;*
- *intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo‘lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo‘lib qoladi.*

Rag‘batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarni quyidagi bo‘limlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi:

- *potensial kreativlik;*
- *faoliyatdagi kreativlik.*

Potensial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faolkreativlikka aylanishga nazariy tayyor

shaklda namoyon boʻladigan individiumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy subyektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik – faoliyatning biror turida ijodiy faollik koʻrsatuvchining bevosita tayyorgarligini taʼminlaydigan faoliyatining u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individiumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim subyektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar koʻrsatadiki, potensial kreativlik amalga oshirish mumkin boʻlgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka oʻtkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (subyekt) tomonidan uning oʻzlashtirilishida tub oʻzgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida oʻzgartirib borish haqidagi qarashlariga qoʻshilgan holda uni toʻldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yoʻli bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

Oʻqituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari. Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik

qurilmasiga, balki oʻqituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

Oʻqituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning toʻqnashuvi va oʻzaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini koʻzda tutadi.

Oʻqituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart- sharoitlarga bogʻliq. Unga oʻqituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan begʻaraz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida oʻqituvchi oʻz bilim va ilmiy faoliyatini taʼminlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega boʻladi.

Oʻqituvchi faoliyatida oʻz-oʻzini faollashtirish, oʻz ijodkorligi,

o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini* tug‘dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati – bu o‘qituvchining o‘z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o‘ziga bo‘lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir.

O‘qituvchi o‘z nuqtai nazarlariga o‘ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi.

Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o‘zgarib boradi, hissiy tuyg‘ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti – bu o‘qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi.*

***O‘qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o‘zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir*.**

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an’analarda bo‘lganidek, qistovlar, hukmga bo‘ysunish kabi unsurlardan holi bo‘lishi lozim. Ular tenglarnin talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- *kasbiy faoliyatning ongli tahlili;*
- *me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;*
- *kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;*
- *dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;*
- *o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.* Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik kreativlar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

- *ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni kreativsining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;*
- *ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, kreativlarini qidirishni taqozo qiladi;*
- *pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda – sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- *mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;*
- *kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;*
- *yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik*

darajasini aniqlash;

- *yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;*
- *yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.*

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.V.A.Slastenin tadqiqotlarida o‘qituvchining innovatsion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- *shaxsning ijodiy-motivatsion yo‘nalganligi. Bu – qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intil ish; peshqadamlikka intilish; o‘z kamolotiga intilish va boshqalar;*
- *kreativlik. Bu – xayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo‘lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o‘zicha mushohada yuritish, refleksiya;*
- *kasbiy faoliyatni baholash. Bu – ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat kreativsini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;*
- *o‘qituvchining individual qobiliyati. Bu – ijodiy faoliyat sur’ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat’iyatlik, o‘ziga ishonch; mas’uliyatlilik, halollik, haqiqatgo‘ylik, o‘zini tuta bilish va boshqalar.*

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o‘qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me’yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- *innovatsion foliyatga bo‘lgan zaruriyatni anglash;*
- *ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;*
- *shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;*
- *ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;*

- *innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;*
- *innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;*
- *kasbiy refleksiyaga bo'lgan qobiliyat.*

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri – o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'n

- *yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;*
- *yangicha harakat qila olishga o'rgatish.*

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish kreativlari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi qanday ahamiyatga ega?
2. O'quv topshiriqlarining qanday turlari mavjud?
3. O'quv mashg'ulotlar uchun topshiriqlarni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratilai?
4. O'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini tayyorlash qanday didaktik ahamiyatga ega?
5. Kreativ yondashuv asosida o'quv fanlari bo'yicha nazorat-sinov- topshiriqlarini tayyorlashda qanday talablar inobatga olinadi?
6. Talabalarning o'quv faolligini oshirishda keys va darajali testlar to'plamini shakllantirishning ahamiyati qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections. php?tab_id=3&a=info&id=2600.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

3. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.

4. Савелина М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в проыессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.-мет.пособие.– Ижевск:ФГБОУВПО “Удмурыкий университет”, 2013. – С. 9.

5. Сборник кейсов для по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла/ Учебb. мет. пособие. – СПб.: Изд-о Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. – С. 3.

6-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA METOD VA VOSITALAR
(ma’ruza)

Reja:

1. Kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlari.
2. Kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Kreativ pedagogika fanini o‘qitish vositalari va ularning tasnifi.

Tayanch tushunchalar: *kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlari. Kreativ ta’lim usullari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar*

1. Kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlari. Kreativ ta’lim usullari. Ingliz adabiyotida “ijodkorlik” atamasi yangi narsa yaratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hamma narsani anglatadi; bunday yaratish jarayoni; ushbu jarayonning mahsuloti; uning mavzusi; kreativ jarayon qanday sharoitlarda; uni keltirib chiqaruvchi omillar va boshqalar. “Kreativlik”, “ijodkorlik” bilan sinonimik tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Ijodkorlik – (lot. Creatio - yaratish) ijodiy, innovatsion faoliyat; “shaxsning tubdan yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati bilan tavsiflangan va mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiritilgan kreativ qobiliyatlarni” bildiradigan eng yangi atama (P. Torrens bo‘yicha).

F.Barron va D.Xarringtonlar 1970-1980-yillarda ijodkorlik sohasidagi tadqiqotlar natijalarini jamlab, ijodkorlik haqidagi ma’lumotlarni quyidagi umumlashtirishni amalga oshirdilar:

1. Ijodkorlik – yangi yondashuvlar va mahsulotlarga

bo‘lgan ehtiyojga moslasha olish qobiliyati.

2. **Yangi kreativ** mahsulotning yaratilishi ko‘p jihatdan ijodkorning shaxsiyati va uning ichki motivatsiyasining kuchiga bog‘liq.

3. **Shaxsning, kreativ** jarayonning, mahsulotning o‘ziga xosligi ularning o‘ziga xosligi, asosliligi, topshiriqning adekvatligi va muvofiqligi (estetik, ekologik, shakl optimalligi, hozirgi vaqtda to‘g‘riligi va o‘ziga xosligi).

4. Kreativ mahsulotlar tabiatan juda xilma-xil bo‘lishi mumkin: matematikada muammoning yangi yechimi, kimyoviy jarayonning ochilishi, musiqa, rasm yoki she’r yaratish, yangi falsafiy yoki diniy tizim, huquqshunoslikdagi yangiliklar, ijtimoiy muammolarni yangicha hal etish va boshqalar.

Kreativ usullar talabalarning o‘zlarining professional mahsulotlarini yaratishga qaratilgan.

Kreativ o‘qitish usullarining tasnifi:

1) **intuitiv** (“aqliy hujum”, empatiya, ixtiro) – mantiqsiz harakatlarga, o‘qituvchilarning intuitsiyasiga asoslangan;

2) algoritmik retseptlar va ko‘rsatmalar

(Sinektika usullari, “morfologik tahlil”) – o‘qituvchilar tomonidan o‘quv mahsulotlarini yaratish uchun mantiqiy yordamni qurish; 3) evristik – o‘qituvchilarga muammolarni hal qilishda yordam berish, ularning mumkin bo‘lgan to‘g‘ri yechimlariga “ishora qilish” va bunday yechimlar variantlarini qisqartirish.

Ixtiro qilish usuli – o‘qituvchilarning ma’lum aqliy harakatlarining natijalariga ko‘ra ilgari noma’lum bo‘lgan mahsulotni yaratish usuli. Usul quyidagi texnikalar yordamida amalga oshiriladi: a) yangi obyekt yaratish uchun bir obyekt sifatini boshqasining sifati bilan almashtirish; b) obyekt xususiyatlarini boshqa muhitda izlash; v) o‘rganilayotgan elementning o‘zgarishi va bu o‘zgarish natijasida olingan yangi obyekt xususiyatlarining tavsifi.

“Agar ...” usuli. Talabalarga, masalan, boshqa kasbiy vazifani bajarsa, nima sodir bo‘lishini tavsiflash va rasm chizish tavsiya etiladi.

Giperbolizatsiya usuli. Bilish obyekti, uning alohida qismlari

yoki sifatlari ortib bormoqda, yoki kamaymoqda: huquqiy ta’limda hali mavjud bo‘lmagan yangilik ixtiro qilinadi.

Aglutinatsiya usuli. Talabalarga obyektning haqiqatga mos kelmaydigan fazilatlarini, xususiyatlarini, qismlarini birlashtirish va ularni tasvirlash taklif etiladi.

“Aqliy hujum” usuli – bu kreativ muammolarni guruhda hal qilish usuli yoki kommunikativ hujum usuli (A. Osborn, AQSh, 1937). Usulning asosiy vazifasi munozara ishtirokchilarini fikrlash inersiyasidan va stereotiplardan ozod qilish uchun juda ko‘p g‘oyalarni to‘plashdir. Usulning xarakterli xususiyatlari quyidagilardir: ishtirokchilarning kreativ fikrini faollashtirishga e'tibor berish; shaxsning tanqidiyligi va o‘zini o‘zi tanqid qilishni kamaytiradigan vositalardan foydalanish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatma va / yoki hamdardlikni, o‘zaro yordam va ma'qullashni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish), buning natijasida uning o‘ziga ishonchi oshadi; maxsus tanlangan shaxslar guruhida (“g‘oya generatorlari”) erkin, cheksiz g‘oyalarni yaratish asosida faoliyat yuritish bu – shaxsning intellektual qobiliyatlarini zaiflashtirish orqali ozod qilish sharoitida uning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘li. Psixologik to‘siqlar; shaxsning o‘zini o‘zi tanqid qilish darajasini pasaytirish va asl g‘oyalarni xavfli deb, ong ostiga o‘tkazishning oldini olish; yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratish; psixologik xavfsizlik hissini targ‘ib qilish.

Sinektika usuli – bu turli xil elementlarning kombinatsiyasi orqali o‘quvchilarning tasavvurini rag‘batlantirish usuli (J.Gordon, AQSh, 1952), “aqliy hujum” usuliga asoslangan, har xil turdagi analogiyalar (og‘zaki, majoziy, shaxsiy), inversiya, assotsiatsiya va boshqalar. Usulning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: muammoni hal qilishda turli soha mutaxassislarini jalb qilish orqali tor imkoniyatlardan tashqariga chiqish (sinektika guruhi) harakat maydonini kengaytirish, kutilmagan fikrlar, g‘ayrioddiy analogiyalar to‘qnashuvi tufayli muammoni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri, subyektiv, ramziy, fantastik) tafakkurni rivojlantiradi; shaxsning meditatsiyasini oshirish, obyektga imkon qadar ko‘proq e’tibor berishga yordam beradi, intuitiv jarayonni faollashtirish uchun

maqbul sharoitlarni yaratadi. Birinchidan, muammoning umumiy belgilari muhokama qilinadi, birinchi yechimlar ilgari suriladi va bartaraf etiladi, analogiyalar yaratiladi va ishlab chiqiladi, muammoni tushunish uchun analogiyalardan foydalaniladi, muqobil variantlar tanlanadi, yangi analogiyalar izlanadi. Shundan so‘ng ular muammoga qaytadilar. Sinektika usulini qo‘llashda natijalarga qaramaslik tavsiya etiladi, chunki fikrning so‘zlashuvi uning rivojlanishini sekinlashtiradi.

Tizimli tahlil tamoyiliga asoslangan “morfologik tahlil” usuli (ko‘p o‘lchovli matritsalar usuli) (F. Zwickli, Shveytsariya, 1942). Yangi g‘oyani ishlab chiqish jarayonida talabalar ushbu g‘oya yoki vazifaning xususiyatlarining to‘liq ro‘yxatini (xususiyatlar, jarayonlar, parametrlar, mezonlar va boshqalar) ochib beradigan matritsani tuzishlari kerak. Kompilyatsiya qilish orqali yangi, kutilmagan va o‘ziga xos g‘oyalarni topish jarayoni mavjud

Tashkiliy faoliyat usullari, tartibga solish turi bir nechta guruhlar shaklida taqdim etiladi.

Talabalarning maqsad qo‘yish usullari: o‘qituvchi taklif qilgan to‘plamdan o‘quvchilarning maqsadlarni tanlashi; bolalar tomonidan tuzilgan maqsadlarni keyinchalik batafsil tavsiflash bilan tasniflash; talabalarning maqsadlarini ularga erishishning realligi uchun muhokama qilish; talabalar tomonidan oldindan belgilangan algoritmlardan foydalangan holda maqsadlarni loyihalash; talabalar tomonidan ta’lim maqsadlari va vazifalarining o‘z taksonomiyalarini tuzish; fikrlash natijalari asosida maqsadlarni shakllantirish; individual va jamoaviy maqsadlarning nisbati, o‘quvchi, o‘qituvchi, maktab maqsadlari; maktabda qadriyat normalari va qoidalarini ishlab chiqish.

Talabalarni rejalashtirish usullari. Maktab o‘quvchilari o‘zlarining ta’lim faoliyatini ma'lum bir davrga (dars, kun, hafta) yoki mavzu, bo‘lim, kreativ ish bo‘yicha rejalashtirish taklif etiladi. Reja og‘zaki yoki yozma, oddiy yoki murakkab bo‘lishi mumkin, asosiysi, u o‘z maqsadiga erishish uchun talabaning asosiy bosqichlari va faoliyatini ko‘rsatadi. Ish jarayonida reja o‘zgartirilishi yoki to‘ldirilishi mumkin, talaba o‘zgarishlarni tuzatadi, ularning sabablarini aniqlaydi va ish oxirida rejalashtirishni aks ettiradi.

Talabalar uchun ta’lim dasturlarini yaratish usullari. Individual ta’lim dasturlarini yaratish talabalardan bir qator usullarni o‘zlashtirishni talab qiladi: o‘z o‘rganish mavzusini semantik ko‘rish; faoliyatning asosiy maqsadlari va yo‘nalishlarini belgilash; o‘rganiladigan masalalar va mavzularni tanlash; turli masalalar va mavzularda o‘z taqdirini o‘zi belgilash usuli; rejalashtirish usuli; o‘z maqsadlariga erishish shartlarini aniqlash usuli; adekvat o‘z-o‘zini baholash va aks ettirish usuli.

Qoidalarni ishlab chiqish usullari. Talabalar tomonidan individual va jamoaviy faoliyat normalarini ishlab chiqish evristik jarayon bo‘lib, u faoliyatni aks ettirish, uning elementlarini aniqlash, faoliyat subyektlari va ularning funksional huquqlarini belgilash, tashkiliy va tematik asoslarni belgilash, qoidalar va qonunlarni shakllantirish usullaridan foydalanishni talab qiladi.

Qoida yaratish jarayonida uslubiy, pedagogik, refleksiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi topshiriqlarga misollar: “So‘zni qanday talaffuz qilish kerak”, “So‘zni qanday o‘rganish kerak”, “Muammoni qanday hal qilish kerak”, “Qanday kuzatish kerak” ko‘rsatmalarini tuzing. Hodisa”, “Qanday musiqa tinglash kerak” va boshqalar.

Ta’limni o‘z-o‘zini tashkil etish usullari: darslik, asosiy manbalar, qurilmalar, real obyektlar bilan ishlash; masalalarni yechish, mashqlar bajarish; modellar, hunarmandchilik; kreativ izlanishlar va boshqalar. Shaxsiy ta’lim dasturlarini amalga oshirishda o‘quvchilarning o‘zini o‘zi tashkil etish usullari ham ahamiyatli bo‘lib bormoqda: dasturlarni ishlab chiqish usullari, ularni boshqa dasturlar (o‘qituvchilar, talabalar) bilan muvofiqlashtirish va tuzatish, natijalarni baholash usullari va boshqalar.

O‘zaro ta’lim usullari. Talabalar juftlik, guruhlar yoki jamoaviy darslarda butun sinf bilan birgalikda o‘zlariga mavjud bo‘lgan pedagogik usullarni qo‘llagan holda o‘qituvchining funksiyalarini bajaradilar.

Ko‘rib chiqish usuli. Do‘stning o‘quv mahsulotiga, uning og‘zaki javobiga, darslik materialiga, tomosha qilingan videoga tanqidiy qarash, ularning mazmunini tahlil qilish, asosiy fikrlarni ajratib ko‘rsatish – o‘quvchilarning o‘zini o‘zi belgilashi uchun

zarur shart-sharoitlar. Koʻrib chiqish usulini mashgʻulotlarga joriy etishdan oldin tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Birinchi sharhlar maxsus mos yozuvlar sxemalari yordamida tuzilgan. Talabalarning baholashlari va mulohazalari ragʻbatlantiriladi, sharhlarga ijobiy munosabat oʻrnatiladi.

Nazorat usullari. Oʻquvchiga yoʻnaltirilgan ta'lim ta'lim faoliyati baholash mezonlarini oʻzgartiradi. Tashxis qilinadi va baholanadi, birinchi navbatda, oʻquvchining oʻsishi, uning ichki fazilatlari. Shaxsiy fazilatlarning oʻzgarishi – bilim, koʻnikma, malakalar – oʻquvchi tomonidan yaratilgan ta'lim mahsulotlarini tahlil qilish orqali tashxis qilinadi. Masalan, oʻquvchi chizgan dunyo rasmiga ma'lum elementlar qoʻshilsa, uning dunyo haqidagi tasviri, u haqidagi bilimlari mutanosib ravishda oʻzgarib, aktuallashgan boʻladi.

Refleksiya usullari. Ta'limning tarbiyaviy natijasi faqat talaba tomonidan amalga oshiriladigan narsadir. Agar talaba nima qilganini va nimani oʻrganganini tushunmasa, oʻz faoliyatining usullarini, paydo boʻlgan muammolarni, ularni hal qilish yoʻllarini va olingan natijalarni tushunarli shakllantira olmasa, uning ta'lim natijasi yashirin shaklda boʻladi. Bu undan keyingi ta'lim uchun foydalanishga ruxsat bermaydi.

Oʻz-oʻzini baholash usullari. Talabaning oʻzini oʻzi baholashi yakuniy fikrlashdan kelib chiqadi va ta'lim siklini yakunlaydi. Oʻz-oʻzini baholash sifat va miqdoriy xarakterga ega: sifat koʻrsatkichlari talabaning ta'lim dasturi asosida shakllantiriladi yoki oʻqituvchi tomonidan belgilanadi; miqdoriy jihatdan.

2. **Kreativ pedagogika fanini oʻqitish metodlarining oʻziga xos xususiyatlari. "Kreativ faoliyatni oʻrgatish metodikasi" tushunchasining mohiyati va mazmuni.** Buyuk Britaniyada kreativ faoliyatni oʻqitishning asosiy shartlaridan biri bu maxsus (ijodiy) oʻqitish usullaridan foydalanishdir. Chet elda ushbu konseptsiyaning mohiyatini aniqlash uchun mahalliy oʻqituvchilar tajribasiga murojaat qilaylik.

Mahalliy pedagogikada kreativ faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan oʻqitish usullarining aniq ta'rifi va farqlanishi mavjud. Oʻquv jarayonining yetakchi tadqiqotchilari (V.I.Zagvyazinskiy, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, M.N.Skatkin va boshqalar) tasniflarida

oʻqitishning evristik, muammoli va tadqiqot usullari qayd etilgan. Ushbu tadqiqot kreativ faoliyatga oʻrgatish metodlarini oʻrganish muammosiga asoslanganligi sababli, bizning fikrimizcha, mahalliy ta'lim nazariyasida ham shunga oʻxshash usullarni aniqlash kerak.

Evristik ta'lim usullari deb ataladigan narsa oʻz ildizlarini Sokratik dialog usulidan oladi, bu oʻqituvchi tomonidan talabalarga beriladigan bir qator yetakchi savollardan iborat va rasmiy (toʻgʻridan-toʻgʻri) usullarga qarshi boʻlib, nostandart muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishga asoslangan .

Ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarning

bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta’lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi oʻquv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qoʻyilayotganligi, ta’lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, oʻquvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yoʻllash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng koʻlamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar koʻzga tashlanayotgan bir vaqtda oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Oʻquvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi, zamon talablariga javob bera olmagani uni reyting tizimi asosida baholash uslubi bilan almashtirishni taqozo etdi. Shu oʻrinda “Qanday sabablarga koʻra besh balli baholash mezoni oʻzini oqlamadiq” degan savolga javob berish oʻrinlidir:

Birinchidan, Oʻzbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ta’limni dekmokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Besh balli baholash tizimi qattiqqoʻllik, oʻqituvchining mustabidligi hamda uning ta’lim jarayonida yakka hukmronligini ta’minlashga xizmat qilib kelgan.

Demak, ushbu jarayonda talab va amaldagi holat bir-biriga muvofiq kelmaydi.

Ikkinchidan, baholash mezoni oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida ixtiloflarni keltirib chiharishga emas, aksincha, oʻzaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

Uchinchidan, baholash mezoni faqatgina oʻquvchilar tomonidan bilim, koʻnikma va malakalarning oʻzlashtirilish darajasini nazorat qilish uchungina emas, balki ta’limni tashhis etishning faol koʻmakchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qoʻyish tartibini bildirib, mohiyatan baholar oʻrtasida yigʻindisining oʻrtacha arifmetik qiymati asosida choraklik (yillik) bahoni belgilashdan iborat.

Masalan, oʻquvchi biror oʻquv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4

va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo‘yicha ham shunday natijalarni qayd etgan bo‘lsa, unga chorak uchun “4” baho qo‘yiladi. Bu esa o‘quvchi joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi tayyorgarlik ko‘rib, ijobiy baholanishiga, chorak oxirida muayyan mavzudan olgan “5” bahoga berilgan javoblarining mutlaqo inobatga olmasligiga sharoit yaratadi.

“Reyting” (inglizcha baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash. Reyting tizimi o‘quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli sifatida e’tirof etilib, uning yordamida o‘quvchilarning o‘quv fanlari bo‘yicha ta’lim standartida belgilangan barcha talablar bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlari sifati baholanadi.

Reyting tizimida o‘zlashtirish natijasi nazoratning ko‘rsatilgan barcha shakllardan o‘tish jarayonida to‘plangan ballarni qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o‘quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo‘yilsa, o‘quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to‘plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u yetarlicha reyting ballini to‘plamaguncha va barcha nazorat shaklidan o‘tmagancha attestatsiya qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o‘rtasida tafovut kelib chiqishining oldini oladi.

Reyting tizimi yana bir qator afzalliklarga ega, chunonchi:

- ta’lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;
- o‘quvchi bilimini eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;
- ta’limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;
- ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan o‘quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to‘laligicha o‘zlashtirilishi;
- o‘quvchilarda o‘z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallashga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;
- o‘quvchilarda yomon baho olishga bo‘lgan qo‘rquv yo‘qolib, uning o‘rniga bilimlarni ixtiyoriy o‘zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo‘lida mustaqil ishlash imkoniyati

yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo‘rquv o‘rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug‘iladi, o‘rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

Biroq, bugungi kunda ham maktab amaliyotida besh balli baholash tizimidan foydalanilayotganligi bois pedagoglar mazkur tizimning rag‘batlantiruvchi rolini oshirish yo‘llarini izlamoqdalar. Bu borada bir necha usullardan foydalanishmoqda. Xususan:

1. Baholarni qo‘shish va ayrish alomatlari bilan ifodalash. Sinf jurnallarini yuritishning amaldagi qoidalari ifodaviy belgili baholarni qo‘llashga imkon bermaydi. Shu bois pedagog murosa qilib, sinf jurnaliga aniq baholarni qo‘yadi, plyus-minuslarni esa shaxsiy yon daftarchasida qayd etib boradi;

2. Raqamni balli baho (qo‘shimcha baho) bilan to‘ldirishi. Bu usul instruktiv ta’qiqlarga ega emas, biroq pedagoglar tomonidan kam qo‘llaniladi, zero, bu usul dars davomida shusiz ham tanqisligi seziladigan vaqtni ko‘proq sarflashni talab etadi;

3. O‘qituvchining kundalik daftarga baho qo‘yish bilan birga ota-onalar uchun qaydlarni yozishi. Bu usul o‘quvchining oila oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga asoslanadi. Quyidagi holat inobatga olinmasa, bunda biror g‘ayri oddiylik yo‘q. Kundalikda qayd etilgan yozuvlar mazmuni bilan tanishish ularning asosan salbiy mazmunda ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, salbiy fikrlar o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan rag‘batni barbod qiladi. Tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, 5-6-sinf o‘quvchilarida ta’lim olishga bo‘lgan rag‘batning pasayishini ta’minlovchi omil – aynan kundalikdagi salbiy mazmundagi qaydlardir.

4. Kommunikativ motiv – tengdoshlarining munosabati, fikri. O‘quvchilar tengdoshlarining munosabati, fikrlariga nisbatan e’tiborsiz bo‘la olmaydilar. Pedagog ana omildan foydalana olishi zarur, biroq uni suiste’mol qilish yaramaydi, zero, bunday yondashuv ham o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan rag‘batni susaytiradi. XIX-XX asr boshlarida gimnaziyalarda shunday qoida ustun bo‘lgan: o‘quvchini jamoa oldida maqtash mumkin, lekin koyish mumkin emas. Bugun ham ta’lim amaliyotida ana shu qoidaga amal qilish foydadan holi emas.

5. Kommunikativ ta’sirni kuchaytirish, bu o‘rinda o‘quvchilarni o‘z sinfdoshlarining muvaffaqiyatlari va

muvaffaqiyatsizliklarini his qilish, unga yordam koʻrsatishga oʻrgatishdan iborat;

6. Oʻzlashtirish ekranlaridan foydalanish. Sinfda ekran osib qoʻyilib, unda oʻquvchilarning barcha baho koʻrsatkichlari qayd etib boriladi. Buning kamchiligi a'lochilarda kibrlanish, past oʻzlashtiruvchilarda esa befarqlik yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olish uchun oʻquvchilarni axborotni toʻgʻri qabul qilishga oʻrgatib borish zarur.

7. Oʻz-oʻzi bilan musobaqa tashkil etish, har hafta oxirida oʻquvchi oʻz faolitini tahlil etadi. Yakunlangan haftada oʻzlashtirish pasaysa, garchi u a'lochi boʻlib qolaversa ham oʻquvchi musobaqada boy beradi. Aksincha, kuchsiz oʻquvchi yakunlangan haftada samarali ishlasa, gʻolib chiqqan hisoblanadi. Oʻz-oʻzi bilan musobaqada barcha oʻquvchilar teng sharoitda boʻladilar, ya'ni, past oʻzlashtiruvchi oʻquvchi bitta past bahoni kam olsa, yutgan, a'lochi oʻquvchi esa bitta a'lo bahoni kam olgan boʻlsa yutqazadi. Anglanganidek, bu usul oʻzlashtirish uchun emas, balki oʻzlashtirishni yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Ta'limning "kredit-modul" tizimi

Universitetga oʻqishga kirganingizdan soʻng talaba sifatida u yerda aynan qaysi fanlarni oʻrganishni qisman boʻlsa-da, oʻzingiz tanlashingiz mumkinligini hech tasavvur qilganmisiz?

Har bir oʻqituvchi semestr boshida talabalariga oʻz fani boʻyicha dasturini taqdim etib, unda ushbu fan nima haqidaligi, talabalar ushbu fanni oʻrganish natijasida amaliyotda nimalar qila olishi haqida batafsil tushuntirib, shundan keyingina darslarni boshlashini-chi?

Qoʻshimchasiga deng, oliy ta'lim muassasalari (OTM) oʻzining har bir bakalavr yoki magistratura dasturlari boʻyicha kataloglar (kitobchalar) ishlab chiqib, undan siz oʻqish davomida qaysi fanlarni oʻrganishingiz mumkinligi, ushbu fanlarni kimlar oʻqitishi, dastur davomida siz mutaxassis sifatida qanday bilim, koʻnikma va mahoratlarga ega boʻlishingiz haqida batafsil ma'lumot olishingiz mumkin boʻlib, shundan soʻng oʻquv yili boshlansa-ya! Bu

xususiyatlar mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ham asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda va bu tizimning nomi – **ta’limning “kredit-modul” tizimi**.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konцepцiyasi”ga ko‘ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Masalan, kelayotgan 2020-2021-o‘quv yilining o‘zida mamlakatimizdagi 33 dan ortiq yirik OTMlar kredit-modul tizimiga o‘tishi kutilmoqda. Mazkur OTMlarda asosan ECTS kredit-modul tizimi joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Xo‘sh, ta’limning kredit-modul tizimi o‘zi nima? Ushbu tizim talabalarga nima beradi va nimalarni bajarishni talab qiladi? Uning amaldagi ta’lim tizimidan afzalliklari nimada? Quyida ushbu savollarga qisqacha javob berishga harakat qilamiz.

Ta’limning kredit-modul tizimi o‘zi nima?

Bizga ma’lumki, hayotda ko‘p narsalarni o‘lchov birligi mavjud. Masalan, vaqt o‘lchov birligi – soniya, soat, uzunlik o‘lchovi – metr, og‘irlik – kilogramm, suюqlik – litr, elektr kuchlanishi o‘lchovi – volt.

Savol tug‘iladi: ta’limning, xususan oliy ta’limning ham o‘lchov birligi bormi? Siz “ha, bor, oliy ta’limning o‘lchov birliklari bu bakalavr, magistr va doktor” deb aytasiz. Lekin bular ta’limning o‘lchov birliklari emas, balki uning darajalari hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi avvalambor mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal o‘lchov birligini olib kiradi.

Unga ko‘ra, universitetda o‘tiladigan har bir fan endilikda undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab, **kreditlarda** aks etadi. Masalan, har bir fan o‘rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to‘plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi.

ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o‘quv yili 2 semestrdan iboratligini hisobga olsak, talaba o‘qishi davomida har semestrda 30 kredit to‘plab borishi

kerak bo‘ladi. Bakalavr dasturi odatda 4 yilligi hisobga olinsa, talaba ushbu darajani qo‘lga kiritish uchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallash uchun esa 120 kredit to‘plashi talab etiladi.



Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini bildiradi. ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 soatlik o‘qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar fan 6 kreditli fan bo‘lsa, talaba ushbu fan bo‘yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo‘lga kiritish uchun semestr davomida 150-180 soatlik o‘qish yuklamasini bajarishi kerak bo‘ladi (25*6=150; 30*6=180).

Shunday ekan, kredit-modul tizimini joriy etgan OTMlarda talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab, o‘qish hali boshlanmasdanoq har bir fanni o‘qish va o‘rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligini bilib oladilar. Bu ham ta’limda shaffoflikning bir ko‘rinishidir. 1 kredit o‘qish yuklamasi (25-30 soat oralig‘ida) aynan necha soat bo‘lishini odatda har bir OTM o‘zining ichki qoidalarida belgilaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o‘qish yuklamasi bu fanni o‘rganish uchun sarflanadigan jami harakatlar jamlanmasi bo‘lib, unga nafaqat dars vaqti, balki talabaning fanni o‘rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, qo‘yingki talaba ushbu fanni o‘zlashtirish uchun sarflagan barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi.

Shunda talabada ushbu umumiy o‘qish yuklamasining aynan qancha qismi darsga, auditoriya soatlariga to‘g‘ri keladi degan savol tug‘ilishi mumkin. Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o‘qish soatlari nisbati o‘rtacha 40/60 foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to‘g‘ri keladi, ya’ni talaba muayyan fan bo‘yicha belgilangan har bir soat dars uchun darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o‘qishi, tayyorlanishi kerak bo‘ladi.

Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o‘qish yuklamasi belgilagan bo‘lsa, undan 12 soati (30*40%=12) auditoriya soatlari, 18 soati (30*60%=18) esa talabaning mustaqil o‘qish soatlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu taqsimot asosida

6 kreditlik fan o‘qish yuklamasini aniqlaydigan bo‘lsak, talaba ushbu fan bo‘yicha belgilangan kreditlarni qo‘lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ((30*6)*40%=72)) auditoriya darslarini, 108 soat ((30*6)*60%=108)) uyda va kutubxonada mustaqil o‘qish yuklamasini bajarishi kerak bo‘ladi.

6 Кредит = 180 соат ўқиш юкламаси

(40% аудитория соатлар / 60% мустақил ўқиш соатлар)

Yuqoridagi qoidalardan shuni tushunish mumkinki, ECTS kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba oʻqish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan oʻlchanadi. Unda bilimning manbayi faqat oʻqituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida oʻqish vaqti tushunchasiga oʻqituvchi nuqtai nazaridan emas, balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi.

Talabaning oʻqish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi talaba ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada oʻz yelkasiga olishi, fan boʻyicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda oʻqib borishi kerakligini ham bildiradi.

Eslatib oʻtamiz, 1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1,5 soat uyda va kutubxonada oʻqishi zarur. Lekin bu jarayon koʻp jihatdan oʻqituvchining mas'uliyatiga ham bogʻliq. Chunki talabalar oʻz vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida oʻqish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish oʻqituvchining vazifasidir.

Shuning uchun kredit-modul tizimiga oʻtish oʻqituvchilarning ish yuklamalarini ham qayta koʻrib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular oʻqitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi. Amaldagi tizimda esa oʻqituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bogʻlab qoʻyilgan. Talabaning oʻqish yuklamasi bu tarzda – auditoriya va mustaqil oʻqish soatlariga ajratilishi OTMlar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli oʻquv qoʻllanmalari koʻlamini yanada kengaytirishni ham taqozo etadi.

Bularning barchasi ECTS kredit-modul tizimining miqdoriy tushunchalari va ishlash mexanizmi haqidagi asosiy qoidalar edi. Endi quyida kredit-modul tizimi bizga nimalarni beradi, degan savolga aniq misollar bilan javob berishga urinib koʻramiz.

Xoʻsh, ta'limning kredit-modul tizimi bizga nimalarni beradi?

1. **Oʻqish yuklamasining muvozanatli taqsimoti.** Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ECTS kredit-modul tizimida talaba har bir oʻquv yili uchun toʻplab borishi kerak boʻlgan kreditlar miqdori oldindan belgilab qoʻyilgan. Bu 60 kreditni tashkil qiladi. Har bir semestr uchun belgilangan kreditlar miqdori esa 30 kreditni

tashkil qiladi. Bundan tashqari, talaba har bir kreditni qo‘lga kiritish uchun belgilangan o‘qish yuklamasi miqdori ham aniq va bu 25-30 soat oralig‘ida. Shunday ekan, talabalarning har o‘quv yilidagi o‘qish yuklamasi o‘rtacha 1500-1800 soat (60*25 = 1500; 60*30= 1800), har semestrdagi o‘qish yuklamasi esa o‘rtacha 750-900 soatni tashkil etadi (30*25 = 750; 30*30= 900). Talabaning bir yillik va bir semestrdagi o‘qish yuklamasi bu miqdordan ko‘p ham, kam ham bo‘lishi mumkin emas.

Shunday ekan, talabalarning bir o‘quv yili yoki bir semestr davomidagi o‘qish yuklamasi ECTS kredit-modul tizimida faoliyat юritadigan barcha universitetlarda deyarli bir xil bo‘ladi. Bu bir xillik o‘quv dasturlariga barqarorlik va muvozanat olib kiradi. Endilikda OTMlar talabalarga bir semestrda 7 ta fan, ikkinchi semestrda esa 10ta fanni o‘qishga majburlashi qiyinlashadi. Amaldagi tizimda esa bunday barqarorlik va muvozanatga kafolat yo‘q edi. Shuning uchun talabalar bir semestr davomida ba’zida 7ta, ba’zida 8ta, va yana boshqa semestrda esa 10 fanni o‘qishlariga to‘g‘ri kelyapti.

Hozirda aksariyat mahalliy universitetlarda talabalar bir semestr davomida odatda 8-10tagacha fanni o‘qishiga to‘g‘ri kelmoqda. Aslida 8-10 fanni 4 oy ichida har tomonlama o‘rganish – muammoli masala. Mamlakatimizdagi amaldagi oliy ta’lim standartlari to‘g‘risidagi qoidalarda ham OTMlar talabalarga haftasiga 36 soatgacha auditoriya mashg‘ulotlari belgilashi mumkinligi qayd etilgan. Bu 5 kunlik o‘quv haftasida kuniga 7 akademik soatni anglatadi. Bunday holatda aksar talaba fanlarni tom ma’noda o‘rganish o‘rniga kunini shunchaki darsdan darsga, xonadan xonaga юgurib o‘tkazadi. Qolaversa, shuncha vaqtni auditoriyada o‘tkazgan talaba darsdan tashqaridagi vaqtini o‘qishga sarflashiga ishonish qiyin.

Kredit-modul tizimida esa kreditlarning fanlar bo‘yicha o‘rtacha taqsimoti 5, 6 yoki 7.5 ni tashkil etadi. Bu degani talaba bir semestrda ko‘pi bilan 4, 5 yoki juda borsa 6 fan o‘rganadi (30/7.5=4; 30/6=5; 30/5=6). Bu talabalar semestr davomida o‘rganishi zarur bo‘lgan fanlarning soni amaldagidan ko‘ra ancha qisqarishini anglatadi. YA’ni kredit-modul tizimi OTM o‘quv dasturlariga me’yor va sifat olib kirishi, ta’limni tashkil etishda

son koʻrsatkichidan sifat koʻrsatkichiga oʻtishiga xizmat qiladi. Chunki fanlar soni bu tarzda qisqarishi talabalar oʻz vaqt va imkoniyatlarini shu kam sonli fanlarni chuqurroq va har tomonlama oʻrganishlariga imkoniyat yaratadi. Oʻqishning dastlabki yillarida soha boʻyicha umumiy bilimga ega boʻlgandan soʻng talabalarda ayrim yoʻnalish va fanlar boʻyicha chuqurroq bilimga ega boʻlish va kelajakda shu yoʻnalishda ishlashga ishtiyoq paydo boʻlishi tabiiy. Talabalar yildan yilga mutaxassis sifatida shakllanib borar ekan, ular uchun oʻqish dasturidagi ayrim fanlarning ahamiyati ortib, ayrim fanlarning ahamiyati kamayib boradi.

Hozirda universitetlar qatʼiy belgilab qoʻyilgan oʻquv dasturlari asosida ish юritadi. Yaʼni, talabalar oʻqishga kirgandan boshlab to bitirgunga qadar dasturda belgilangan barcha fanlarni oʻrganishga majbur. Bu qay darajada toʻgʻri? OTMda taʼlim olayotgan talabalar qatʼiy belgilangan standart oʻquv dasturi asosida taʼlim olishi shartmi? Dasturdagi barcha fanlar har bir talabaning qiziqishlari, kelajak rejalariga toʻgʻri kelmasa-chi?

Aslida, har bir talaba oʻz qiziqishlari, imkoniyatlari, kelajakda qaysi kasbni egallashi va bu uchun kerakli fanlarni universitet maʼmuriyatidan koʻra yaxshiroq biladi. Talabani majburlab xonada olib oʻtirish mumkin, lekin uning fikr va eʼtiborini xonada ushlab oʻtirib boʻlmaydi.

Kredit-modul tizimiga oʻtishning muhim jihatlaridan yana biri bu – **oʻquv dasturiga tanlov fanlarining kirib kelishidir**. Unga koʻra, talabalar oʻqishning dastlabki yillarida sohaga oid asosiy, umumkasbiy fanlarni oʻzlashtirib, soha boʻyicha umumiy bilimni egallab olganlaridan soʻng, sohaga oid maxsus fanlarni oʻz qiziqishlaridan kelib chiqib oʻzlari tanlash imkoniyatiga ega boʻladilar. Bunda OTM talabalarga oʻquv yili davomida taklif qilinayotgan tanlov fanlarning roʻyxatini va ular haqida batafsil maʼlumot taqdim etadi. Talabalar esa ushbu roʻyxat va maʼlumotlar asosida oʻzlari qiziqqan fanlarni tanlaydilar. Bu jarayon har bir talaba oʻzining bakalavriat yoki magistratura oʻqish dasturini maʼlum maʼnoda oʻzi shakllantirishiga imkon yaratadi. Yaʼni, guruhda 50 nafar talaba boʻlsa, ularning har biri oʻz qiziqishlariga koʻra oʻz oʻqish dasturlariga ega boʻlishadi.

Tanlov fanlari soni kursdan kursga koʻpayib borishi zarur boʻladi. Chunki talaba kursdan kursga oʻtgani sari mutaxassis sifatida shakllanib boradi va unda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanib boradi. OTMlar esa asta-sekinlik bilan talabalarga oʻz fakultetlaridan tashqarida, ya'ni boshqa fakultetlardan ham tanlov fanlari olishga imkoniyat yaratishlari zarur. Fanlarni tanlash amaliyoti nafaqat talabalar uchun oʻzlari xohlagan yoʻnalish boʻyicha chuqurroq bilim olishlariga imkoniyat yaratadi, balki OTM oʻquv dasturidagi fanlar tarkibi tabiiy ravishda saralanib borishiga ham xizmat qiladi. Chunki talabalar qiziqish va ehtiyojlariga javob bermaydigan fanlar dasturini tark etib borishadi, oʻrganayotgan fanlari roʻyxatini davr talablari va qiziqishlariga moslashtirishadi. Bunda oʻqituvchi uning fani oʻziga etarli miqdorda talabalarni jalb qila olishi uchun doimiy ravishda oʻz ustida ishlashi, fanning talabalar uchun ahamiyatini saqlab qolish uchun darslar sifatini doimiy ravishda yaxshilab borishi zarur boʻladi. Aks holda ushbu fan oʻquv dasturidan chiqib ketishi va oʻqituvchi oʻz ishini yoʻqotib qoʻyishi mumkin boʻladi. Bu jarayon darslar sifati yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

Fanlari tanlash amaliyoti rivojlangan davlatlarda oʻzining foydasini isbotlagan amaliyotdir. Ulardagi fan taraqqiyoti, rivojlangan iqtisodiyot, mutaxassislarning salohiyati xususan ta'limdagi aynan shu jihat bilan ham bogʻliq.

Shunisi aniqki, kredit-modul tizimi tarixi, uning paydo boʻlishi fanlarni tanlash amaliyoti bilan chambarchas bogʻliq. Ya'ni, kredit-modul tizimining юzaga kelishiga tanlov fanlari amaliyoti sabab boʻlgan. Shunday ekan, agar OTM oʻzida kredit-modul tizimini joriy etsa-ю, oʻquv dasturlariga fanlarni tanlash imkoniyatini olib kirmasa, ushbu OTM tom ma'noda kredit-modul tizimida faoliyat юrityapti, deb boʻlmaydi.

2. Oʻquv dasturlarida fanlarning saralanishi. Tasavvur qiling, siz palov pishirmoqchisiz. Bunda sizga asosan goʻsht, yogʻ, sabzi, piyoz va guruch kerak boʻladi. Siz bu taomni tayyorlash uchun odatda sholgʻom yoki kartoshka ishlatmaysiz. Chunki bular siz tayyorlamoqchi boʻlgan taomga toʻgʻri kelmaydi. Agar siz palov tayyorlashda sabzi oʻrniga sholgʻom qoʻshib юborsangiz, taomingiz boshqacha chiqib qoladi, bundan esa oʻsha

taomni iste’mol qiluvchilar ranjiydi. Shu kabi, mutaxasis tayyorlash ham mutaxassislikka oid eng zaruriy bilim, koʻnikma va mahoratlarni boʻlajak mutaxassisda shakllantirishdan iborat. Agar talabaga zarur mutaxassislik bilim va koʻnikmalar qolib, boshqa narsalar oʻrgatilsa, natijada unda mutaxassislikka oid jihatlar toʻliq shakllanmay qolsa, ishga oluvchi tashkilot bitiruvchidan ham, uni tayyorlagan ta’lim muassasasidan ham hafsalasi pir boʻladi.

Hozirda oliy ta’lim oʻquv dasturlarida talabaning mutaxassisligiga toʻgʻridan toʻgʻri aloqasi boʻlmagan fanlar etarlicha. Masalan, aksariyat universitetlarda 1- kursda, ayrim hollarda юqori kurslarda ham jismoniy tarbiya, dinshunoslik, etika, estetika va shunga oʻxshash boshqa fanlar oʻtiladi. Bu fanlarni odatda talabalarning mutaxassisligiga toʻgʻridan toʻgʻri aloqasi yoʻq boʻlsada, OTM oʻquv dasturlarida anchagina joy va vaqtni egallaydi. Qolaversa, talaba jismoniy tarbiya fanini OTMda faqat 1-semestr yoki bir yil oʻrganishi gʻalati hol. Bir mutaxassis ta’kidlaganidek, “goʻyoki jismoniy salomatlik va sport talabaga faqat bir semestr yoki bir yil kerak boʻladi”.

Nazarimizda, bu kabi fanlarning aksariyati maktabning юqori sinf dasturlariga xos boʻlishi kerak. Agar talaba ushbu fanlar boʻyicha maktabda bilim va koʻnikmaga ega boʻlgan boʻlsa, ularni universitet darajasida yana takrorlashga qanday ehtiyoj bor? Undan koʻra, talaba shu vaqtni oʻz sohasini chuqurroq oʻrganishga sarf qilgani yaxshimasmi? Toʻgʻri, dinshunoslik, etika va estetika kabi umumiy fanlar yoshlarni shaxs sifatida shakllanishida katta rol oʻynashi mumkin, lekin hozirda maktab bitiruvchilarining bor yoʻgʻi 10-20 foizigina OTMga kirmoqda. Bu degani, agar bu fanlar maktab юqori sinflarida oʻrgatilmasa, maktab bitiruvchilarining aksariyati bunday bilimga ega boʻlmaydi. Bu kabi fanlar yoshlarni shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim deb hisoblansa, unda ular maktabning юqori sinflarida oʻrgatilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

OTM oʻqish dasturlarini umumiy, mutaxassislikka toʻgʻridan toʻgʻri aloqasi boʻlmagan, oʻzini takrorlovchi fanlar bilan toʻldirilishi talaba universitetdagi qisqa va eng qimmatli vaqtidan samarali foydalana olmasligiga olib kelmoqda. Natijada

bitiruvchilar orasida amaliyotga borgandan so‘ng bizga bunday narsalarni universitetda o‘rgatishmagan, degan holatlar juda ko‘p uchramoqda.

ECTS kredit-modul tizimida esa OTMlar o‘zining har bir bakalavr va magistratura o‘quv dasturi maqsadlarini oldindan aniq belgilab olishi talab etiladi. YA’ni, ular muayyan mutaxassislik bo‘yicha o‘qish dasturini yaratishdan avval o‘z oldilariga quyidagi savollarni qo‘yishlari talab etiladi:

- Biz qanday mutaxassis tayyorlamoqchimiz?
- Bizning bitiruvchilar aynan qanday bilimga ega bo‘lishi, nimalarni tushunishi va uni tamomlagandan so‘ng nimalarni qila olishi kerak?

Har bir OTM bakalavriat va magistratura dasturi turlicha bo‘lgani sababli, maqsadlari ham turlicha bo‘lishi tabiiy.

Ya’ni, OTMlar o‘zlarining har bir bakalavr va magistratura o‘quv dasturining maqsadlarini bitiruvchi dastur davomida qo‘lga kiritishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va mahoratlar shaklida oldindan aniq belgilab olishlari zarur. Bu kredit-modul tizimi tili bilan “Program Learning Outcomes” deb ataladi. O‘quv dasturi maqsadlari belgilab olingandan so‘ng, endilikda dasturda faqat shu maqsadlarga xizmat qiluvchi fanlargina saqlab qolinadi yoki dasturga kiritiladi, qolgan fanlar esa dasturni tark etishi zarur.

Inchunun, OTMlar o‘z o‘quv dasturlarini iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda erkin shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun 2001-yil 16-avgustda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorga o‘zgartirish kiritilishi va OTMlarga o‘quv dasturlarini o‘zlari erkin shakllantirishga imkoniyat berilishi kerak. 19 yil avval ishlab chiqarilgan standart bugungi zamon talablariga javob bermasligi ehtimoli юqori. Zero, iqtisodiyot va mehnat bozori talablari o‘zgargan sari OTMlar ham o‘z o‘quv dasturlarini muntazam ravishda baholab borishga, zarur bo‘lsa o‘zgartirishga imkoniyati bo‘lishi kerak.

3. **Bakalavr va magistratura dasturlariga shaffoflik kirishi.** Kredit-modul tizimi joriy bo‘lsa OTMlar nafaqat har bir o‘qish dasturlari maqsadlarini oldindan belgilab olishlari zarur

bo‘ladi, balki bu maqsadlarni o‘zlarining bo‘lg‘usi va hozirdagi talabalariga oldindan, shaffof tarzda etkazishi kerak bo‘ladi. Hozirda mahalliy OTMlarga hujjat topshirayotgan talabalar o‘zlari hujjat topshirayotgan bakalavr yoki magistratura dasturlarida aynan nimalarni o‘rganishlari mumkinligi haqida etarlicha ma’lumotga ega emas. Aksariyat hollarda abituriyentlarga faqat universitet, fakultet va dastur nomigina ma’lum. Hatto universitetda o‘qiyotgan talabalar keyingi semestrda qaysi fanlarni o‘qishlarini faqat o‘sha semestr boshidagina biladilar. Ya’ni, abituriyentlar va talabalarga bakalavr yoki magistratura dasturlarining maqsadlari, unda o‘rganiladigan fanlar, dastur davomida qanday bilim, ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lishlari haqida yetarlicha ma’lumot berilmaydi.

Abituriyent yoki talabaga bu ma’lumotlar nima uchun oldindan taqdim etilishi zarur? Bunga juda ko‘p sabablarni keltirish mumkin. Masalan, hozirda talabalarga bir paytning o‘zida bir necha universitetga hujjat topshirish imkoniyati berilmoqda. SHunday ekan, ular bir paytni o‘zida bir nechta OTMga qabul qilinishi mumkin. Bo‘lg‘usi talabalar qaysi OTMning qaysi dasturiga hujjat topshirish va ularga qabul qilingandan so‘ng tanlovni amalga oshirishi uchun OTM va ularning dasturlari haqida etarlicha ma’lumotga ega bo‘lishga haqlidirlar. Tanlov uchun OTM yoki undagi dasturlarning nomini bilishning o‘zigina etarli emas. OTMlar soni ko‘paygan sari endilikda talabalar undagi dasturlarning nomiga qarab emas, balki sifatiga qarab tanlay boshlaydi. Ya’ni, abiturientlar hayotlarini 4 yoki 2 yilini va qiynalib topilgan pullarini nimaga sarmoya qilayotganliklarini oldindan bilishlari kerak. Qolaversa, har bir talaba OTMga ancha miqdorda kontrakt puli to‘layotgan mijoz sifatida muayyan o‘qish dasturi haqida batafsil bilishni istaydi.

Kredit-modul tizimiga o‘tgandan so‘ng universitetlar o‘zlarining har bir bakalavr va magistratura dasturlari bo‘yicha dastur katalogini, ya’ni kitobchasini ishlab chiqishiga to‘g‘ri keladi. Unda har bir bakalavr va magistratura o‘quv dasturning maqsadlari, qabul qoidalari, OTMdagi o‘qish sharoitlari, akademik taqvim, talabalar 4 yillik yoki 2 yillik dastur davomida aynan qaysi fanlarni o‘qishlari mumkinligi, ushbu fanlarning qisqacha tavsifi,

qaysi fan aynan qaysi kursda oʻrganilishi, ularni aynan kimlar oʻqitishi, OTMda talabalar uchun yotoqxona imkoniyatlari, talabalarning bir oylik oʻrtacha yashash xarajatlari, OTMda qoʻllanadigan baholash usul va mezonlari haqida abiturient va talabalarga oldindan, shaffof tarzda ma'lumot berilishi zarur boʻladi. Bu ma'lumotlar har yangi oʻquv yili boshida kitobcha tarzida talabalarga tarqatiladi yoki universitet veb-sahifasida юklab olish mumkin boʻlgan formatda joylashtiriladi.

4. **Oʻquv mashgʻulotlarini shaffof tarzda tashkil etish.** Hozirda mamlakatimizdagi aksariyat OTMlarda talabalar semestr boshida darslar boshlanishi arafasida faqat oʻsha semestrda oʻtiladigan fanlarning nomi, ularni oʻqitadigan oʻqituvchilar ismlari, darslar qaysi payt qaysi xonalarda oʻtishi haqida ma'lumotga ega boʻladilar, xolos. Talabalarga ushbu fanlarning maqsadlari, ularni talaba mutaxassis boʻlib etishishida tutgan oʻrni, talaba ushbu fanlar orqali qanday bilim, koʻnikma va mahoratlarga ega boʻlishi kutilayotgani haqida ma'lumot deyarli berilmaydi. Chunki amaliyotda universitet fanlari haqidagi bunday ma'lumotlar talabalarga tizimli, yaxlit va shaffof tarzda taqdim etilmaydi.

Kredit-modul tizimida esa OTMning har bir oʻqituvchisi oʻzining har bir fani boʻyicha 4-5 varaqli fan dasturiga ya'ni "sillabus"ga ega boʻlishi va uni semestr boshida talabalarga taqdim etishi kerak boʻladi. Fan dasturi oʻz ichida ushbu fanning maqsadlari, uning oʻquv dasturida tutgan oʻrni, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni oʻrganish natijasida nimalar qila olishi, ushbu fan boʻyicha semestr davomida oʻrganiladigan mavzular roʻyxati, talabalar foydalanishi zarur va mumkin boʻlgan adabiyotlar roʻyxati, baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Agar fan tanlanadigan fan boʻlsa, talaba uchun bunday ma'lumotlarning ahamiyati yanada ortadi. Talaba, юqorida aytilganidek, fanni tanlash yoki tanlamaslik boʻyicha qarorga kelishi uchun fanning nomini yoki uni oʻqitadigan oʻqituvchining ismini bilishining oʻzigina kifoya qilmaydi. Talaba bunday qarorga kelishi uchun fan boʻyicha yetarli ma'lumotga ega boʻlishi kerak.

Fan dasturidan koʻzlangan maqsad juda oddiy – OTMlarda

dars jarayonlarini shaffof, maqsadli va reja asosida tashkil etishga erishish. Bu amaliyot avvalambor o‘qituvchini o‘zi o‘qitmoqchi bo‘lgan fan maqsadlari va ahamiyatini o‘zi tushunib olishiga undaydi. Zero, afsuski, amaliyotda o‘zi o‘rgatayotgan fanining maqsadlarini bilmaydigan o‘qituvchilar ham yetarlicha.

Agar o‘qituvchi o‘z fani maqsadlarini oldindan aniq belgilab olsa, u semestr davomida barcha ta’lim harakatlarini mana shu maqsadlarga erishishga qaratadi. Imtihonlar ham talabalarning shu ko‘zlangan maqsadlarga erishgan- erishmaganini tekshirishga qaratiladi. Agar fanning maqsadlari belgilanmasa yoki u talabaning mutaxassis sifatida shakllanishiga hizmat qilmasa, ushbu fan o‘quv dasturida qolishi to‘g‘ri emas. Lekin ushbu amaliyot OTM tomonidan o‘qituvchilar ustidan nazoratni haddan tashqari kuchaytirib юborishiga, o‘qituvchilarni shu bahona jazolashga va qog‘ozbozlikka ham olib kelmasligi kerak.

10-11-MAVZU . O‘RTA SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV

(ma’ruza)

Reja:

1. O‘rta sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda ijodiy tasavvurlarini shakllantirish.
2. Insoniylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kreativ yondashuv.
3. O‘quvchilarda xushyorlik, ogohlik, ezgulik mehribonlik kabi sifatlarni tarbiyalash tizimi.

Tayanch tushunchalar: *kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlari. Kreativ ta’lim usullari, pedagoglarning kreativligini*

ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar

Adabiyotlar:

1. N.Muslimov., M.Usmonboyeva., D.Sayfurov., A.To‘rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: Sano-standart. 2015.

2. M.Usmonboyeva., A.To‘rayev Kreativ pedagogika asoslari. T.: 2016.

3.V.Utemov, M.Zinovkina, P.Gorev Pedagogika kreativnosti.K.: Kirov AHOO, 2013.

4. V.Utemov, M.Zinovkina, P.Gorev Kreativnaya pedagogika. – M., “Yurayt”. 2019.

1. O‘rta sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda ijodiy tasavvurlarini shakllantirish

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi

siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo‘nalishlar mamlakat yoshlarini ma’nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlari, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan hujjatlari, xususan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi.

3. Konsepsiyada belgilangan vazifalar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshiriladi.

4. Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o‘rganildi, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi.

5. Konsepsiya asosida yaratilgan dastur amaldagi Sog‘lom avlod asoslari, Salomatlik, Yo‘l harakati qoidalari, Hayot xavfsizligi asoslari, Salomatlik darslari, Huquqiy tarbiya, Ekologik tarbiya, Media madaniyati, Iqtisod va soliq saboqlari kabi bir qancha fakultativ o‘quv kurslari dasturlarini birlashtiradi.

6. Konsepsiya umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarning (keyingi o‘rinlarda – Malaka talablari) negizi hisoblanadi. Konsepsiya “Tarbiya” fanini o‘rganish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

2-bob. Konsepsiyaning dolzarbligi va zarurati

7. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

8. Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish, buning natijasi o‘laroq, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

Bu, o‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

3-bob. Konsepsiyani joriy etishning asos va prinsiplari

9. Konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashdagi asosiy prinsiplar quyidagilar hisoblanadi:

milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi; ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;

sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish; ochiqlik va shaffoflik;

tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi.

10. Huquqiy asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirish orqali shaxs tarbiyasida milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

vazirliklar va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari “Tarbiya” fani konsepsiyasining amalga oshirish tizimini tashkil etadi.

11. Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

Konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning qo‘shma qarorlarni ishlab chiqish;

ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash, o‘rganish va ularni ommalashtirish, rag‘batlantirishni tashkil etish;

“Tarbiya” fani konsepsiyasining samaradorligini monitoring qilish.

12. Ilmiy-metodik asoslari:

shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasiga oid ilmiy-tadqiqot izlanishlarini amalga oshirilishini ta’minlash;

“Tarbiya” fani malaka talablari,o‘quv dasturlari va o‘quv rejalarini shakllantirish;

“Tarbiya” fani darsliklarini yaratishda samarali tarbiya texnologiyalarini joriy etish;

“Tarbiya” fani o‘quv-metodik majmuasini yaratish va amaliyotga yo‘naltirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash.

13. Fanning tarkibi, mazmuni, o‘quv-metodik ta’minoti:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Tarbiya fanini o‘qitish talablari quyidagi bosqichlarda ishlab chiqilishi zarur:

boshlang‘ich sinf (A2), to‘qqizinchi sinf (A2+), o‘n birinchi sinf (V1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlari. Har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga olishi lozim;

har bir bosqichda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o‘quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash;

bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash; uzluksiz ta’lim tizimiga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”

tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish;

o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;

bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

dunyo dinlarining koʻp asrlar davomida avloddan avlodga oʻti

b kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zoʻravonlik, terrorizm va ekstremizm gʻoyalari targʻib etilmasligini tushuntirish;

shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma’rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

ma’naviy-axloqiy jihatd

an muammosi bor yoki tarbiyasida boʻshliqlar mavjud boʻlgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil boʻlgan yoki profilaktik roʻyxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishlash tizimini takomillashtirish.

4-bob. Oʻquv-metodik majmuaga qoʻyiladigan talablar

14. Oʻquv-metodik majmuaning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qoʻyiladigan talablar:

oʻquvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” prinsipi mazmun va mohiyatini oʻquvchilarning ongu tafakkuriga singdirish;

oʻquvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash; faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;

mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sogʻlom e’tiqodlilik, teran ma’rifatlilik, bagʻrikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya fani oʻquvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga koʻmaklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, oʻzlarining intellektual va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqarishga xizmat qiladi.

15. Shu bilan birga, yoshlar oʻrtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan quyidagi profilaktik ishlar natijadorligini oshirishga zamin yaratadi:

oʻquvchilarda milliy gʻurur va iftixor, moddiy va ma’naviy

merosni asrab- avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg‘usini tarkib toptirish;

davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko‘nikmalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;

o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

yangi avlod o‘quv-metodik majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish; umumta’lim fanlarining o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish.

16. O‘quv-metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari:

mazkur fan bo‘yicha o‘quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to‘g‘ri tarbiya yo‘liga yo‘naltirish, zarur bilim va hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko‘mak ko‘rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma’naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy quyidagi o‘quv-metodik majmualar kompleksini talab qiladi:

o‘quv-metodik majmua ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o‘rta ta’limining zarur hajmi berilganligi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi;

mavzularning mazmunan izchilligi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, media- mahsulotlardan unumli foydalanilganligi.

17. Darslikka qo‘yiladigan didaktik talablar:

o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fani mazmun-

mohiyatining oʻquvchilar tomonidan anglash va hayotga tatbiq qilish maqsadlariga xizmat qilishi;

qiziqarli, loʻnda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan boʻlishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot oʻrtasidagi bogʻliqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa oʻquv fanlari bilan uzviy bogʻliqlikni ta'minlashga yoʻnaltirilgan boʻlishi;

rasmlar koʻrinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, infografikalardan iborat mediamahsulotlar bilan bezatilgan boʻlishi;

oʻquvchilar psixo-fiziologik rivojlanish darajasiga mos yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta'riflar va shu kabi lugʻat koʻrinishida ifodalangan boʻlishi lozim.

18. Darslikka qoʻyiladigan ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning soʻnggi yutuqlarini oʻzida aks ettirishi;

oʻquv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan boʻlishi;

oʻquv fani mavzulari adabiy til qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

Oʻzbekiston xalqining mentalitetiga zid boʻlmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlarning aniq ifodalangan boʻlishi;

oʻquvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar oʻtkazishga oʻrgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan boʻlishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yoʻl qoʻyilmasligi;

oʻquvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga yoʻnaltirishga oid matn va rasmlar, izohli lugʻat, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni oʻstirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olgan boʻlishi lozim.

19. Darslikka qo‘yiladigan pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri inobatga olingan holda, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olish va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

o‘quv fani mavzularining o‘quvchi yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma’lum bir faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog‘liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olinishi lozim.

20. Darslikka qo‘yiladigan estetik talablar:

belgilangan talablar darajasida yorqin, rangli, chiroyli bezatilgan, zamonaviy dizayniga mos bo‘lishi;

matnlar va illyustratsiyalarning uyg‘unligi va o‘quvchilar yoshiga mosligi; bo‘lim, bob, mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, ularning mutanosibligi ta’minlanishi lozim.

21. Darslikka qo‘yiladigan gigiyenik talablar:

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamenti talablariga mos bo‘lishi lozim.

22. Konsepsiyada nazarda tutilgan maqsad va vazifalarga erishishning moliyaviy xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon;

insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. T.siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda tarbiya – inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi.

Tor ma’noda tarbiya – shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta’lim va ma’lumot olish tor ma’nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday “Tarbiya” ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy-ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat

uzluksiz ravishda samarali faoliyat koʻrsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimiga ega boʻlishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Shoʻro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega boʻladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va oʻzbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy koʻrinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning oʻrniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.

Shoʻrolar pedagogikasida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron boʻlganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi oʻrniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo boʻlishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz boʻlib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yoʻnalishga solinishi mumkin boʻlgan qiyofasiz toʻda, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekti boʻlmish shaxs va uning oʻziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Shoʻro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bogʻliq jarayonlarga yangi hamda sogʻlom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda gʻayriilmiy sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, oʻzbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan oʻrganilayotir. Natijada, Oʻzbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham oʻziga xos oʻrni borligi tan olina boshlandi.

Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan boʻldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning oʻrniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni toʻgʻri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini toʻgʻri tayin etish imkonini berdi.

2.Insoniylik vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kreativ yondashuv.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib boorish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq ogʻzaki ijodi, pedogogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir gʻoyalarini oʻrgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan boshlanadi" deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib koʻrsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilgʻor tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi ogʻzaki ijodiyoti, an'analari, urf-odatlari asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni koʻproq oʻz millatini sevishga gʻururlanishga shorqano gʻoya va ta'limotlarni oʻrganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi. Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni oʻziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida oʻquvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini toʻgʻri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega boʻladi. Demak, jamiyat ma'naviyatining oʻsishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Qadriyatlar ta'rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar millat uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bogʻliq holdagi qadriyat shaklidir.

Ma'naviy qadriyatlar bu – falsafiy va ijtimoiy tushunchalar boʻlib, insonni oʻrab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan

oʻzlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta’lim tarbiya jarayonida ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini koʻtarishga xizmat qiladi. Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta’lim va tarbiyani milliy shakllantirishga va rivojlantirishga keng yoʻl ochib berdi. Milliy tarbiya nazariyasi oʻz qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanadi. Milliy tarbiya hayotning mohiyati ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi boʻlgan yoshlar emas, ijodkor, iste’dodi bilan ajralib turuvchi oʻquvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta’lim olish davrida milliy tarbiya oʻquvchilarni turli qobilyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi. jiga kata e’tibor bergan Oʻrta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim bolaning yoshi ulgʻaygan sari bu faoliyat tobora koʻproq mustaqil xususiyatga ega boʻlib boraveradi. Tabiat va jamiyat turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga ham idrok etib oʻz atrofidagilarga munosabatda boʻlishiga koʻnikib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tarbiyaning mazmuni va tashkil etilishi quyidagi vazifalarda oʻz aksini topadi;

1. Tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi.
2. Tarbiyaning insonparvarlik qoidalari.
3. Tarbiyaning hayot bilan va mehnat bilan bogʻliqligi.
4. Tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi.
5. Oʻquvchilarni yoshi, sinfi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini hisobga olish. Ta’lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda.

Hozirgi davrda shaxs ma’naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta’lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga koʻtarishni taqozo etadi.

Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, oʻqituvchi, tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Olib

borilayotgan islohatlarning vazifasi Respublikamizda oʻsib kelayotgan yosh avlodning orzu- istaklariga monand ta’lim tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida toʻgʻri hal etishga qaratilgan. Barkamol avlodni tarbiyalash gʻoyat nozik san’at boʻlib, unga juda jiddiy yondashish kerak. Yosh avlodni dunyo qarashini shakllantirishda milliy istiqlol mafkurasidan foydalanish maqsadga muofiqdir. Negaki, milliy mafkuraning bosh negizi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillaridan biridir. Farzandlarimizni tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta’lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar oʻquvchilarda barcha qobilyatni oʻsishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil boʻlib hisoblanadi. Ilgʻor gʻoyalarni davrimizda roʻy berayotgan oʻzgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish oʻgʻil va qizlarda gʻoyaviy e’tiqodni ma’naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba boʻlib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta’sir koʻrsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Umumta’lim maktablarida oʻquvchilar musiqa madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari bilan yaqindan tanishadilar.Vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi xalqaro vaziyatning hafsizligi, uning mudofo quvvati, qurolli kuchlarni mustahkamligi, milliy birdamlik, ahillik,hamdardlik kabi ma’naviy omillar bilan belgilanadi. Vatanparvarlik deganda, ona zaminga boʻlgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash va uning ravnaqi uchun gʻamxoʻrlik qilish tushuniladi. Vatanparvarlik jamiyatimizdagi barcha insonlarni, millat va elatlarni birlashtiruvchi muhim omil ekanligi hammamizga ma’lum. Vatanparvarlik deganda – Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun oʻz hissasini qoʻshish, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish demakdir. “Vatan” arabcha soʻzdan olingan boʻlib, “Ona yurt” degan ma’noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni toʻkilgan, ajdodlarimiz tugʻilib oʻsgan joyga hurmat, yurt tinchligini asrash va unga xizmat qilish kabi fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik gʻoyalarini oʻquvchilarimiz ongida tarkib toptirish, oila, bogʻcha, maktabdan boshlanadi. Bu jarayon bobolar oʻgiti,

onalar mehri, otalar ibrati, ustozlar namunasi orqali amalga oshiriladi. Aql-idrokni o‘sib borishi bilan Vatan tuyg‘usi kundalik odatdan iymon, e’tiqodga aylana boshlaydi. Vatanparvarlikni e’tiqodga aylanishi, har bir inson qalbiga ichki ma’naviyatining ifodasini belgilab beradi. Milliy Vatanparvarlik deganda esa biz o‘zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon va insof, mehr-muhabbat, oqibat, shafqat, or-nomus, ona yurtiga, o‘z eliga sadoqat, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar yig‘indisini tushunamiz.

Umumiy ta’lim maktablarida vatanparvarlik tarbiyasi, musiqa ta’limining asosini tashkil etadi. Garchi, musiqa madaniyati fani dasturida o‘zbek xalq musiqasi ma’lum tartibda berilgan bo‘lsa-da, har bir ohang mazmunida milliy musiqa vatan haqida kuy va qo‘shiqlar tavsiya etiladi. Shunday ekan biz musiqa darslarida Vatan haqida qo‘shiqlarni xalq musiqalaridan boshlab o‘rgatishimiz lozim. Uning to‘la va to‘g‘ri shakllanishi musiqa madaniyati darslarida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, yuksak na’munalarni ko‘rsatish (ya’ni musiqiy asarlarni tinglash, Vatan haqidagi qo‘shiqlarni kuylash, tarixiy obidalarni ziyorat qilish) orqali Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi. Vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘quvchilarimiz ongiga singdirish avvalombor oiladan boshlanadi. Bu nihoyatda katta mehnat talab qiluvchi murakkab vazifadir Barcha ota-onalar, bog‘cha opalar, maktab o‘qituvchilarini hozirgi kunda asosiy vazifalaridan biri, bolalarda Vatanga sadoqat, fidoyilik kabi fazilatlarni adabiyot, musiqa, tasviriy san’at orqali kamol toptirishdir.

Albatta, har bir darsda bu tarkibiy qismlar bir-biri bilan bog‘langan ravishda o‘tiladi va ular har darsda turli variantlarda o‘rin almashib kelishi mumkin. Darsning maqsadi esa o‘z navbatida beshta yo‘nalishni o‘z ichiga oladi.

1. Tarbiyaviy maqsadi
2. Ilmiy maqsadi
3. Bilimlarni rivojlantiruvchi maqsad
4. Kasbga yo‘naltiruvchi maqsad
5. Milliy mafkura g‘oyalarni singdirish maqsadi

Bu maqsadlar ham, albatta, bir-biri bilan bog‘langan holda amalga oshiriladi. Dars mavzusi maqsadlardan kelib chiqqan

holda oʻqituvchi har bir jarayonida oʻquvchilar ongiga milliy istiqlol mafkurasi gʻoyalarini muntazam ravishda singdirib borishi lozim. Buni amalga oshirish uchun oʻqituvchi oʻzining keng dunyo qarashi pedagogik-psixologik bilimi darsga ijodiy yondashish notiqlik qobiliyati va kasbiy mahorotidan unumli foydalangan holda har biri zarur boʻladi. Bu esa oʻqituvchining hozirgi davrda dunyoda sodir boʻlayotgan voqealar, ichki va tashqi siyosat siyosiy-ijtimoiy vaziyatni tinmay oʻrganib, tahlil qilib, turishni va bilimlarni darsda oʻquvchilarni yoshiga mos ravishda tushuntira olishi talab qilinadi. Hozirgi kunda koplab bastakorlarimiz va shoirlarimiz tomonidan zamon bilan hamnafas boʻlgan vatanparvarlik ruhida muhim tarbiyaviy estetik ahamiyatga ega boʻlgan asarlar yaratilayapti va bu jarayon hukumatimiz tomonidan munosib ragʻbatlantirilayapti..

Buyuk zotlarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulugʻbek, Muhammad Bobur, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy singari buyuk allomalardan bahramand boʻlganlar. Allalardagi mazmun bolaga katta tarbiya vositasi ekanligini har birimiz bilib olishimiz lozim. Allalar zamirida buyuk qadriyatlarimiz borligi, tarbiya oʻchogʻi nimadan boshlanishi, alla ham tarbiyaning asosi ekanligi bizga sir emas, albatta.

Respublikamiz taraqqiyoti va oʻzgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarni har tomonlama komil topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni maʼnaviy baquvvat, bilimli oʻz mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuygʻusiga boy kishilarni tarbiyalash zamonamozning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa taʼlim-tarbiya oldidagi murakkab, keng koʻlamli muammolardan biridir.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, oʻzida axloqiy poklik, maʼnaviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa sanʼati yetakchi oʻrinda turadi. Hozirgi musiqa va umuman sanʼatni inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni maʼnaviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda maktabning roli shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. Bolaning ilmiy dunyoqarashini shakllanishi va mustahkamlanish yoʻlida asosiy poydevor boʻlib xizmat qiladi.

12-13-MAVZU. YUQORI SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV
(ma’ruza)

Reja:

1. Tafakkur kelajakga yetaklovchi vosita.
2. Bilimga asoslangan jamiyatda muvaffaqiyat qozonish.
3. Innovatsiya va ilg‘or fikrlash taraqqiyot g‘ildiragi.

Tayanch tushunchalar: *kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlari. Kreativ ta’lim usullari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar*

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi (qarang Ong). Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o‘zining Tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin

emasligini belgilab oladi. Inson Tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar oʻrtasidagi eng muhim bogʻlanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan koʻrish imkoniyatiga ega.

Tafakkur koʻpgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, ped., fiziologiya, kibernetika, biol.)ning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik koʻrsatish darajasiga koʻra bir necha turlarga (koʻrgazmali harakat, koʻrgazmaliobrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarish.da odamlar oʻrtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon boʻladi. Jamoada tanqidiy qarash, oʻzini oʻzi tanqid, baholash, tekshirish, oʻzini oʻzi tekshirish, nazorat qilish, oʻzini oʻzi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok kilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo boʻlishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham oʻrganadi. Hozirgi zamon fanining juda koʻp murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq oʻrganishni taqozo etmoqda.

- *Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Insonda tafakkur boʻlganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq boʻlganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson oʻz atrofidagi olamda boʻlgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi.*
- *Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa toʻgʻrisida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo boʻladi,*

bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi.

- *Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy*

faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa to‘g`risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo‘ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi.

1. Tafakkur kelajakga yetaklovchi vosita. Tafakkur sifatlari. Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o‘zining individual xususiyatlariga ega bo‘lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining munosabatlari kishilarda turlicha namoyon bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Odatda tafakkurning individual xususiyatlari, sifatlariga bilish faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlar kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda insonning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to‘g‘risida ongda qay miqdorda, ko‘lamda mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o‘tilgan xarakterdagi g‘oyalar to‘lib toshsa, shunchalik tafakkur mazmundor bo‘ladi. Kishilar bir-birlaridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafovutlanadi.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o‘zaro bog‘lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to‘liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo‘sinda sistemalashganligiga qarab to‘g‘ri va ratsional yo‘l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to‘g‘risida qat’iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o‘zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo‘ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to‘g‘risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur **keng tafakkur** deyiladi.

Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg‘oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.

Inson tafakkuri o‘zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. **Tafakkurni mustaqilligi** deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo‘ladi. **Aqlning sertashabbusligi** deganda insonning o‘z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo‘yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o‘zi izlashi, aqliy zo‘r berib intilishi, ularga taaalluqli qo‘shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo‘lishini nazarda tutamiz. **Aqlning pishiqligi** vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni o‘z o‘rnida aniq qo‘llashda, trafaretga aylangan eski yo‘l hamda usullardan forig‘ bo‘lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O‘zining o‘zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo‘lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o‘ynaydi. Tafakkurning tanqidiyligi obyektiv va subyektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash, o‘z-o‘zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to‘g‘ri ochilishiga, ba’zan etalonga asoslanib amalga oshsa, unday tanqidiylik obyektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi subyektiv xatolarga, umuman subyektivizmga og‘ib ketsa, bunday holda subyektiv

tanqidiylik deyiladi. Subyektiv tanqidiylik salbiy oqibatlarga olib keladi, shuningdek insonlar oʻrtasida anglashilmovchilik gʻovini vujudga keltiradi, ikki shaxs oʻrtasida kutilmaganda ziddiyat paydo boʻladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona ratsional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi deb atash mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar oʻzga shaxslar tomonidan qoʻyilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda oʻzga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil deb ataladi. Nomustaqil tafakkurli kishilar tayyor mahsulotlar quliga aylanadilar, oʻsishdan orqada qolish xavfi tugʻiladi. Natijada aql-zakovatli inson boʻlish oʻrniga, kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam boʻlib voyaga etadi. Demak, tafakkurning nomustaqillik illati rivojlanishiga toʻsiq boʻlib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bogʻlangan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida maʼlum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, gʻoyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan boʻlsa, bunday kishining tafakkuri **sermahsul tafakkur** deb ataladi. Demak, vaqt oraligʻida bajarilgan ish koʻlami va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini oʻlchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkur ixchamligi deganda muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil boʻlsa hech ikkilanmay elastik ravishda oʻzgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmogʻimiz shart. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan oʻzgartirishdan va toʻgʻri yoʻnalishga yoʻllab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, talaba imtihonda avval gʻoyani notoʻgʻri yoritayotib, oʻz-oʻzicha birdaniga xatosini anglab toʻgʻri javob bera boshlashi kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, axborotlarni tinglovchilarga xato va kamchiliklarsiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qoʻyilgan savolga va muammoga toʻliq

javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog‘lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlarga – insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko‘nikma va malakalariga ham bog‘liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma’lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o‘quvchilarga zarur psixologik qurol bo‘lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg‘ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. O‘rinsiz salbiy emotsiyalar uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya’ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo‘lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba’zi talabalar, aksincha, imtihonda hayajonlanib, fikrlari ravshanlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta’sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg‘onib, funktsiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. SHuning uchun o‘qitish jarayonida talaba va o‘quvchilarning aqliy faoliyatini to‘g‘ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Jahon psixologlarining ko‘rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatlari ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarni ajratib mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to‘g‘risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatni yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to‘la foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahirani to‘la ochish fan-texnika rivojini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aql-zakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va texnikaning rivojlanishi

insonshunoslik fanining rivojiga koʻp jihatdan bogʻliqdir.

Tafakkurning individual sifatlari va rivojlanishi. Insonlar fikrlash faoliyatidagi individual tafovutlar tafakkurning sinchkovlik, tafakkur kengligi, chuqurligi va mustaqilligi, fikrning egiluvchanligi, aqlning sertashabbusligi va tanqidiyligi, mantiqiylik, isbotlanganlik va ijodkorlik kabi sifatlarida ifodalanishi mumkin.

Aqlning pishiqligi – u yoki bu hodisani ahamiyatga molik munosabatlarda har tomonlama bilishga intilish; tafakkur ***kengligi*** – bu savolni yaxlitligicha, shu bilan birga zarur boʻlgan xususiyatlarni chetda qoldirmay qamrab olish qobiliyati. Tafakkur kengligi inson dunyoqarashi va har bir hodisani boshqa hodisalar bilan turli aloqalarda koʻrib chiqish qobiliyatida ifodalanadi.

Tafakkurning ***chuqurligi*** murakkab savollar mohiyatiga kirib borish, asosiy holatni ikkinchi darajalilardan, zaruriyatni tasodifiydan ajratish malakasida ifodalanadi. Tafakkur chuqurligiga qarama-qarshi sifat boʻlib hukm va xulosalarning yuzasi hisoblanadi, bunda odam mayda-chuydalarga e'tibor qaratib, asosiysini koʻrmaydi.

Tafakkurning ***mustaqilligi*** insonning yangi vazifalarni ilgari surishi va boshqalarning yordamidan foydalanmasdan ularning yechimini topish malakasi bilan xarakterlanadi. Fikrning ***egiluvchanligi*** masalalarni yechishda avvaldan qoʻllanilib kelayotgan usullarning ta'siridan holi boʻlishda, sharoit oʻzgarganda harakatlarni tezda oʻzgartirish malakasida ifodalanadi. Tafakkurning ***tezligi*** – insonning yangi vaziyatda oʻzini yoʻqotib qoʻymaslik, oʻylab olgan holda toʻgʻri qaror qabul qilish qobiliyati. Aqlning sertashabbusligini insonning oʻylamasdan masalaning bir tomonini ushlab olib, qaror qilishga shoshishi, yetarlicha oʻylanmagan javoblar bildirishida ifodalanadigan shoshqaloqlikdan farqlash lozim. Aqlning ***tanqidiyligi*** – bu inson oʻzining va boshqalarning fikrlarini obyektiv baholashi, ilgari surilayotgan nizomlar va xulosalarni izchillik bilan har tomonlama tekshirib chiqish malakasi.

tafakkurning ***mantiqiyligi*** – tadqiq etilayotgan obyektning barcha ahamiyatli tomonlarini hisobga olgan holda mulohazalarning qat'iy izchilligiga rioya qilish qobiliyati.

Tafakkurning ***isbotlanganligi*** – zarur vaqtda hukm va xulosalarning to‘g‘riligini tasdiqlovchi dalillar, qonuniyatlardan foydalanish qobiliyati. Aql ***ijodkorligi*** – ijodkorlik tafakkuriga bo‘lgan qobiliyat. Tafakkurning salbiy sifati uning ***rigidligi –*** hodisa mohiyatiga nisbatan xolis bo‘lmagan munosabat, hissiy taassurotning oshirib yuborilishi, bir xil qolipdagi baholarga berilganlik hisoblanadi.

Inson aqliy rivojlanganligining ko‘rsatkichi subyektning tashqi cheklovlar bilan ***bog‘lanmaganligi***dir.

Shunday qilib, odamlardagi tafakkurning individual xususiyatlari yuqorida ko‘rib chiqilgan aqliy sifatlarda turli uyg‘unlikda ifodalanadi.

Tafakkur shakllanishi va rivojlanishida bir nechta bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Hozirda mavjud bo‘lgan tafakkur taraqqiyotining bosqichlarga bo‘linishiga nisbatan yondashuvlarning ko‘pchiligida inson tafakkuri rivojlanishining ***dastlabki bosqichi*** umumlashtirish bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bunda bolaning birinchi umumlashtirishlari amaliy faoliyatdan ajralmasdir, bu bolaning o‘zaro o‘xshash jismlar bilan bajaradigan bir xildagi harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Bu intilish bola hayotining dastlabki yilining oxiriga kelib namoyon bo‘la boshlaydi. Jismlarning alohida xossalarini bilgan holda ikki yoshli bola ma’lum amaliy masalalarni yecha oladi. Xuddi shunday, bir yoshu uch oylik bola narsalar solingan og‘ir qutini joyidan surish uchun narsalarning yarmini olib tashlaydi, so‘ngra zarur harakatni amalga oshiradi.

Bola tafakkuri rivojlanishining ***keyingi*** bosqichi nutqni egallab borishi bilan bog‘liq. Bola bilib olgan so‘zlar unga umumlashtirishni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi. Ular tez orada bola uchun umumiy ma’noga ega bo‘lib, bir jismdan ikkinchisiga oson ko‘chiriladi. Lekin ko‘p hollarda jism va hodisalarning qandaydir alohida belgilari bola o‘sha jismlarga nisbatan qo‘llaydigan birinchi so‘zlar ma’nosini bildiradi. xuddi shunday, ko‘pincha “olma” so‘zi bolalar tomonidan barcha dumaloq shakldagi yoki qizil rangdagi jismlar bilan solishtiriladi.

Bola tafakkurining ***navbatdagi*** bosqichida bola bir xildagi jismni bir necha so‘zlar bilan atashi mumkin. Bu hodisa bolada

ikki yosh atrofida kuzatiladi va solishtirish tafakkur operatsiyasining shakllanishidan dalolat beradi.

Bayon etilgan ma’lumotlar asosida maktabgacha yoshdagi bola tafakkurining bir nechta ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin. Xuddi shunday, bola tafakkurining ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyati bolaning birinchi umumlashtirishi harakat bilan bog‘liqligidan iborat. Bola harakatlanib, fikr yuritadi. Bola tafakkuriga xos bo‘lgan xususiyat – tafakkur aniqligida namoyon bo‘ladigan ko‘rgazmaliligidir.

Bola maktab yoshiga yetganida, unda fikrlash imkoniyatlarining taraqqiyoti kuzatiladi. Bu hodisa yosh o‘zgarishlari bilan birga, birinchi navbatda, maktabda ta’lim olishda bola yechishi zarur bo‘lgan intellektual masalalar bilan ham bog‘liqdir. Tushunchalar hosil bo‘lish jarayonida fikrlash operatsiyalarining taraqqiyoti sodir bo‘ladi. Maktab bolani tahlil qilishga, sintezlashga, umumlashtirishga o‘rgatadi, induksiya va deduksiyani rivojlantiradi. maktabni tugatganida odamda tafakkurni rivojlantirish imkoniyati saqlanib qoladi. Lekin bunday rivojlanish dinamikasi, yo‘nalganligi uning faqat o‘zigagina bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi kunda fan tafakkurni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. amaliyotda tafakkurni rivojlantirishning filogenetik, ontogenetik va tajribaviy yo‘nalishlari mavjud. ***Filogenetik yo‘nalish*** insoniyat tarixiy rivojlanish jarayonida inson tafakkuri rivojlanishi va takomillashishini o‘rganishni taqazo etadi. ***ontogenetik yo‘nalish*** bir odamning hayotiy jarayoni asosiy bosqichlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘z navbatida, ***tajriba yo‘nalishi*** tafakkurni tajribada tadqiq etish muammolari va aqlning alohida, sun’iy tashkil etilgan sharoitlarda rivojlanish imkoniyati bilan bog‘liq.

2. Bilimga asoslangan jamiyatda muvaffaqiyat qozonish.

Kimdir bu dunyoga o‘zgarish uchun keladi. Kimdir hayoti chog‘ida dunyoni o‘zgartiradi. Kimdir esa, har kuni o‘zgaradi.

Bizning kundalik sa’y-harakatlarimiz, maqsadimiz baxtiyor yashashni ko‘zlaydi. Baxtiyorlik – mehnat tufayli ro‘y beradigan hodisa. Odamlarning aytishicha, pul – baxtning kaliti emas. Lekin

agar pulingiz bo‘lsa, siz mana shu baxt kalitini yasab olishingiz mumkin. Aslida mol-dunyoga egalik qilish baxt degani emas. Baxtiyorlik – bu yaratuvchanlik hissidan lazzatlanishdir. Muvaffaqiyat esa, mana shuni his qilish. Hadeb baxt izlaganing bilan baxtiyor bo‘lib qolmaysan. Hayotdan faqatgina ma’no izlasang, yashay olmaysan.

Muvaffaqiyat bu – yerga urilgach, iloji boricha balandroqqa sakrash degani.

***Jorj* Patton**

Bir qaraganda hayotda muvaffaqiyat qozonish, g‘olib bo‘lish oddiy hodisaga o‘xshab ko‘rinadi. Shunchaki shuuringdagi “g‘olib bo‘lish tugmasi”ni bosasan va dovyuraklik bilan olg‘a boraversan. Albatta, g‘olib bo‘lish doimo huzurbaxsh. Biroq, g‘oliblik bu – maqsadning mohiyati emas. Maqsadning mohiyati bu – g‘olib bo‘lish uchun ichimizda uyg‘ongan istak, orqaga chekinmaslik ruhidir.

Har kim muvaffaqiyat omilini o‘zicha tasavvur qiladi. Kim uchun muvaffaqiyatning yagona siri odamlarning ko‘ngliga yo‘l topish bo‘lsa, boshqalar uchun erta uyg‘onish, qattiq mehnat qilish – bu muvaffaqiyatning tarkibi.

Muvaffaqiyatli insonlar muvaffaqiyatlarining muhim omili sifatida ularning hayotlarida muhim o‘rin egallagan insonlarni aytishadi. Xususan, XX asrning atoqli siyosatdonlaridan biri bo‘lgan Harold Makmillanning fikricha, biror bir erkak ayolning e’tiborisiz muvaffaqiyat qozona olmaydi. Bu ona yoki turmush o‘rtog‘i bo‘lishi mumkin. Agar erkak ularning ikkalasidan ham mehr-e’tibor olib tursa, demak Xudo uni ikki marta omadli qilib yaratgan ekan.

Har qanday muvaffaqiyatning kaliti harakatdir.
Pablo Pikasso

Aksariyat muvaffaqiyatli insonlar hayotini sinchiklab o‘rgansangiz, hayot ularni qiyinchiliklar bilan qanchalar toblaganini ko‘rasiz. Ularning avvalgi va keyingi hayotlarini solishtirar ekansiz, tunning eng qorong‘u lahzalari tong otishidan

bir necha daqiqa avvalroq sodir bo‘ladi, degan hikmatni anglaysiz. Siz muvaffaqiyat yetti marta qulab, sakkizinchi marotaba oyoqqa turish ekanini tushuna boshlaysiz.

Muvaffaqiyat qozonish kim uchundir ulkan boylikka ega bo‘lishni anglatsa, ayrim insonlar nazdida muvaffaqiyat, bu – o‘z sohasida tan olinish demak. Odamlarning aksariyati uchun salomatlik ham muvaffaqiyat. Kim uchundir oilaviy baxt, o‘z ishidan qanoatlanish hamda xotirjam umrguzaronlik qilish muvaffaqiyatdir.

Nega muvaffaqiyat omadsizlik bilan boshlanadi?

Aksariyat muvaffaqiyatli insonlar baxtsizlik, omadsizlik tuyg‘ularini boshqalardan ko‘ra yaxshiroq biladilar. Bu odamlar ularni mashaqqatga ro‘baro‘ qilayotgan hayotning zargar, o‘zlarini qimmatbaho tosh ekanini anglaydilar va jilolanish uchun mashaqqatlarni quchoq ochib kutib oladilar. Ya’ni, hayot zarba bergani sayin o‘zingni olmos bilsang, zargar shakl berayotgan tosh kabi, qadring oshib boraveradi. Har narsada bir hikmat ko‘rish ham insonni tushkunlikdan asraydi, ishonchini oshiradi.

Hayot bunday sinovlar bilan siylaganlarni ko‘plab topish mumkin. Misol uchun, nomi oldidan “amerikalik”, “xitoylik”, “gonkonglik” degan nisbatlar beriladigan aktyor Jeki Channing bolaligi ham havas qilarli darajada o‘tgan emas. Xitoydagi fuqarolar urushi bois ota-onasi mamlakatni tark etib, Avstraliyaga yo‘l oladi. Jeki esa 6 yoshida maxsus internat-maktabga topshiriladi. Aynan mana shu achchiq ayriliq uning taqdirini o‘zgartirib yubordi. Chunki u mazkur maktabda jang san’ati va akrobatikani o‘rganadi. Faoliyatini Bryus Lining filmlarida kaskadyorlikdan boshlagan Jeki Chan ustozining o‘limidan so‘ng bir nechta kinolarda suratga tushadi. Biroq u taqlid qilishdan to‘xtab, kurash san’ati va komediyani birlashtira olganidan so‘ng jahonning eng oldi va qimmat aktyorlaridan biriga aylandi.

Tasodifni qarangki, buyuk matematik olim, zamonaviy fizika nazariyasining asoschisi, XX asrning beqiyos dahosi, Nobel mukofoti sohibi Eynshteyn ham muhojirlikda umr kechirgan. Germaniya hukumati natsistlar partiyasi ixtiyoriga o‘tgach, hatto Eyntsheynning boshi uchun katta pul ham tikiladi. Fizikning ko‘plab qo‘lyozma-kitoblari Gitlerning gulhanlarida yoqib

yuboriladi. Nemis yahudiysi ekani uning taqdirini o‘zgartirib yuboradi, olim 1933-yilda AQShga ko‘chib ketadi. Ammo taqdirning bu beqarorliklari uning buyuk olim bo‘lib yetishishiga to‘sqinlik qila olmadi.

“Raqamli texnologiya otasi” deb nom qozongan Stiv Jobsning haqiqiy ota-onasi undan voz kechishgan. U boshqa ota-ona qo‘lida asrandi sifatida ulg‘aygan bo‘lsa ham, garchi, asrab olgan ota-ona uni o‘zi xohlagan kollejda o‘qitish uchun pul topa olishmagan bo‘lishsa ham, Stiv Jobs jahonning eng qimmat va qudratli kompaniyasiga asos soldi.

Samoda parvoz qilayotgan varrak shamolga qarshi uchayotgani uchun ham balandga ko‘tariladi. Hayotda ham shunday – rad qilinish, tan olinmaslik, adolatsizlik, mashaqqat va muammolar oqibatida jismingizda va ruhingizda yuzaga kelgan kuch sizni olg‘a boshlaydigan quvvatga aylanadi. Shunda siz kun kelib o‘zingiz orzu qilgan cho‘qqini zabt etasiz. Hayot sizni qanchalar qattiq yerga ursa, sizda shu qadar balandga sakrash imkoni paydo bo‘ladi.

Tug‘ilishning o‘zi g‘oliblik! Modomiki, bu hayotga kelgan har kim Yerda o‘zining vazifasiga ega bo‘lar ekan, demak barchaga muvaffaqiyatli bo‘lish, ya’ni g‘alaba qozonish imkoni ham berilgan. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan insonning omadi shundaki, uning xatolari qarshisida ko‘zgudagi kabi aks etadi, ro‘y-rost unga tikilib turgan bo‘ladi. Biroq, hamma bu xatolardan muvaffaqiyat yasashga qodir emas. Boisi, hammada ham xulosa chiqarish hissi bo‘lmaydi.

Xato va kamchiliklarimiz ko‘z oldimizda turganida biz boshqa narsani – qo‘ldan boy berilgan imkoniyatni, naf yoki kattaroq foydani o‘ylaymiz, bundan ranjib, tushkunlikka tushamiz yoki qattiq ranjiymiz. Mana shu daqiqalarda inson tanlovi uning taqdirini o‘zgartirib yuboradi: siz shu vaqtda hafsala topib qayta kurashga kirishasiz yoki hammasini yig‘ishtirib, odatdagiday yashashda davom etasiz.

Men muvaffaqiyatsizlikni kutib tura olmayman. Yaxshisi, uningsiz olg‘a davom etaman.

Jonatan Uinters

Yana bir muhim jihat bor. Mag‘lubiyatga uchrab azoblansalar ham, yashash uchun kurashib, zulmat iskanjasidan yorug‘likka yetib kelgan odamlar aslida eng ko‘rkam va munosib insonlar bo‘lib kamolga yetadilar. Ular odamlarni oson tushunadilar, his qiladilar, muloyimlik va jonkuyarlik bilan boshqalarning yarasiga malham bo‘lishga intiladilar. Bunday odamlarning kamol topishi hayotning noyob hodisasi. Hayot ularni tarbiyalash uchun ham muvaffaqiyatsizliklar bilan mukofotlaydi. (“Biz g‘alaba qozonamiz” kitobidan olindi)

Hayotda muvaffaqiyat sari odimlash uchun 6 qadam

Muvaffaqiyatning yagona o‘lchovi va hayotda qanday muvaffaqiyatli bo‘lish mumkin degan savolga birgina aniq javob mavjud emas. Biroq, muvaffaqiyatli insonlarning ba’zi odatlariga nazar solib, o‘z kundalik hayotingizga tatbiq etish mumkin bo‘lgan yangi taktika va strategiyalar haqida bilib olishingiz mumkin. Ushbu aqliy salohiyatlarni rivojlantiring hamda parvarishlang va vaqti kelib hayotda siz istagan muvaffaqiyatga albatta erisha olasiz.

1. **O‘sish va rivojlanish fikrlash tarzini shakllantiring.** Psixolog Kerol Duek tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, insonlarning o‘zlari va qobiliyatlari to‘g‘risida qanday tarzda fikrlashlariga ta’sir qiladigan ikki asosiy fikrlash tarzi mavjud: O‘zgarmas tafakkur va o‘sish tafakkur tarzi.

O‘zgarmas tafakkur egalari muvaffaqiyat bu, mashaqqatli mehnat natijasi emas balki tug‘ma xislatlar natijasidir, aql-idrok esa statik va o‘zgarmas deb hisoblashadi. Ular inson bunday iste’dodlarga ega bo‘lib tug‘ilishi yoki buning aksi bo‘lishi mumkin, deb bilishadi.

Shu sababdan ular qiyinchiliklar qarshisida osonlikcha taslim bo‘lishadi. Nimanidir yengillik bilan qo‘lga kirita olishmasa, undan voz kechib qo‘ya qolishadi, chunki bunga erishish uchun tug‘ma (tabiiy) mahorat yetishmayotganiga ishonishadi.

O‘sish tafakkur tarzi doirasida fikrlovchilar, aksincha, harakat qilish orqali o‘zgarishi, rivojlanishi va o‘rganishi mumkinligini his qilishadi. O‘sish va rivojlanishga layoqatli ekanligiga ishonadigan insonlarning muvaffaqiyat qozonish ehtimolligi ham ko‘proq.

Qiyin vaziyatlarda ular o‘z mahoratini oshirish yo‘llarini izlaydilar va muvaffaqiyat sari intilishda davom etadilar.

O‘sish tafakkur tarzini qanday shakllantirishingiz mumkin?

- **Sizning urinishlaringiz muhimligiga ishoning**. O‘sish tafakkuri egalari o‘z qobiliyatlari barqaror yoki o‘zgarmas degan fikrda emaslar, balki harakat va mashaqqatli mehnat mazmunli rivojlanishga olib keladi deb hisoblashadi.
- **Yangi bilimlarni o‘rganing**. Qiyinchiliklarga duch kelishganda, ular yengib o‘tish va g‘alaba qozonish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llarini izlaydilar.
- **Omadsizliklarni o‘rganish tajribasi sifatida qabul qiling**. O‘sish tafakkur tarzi egalari omadsizliklar o‘z qobiliyatlarining natijasi ekanligiga ishonmaydilar. Aksincha, omadsizliklarni undan o‘rganish va yaxshilanish mumkin bo‘lgan qimmatli tajriba manbai sifatida ko‘rishadi. Ular ham “Bu natija bermadi” deb o‘ylashlari mumkin, biroq “Shuning uchun bu safar boshqacha usulni sinab ko‘raman” deyishni unutmaydilar.

2. Hissiy intellektingizni boyiting. Umumiy intellekt darajasi uzoq vaqtlar davomida hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatga eltuvchi omillardan biri sifatida qaralgan, biroq ba’zi ekspertlar emotsional (hissiy) intellektning undan ham ko‘proq ahamiyatga ega ekanligiga ishora qilishmoqda. Hissiy intellekt deganda o‘z hissiyotlarni tushunish, ulardan foydalana olish va hissiyotlar bilan aqlga tayanib munosabatda bo‘lish qobilyati tushuniladi. Hissiy intellektga ega insonlar nafaqat o‘z hissiyotlarini, balki boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini ham tushuna oladilar.

Hissiy intellektni baraqarorlashtirish uchun:

- **O‘z hissiyotlaringizga e’tiborli bo‘ling**. Nimalarni his etayotganingizga va bu hissiyotlarning sababini aniqlashga alohida e’tibor bering.
- **Hissiyotlaringizni boshqaring**. Ortga bir qadam tashlang va tanqidiy ko‘z bilan narsalarni sharxlashga urinib ko‘ring. Hissiyotlaringizni ich-ichingizga yutishni yoki ularni atayin his etmaslikka urinishni bas qiling, biroq his-tuyg‘ularingiz bilan sog‘lom va munosib murosaga kelish yo‘llarini izlang.
- **Boshqalarni tinglang**. Bu yolg‘iz ularning so‘zlarini eshitishingiz bilan cheklanib qolmasdan, balki noverbal belgilar va

tana tiliga e’tibor berishni ham o‘z ichiga oladi.

3. Ruhiy bardoshliligingizni oshiring

Ruhiy bardoshlilik matonat bilan davom etishni va yuzaga kelgan to‘siqlarga qaramay harakatlardagi izchillikka amal qilishni anglatadi. Bunday ruhiy quvvatga ega insonlar qiyinchiliklarni imkoniyat sifatida ko‘rishadi.

Ruhiy bardoshliligingizni toblash va hayotda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlaringizni oshirish uchun:

- **O‘zingizga ishoning**. Salbiy ichki dialogni tark eting va ijobiy munosabatda qolish hamda o‘z-o‘zingizni ruhlantirish yo‘llarini izlang.
- **Urinishda bardavom bo‘ling**. Hamma narsa imkonsiz tuyulganida yoki hatto qiyinchiliklar sizni ortga tortishda davom etganida ham mahoratlaringizni oshirib borish imkoni mavjud yo‘llarga bor e’tiboringizni qarating va kurashishda davom eting. Muvaffaqiyatli insonlarning eng diqqatga sazovor ko‘nikmalaridan biri shundan iboratki, ular doimo qiyinchiliklar yoki muvaffaqiyatsizliklarga ulardan nimanidir o‘rganish imkoniyati sifatida qaraydilar.
- **Maqsadlar o‘rnating**. Ruhiy zabardast insonlar maqsadga erishish uchun erishsa bo‘ladigan maqsadlarni qo‘yishdan boshlash kerakligini bilishadi. Bu maqsadlarga erishish unchalik ham oson bo‘lmaydi, biroq qandaydir mo‘ljalni qo‘yish orqali yanada olg‘a intilasiz va qiyinchiliklarni yenga olasiz.
- **Sizni qo‘llab-quvvatlovchi insonlarni toping**. Barcha ishni o‘z zimmangizga olish og‘ir bo‘lishi mumkin, biroq sizni qo‘llab-quvvatlovchi manbaga ega bo‘lishingiz buni yengillashtiradi. Ustozlar, do‘stlar, hamkasblar va oila a’zolaringiz qiyin damlarda sizga dalda bo‘la olishadi va hatto muvaffaqiyatga erishishda asqotuvchi o‘z maslahat hamda yordamlarini ayamasliklari mumkin.

4. Irodangizni mustahkamlang

Uzoq davrni o‘z ichiga olgan longityu tadqiqotlardan birida psixologlar o‘qtuvchilari tomonidan yuqori darajada intellektual deb baholangan bir guruh bolalarni kuzatib borishdi. Ularni bolalik davridan to balog‘at yoshiga yetgunlariga qadar qanday natijalarga erishganliklarini solishtirish mobaynida tadqiqotchilar

shunga amin bo‘lishdiki, hayotda muvaffaqiyatga erishganlar umumiy ba’zi muhim sifatlarga, shu jumladan, qunt-matonat va iroda kuchiga ega bo‘lishgan.

Ushbu sifatlar ko‘pincha kishi umumiy shaxsiyatining bir qismidir, biroq bular ayni paytda siz ham yaxshilay oladigan narsalar hisoblanadi. Rohatlanishni ortga surish qobiliyati, qiyinchiliklar qarshisida bukilmaslikni va og‘ir mehnatlaringiz mevasini kutishni o‘rganish hayotda ko‘pincha muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Iroda kuchi sobitligini oshirishda qo‘l keluvchi strategiyalar:

- **Chalg‘itish**. Misol uchun, siz vazningizni kamaytirishga urinayotgan bo‘lsangiz-u, biroq siz uchun yoqtirgan taomlaringizdan tiyilish qiyinchilik tug‘dirayotgan bo‘lsa, bunday zaif holatga duch kelganingizda o‘zingizni chalg‘itish istaklaringizga bo‘ysunib qolishdan qutulishning samarali usuli bo‘lib xizmat qilishi mumkin.
- **Mashq qilish**. Iroda kuchini shakllantira olasiz, biroq bu sizdan vaqt va urunishni talab etadi. Iroda kuchini talab etuvchi kichik maqsadlar o‘rnatishdan, deylik shirinliklar yeyishni to‘xtatishdan boshlab oling. Shu kabi kichik maqsadlarga erishishda iroda kuchingizdan foydalana olish qobilyatingizni yaratib borganingiz sari bundan kattaroq maqsadlar ustida ter to‘kayotgangizda ham kuchli iroda sohibi ekanligingizga amin bo‘lasiz.

5. Ichki motivatsiyangizga tayaning

Sizni eng ruhlantiruvchi narsa bu nima? Maqsadlaringizga erishish uchun tashqi rag‘batlar umidida harakat qilasizmi yoki sizni ruhlantiruvchi narsa bu shaxsiy, ichki motivatsiyadan iboratmi? Tashqi rag‘batlar, misol uchun mablag‘, mukofotlar va maqtov foydali ekanligiga qaramay, ko‘pchilik insonlar shaxsiy qoniqish maqsadida qilayotgan ishlaridan motivatsiya olishadi.

Agar siz biror ishni qilishni undan zavq olganingiz, uni mazmunli deb bilganingiz uchun yoki qilayotgan ishlaringiz samarasini ko‘rishdan sevinganligingiz sababli bajarayotgan bo‘lsangiz, sizni harakatlantirayotgan kuch, bu ichki motivatsiya.

Ichki motivatsiyangizni yaxshilash uchun:

- **Qiziquvchan bo‘ling**. Diqqatingizni tortuvchi va u haqda siz

koʻproq bilishni istaydigan narsalarni izlang.

- **Boshqaruvni yoʻqotib qoʻymang**. Natijalarga chin maʼnoda taʼsir koʻrsata olaman, deb his qilsangizgina maqsadlaringizga ergashishda ichki motivatsiyangiz barqarorligini taʼminlay olasiz.
- **Raqobatlashishdan choʻchimang**. Xuddi siz kabi maqsadlar qoʻygan insonlar ularga erishishga urinayotgan boʻlishlari mumkin, biroq bu siz toʻxtab qolishingiz kerakligini anglatmaydi. Oʻz mehnatlaringizni yoki bu yoʻlda boshlagan sayohatingizni hech kimniki bilan solishtirmang. Boshqa insonlardan motivatsiya va ilhomlanish olishingiz mumkin, biroq shuni unutmangki, har birimizning yoʻl-yoʻrigʻimiz boshqa-boshqa boʻladi.

6. **Shaxsiy fazilatlar kishidagi yuqori potensial bilan bogʻliq.** Agar siz hayotda qanday qilib muvaffaqiyatli boʻlish mumkinligini bilishga urinayotgan boʻlsangiz, quyidagi muhim xislatlarni qanday qilib kamol toptira olishingiz mumkinligi haqida oʻylab koʻring:

Vijdoniylik

Vijdoniylik hislatiga ega insonlar harakatlarining natijasi haqida oʻylab koʻradilar. Ular boshqa insonlarning munosabati va hissiyotlarini ham hisobga olishadi. Bu xislatni oʻzingizda kamol toptirishda nimalar yordam bera olishi mumkin?

- Harakatlarning oqibatlari toʻgʻrisida oʻylab koʻrish.
- Boshqa insonlarning fikr-mulohazalarini hisobga olish.

Noaniqlikni qabul qila olish

Hayot mavhum vaziyatlarga toʻla. Muvaffaqiyatga oʻta yuqori potensialli inson bu noaniqlikni qabul qila oladi. Mavhumlikni qabul qila oluvchi insonlar kutilmagan oʻzgarishlarni oson qabul qila oladilar. Noaniqlikni qabul qilishni oʻzingizda rivojlantirish uchun:

- Oʻz nuqtayi nazaringizni taftish qiling va oʻzingizga tegishli boʻlmagan fikr va gʻoyalarni eʼtiborga oling.
- Sizga notanish boʻlgan narsalardan qoʻrqmaslik.
- Oʻzgarishga qayishimlik.
- Xilma-xillikni qadrlash.

Moslashuvchan boʻla olish

Mavhumlikni qabul qila olish bilan birga muvaffaqiyat koʻpincha oʻzgarishlarga tezlik bilan moslashish qobiliyatiga ham bogʻliq boʻladi:

- Murakkab vaziyatlarni qayta baholash, ularni shunchaki chidab yashash kerak boʻlgan qiyinchiliklar emas balki oʻsish va oʻrganish imkoniyatlari nazaridan boqish.
- Oʻzgarishlarga ochiqlilik; rejalar va vaziyatlar oʻzgarib qolganda, ortga bir qadam tashlang va yengib oʻtish yoʻllari haqida oʻylab koʻring.

Dovyuraklik

Dunyoning eng muvaffaqiyatli insonlari koʻpincha oʻzidagi buyuk jasorati bilan hammaga namuna boʻlishadi. Ular potensial muvaffaqiyatsizliklar qarshisida ham tavakkalchilikka qoʻl urishga shay boʻlishadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, dovyurak insonlar qoʻrquvni yengib oʻtishda ijobiy emotsiyalardan foydalanishadi.

Innovatsiya nima?

"Ehtiyoj – kashfiyotning onasi", – degan edi qadimgi yunon faylasufi Aflotun. Ilgʻor gʻoya va tashabbuslar, ixtirolar – innovatsiyalar bois bugun biz hozirgi manzildamiz. Innovatsiya – ijodiy yondashuv darajasini namoyon etuvchi koʻnikma bilan bogʻliq hodisa; yangilik degani. Misol uchun gʻildirakning kashf qilinishi oʻz davrida ulkan innovatsiya boʻlgan. Bugun gʻildirakni ishlab chiqarish yangilik emas, ammo "aqlli gʻildirak" yaratilsa, bu – innovatsiya boʻla oladi.

Innovatsiya bu – bozor talabidan kelib chiqqan holda, jarayonlar va mahsulotlarning sifatli oʻsish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

"Innovatsiya" tushunchasi (ingl. Innovation-kiritilingan yangilik, ixtiro) yangilikka investitsiya kiritish ma'nosida ishlatiladi. Innovatsiya tushunchasi iqtisodiyotga XX asr boshlarida kirib kelgan. Avstraliyalik iqtisodchi olim Y.Shumpeter birinchi marotaba innovatsiyalarga oid masalalarni koʻrib chiqqan va innovatsion jarayonga toʻliq ta'rif bergan. Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga koʻpchilik mualliflar

tomonidan turlicha yondashuvlar keltirilgan. Koʻpchilik mualliflar yangilik kiritishni iqtisodiy tadbiq etish jihatidan nazarda tutadi, ya'ni yangi resurslarni tashkil etish yoki mavjud boʻlganlarini noan'anaviy holda yangicha ishlatilishini nazarda tutadilar

A. Busiginning fikriga koʻra, innovatsiya bu asosiy kapital yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm fan, texnika va texnologiyalar yordamida yangilashdir.

R.Fatxutdinovning fikriga koʻra, innovatsiya yangilikni tatbiq etishning yakuniy natijasi boʻlib, obyekt boshqaruvini oʻzgartirish ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, ekologik va boshqa koʻrinishdagi samaradorlikdir.

Yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilib, i*nnovatsiya* – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilgʻor ilm-fan yutuqlarini joriy etish yoʻli bilan yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirishdir.

Innovatsiya har bir sohada boʻlishi mumkin. Masalan, fanda, uning bir yoʻnalishida yirik yangiliklarga erishish, kashfiyotlar yaratish, izlanishlarda, ilm sohasida yangi ilm va bilimlarni ochish, texnika va texnologiyalarni yangi avlodini yaratish, ishlab chiqarish sohalarida, xizmat koʻrsatishda yangi usullarni kiritish va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyotda esa fan, texnika, texnologiyalar sohalarida erishilgan eng soʻnggi yutuqlarni qoʻllashni bildirishi mumkin.

Innovatsion faoliyat qaysi sohada boʻlmasin, kashfiyotlar, e'lon qilingan yangiliklar, texnika va texnologiya yutuqlari va texnologik jarayonlarni yangilash, mahsulot bilan ta'minlash va boshqa yoʻnalishlardagi barcha yangiliklarni tizimli ravishda uzluksiz joriy etib borishni ta'minlash jarayonidir. Jahon globallashuvi jarayonida kuchli raqobat har sohada yangilikka undaydi. Fandagi texnika-texnologiya sohalaridagi eng soʻnggi yutuqlar, kashfiyotlar, yangiliklar, ratsionalizatorlik takliflarni ishlab chiqish va xizmat koʻrsatish sohalariga shiddat bilan kiritilib boriladi va marketing, boshqaruv, ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish sohalarida yangi yondashuv, yangi texnologiya, texnikalarni qoʻllashni talab qiladi va texnologiyalarni yangi avlodini qoʻllash asosida mablagʻ

kiritilishi investitsiyadan dalolat beradi. Yangilik kiritilishi asosida mavjud texnika va texnologiyalarni almashtirilishi ham investitsiyani anglatishi mumkin. Fan va texnika taraqqiyoti natijalari asosida yangi texnika, texnologiyalarni qo‘lga kiritilishi ham investitsiya ma’nosida ishlanadi. Investitsiyani aniqlovchi omil bo‘lib yangilik yaratilishi, ratsionalizatorlik takliflar yirik tashkilotlar va shunga tegishli ilgari e’lon qilinmagan yirik ishlanmalar xizmat qiladi.

Kichik raqobat muhitida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida investitsiya ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyani qo‘llash asosida tashkil etishni, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi, avval qo‘llanilmagan xizmat turlarini nazarda tutadi. Innovatsiya tushunchasi yangi maxsus turlarni mavjud ishlab chiqariladigan mahsulotni almashtiruvchi, uning o‘rnini bosuvchi yangi mahsulotni ishlab chiqarishni ham anglatadi. Kuchli raqobat muhitida yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash asosida yangi mahsulotni, yangi bozorga olib chiqishni ham bildiradi. Investitsiya kashfiyotlar asosida fan va texnika sohasida yangi bilimlarni qo‘llashga kiritilishini, yangi ilg‘or texnika va texnologiyalarni yaratilishini, ularni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida qo‘llanilishini, ular asosida yangi tovar va xizmatlarni yaratilishini va ular hisobiga raqobatni kuchaytirishni, yangi bozorni egallashni ham anglatadi.

Innovatsiya an’anaviy va yangi ilm-fan sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoq sohalarida iqtisodiy o‘sishni va raqobatbardoshlikni doimiy ravishda ta’minlovchi zaruriy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Innovatsiyaning asosiy xususiyatlari:

- Ilmiy-texnik yangilik;
- Amaliy qo‘llanilishi;
- Tijoriy amalga oshirilishi, ya’ni bozorda ma’lum darajada iste’molchilar talabini qondira olishi.

Umuman olganda, innovatsion jarayon bu – yangilik g‘oyadan to mahsulotgacha shakllanishi va bozorga tarqalishidir.

Innovatsion jarayon bosqichlari:

1-bosqich bu yangi g‘oya va bilimlar;

2-bosqich bu yangilikni (novatsii) amaliy faoliyatga tadbiq

etish, ya’ni innovatsiya;

3-bosqich bu innovatsiyalar diffuziyasi. Ya’ni innovatsion mahsulot, xizmat va texnologiyalarni yangi makon va sharoitlarda qo‘llanilishi.

Shunday qilib, “innovatsiya” tushunchasi barcha sohalardagi (ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va boshqa) ishlanmalar, yangiliklar va takomillashtirilgan vositalar sifatida, sarf-xarajatlar imkoniyatlarini ta’minlaydi yoki bo‘lmasa ularni ta’minlash uchun sharoit yaratadi.

Innovatsiyalarni oxir-oqibat maqsadi tovar (mahsulot) raqobatbardoshligini kuchaytirish, uning bozorini kengaytirish, firma (korxona) faoliyati barqarorligini ta’minlash asosida foyda (daromad) hajmi va normasini ko‘paytirishdir.

Innovatsiyalar o‘zining predmeti va qo‘llash sohalari bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

-mahsulotli (yangi tovar yoki xizmatlar);

-bozorboplik (tovarni ishlatilishini yangi sohalarini tashkil etuvchi yoki xizmatlarni yangi bozorda tadbiq etish);

-innovatsiyalik jarayonlari (texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari). Innovatsiyalarni qayd etilgan mezonlar bo‘yicha tiplarga ajratish firma (korxona) strategiyasini aniqlash, innovatsiya tiplaridan kelib chiqib tovar (xizmatlari) realizatsiya shakllari hamda iqtisodiy mexanizm boshqarish shakllarini ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi. Har qanday yangilik, ya’ni innovatsiya aniq loyihalarda o‘z ifodasini topadi, aniq maqsadlarga qaratiladi hamda chuqur hisob-kitoblar, tahlil va ekspertiza asosida bo‘lajak natijalari istiqboli aniqlanadi. Innovatsiya har qanday sohada yangilikni qo‘llash bo‘lib, uzluksiz jarayonni bildiradi, tizimli faoliyatni, aniq strategiyani amalga oshirishdan dalolat beradi. Yangilikka intilish, yaratuvchanlik, kashfiyotlar va ular asosida qo‘lga kiritiladigan ishlanmalar har qanday sohada resurs talab etadi.

Har qanday iqtisodning bosh bo‘g‘inini ishlab chiqarish tashkil etishi munosabati bilan, uni muntazam ravishda yuksaltirish, yangilanishni, ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalanishni, progressiv boshqaruv usullarini qo‘llashni, turli yo‘nalishlarda samara keltiruvchi iqtisodiy-moliyaviy resurslarni, ya’ni

investitsiyalarni kiritishni talab etadi.

Makroiqtisodiy darajada innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratiladi va iqtisodiy taraqqiyotni umumiy shart-sharoitlarini yaxshilab boradi hamda iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilishini ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish mukammal omillarga ega bo‘lishi talab etiladi va zaruriy iqtisodiy resurslar, ya'ni investitsiyalarni talab etadi. Bunda innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy tizimning moddiy, ijtimoiy-iqtisodiy va g‘oyaviy-siyosiy belgilarini takomillashtirilishiga safarbar etiladi. Bunday investitsiyalar resurslar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xizmatlar, mulkchilik shakllari, iqtisodiy mexanizm, intilinayotgan g‘oya va siyosatning ustuvorligini ta'minlanishiga qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, makroiqtisodiyot darajasida innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar kuchli raqobat muhitida firma (korxona)larning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ularning mavqeini mustahkamlash bilan, samaradorligini yuksaltirish, foyda (daromadi) hajmi va me'yorini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan investitsiyalardir.

O‘zbekiston iqtisodiyotida firma (korxona)lar hayotiyligini ta'minlash, ular rivojlanishi va daromaddorligini orttirish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan holda, jahon talablari darajasidagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishdir. Yangi, zamonaviy va ilg‘or texnika-texnologiyalarni qo‘llagan holda sifatli, arzon tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga etkazish uchun qaratilgan investitsiyalar innovatsion investitsiyalardir. Erkin raqobat muhitida firma (korxona) innovatsiya strategiyasini yaxlitlikda ta'minlashga qaratilgan investitsiyalar:

- ishlab chiqarish hayotiyligini saqlab qolish;
- jamoa rivojlanish dasturini ta'minlash;
- zamonaviy boshqarish usullarini qo‘llash;
- foydani maksimallashtirish;
- jamoa faoliyatini takomillashtirish;
- yangi sohalarga kirib borish;
- manfaatlarga mos keladigan maqsadlarga erishish;

moliyaviy holatga risk vaziyat ta’sirini kamaytirish qobiliyatiga ega bo‘lish kabi vazifalarni qamrab oladi va ularni ta’minlashga qaratiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni tatbiq etishning tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslarini rivojlantirish maqsadida bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Shu jumladan, 2006-yil 7-avgustda PQ-436 sonli “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916 sonli

“Innovatsion loyihalar va texnolgiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Ushbu qaror asosida Respublika innovatsion g‘oya, texnologiya va loyihalar

yarmarkasi amalga oshirilmoqda. Bu yarmarka Iqtisodiyot vazirligi, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligi tomonidan tashkil etilgan. Respublika innovatsion g‘oya, texnologiya va loyihalar yarmarkasi mamlakatimiz korxonalariga ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini joriy etishga, ularning samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916-son qarori ijrosini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi 2008-yil 15-oktyabrdagi № 228-sonli “Texnologiyalar transferi agentligi” davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Agentlikning asosiy vazifalari innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish; innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan, xorijiy innovatsion texnologiyalarni mustaqil ekspertizadan o‘tkazish, moslashtirish va mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish; ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat sotuvi obyekti sifatida ishlab chiqarishga joriy etish loyihalarini tuzish va amalga oshirish; ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish sohasida

xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni amalga oshirish.

Respublikada innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida 2002-yilda “Innovatsion ilmiy-texnikaviy faoliyatni moliyalashtirish Fondi” tashkil etilgan edi. O‘tgan davr ichida 1070 ta innovatsion loyihalar bu fonddan moliyaviy yordam oldilar.

2003-2014-yillar respublikada innovatsion faoliyatni innovatsion loyihalar dasturi asosida bajarilish yo‘nalishlari agrosanoat majmui bo‘yicha 14 tadan 138 taga, mashinasozlik va asbobsozlik bo‘yicha 12 tadan 63 taga, sog‘liqni saqlash bo‘yicha 8 tadan 113 taga, ekologiya bo‘yicha 2 tadan 36 taga, farmakologiya bo‘yicha 7 tadan 89 taga, axborot texnologiyasi bo‘yicha 2 tadan

102 taga, geologiya va qayta ishlash tarmoqlari bo‘yicha 3 tadan 68 taga, energetika bo‘yicha 12 tadan 115 taga, kimyoviy texnologiya bo‘yicha 12 tadan 91 taga va ijtimoiy yo‘nalish bo‘yicha 40 tadan 247 tagacha ko‘paydi.

Respublikada YaIM tahlil etilayotgan davrda 6 barobarga o‘sgan bo‘lsa-da, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun byudjetdan ajratilayotgan mablag‘larning YaIMdagi hissasi 2007-yilda 0,006 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2014-yilga kelib 0,072 foizni tashkil etdi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bu ko‘rsatkich YaIMni 10-14 foizini tashkil etadi. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun unga ajratilayotgan mablag‘lar hissasini oshirish zarur.

2. Yuqori riskli (venchurli) investitsiyalarni moliyalashtirish.

Investitsiyalarni moliyalashtirish kelajakda aniq mahsadlarga erishishni nazarda tutishi bilan tavsiflanadi. Investitsiyalarni moliyalashtirish iqtisodiy samaraga erishish, ijtimoiy samara olish, tabiatni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash, ishlab chiqarishni rivojlantirish yoki samaradorlikni oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Investitsiyani kiritish va moliyalashtirish qarorlari aniq hisob-kitoblar va tahlil hamda ekspertiza asosida amalga oshiriladi. Demak, investitsiyalarni moliyalashtirishdan avval ularni kelajakdagi maqsadlariga erishish imkoniyatlari naqadar erkinligi aniqlanadi.

Yuqori riskli (venture capital), ya’ni venchurli

moliyalashtirish natijalarini noaniqligi, mavhumligi, tahlikaligi, qaltisligi, xavf-xatarliligi yoki riskliligi bilan tavsiflanadi. Bir so‘z bilan ifodalaganda, investitsiyalarni moliyalashtirishni risklilik darajasi yuqori bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Bunda qo‘ldan keladigan investitsiyalarni kelajakda maqsadlariga erishish imkoniyatlari past bo‘lishi, yoki umuman qo‘yilayotgan maqsadni qo‘lga kiritilishi noaniq bo‘lishi, yoki umuman kiritilayotgan kapital yo‘qotish imkoniyatlari yuqori ekanligi oldindan noma’lum bo‘lishi bilan aniqlanib turadi. Venchurli investitsiyalarni qimorga tikish, kazino, ruletka kabi o‘yinlarga mablag‘ tikish bilan taqqoslash mumkin bo‘lgan investitsiyalardir. Venchurli investitsiyalar o‘zlarining oqibatlarini noma’lum ekanligi bilan ajralib turadi.

Venchurli moliyalashtirish – bu moliyalashtirishning shunday turiki, bunday venchur kapitali egalari va kompaniya egalari yuqori riskli (xatarli) va yuqori daromadli loyihalarni realizatsiyasi bo‘yicha hamkorlik qiladilar. Venchurli moliyalashtirishning obyekti bo‘lib sinalmagan g‘oya – venchur loyiha hisoblanadi. Shuningdek, “venchur” termini yangi texnologiyani barpo etish bilan bog‘liq loyihalarni joriy etish faoliyati sifatida ham talqin etiladi.

Venchur loyihalarini moliyalashtirishning asosiy afzalligi o‘rtacha daromadlilik darajasining yuqoriligi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti bo‘yicha ko‘riladigan daromaddan 2-3 barobar ko‘p miqdorni tashkil etadi.

Venchur loyihasini amalga oshirishda kamida uchta bosqichda kapitalga ehtiyoj seziladi:

1. dastlabki bosqich – tashkiliy ishlar va korxonani tashkil etish tadbirlari, marketing izlanishlari, loyiha qidiruv va ilmiy tekshirsh ishlari kabi loyiha oldi tadbirlari uchun;
2. o‘rta bosqich – rivojlanish bosqichi bo‘lib, mahsulot namunalarini ishlab chiqishdan normal ishlab chiqarish va iste’mol faoliyatiga o‘tish uchun;
3. oxirgi bosqich – muvaffaqiyatni mustahkamlash bosqichi bo‘lib, korxona aktsiyalarini birjada erkin muomala uchun emissiya qilinishi ro‘y beradi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini mustahkamlash uchun mablag‘ talab qilinadi.

Venchur fondi o‘z kapitalini turli rivojlanish darajasidagi korxonalarga joylashtirishdan manfaatdor va kapital diversifikatsiyasi tarafdoridir. Venchur kompaniyada fondni nazorat qilish uchun moliyaviy menejr lavozimiga ishonilgan shaxs saylanadi. Venchur kompaniya fondga egalik qilmaydi, faqat boshqaradi.

Investitsiya risklari o‘zlarining aniqligi, noaniqligi, miqdor jihatdan hisob-kitob qilinishi, sifat jihatidan aniqlanishi hamda turli usullar bilan o‘lchanishi bilan tavsiflanadilar. Risklarni aniqlashda hisoblashdan, o‘lchashdan, miqdorligini belgilashdan maqsad ularni boshqarish yo‘llarini ishlab chiqishdir. Investitsiya risklarini boshqarish maqsadida ularni ta’sirini kamaytirish, oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi va qo‘llaniladi.

Venchurli investitsiyalar, o‘zlarining risklarini oldini olish yoki pasaytirish imkoniyatlari ehtimoli yuqori emasligi bilan farqlanadi. Jahon tajribasi tasdiqlashicha, venchurli moliyalashtirish iqtisodiyotni texnik jihatdan progressiv tarmoqlariga taalluqlidir. Riskli moliyalashtirishga mansub bo‘lgan mablag‘lar ixtisoslashgan institutlar tomonidan jamlanadi va o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan hamda tezda qoplanadigan loyihalarga qaratiladi. Odatda bunday investitsiyalar katta bo‘lmagan, ishlab chiqarishni printsipial yangi turlarini o‘zlashtirilishi hisobiga foyda normasi o‘rtachadan yuqori darajada ta’minlanishi kutilayotgan sohadagi firmaga beriladi. Bunda, odatda kapital qo‘yilmalar firma mijozini aktsiyalarini bir qismini xarid qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi, yoki ssuda berish yo‘li orqali, shu jumladan firma-mijoz konversiya huquqi bilan beriladi. Risk yuqori bo‘lgan kapital qo‘lga kirituvchi firma rahbarligi o‘zining xatti-harakati ancha erkinligi bilan tavsiflanadilar.

Venchur kapital xususiy biznesni moliyalashni muqobil usuli sifatida XX asr 50 yillari o‘rtalarida AQShda vujudga keldi, 70-yillarning oxirlarida esa Yevropada paydo bo‘ldi.

Venchurli moliyalashtirish kelib chiqishiga qadar, jahonda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishning quyidagi manbalari ma’lum edi:

- bank kapitali, yirik korporatsiyalar, kompaniyalar, badavlat

shaxslar. Amerikaliklar va inglizlar ularni “biznes angellari” deb atashar edi. O‘z ishini boshlovchi tadbirkor “gard kam” tamoyiliga tayangan holda faoliyatini yo‘lga qo‘yar edi. Biznesni boshlab yuborish uchun mablag‘ni o‘z qarindosh urug‘laridan, do‘stlaridan, tanish bilishlaridan qarzga olib, yoki mulk va uy joyini garovga qo‘yib, faqat yutuqqa tayangan holda, o‘z kuchiga ishonch hosil qilib faoliyatga qo‘l uradi.

Venchur kapitali paydo bo‘lishiga qadar Yevropada xususiy tadbirkorlar aktsioner kapitalining moliyalashtirish manbalariga ega bo‘lmaganlar. Faqat 80-yillarning o‘rtalariga kelib yevropalik mablag‘ tikuvchilar ularga an’anaviy bo‘lib qolgan, oldindan miqdori aniq bo‘lgan aktivlarga mablag‘ safarbar etmasdan, aktsiyalarga investitsiyalash imkoniyatlari bilan qiziqa boshlashgan.

Venchurli investitsiyalarni moliyalashtirishni ko‘pgina tushunchalari ma’lum, lekin ularning barchasini ma’nosi shunga borib taqaladiki, qanday qilib u o‘z funktsional vazifasini bajaradi. Ustav kapitali hammasini qo‘lga kiritish yoki aktsiyalar paketinining bir qismini xarid qilish yo‘li bilan aniq biznesni o‘sishiga pul mablag‘larini tikishi venchurli investitsiyalarni moliyalashtirish mohiyatidan dalolat beradi. Bunda kapital tikuvchining ma’lumoti cheklanadi va kapital kirituvchi faqat investitsiya manbasini ta’minlovchisi hisoblanadi.

Venchurlik investitsiyalarni moliyalashtirish tushunchasi “venchur kapitali”, “venchur biznesi” tushunchalari bilan bevosita aloqadordir. Odatda ishlab chiqarish, texnologik, axborot va tashkiliy xarakterga ega bo‘lgan yangi ishlanmalarni joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan mualliflar faoliyati venchurli investitsiya munosabatlarini tashkil etadi.

Venchurli moliyalashtirish mexanizmini kelib chiqishi kelajagi bor g‘oyalar, yangi fan sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlanmalarni tatbiq etish loyihalari bilan bog‘lanadi.

Tadbirkor o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun g‘oyaga, ya’ni kelajagi bor loyihaga, moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lishi kerak. Moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lgan taqdirda ham, tadbirkor o‘z g‘oyasining naqadar amalga oshishini tasavvur qila olishi kerak, uning oqibatlari qanday bo‘lishini, ishonchliligini bilishi zarur. Fan

va texnika yutuqlari natijalari yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishi bilan bog‘liq g‘oyalar va loyihalar yuqori darajali risklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday risklar jumlasiga texnologik risklar, yangi texnologiya va yangi mahsulotlarni ishlatish oqibatlari bilan bog‘liq iqtisodiy risklar, tadbirkorlikni takroriy risklari kiradi. Venchur biznesida qanchalik risklar darajasi yuqori bo‘lsa, shunchalik “venchur kapitali” qiymati yuqori bo‘ladi.

Fan-texnika taraqqiyotining intensivligi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning oqibatlarini ishlab chiqarishga tatbiq etishdan voz kechilsa, shunchalik iqtisodiyot va jamiyat moliyaviy jihatdan zarar ko‘radi. Buning sababi raqobatbardoshlik yo‘qotiladi, ishlab chiqarish qisqaradi, fuqarolar byudjet daromadlari kamayadi, ishsizlik o‘sadi va boshqa salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar kelib chiqadi. Shuning uchun ham mantiqan tashkiliy-boshqaruv qarorlar shunga qaratiladiki, yuqori riskli loyihalarni amalga oshirish orqali ko‘zlangan maqsadlarga erishishi uchun venchurli moliyalashtirish mexanizmlarini ishga solish.

“Venchur kapitali” venchur strukturalarida, ya’ni venchur fondlari, korporatsiyalari orqali tashkil etiladi. Venchurli moliyalashtirish mexanizmli tadbirkorlik, innovatsion tuzilmalarini moliyalashtirishda qo‘l keladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ilmiy-izlanish ishlanmalari “nou-xau”larni, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish “venchur kapitali” “venchur tuzilmalari”, ya’ni venchur foydalari, korporatsiyalari, assotsiatsiyalarining venchurli moliyalashtirish mexanizmi orqali amalga oshirilishi iqtisodiyotimizni texnik, texnologik jihatdan muntazam yangilanib borishini ta’minlab turadi.

3. **Innovatsiya faoliyati tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida.** Jahon sivilizatsiyasi tarixi tasdiqlashicha, iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh kuchi bo‘lib tadbirkorlik xizmat qiladi. Tadbirkor har qanday imkoniyatni boy bermasdan, o‘z manfaatida o‘zi uchun iloji boricha maksimal yutuq maqsadida, hech qanday talofatlardan qo‘rqmay tashabbusni qo‘lga oluvchi, kuchli va harakatchan insondir. A. Smitni ko‘zga ko‘rinmas qo‘l qoidasiga binoan, tadbirkor har qanday imkoniyatni nafaqat o‘zi uchun balki jamiyat kelajagi

uchun ishlatuvchidir. Tadbirkor bo‘lish, demak, yangi ishni amalga oshirish qarorini qabul qilishdir.

Tadbirkorlik, iste’molchilarni turli tovar va xizmatlar bilan ta’minlash yo‘li bilan, daromadni oshirishga qaratilgan turli faoliyatdir. Tadbirkorlik faoliyati doimiy ravishda o‘z mulkiy mas’ulligidan, o‘z qo‘rquv va tavakkalligidan kelib chiqib yuritiladigan faoliyat hisoblanadi. Haqiqiy tadbirkor faqat o‘z g‘oyasiga ega bo‘lgan insonlardir, olimlarni fikriga ko‘ra, dunyodagi insonlarni faqat 15-20 foizigina tadbirkordek fikr yuritish va harakat qilish qobiliyatiga egadirlar. Amerikaliklar tadbirkorlarning millatini “oltin foyda” deb atashadi. Nobel mukofoti laureati, taniqli iqtisodchi Fridrix Fan Xayekni fikricha, tadbirkorlikning mohiyati yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlashdir, uni axtarib topishdadir.

Tadbirkorlik oddiygina faoliyat emas, u yaratuvchanlikka mos va xos faoliyatdir. Tadbirkorlikni yuritish va yuksaltirish uchun tadbirkor ijodiy xislatga ega bo‘lishi kerak. Tadbirkor o‘z ishini boshlar ekan, uni u aniq bir jarayon sifatida tasavvur qila olishi va bilishi zarur.

Tadbirkorlikka xos bo‘lgan xislatlar bular: tashabbuskorlik; yaratuvchanlik; ijodkorlik; yangilikka intiluvchanlik; o‘zining g‘oyasiga ega bo‘lmoqlik; tavakkalchilik va qaltislikni o‘z bo‘yniga olmoqlik; novatorlik, eskini buzib, ijodiy ravishda yangilikni kiritmoqlik, ya’ni doimiy rivojlanmoqlik; faoliyat oqibatlarini ko‘ra bilmoqlik; o‘z majburiyatlarini bajarmoqlik; o‘z qaroridan qaytmaslik; uddaburonlik va doimiy intiluvchanlik, yaratuvchanlik.

Qayd etilgan xislatlarga ega bo‘lganlargina tadbirkorlikni aniq jarayon sifatida tasavvur qila oladilar, buzish qobiliyatiga ega bo‘la oladilar, yangilikni yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadbirkorlik taraqqiyoti novatorlikdadir, ya’ni eskini ijodiy yondashuv asosida buzib, yangisini ijod etishdadir. Taniqli nemis iqtisodchisi D.A.Shumpeterni fikriga ko‘ra, texnologiya taraqqiyoti iqtisodiy yuksalishni boshqaradi, novatorlik ya’ni doimiy ijodiy yondashuv va yaratuvchanlik rivojlanishni ta’minlaydi. D.A.Shumpeterni fikriga ko‘ra, inovatorlikni amalga oshiruvchisi bo‘lib tadbirkor xizmat qiladi, moliyaviy mablag‘lar esa uni

ta’minotini tashkil etadi. Demak, tadbirkorlik o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikni tatbiq etmoqlik, tashabbuskorlik negizida tadbirkorlik, uddaburonlik, intiluvchanlik va doimiy rivojlanmoqlikni anglatadi. Ushbu jihatdan tadbirkorlik faoliyati innovatsiya faoliyatidan boshqa narsa emasdir. Haqiqiy tadbirkorlik negizida novatorlik, yangilikni kiritish, hayotga tatbiq etish yo‘li bilan rivojlanishni ta’minlash yotadi. Tadbirkorlik taraqqiyoti intiluvchanlikda, novatorlikda, yangiliklarni tatbiq etmoqlikda, tavakkal qilmoqlikda, qaltislikga qo‘l urmoqlikda va o‘z qarorlaridan qaytmaslikda hamda ma’suliyatni seza bilmoqlikdadir. Bularni jami innovatsiya faoliyatiga ham xos bo‘lgan belgilar bo‘lib, tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida xizmat qiladi.

Tadbirkorlikni innovatsion faoliyatsiz his qilib bo‘lmaydi, ushbu jihatdan tadbirkorlik faoliyati oddiy biznesdan farq qiladi. Tadbirkorlik taraqqiyoti novatorlikdan, erkin bozor talablarini bilmoqlikda, ularni istiqbolini his etmoqlikda, ularga mos tovar va xizmatlarni yetkazmoqlikda va shu yo‘l bilan o‘z maqsadlariga erishmoqlikdadir. Faqat innovatsiyalarga tayangan holda tadbirkorlikni yuritish tadbirkorlik faoliyati maqsadiga xos bo‘lgan yutuqlarni va yuqori daromadni ta’minlaydi. Bunda tadbirkorlik faoliyati erkin raqobat muhitida sinmaydi, u faol rivojlanadi, taraqqiyotga erishadi, yuksaladi.

Innovatsion tadbirkorlik uch asosiy turga bo‘linadi:

- mahsulot innovatsiyasi;
- texnologiya (ishlab chiqarish) innovatsiyasi;
- ijtimoiy innovatsiya.

Mahsulot innovatsiyasi – korxona mahsulotini sotish darajasi imkoniyatini yangilash jarayonini namoyon etadi.

Texnologiya innovatsiyasi – ishlab chiqarish imkoniyati (potensial) yangilash jarayonidir.

Ijtimoiy innovatsiyalar korxonaning gumanitar doirasini reja asosida yaxshilash jarayonini namoyon etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida faqat innovatsion tadbirkorlik raqobatga bardosh bera oladi, rivojlana oladi, taraqqiyotga erisha oladi, chunki uni innovatsiyalar yuksaltira oladi. Novatorlik asosida innovatsiya faoliyatiga tayanib tadbirkorlikni tashkil etish,

oddiy biznesni yuritishdan farqli ravishda rivojlanishni ta’minlaydi. Doimiy izlanishga, yangilikni kiritishga, raqobatbardoshlikni yo‘lga qo‘yishga, muntazam modernizatsiyalarni ta’minlashga, fan va texnika yutuqlari natijalarini joriy etib borishga qaratilgan tadbirkorlik albatta o‘z taraqqiyotiga erishadi va yuksalib boradi, chunki u bunda bozor talablarini qondira oladi, natijalarga erisha oladi.

14-15-MAVZU: TARBIYA FANI DARSLIKLARIGA KREATIV YONDASHUV
(ma’ruza)

Reja:

1. Zamonaviy maktab darsliklariga qo‘yiladigan talablar.
2. Darslikning tuzilishi, didaktik xususiyatlari.
3. O‘rta va yuqori sinflarda tarbiya darsliklarining tahlili.

Tayanch tushunchalar: *kreativ pedagogika fanini o‘qitish metodlari. Kreativ ta’lim usullari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar*

1.Zamonaviy maktab darsliklariga qo‘yiladigan talablar.

Darsliklar, maktab darsliklariga qo‘yiladigan talablarni yoritish metodlari.

Ulardan amaliyotda foydalana olish qobiliyatini shakllantirish.

Ta’lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga

oshirishning shakllangan va amaliyotda qo‘llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko‘plab ta’lim metodlari hosil bo‘lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta’lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat bo‘lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’lim metodini hosil qiladi.

Darslik – davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslik tuzish har bir mutaxassisdan yuqori mas’uliyat, bilimdonlik, tajriba va bilim talab etadi va uni tuzishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

- har bir darslik yuksak g‘oyaviylik va ilmiylik asosida tuzilishi zarur. Dastur mazmuniga mos kelishi kerak;
- qulay va ixcham bo‘lishi;
- fikrlar aniq va ravshan, bilimlar jonli bo‘lishi;
- uslubiy tomonlar kuchaytirilishi;
- amaliy yo‘naltirilishi;
- predmetlararo o‘zaro bog‘liqlik nazarda tutilishi zarur.
- Har qaysi o‘quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga hamda shu sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan bo‘lishi kerak.
- Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g‘oyaviy yo‘nalishi tizimli va izchil bo‘lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta’rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta’kidlashi lozim.
- Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.
- Darslikda bayon qilinayotgan materialning xarakteriga bog‘liq holda tegishli qoida va ta’riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo‘lishi, ba’zi materiallar rasm,

sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.

- Darslik o‘quvchilar tushunishi oson bo‘lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar anik va qisqa bo‘lishi kerak.
- Darslikda ta’lim mazmunining muhim komponentlari o‘z ifodasini topgan bo‘lishi lozim: tabiat, jamiyat, texnika, insoniyat, faoliyat usullari, tushuncha va iboralar to‘g‘risidagi nazariy bilimlar, nazariya va qonuniyatlar, metodologik va qimmatli fikrlar bo‘lishi kerak.
- Darslik materiallari o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ma’naviyat, axloqiy- xulqiy tushuncha va odatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Unda materiallarning izchil, sistemali bayon etilishiga, bilish metodlari bilan uzviy bo‘lishiga e’tiborni qaratish kerak.
- Darslikda o‘quvchi ijodiy qobiliyatini, bilish imkoniyatlarini oshirish, mustaqil bilishni shakllantirish yuzasidan topshiriqlar, ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riqlar, tavsiyalar beriladi.
- Metod – (grekcha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, axloq usuli ma’nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo‘li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko‘rinishi.
- Ta’lim metodi – o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muntazam qo‘llaydigan, o‘quvchilarga o‘z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

“Yozma bahslar” metodi

- Bu metod o‘quvchilarga o‘quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to‘lqinlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Uslub o‘quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o‘rgatish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlatirishga xizmat qiladi.
- Bu metoddan foydalanishda o‘qituvchi o‘quvchilarni

baholash uchun asos xizmatini oʻtovchi ajoyib materialga ega boʻladi. Yozma bahslar uslubiyoti bunday

muloqotlarni oʻquv xonasidagi barcha oʻquvchilar ishtirokida yozma shaklda oʻtkazish imkonini beradi.

- Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi:
- Oʻquvchilar bahs mavzusi bilan oldin oʻtkazilgan mashgʻulotda tanishadilar. Bahs arafasida oʻqituvchi boʻlajak mavzu toʻgʻrisida oʻquvchilarga axborot berar ekan, bahslar qay yoʻsinda oʻtishini qisqacha tushuntiradi (bu, albatta, bahslar birinchi marta oʻtkazilayotgan boʻlsa, juda ham muhimdir).
- Oʻqituvchi guruh oʻquvchilarini ikkiga ajratadi va ularni oʻquv xonasining ikki tomoniga qator qoʻyilgan stollar atrofiga yuzma-yuz holatda oʻtkazadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtayi nazarni himoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1

-guruh – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari, 2-guruh – bunga qarshilar).

- Shundan soʻng oʻqituvchi oʻquvchilarni juftliklarga ajratadi, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari boʻlishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. Agar oʻquv xonasida oʻquvchilar soni toq boʻlsa, oʻqituvchi munozaraga yetishmagan sherik huquqida qatnashishi mumkin. Oʻqituvchi 1-guruh oʻquvchilariga (keltirilgan misolda – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari) har bir juftning raqami (harfi yoki ramzi) bilan belgilangan katak qogʻoz varaqlarini tarqatadi.
- Oʻquvchilar oʻquv xonasining ikki tomonida oʻtirib, juftma-juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh oʻquvchilariga oʻzlari makullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qogʻoz varagʻiga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh oʻquvchilari oʻzlari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin boʻlgan nuqtai nazarlarini isbotlashlari mumkin.
- Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga (ijobiy holatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik boʻyicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda oʻz qarshi dalilarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi.

• Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi bunda har bir o‘quvchi sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o‘zining aks dalilini keltirishi shart. O‘quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund yetarlidir. Oxirgi raundda o‘quvchilarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so‘ng yozma ish yig‘ib olinadi.

• Bahslarni samarali yakunlashning eng qulay shakli – ikkala tomonga qaratilgan savoldir: “Qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isbotlari qaysilar bo‘ldi?” Har ikkala tomon vakillari qarshi taraf yozgan fikrlarni o‘qib yuqoridagi savolga javob beradilar.

• O‘qituvchi ishni yakkama-yakka yoki juftlik bo‘yicha baholashi mumkin. Agar o‘qituvchi yozma ishni baholashni rejalashtirgan bo‘lsa, bu haqda o‘quvchilarni darsning boshidayoq ogohlantirishi kerak.

• Ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarda yozma bahslar usulidan foydalanish davomida quyidagi jadval ko‘rinishda keltirilgan tarqatma materialdan foydalanish mumkin:

Bunda o‘quvchilar 2 guruhga ajratilib hozirgi kundagi amaldagi kitob darsliklar va elektron darsliklarning yaxshi va yomon taraflarini tahlil qilishadi.

1-guruh elektron darsliklarning avzal taraflarini misol qilib o‘z fikrini barchaga yetkazib berishga xizmat qiladi.

2-guruh esa amaldagi kitob darsliklarni himoya qiladi.

Darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- motivatsion vazifa bu – vazifa o‘quvchilarni ushbu fanni o‘rganishga yo‘naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag‘bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;
- axborot vazifasi o‘quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari o‘ajmini kengaytirishga imkon beradi;
- nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta’lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o‘quvchilarda o‘zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish uchun o‘rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.
- muvofiqlashtirish vazifasi – material ustida ishlash

jarayonida ta’limning boshqa vositalari (haritalar, ko‘rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

- rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi – darslik mazmunining o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;
- o‘qitish vazifasi - darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo‘lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko‘zga tashlanadi.
- **Elektron darslik –** kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan bo‘lib:
- - o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- - o‘quv materiallar verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklda;
- - multimedia (multimedia - ko‘p axborotli) qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o‘quvchini “ekran olamida” stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Elektron darslik va unga qo‘yiladigan umumiy talablar

Kasb hunar ta’limi uchun maxsus fanlardan elektron darslikni yaratish jarayonida psixologik-pedagogik, texnik-texnologik, estetik va ergonomik talablar qo‘yiladi. Elektron darslik ham bosma darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanma kabi an’anaviy o‘quv nashrlariga qo‘yilgan didaktik javob berishi kerak. Didaktik talablar ta’lim berishning spetsifik qonuniyatlariga va mos ravishda o‘qitishning didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak. Quyida maxsus fanlar bo‘yicha yaratiladigan elektron darslikka bo‘lgan talablar keltirilgan:

1. O‘qitishda ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarni so‘ng‘i yutuqlarni hisobga olish, o‘quv materiali mazmunining

yetarlicha chuqurligini, ishonchliligini ta’minlaydi. O‘quv maternalining elektron darslik yordamida o‘zlashtirish jarayoni o‘qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda qurilishi kerak. Bunday usullarga quyidagilar kiradi: tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish. Abstraktlash,umumlashtirish, yaxlitlantirish, o‘xshashlik, tahlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek tizimli tahlil usullari.

2. O‘qitishning erishuvchanlik talablari elektron darslik vositasida amalga oshiriladi va talabalar yoshiga va individual xususiyatlariga xos holda o‘quv materialini o‘rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruriyatini bildiradi. O‘quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, unda ta’lim oluvchi bu materialni egallashta ojizlik qiladi.

3. O‘qitishning muammoviyligini ta’minlash talablari maxsus fanlarni o‘qitishda qo‘yiladigan asosiy talab bo‘lib, ta’lim olish faoliyatining tavsifi va mavjudligi bilan shartlashtirilgan. Agar o‘quvchi muammoli vaziyatga duch kelsa, uni mustaqil yechishga harakat qilsa, uning ijodiy qobiliyati va fikrlash faolligi o‘sadi.

Ushbu didaktik talabni bajarilish darajasi an’anaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalaridan ko‘ra, elektron darslik yordamida sezilarli darajada yuqori bo‘lishi mumkin.

4. O‘qitishning ko‘rgazmaliligini ta’minlash talablari, talabalar tomonidan o‘rganilayotgan obyektlar (mashina va uskunalar), ularning maketlari yoki modellari, mahsulotni tayyorlashning texnologik jarayonini sezgili qabul qilis hi va shaxsan kuzatish imkoniyatini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

5. O‘qitishning ongliligini, ta’lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta’minlash talablari o‘quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o‘quv axborotini jalb qilish bo‘yicha talabalarning mustaqil ishlashl ari uchun elektron darslik va vositalari bilan ta’minlashni ko‘zda tutadi. Bunda o‘quvchi uchun o‘quv faoliyati, yo‘naltirilgan maqsad va mazmunni anglatadi. Maxsus fanlar bo‘yicha elektron darsliklar tizimli faoliyat yondashuvi asosida ishlab chiqilishi kerak. Shuning uchun elektron darslikda o‘quvchi faoliyatining aniq

modeli kuzatilishi kerak.

6. Elektron darslikdan foydalanishda o‘qitishning tizimliligi va ketma-ketligi talablari o‘rganiladigan maxsus fan sohasida bilimlar va ko‘nikmalarning ma’lum tizimining talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi ketma-ketligini ta’minlanishini bildiradi. Bilim, ko‘nikma va mahorat ta’lim tizimida ma ntiqiy tartibda shakllanishi va hayotda qo‘llanilishda o‘z o‘rnini topishi zarur. Buning uchun quyidagilar zarur:

o‘quv materialini tizimlashtirilgan va strukturlashtirilgan holda tavsiya qilish; o‘quv materialining har bir bo‘limida shakllanadigan bilim, ko‘nikma va mahoratlarning rivojlanishini ham inobatga olish:

o‘rganilayotgan o‘quv materialining fanlararo bog‘liqligini ta’minlash;

o‘quv materiali va ta’lim beruvchi ta’sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o‘ylab ko‘rish;

bilim berish jarayonini o‘qitish mantiqi bilan aniqlanadigan ketma-ketlikda qurish;

elektron darslik tavsiya qilgan axborotni, o‘qitishning mazmuni va uslubi ta’lim oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog‘liq holda tanlanishi kerak.

Masalan, mazmunli o‘yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni real jarayonlar va mavjudotlar modellarini tavsiya qilish yo‘li bilan amaliyot bilan bog‘lanishni ta’minlash.

7. Elektron darslikdan foydalanishda bilimlarni o‘zlashtirish mustahkamligi talablari: o‘quv materialini mustahkam o‘zlashtirish uchun uni chuqur fikrlash xotirada saqlashga intilish katta ahamiyatga ega.

8. Elektron darslikda o‘qitishning ta’limni rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari birligi talablari.

Ta’lim berish vazifasini bashqaruvchi an’anaviy nashrlarga qo‘yiladigan didaktik talablardan tashqari, eletkron darslikka uni yaratish va joriy qilinishida zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning ustunliklaridan foydalanish kabi quyidagi o‘ziga xos didaktik talablar qo‘yiladi.

1. **Moslashuvchanlik talablari** – maxsus fan elektron darsligi ta’lim oluvchining individual imkoniyatlariga, ya’ni o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchi bilimlari, ko‘nikmalari va psixologik xo‘susiyatlariga moslashtirilgan bo‘ lishi kerak. Elektron darslik moslashuvchanligining uchta darajasi mavjud. Birinchi darajasi talabalarning o‘quv materialini o‘rganishda o‘zlariga qulay bo‘lgan individual tempini tanlash imkoniyati hisoblanadi.

Ikkinchi darajasi – ta’lim oluvchi holatining diagnostik tahlili hisoblanadi, uning natijalari asosida, ta’lim berishning mazmuni va uslubi taklif etiladi. Uchinchi darajasi ochiqcha yondashuvga asoslanadi, unda foydalanuvchilarning guruhlanishi ko‘zda tutilmaydi va dastur mualliflari ta’lim oluvchilarning imkoni boricha ko‘proq kontingenti uchun, iloji boricha ko‘proq variantlarini ishlab chiqishlari tavsiya etiladi:

2. **O‘qitishning interfaollik talablariga** o‘qitish jarayonida o‘quvchi bilan elektron darslikning o‘zaro hamkorligini ta’minlash kiradi. Elektron darslik vositalari interfaol dialog va teskari aloqani ta’minlashi kerak. Dialogni tashkil etishning muhim tashkil etuvchi qismi bo‘lib, foydalanuvchi harakatiga elektron darslikning reaksiyasi hisoblanadi. Teskari aloqa nazoratni amalga oshiradi, keyingi bajariladigan ishlar bo‘yicha tavsiyalar beradi, ma’lumotnoma va tushuntiruvchi axborotlarga doimiy kirishishni amalga oshiradi. Teskari aloqa o‘quv jarayoni natijalari bo‘yicha diagnostik xatolar asosida nazoratdagi bilim darajasini oshirish uchun tavsiyalar bilan ish tahlilini beradi.

3. Elektron darslikning o‘quv axborotini taqdim qilishida **kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish** talablari. Zamonaviy elektron vositalar imkoniyatlari va elektron darslikda o‘quv axborotini namoyish qilish sifatini tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

4. Elektron darslik bilan ishlashda ta’lim oluvchining **intellektual qobiliyatini rivojlantirish** talablari. Fikrlash murakkab vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qila olish mahorati, axborotga ishlov berish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

5. Elektron darslikda o‘quv materialini namoyish qilishning

tizimlilik va funksional bog‘liqligi talablari.

6. Elektron darslikda ta’lim berish didaktik siklining to‘liqligi va uzluksizligini ta’minlash talablari.

Elektron darslik didaktik siklining barcha qatorlar axborotli va kommunikatsion texnika bilan ishlashning bitta seansi chegarasida bajarilish imkoniyatini berishi kerakligini bildiradi.

Maxsus fan elektron darsligiga bo‘lgan didaktik talablar bilan uslubiy talablar uzviy bog‘liqdir. Uslubiy talablar elektron darslikka mo‘ljallangan o‘quv fanining o‘ziga xosligi va xususiyatlarini mos ravishdagi maxsus fan spetsifikasini, uning tushunish apparatini, uning qonuniyatlarining izlanish usullari xususiyatlarini, axborotga ishlov berish zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko‘zda tutadi.

Maxsus fanlardan yarataladigan elektron darslik quyidagi uslubiy talablarni qoniqtirishi kerak:

1. Elektron darslik-o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro harakati va o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi kerak.

2. Elektron darslik o‘quv fanining ilmiy tushunchalar tizimi yuqori tartibli tuzilma ko‘rinishida ta’minlashi kerak. Maxsus fanlararo mantiqiy o‘zaro bog‘liqlik hisobga olinishi kerak.

3. Elektron darslik ta’lim oluvchiga algoritmik va evristik faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan o‘zlashtirish darajasida o‘quvchi bilim darajasini bosqichmabosqich oshirish maqsadida turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi kerak.

Elektron darslikni ishlab chiqish va foydalanishga qo‘yilgan didaktik talablarni hisobga olish bilan bir qatorda, uni yaratishning muvaffaqiyatliligi va sifatiga ta’sir qiluvchi bir qator psixologik talablar ham qo‘yiladi. Quyida elektron darslikka qo‘yiladigan psixologik talablar keltirilgan:

1. Elektron darslik o‘quv materialini namoyish qilishda nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish qilish holatlariga ham mos kelishi kerak. Elektron darslik qabul qilish, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, xotira kabi psixologik jarayonlari xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi kerak.

2. Elektron darslik o‘quv materiali ta’lim oluvchilarning yoshini, tayanch bilimlarini va tilni bilishini inobatga olib qurilgan bo‘lishi kerak.

3. Elektron darslik obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda amaliy mashg‘ultolarni o‘tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Bunday texnologiyalarni elekron darsliklar va kompyuterda o‘rgatish dasturlarini ishlab chiqishda e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Ular talabaga yetkazish kerak bo‘lgan o‘quv materialini qisqa, aniq va tushunarli qilib taqsim etish imkonini yaratadi. Ulardan keng foydalanish, avvalambor, ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltiradi.

Elektron darslik (ED) – bu dars o‘tish va o‘quv materiallarini o‘quvchiga yetkazishning boshqa bir vositasidir. Bu shunchaki, darslik emas, balki simbioz darslik, ma’lumotnoma, masalalar to‘plami va amaliyot (praktikum) uyg‘unligidir. O‘quvchilar bilimlarini nazorat qilish EDning o‘ziga kiritilgan. ED yordamida o‘quvchi o‘z bilimlari darajasi ni va ushbu mavzuni tushunishini baholashi mumkin. Zarur bo‘lgan holatlarda u darhol yordam olishi yoki tushunmagan savollariga qayta tushuntirish olishi mumkin. An’anaviy darslikdan farqli ravishda ED axborotlarni turli shakllarda taqdim etishi mumkin. Bu yerda o‘quv materiallarini vizual taqdim etish uchun dasturli vositalardan keng tanlash hamda grafiklar, animatsiyalar, gipermatn, tovushli olib borish imkoni mavjud.

Talabalarga fanga doir amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘nikma berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib amaliy va tajriba mashg‘ulotlarini olib borish har bir talabaning algoritmik tillar fani bo‘yicha kerakli axborotga ega bo‘lishi va dastriy ta’minot yaratish malakasini hosil bo‘lishida, shuningdek, qisqa vaqt ichida talabani dastur ta’minotlarini tuzishni tez o‘rgana olishida amaliy ahamiyatga ega.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida “Kompyuter tarmoqlari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish ko‘pgina afzalliklarga ega. Jumladan:

- o‘qituvchining roli pasayib, talabada mustaqil fikr paydo bo‘ladi;

- olinayotgan bilimlarning tezkorligi;

- talabalarning bilim olish jarayonida erkinliklari;

- iqtisodiy jihatdan samaradorligi;

mashg‘ulot jarayoni mobaynida audio, video, animatsiya, grafikalar asosida ta’lim berish natijasida o‘quv materiallar xotirada uzoq muddatga qolishi;

-olingan bilimlarning holisona baholanishi olinayotgan nazariy bilimlarning amaliyot bilan birgalikda taqqoslashning imkoni.

Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi. Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo‘laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo‘laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to‘plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo‘ladi.

Modullar o‘z ko‘lamiga ko‘ra mayda, o‘rtacha va yirik bo‘lishi mumkin.

Ularning bir-biriga nisbatan proportsionalligi qat’iy bo‘lmasligi, ularning o‘zaro ta’siri umumiy jarayonda turlicha bo‘lishi mumkin.

Modulli o‘qitish – pedagogik jarayonni ilmiy va metodik jihatdan tartibli va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo‘laklari o‘zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari algoritm deyiladi.

Eng kichik bo‘lak pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos qismi bo‘lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to‘plami o‘qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta’minlash uchun qo‘llaniladi. Modullarning o‘zgaruvchan va modernizatsiyalanadigan tabiati tu fayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o‘qitish – tartibli o‘qitish demakdir. Bunda o‘quv materiali bitta o‘quv mashg‘uloti hajmida, predmetining biror mavzusi yoki biror bo‘limi darajasida, ba’zan esa o‘quv fanining yirik tarkibiy qismi

o‘lchamida, ya’ni bloklar tarzida ham modu llar yordamida o‘qitilishi mumkin. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida bir necha turdosh o‘quv fanlarining tarkibiy bo‘laklarini hamda ayrim fanlarni o‘qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar (bloklar) tarzida o‘qitish keng qo‘llanilmoqda. Davlat ta’lim standartlarining tarkibiy bo‘laklariga mos keladigan bloklardan ham foydalanilmoqda. O‘quv reja va dasturlarning tarkibiy bo‘laklarini hamda ularning bajarilishini ta’minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta’lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo‘llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta’lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog‘lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o‘quvbilish faoliyatlari hamda ularning o‘zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi. Modullashtirish va o‘quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Lekin bu borada o‘quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan emas. Bu holatning genezisi va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik eksperimentning qat’iy xulosalariga tayanib ta’lim jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to‘la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qo‘llanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi.

O‘quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini qo‘llash tarafdorlari o‘qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog‘liq deb hisoblaydilar.

Tegishli uslubiy tavsiyalar ta’lim jarayonida texnik muxitni yaratishga, ya’ni tex nologiya tushunchasini o‘qitish jarayoniga qo‘llash masalalariga qaratildi.

Dastlab “kompyuterli texnologiya” va “yangi axborot texnologiyasi” kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita

sifatida qo‘llanila boshlandi.

3.O‘rta va yuqori sinflarda tarbiya darsliklarining tahlili/

Umumta’lim maktablari o‘quv darskiklari asosida tahlil o‘tkaziladi.

Adabiyotlar:

1.N.Muslimov., M.Usmonboyeva., D.Sayfurov., A.To‘rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: Sano-standart. 2015.

2.M.Usmonboyeva., A.To‘rayev Kreativ pedagogika asoslari. T.: 2016.

3.V.Utemov, M.Zinovkina, P.Gorev. Pedagogika kreativnosti. K.: Kirov AHOO, 2013.

4. V. Utemov, M. Zinovkina, P. Gorev. Kreativnaya pedagogika. M., “Yurayt”. 2019.

16-Mavzu : Tarbiya fanini o‘qitishda muammoli ta’limdan foydalanish

Mavzu rejasi:

1.Muammoli ta’limning mazmuni va mohiyati.

2.Tarbiya fanini o‘qitishda muammoli ta’limning ahamiyati.

3.Muammoli va kreativ yondoshuv asosida o‘quvchilarni ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Tayanch iboralar: Ta’lim, tarbiya, ta’lim sifati, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, o‘quvchilarni ijodiy kompetensiyalari, Professional ta’lim, ta’limning xalqaro standart tasniflagich darajalari

1.1. Muammoli ta’limning nazariy asoslari

Muammoli ta’lim texnologiyalari o’quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoli ta’lim o’quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o’stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o’quvchilarning o`rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to’liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o’rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llashda asosiy masalalardan biri o’rganilayotgan mavzu bilan bog’liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o’quv fanlari bo’yicha o’qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko’zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

— o’qituvchi o’quvchilarga dars mavzusi bilan bog’liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo’lini topishni taklif qiladi;

— bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

— hal etish uchun yetarli bo’lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo’lgan yoki savolning qo’yilishi noto’g’ri bo’lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

-o’qituvchi muammoni qo’yadi va o’zi yechadi;

-o’qituvchi muammoni qo’yadi va uning yechimini o’quvchilar bilan birgalikda topadi;

-o’quvchilarning o’zlari muammoni qo’yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo’llaniladigan usullar:

— muammoni turli nuqtai-nazardan o’rganish, tahlil qilish;

— solishtirish, umumlashtirish;

— faktlarni aniqlash va qiyoslash;

— vaziyatga bog’liq xulosalar chiqarish;

— o’quvchilarning o’zlari aniq savollar qo’yishi va boshqalar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Grestiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo’llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo’nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga

kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta’limning asosiy g’oyasi bilimlarni o’quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo’yicha o’quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o’zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

O’zbekistonda muammoli ta’limni qo’llash bo’yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o’quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go’zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta’lim usullaridan biri sifatida qo’llaniladi. Bunda o’quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to’g’ri so’zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o’rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o’qituvchining o’quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto’g’ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo’liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi.Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin;

1. Savol-javoblar orqali o’quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.
2. O’rganilayotgan mavzuning mazmunini o’quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, o’quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo’lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi.
3. O’quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag’batlantirish usullaridan foydalaniladi.
4. O’qituvchi o’zini bilmaydigan odamdek, o’quvchidek tutib, savollar berib boradi.
5. O’quvchining to’g’ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so’zlashga jalb qilish.

O’quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.

7. O’quvchining xato fikrlariga nisbatan to’g’ri fikrni o’qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o’quvchi uchun muammoli vaziyat yaratiladi va o’quvchini o’z xatolarini o’zi tuzatishiga yo’naltiriladi.

Bundan ko’rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi

shubhasiz bo’lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o’qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo’lishi kabilardan iborat.

Muammoli ta’lim mashg’ulotlarini tashkil etish va boshqarish

Muammoli ta’lim mashg’ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

-o’quv fani va darslar mavzusini o’rgatishda ular bilan bog’liq muammoli masalalarni belgilash;

-ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;

-o’quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

-zarur o’quv vositalarini tayyorlash;

-muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko’rsatish;

-topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;

-o’quvchilarning muammoni hal etishda yo’l qo’yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko’rsatish;

-o’quvchilarning noto’g’ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to’g’ri yo’lni topishlariga ko’maklashish va boshqalar.

Muammoli ta’lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.

3.Yechimning to’g’riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog’liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

Muammolar nazariy yoki amaliy yo’nalishda bo’ladi.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o’quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo’yiladigan eng asosiy talab – o’quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o’quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo’lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko’zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo’lmaydi.

Muammo o’quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo’lishi shart. Hosil bo’lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o’zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo’naltirilgan bo’ladi.

O’quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog’liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo’ladi. Bunday tushuna olish esa o’quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o’quvchi o’zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.

Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo’lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyligi, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog’liq.

Intellektual taraqqiyot darajasi o’qituvchilarda hamda o’quvchilarda qancha yuqori bo’lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo’ladi.

Shunga ko’ra o’quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxminni to’g’ri belgilash va yechimning to’g’riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to’g’ri deb tan olingan sabablar bilan bog’liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo’lishi to’g’riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to’g’riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Intellekt kopligi nazariyasining qisqacha bayoni quidagicha:

Bu nazariyani amerikalik psixolog Govard Gardner (1943 yil 11 iyulda tug`ilgan) ishlab chiqqan.

Bu nazariya har bir odam turli darajada ifodalangan kamida sakkizta tipdagi intellektga ega ekanligini ochib berdi. Ular quyidagilar:

1. Verbal-lingvistik intellekt-so`z xotirasi, so`z boyligi yaxshi, o`qishni yaxshi ko`radi, so`z bilan ijod qilishni yoqtiradi. Bular shoir, yozuvchi, notiqlar.

2. Mantiqiy-matematik intellekt-hisoblash va sonlar bilan ishlashni, mantiqiy masalalar, boshqotirmalarni echishni, shaxmat o`ynashni yaxshi ko`radi, tengqurlariga nisbatan ko`proq abstrakt darajada fikrlaydi, sabab-oqibat bog`liqliklarini tushunadi. Bular matematik, fizik va boshqalar.

3. Vizual-fazoviy intellekt-ko`rish obrazlari bilan fikrlaydi, karta, sxema, diagrammalarni tekstga nisbatan oson o`qiydi, xayolga berilish, rasm chizish, modellar konstrukstiyalashni yaxshi ko`radi. Bular rassom, haykaltarosh, me’mor, ixtirochi, shaxmatchilar.

4. Motor-harakatli intellekt-yuqori sport natijasiga erishadi, boshqalarning harakatlari, mimikasi, odatlarini yaxshi takrorlaydi, hamma narsaga qo`l tekkizish, buyumlarni qismlarga ajratish va yig`ish, yugurish, sakrash, kurash tushishni yaxshi ko`radi. Hunarlarga qobiliyatli. Bular raqqos, mim, artist, sportchilar.

5. Musiqiy-ritmik intellekt-qo`shiqlar, kuylarni eslab qoladi, ovozi yaxshi, musiqa asbobini chaladi, xorda ashula aytadi, harakatlari va so`zlashi ritmli, o`zicha sezmasdan kuylaydi, biror ish qilayotib, stolni ritmik chertadi. Bular bastakor, musiqachi, qo`shiqchi, raqqoslar.

6. Shaxslararo intellekt-tengqurlari bilan muloqotni, boshqa bolalar bilan o`ynash va ularga o`rgatishni yaxshi ko`radi, turli holatlarda yyetakchi bo`lib qoladi, hamdardlikni, boshqalarga g`amxo`rlik ko`rsatishni biladi, boshqa bolalar unga sherik bo`lishga intiladilar. Bular diniy xodim, siyosatchi, diplomatlar.

7. Ichki shaxsiy intellekt-mustaqillik hissi, iroda kuchini namoyish qiladi, o`zinining yaxshi va yomon xislatlarini real anglaydi, vazifalarni hech kim xalaqit bermaganda yaxshi bajaradi,

o`zini boshqara oladi, yakka ishlashni ma'qul ko`radi, o`z hissiyotlarini aniq tasvirlaydi, o`z xatolaridan ibrat oladi, o`z qadrini bilish hissi rivojlangan. Bular psixolog, o`qituvchi, tarbiyachilar.

8. Tabiatshunos intellekti-tabiatga, tabiat hodisalariga, jonivorlar, o`simliklarga qiziqadi, tabiat olamini tushunish, atrof-muhitning belgilari va xususiyatlarini farqlash, tasniflash va shu kabilarga qobiliyatini namoyon qiladi. Bular tabiatshunos, ekolog, qishloq xo`jalik xodimlari.

Ayrim bolalar o`zlaridagi eng ustun intellekt tipi orqali boshqalarga nisbatan osonroq o`qishlari mumkin. Har bir boladagi o`z vaqtida aniqlangan va rivojlantirilgan talant unga hayotda yuksak cho`qqilarga erishish uchun yo`l ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni bolalarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan holda tashkil etilishi lozim.

2.Tarbiya fanini o‘qitishda muammoli ta'limning

Tarbiya fani 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab mustaqil fan sifatida O‘zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o‘ziga xos yo`nalishlari tarbiya berish va tarbiyalash jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rgatuvchi fandir. Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasida fanning alohida sohasi sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham, Tarbiya fanining metodologiyasi sifatida Jahon va Sharq pedagogik tafakkurining tarbiya va tarbiyalashga oid durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, tasavvuf ta'limot namoyandalarining badiiy va ilmiy asarlari, sharqona tarbiya vositalari va metodlarini o‘z ichiga olgan manbalar, milliy istiqlol g‘oyasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi», Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli “Umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini

bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi”, dialektik bilish nazariyasi va tabiiy ilmiy majmui e`tirof etiladi.

Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o‘quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga.

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlshtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Ta’lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi,

oʻquvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, oʻquvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam oʻzlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish koʻnikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy oʻqitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va ogʻzaki soʻzlarga tayanib ish koʻrishi tufayli axborotli oʻqitish sifatida tafsiflanadi, chunki oʻqituvchi faoliyati birgina oʻquv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda. Oʻzbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda koʻp asrlar davomida qoʻllagan usul va vositalari, tadbir shakllari, oʻziga xos urf-odatlari va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi gʻoyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros oʻtmishda koʻplab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos boʻlgan.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim oʻrgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga boʻlgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uygʻonish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va oʻtkir fikrlaydigan kishilar toʻgʻrisida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, oʻtkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zoʻr istidodga ega; yomon ishlardan oʻzini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lim soʻz va oʻrgatish bilangina boʻladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan oʻrganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat boʻlgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan boʻlishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan boʻlsalar, kasb- hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshigʻi boʻladilar»

Tarbiya jarayoni o'zaro bogʻliq ikki faoliyatni – oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatini oʻz ichiga oladi. Tarbiya jarayonida oʻquvchining ongi shakllana boradi, his-tuygʻulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, gʻoyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida oʻquvchida jamiyatning shaxsga qoʻyadigan axloqiy

talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O‘quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi. Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta’lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishning amaliy shakllari o‘ziga xos hisoblanadi. Bunday shakllar mazkur fanning kutilgan darajada o‘qitilishini va uning samardorligiga erishishini ta’minlaydi. Shu jihatdan ushbu mavzuni o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

o‘qitishning klaster mexanizmi (mutaxassislar, ilmiy va o‘quv markazlari, ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilarning mustahkam hamkorligiga asosan amalga oshiriladigan amaliy ta’lim shakli);

o‘qitishning monitoring mexanizmi (har bir mavzuning, o‘quv materiallarining va topshiriqlarning muntazam ravishda kuzatib va o‘rganib borish bo‘yicha ta’limning amaliy shakli);

o‘qitishning indikator mexanizmi (“Tarbiya” fani vositasida o‘quvchilarning aqliy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnat va fuqarolik tarbiyasi olinganligi o‘lchovi).

Bunday amaliy shakllar boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’limning bunday amaliy shakllarini o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Ta’lim jarayonida krativ ta’limning quyidagi metotlaridan samarali foydalanish mumkin:

Vay-fay (Wi-Fi (jimlikni saqlash ishorasi).

1. O‘qituvchi qo‘lini ko‟taradi va Wi-Fi deb aytadi.
2. O‘qituvchiga diqqat qarating (ishni to‘xtating gaplashmang).
3. O‘qituvchining ishorasini ovoz chiqarmasdan takrorlang.

Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Ta'limiy o‘yinlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak;
2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi lozim;
3. Ta'limiy o‘yinlarni o‘tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o‘yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak;
5. Ta'limiy o‘yinlarning o‘tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim. Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Kreativlik- bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o‘zgartirishidir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya’ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaralan nazariyalar ham mavjud. Ba’zi

olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonllardan yolg‘izlanish deya ta’rif berishgan**.** Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo‘lgan, moslasha olmagan inson o‘zidagi yolg‘izlikni engib o‘tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. A.Adlerning fikricha, insondagi kreativlik o‘zida mavjud bo‘lgan noto‘liqlik kompleksini to‘ldirish vositasi deb bilgan. Empirik tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ijodkor qobiliyatli bolalar shaxsiy va emotsional sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bunday bolalarning maktabda erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past chiqanini kuzatishimiz mumkin.

Kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo‘ygan olimlardan yana biri Dj. Gilvord bo‘lib, u o‘z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida quradi. Ya’ni konvergent va divergent tafakkur. Konvergent tafakkur masalani echishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur- masalani echishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turidir. Divergent tafakkur- kreativlik asosida quriladi.

Demak intellekt va kreativlik umumiy ko‘rinishdagi **ikki xil** qobiliyatlar bo‘lib, ularni ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog‘lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Intellekt esa o‘sha ma’lumotni real amaliyotda qo‘llashga va atrof muhitga moslashishga javob beradi.

Intellektni kreativlikdan yiroq qilish, shaxsdagi yaratuvchanlik , originallik kabi sifatlarni kreativlikka moslab qo‘ymoqda . Kim birinchi bo‘lib buyuk kashfiyotni, o‘q-yoylarni yaratgan, kim olovni o‘zlashtirish mumkinligini o‘ylab topgan? Intellektmi? yoki Kreativlikmi? Agar kreativlik bo‘lsa, unda intellekt qaerga ketdi. Demak, bunday mulohazalar intellektni insoniyatning texnik va ilmiy muvaffaqiyatlarini yaratishdagi o‘rnini pasaytirmoqda.

Ba’zi insonlar aniq fanlar yuzasidan ba’zi insonlar gumanitar fanlar yuzasidan qobiliyatga ega bo‘lishadi. Yana yuqori darajadagi talantga ega bo‘lagan rassomning oddiy matematik

misollar oldida esankirab qolishini va ajoyib matematikni ozroq badiiy qobiliyatga ega bo‘lishini kuzatganmiz. Bunday insonlarni aqilli deb aytishimiz mumkinmi. Spirmenning fikricha, insonlarda umumiy intellekt mavjud. Uning fikricha insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi o‘ziga xos qobiliyatlari bor.Spirmen faktorli analiz, statistik protsedurani ishlab chiqdi. U bog‘liq elementlarning muvaqqat bog‘lanishlarini tushuntirib bergan. Spirmenning fikricha malakaning umumiy yig‘indisi, bizning aqliy hulq-atvorimizga bog‘liqdir deb tushuntirgan. SHu kungacha Spirmenning umumiy intellekt nazariyasi, ya’ni intellektni bir taraflama baholash nazariyasi ko‘plab norozilikларga sabab bo‘lgan. Spirmendan farqli o‘laroq Terstoun aqliy qobiliyatlarning 56 xil testlar, 7 ta klaster orqali baholashni joriy etdi. Terstoun insonlarni yagona shkala orqali baholamadi. U agar shaxs 7ta klasterdagi barcha masalani muvaffaqiyatli echsa, u qolgan barcha sohalarda ham xuddi shunday mavaffaqiyatga erishadi deb bilgan. Ular aqliy qobiliyatni jismoniy qobiliyat bilan taqqoslashgan. Uning fikricha, shtanga ko‘tarish bo‘yicha jahon chempioni yaxshigina figuristtik sport turi bilash ham shug‘ullanishi mumkin. CHunki undagi jismoniy tayyorgarlik shunga imkon beradi.

1980 yillarga kelib Spiremennig yagona intellekt nazariyasini va Terstounning akedemik qobiliyatlar nazariyalarini taqqoslash jarayoni kuzatilgan. Ularning fikricha, shaxs biror kognitiv sohada muvaffaqiyatga erishayotgan bo‘lsa, demak u boshqa sohalarda ham xuddi shunday zafarlarga erishadi. Hayotga moslashishning asosiy omili shaxsdagi umumiy intellekt emas, balki vaqt o‘tib, qobiliyatlar bir-biriga ta’sir eta boshlao‘idir. X.Gardner intellekntni bir necha qobiliyatlar yig‘indisi deb qaragan. U o‘z tadqiqotlarini past qobiliyatli odamlarda o‘tkazgan. Miyaning shikastlanishi bir qobiliyatni so‘ndirishi mumkin lekin qolgan qobiliyatlarni qoldirishi mumkin deb hisoblagan.

Gardner o‘z tadqiqotini bosh miyasi ba’zi qismlari fiziologik jihatdan shikasitlangan sinaluvchilarda o‘tkazgan. Ular ko‘pincha intellekt testlaridan quyi ballarni egallashgan. Bu sindrom vakillarining ba’zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo‘shib ayirishni xuddi elektron hisoblagichday tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo‘lishgan. Ba’zilari, biror tarixiy kun bilan

bog‘liq sanalarni yoddan bilishgan. Bunday sindrom egalari hattoki baddiy ijodda ham muvaffaqiyatlarga erisha olishgan. YUqoridagi faktlardan foydalanib, Gardner shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikrga kelgan. Umuman olganda shaxsda 8 xil ko‘rinishdagi qobiliyat borligini aytib o‘tadi. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erishsa, demak u qolgan sohalarda ham yaxshi natijalarga erishadi deb aytib bo‘tgan.

R. SHtenbegr, R.Vagner Gardnerning g‘oyasiga qo‘shilishgan Lekin shaxsda aqlni 3 xil faktori mavjudligini taxlil qilishgan:

Masalani echishda akalemik malakaning mavjudligi. Bunday malakalarni aqliy testlardagi yagona to‘g‘ri javobni belgilash bilan baholanadi

Amaliy intellekt kundalik hayotda atrof muhitga moslashish uchun muammolarning ko‘plab echimidan qulayini tanlashga yordam beradi.

Ijodiy aql. Bun tip vakillari notanish vaziyatlarda o‘zining reaksiyasini ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.

Mustaqil fikrlashning yuqori shakli bo’lmish ijodiylik muammosi chet el psixologiyasida juda chuqur o’rganilgan, bu asosan qobiliyatning kreativligi tarzida talqin qilingan. Biz bu ta’rifdan “ijodiy” deb foydalanmasligimizga sabab (“*create”* - inglizcha “ijod qilish” demakdir), ijodiylik - bu intellektual faollikning yuksak bosqichi, degan tasavvur paydo bo’lmasligi uchun “kreativlik” atamasidan foydalandik. Psixologiyada kreativlik muammosi 1950-yillardan boshlab izchil ravishda o’rganilmoqda. Lekin biz o’z tadqiqotimizda “kreativlik” atamasini o’zbek tilida shartli ravishda “aqliy ijodiylik” deb atadik va uni mustaqil fikrlashning psixologik asosi sifatida o’rganishni lozim topdik. SHunday qilib, bundan buyon aqliy ijodiylik haqida mulohaza yuritilganda fikrlashning nostandartligi, uning mustaqilligi va “kreativligi” nazarda tutiladi.

Kreativlikning ajratilishiga aqlning an’anaviy testlari va muammoni yechishning muvvafaqiyati o’rtasida bog’lanish yo’qligi haqidagi ma’lumot turtki bo’lgan. Bu sifat mohiyatan aql orqali berilgan ma’lumotlarni, qo’yilgan vazifalarni hal qilishda tezkor usul va har xil yo’sindan foydalanish qobiliyatiga bog’liqligini ifodalaydi.

Ijodiylikning XX asr 60-yillardagi ko'zga ko'ringan tadqiqotchilaridan biri M.Wallachning [10] ta'kidlashicha, intellektual testlar ijodiy yutuqlar bilan yuqori ko'rsatkichlarda o'zaro bog'lanmagan. U 11-12 yoshli o'quvchilar o'rtasidagi intellekt va ijodiylik turlicha rivojlanganligi sababli ularni 4 xil guruhga ajratib ko'rsatadi:

intellekt va ijodiylikning yuqori darajasiga erishgan o'quvchilar o'zlarini to'g'ri baholaydilar, ularda o'zini-o'zi nazorat qilish yuqori, ular barcha yangi narsalarga qiziqishadi va baholashda mustaqillikka egadirlar;

intellektual darajasi yuqori va ijodiylik darajasi past o'quvchilar maktabda muvaffaqiyatga intiladilar, lekin birovdan o'z sirlarini yashiradilar, o'zlarini pasaytirib baholaydilar;

intellektual darajasi past va ijodiylik ko'rsatkichi yuqori o'quvchilar xavotirli, e'tiborsiz, quyi ijtimoiy moslashuv bilan boshqalardan ajralib turadilar;

intellektual darajasi va ijodiylik ko'rsatkichi quyi o'quvchilar vaziyatga oson moslashadilar, ijtimoiy intellektual darajasi yuqori, lekin sust sub'ektlar o'zlarini to'g'ri baholaydilar.

SHunday qilib, ijodiylik jarayoni bilan intellekt darajasi o'rtasidagi munosabat o'quvchilarning shaxsiy xislatlariga va ularning moslashuv usullariga ta'sir qiladi.

Stenberg va Gardnerlarning fikricha bir necha qobiliyat shaxsni omadli bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ijodiylik mezonlaridan biri - bu *nostandartlikdir*. E.P.Torrance ta'kidlaganidek, noyob va original javoblar mohiyatan har doim ham mos tushavermaydi. Ko'pincha tushunchalarning mazmunini asoslanmagan ravishda aralashtirish holati ro'y beradi: ijodiy qobiliyat esa nostandartlik bilan bir xil deb qaraladi, nostandartlik originallik bilan, originallik esa sinaluvchilar guruhidagi noyob javoblar bilan ayniy deb talqin etiladi. Nostandartlik originallik (o'ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir.

Ikkinchi mezon - *anglanganlikdir.* Bu asnoda so'z borganda sinaluvchi tomonidan muammo yechimining anglanganligi nazarda tutiladi.

Intellektual testlar shaxsdan konvergent tafakkurni talab

qiladi. Kreativ testlar esa divergent tafakkurni talab etadi.

Kreativlik- bu birvaqtning oʻzida yangi va qadrli gʻoyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Sternberg va uning kasbdoshlari kreativlikning 5 komponentini ishlab chiqishgan.

1. Shaxsdagi bilimning koʻpqirraligi. Qoʻlga qiritgan bilimilarimiz gʻoyalarimizning koʻp boʻlishining asosi hisoblandi. Dunyoviy bilimilarimiz qanchalik koʻp boʻlsa, psixikamizdagi bloklar ham shunchalik koʻp boʻladi. Hayotda muammolarni hal qilishda bilimlarimiz qanchalik koʻp boʻlsa, uni hal qilish shunchalik oson boʻladi.
2. Tasavvuriy tafakkur narsa va hodisalarini yangidan koʻrishga, ularni qayta yaratishga va bogʻlashga imkon beradi. Muammoning asosiy elementini tasavvur qilib uni oʻzlashtiramiz va uni yangi bosqichga olib oʻtamiz.
3. Tavakkalchilik- yangi ta'surotlarni qidirish. Buni ikki ma'noda koʻrish mumkin. Ya'ni birinchisi **tavakkal** va muammoni engib oʻtishdagi **qat'iylikda** deb koʻrish mumkin.bunday xususiyatga ega boʻlgan shaxslar orqaga qaytishdan koʻra, yangi tajribaga ega boʻlishni avzal deb bilishadi.
4. Ichki motivatsiya majburlikdan koʻra shaxsda murakkab masalani echishda qiziqiqish va qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Ijodkor shaxs masalaning muddatini, uning keltiruvchi daromadini va talabgorlari haqida oʻylamaydi. Butin e'tibori maslani echishdagi qonikish hisi va stimuli qaratadi. Isaak Nyutondan "Siz bunday murakkab masalalarni qanday qilib hal qilagansiz" deb soʻrashganda, u shunday javob bergan "Men bu muammo haqida tunu kun oʻylab yurganman " deb javob bergan.
5. Ijodiy muhit shaxsdagi ijodiy gʻoyalarni qoʻllab-quvvatlashga yordam beradi. Hamkasblar bilan ijobiy munosabat va ularni koʻmagi shaxsdagi gʻoyalarni kamol topishiga turtki boʻladi. Lekin shuni ta'qidlab oʻtish kerakki, ba'zi tadqiqotlarda ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta'siri holati ham kuzatilgan.

Nensi Kantor, Djon Kilstrom fanga akademik intellektdan tashqari ijtimoiy intellekt tushunchasini kiritishdi. Ijtimoiy intellekt- bu ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni tushunib etish va uni engib oʻtish deganidir. S.Epstayn, P.Mayerlar ham bu fikrga

qo‘shilgan. Nima uchun akademik qobiliyatli shaxslar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, oilaviy baxtga erishishga, biror bir yutuqqa erishishda muvaffaqiyatsizliklarga duch keladi? S.Epstayn, P.Mayerlarnnig fikricha, ijtimoiy intellektning muhim bo‘lagi- bu emotsional intelektdir. YA’ni,o‘z emotsiyasini qabul qilish, ifodalash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Ongli, emotsional etuk shaxslar o‘z- o‘zini yaxshi anglagan shaxslar hisoblanishadi. Bunday odamlar engib bo‘lmaydigan depressiya, hissiyotlarini boshqara oladigan insonlar hisoblanishadi.

Emotsional intellektni E.Torndayk, Golman va boshqa olimlar ham tadqiq etgan. Dj. Mayer, P.Solovey, D.Krauzo qobiliyat sirasiga kiruvchi emotsional intellektning 4 komponentini tadqiq etuvchi testlarni ishlab chiqishdi. Bular quyidagilar:

- Emotsiyani qabul qilish (inson yuzidan uni aniqlash)
- Emotsiyani tushunish (ularni o‘zgarishini aytib berish)
- Emotsiyani boshqarish (qaysi vaziyatda qaysi bir emotsiyadan foydalanishni bila olish)
- Emotsiyani moslashuvchan va ijodkor tafakkurda qo‘llay olish

Agar shaxs yuqori intellekt koefitsentiga ega bo‘lsa, ammo bosh miyasining biror joyidan jarohat olsaunnig emotsional intellekti pasayib ketar ekan. Nevrolog Antonio Damasio o‘z tajribasida miya saratoni mavjud Elliot ismli bemorni mosol qilib keltirgan. U o‘z bemoridagi o‘smani jarrohlik yo‘li bilan olib tashlagan. U bemor sog‘aygandan keyin u bilan bo‘lgan soatlab suhbatda unnig yuzida emotsiyaning hech qanday ko‘rinishini payqashmagan. Elliotga turli xil vahshiona va turli tabiiy offtlar orqali insonlarda yuz bergan talofatlar aks etgan rasmlarni ko‘rsatishgan. Elliot o‘zida hech qanday his yo‘qligini bilgan va uni ifodalay olmagan. U endilikda hech nima his eta olmayotganini yaxshi bilgan. Natijada Elliot o‘z ishi va oilasini yo‘qotdi. Uning qayta turmishi ham o‘xshamagan. Elliot jamiyatda o‘z o‘rnini yo‘qotib muvaffaqiyatsizlikka erishdi.

Lekin ba’zi olimlarning fikricha, emotsional intellekt – intellektdan yiroq tushuncha. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, emotsional intellekt bizdagi bor hohish va qiziqishni aktivlashtiradi. Muammoning ma’nosini kamroq o‘ylashga majbur

qiladi. Bu jarayon kreativlik uchun muhim hisoblanadi.

Intellektning yuqori bo‘lishi miya yarim sharlariga bog‘liqmi? Bu masalani tadqiq etishganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Bayron, Betxovenlarning miyasining og‘irligi normal odamning miyasidan anchagina og‘iriligini aniqlashgan. Miyasi og‘ir bo‘lgan shaxslar yuqori intellektga ega bo‘lishadi degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan. Lekin afsus ba’zi bir olim daxolarning miyasi normal insonlarnikidan ancha pastligini ham aniqlashgan. Aksincha ba’zi bir jinoyatchilarning miyasining og‘irligi xuddi Bayroninkiday ekanligi aniqlangan. Baribir keyinchalik MRT asob bilan miyani tahlil qilishda ishtellekt bilan miyani bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Intellektning yuqori bo‘lishi nafaqat uning og‘irligiga balki miyannig frontal va parietal manglay bo‘lagidagi aktivlik jarayoniga bog‘liqligini aniqlashgan.

Eynshteyn bilan bir kanadalikning miyasi tadqiq etilganda ularning og‘iriligi o‘rtasida deyarli hech qanday farq yo‘qligini aniqlashgan. Lekin Eynshteyning miyasining kuyi qismi kanadalikning miyasidan 15 foizga yuqoriroqligi namoyon bo‘lgan. Aynan miyaning quyi qismi matematik va fazoviy ma’lumotlarga javob beradi. Aksincha Eynshteyning miyasining faollika javob beruvchi qismlari pastroq joylashganinin aniqlashgan. SHuning uchun ham Enshteyn va boshqa fiziklarning gapirish va o‘rganishida sekinlikni ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan.

Intellektni o‘lchash tarixida dastlabki qadamni ingliz olimi Frensis Galton tomonidan amalga oshirilgan. Galtoninng fikricha xarakter irsiyat yo‘li bilan avlodddan-avlodga o‘tar ekan. U bunga bog‘liq ravishda aqliy qobiliyatlarni irsiyat yo‘li bilan tushuntirmoqchi bo‘lgan. Galtonning tadqiqotlari unchalik yaxshi natijalarni ko‘rsatmadi va erkak kishilarning natijali ayollarninkiga qaraganda yuqori chiqanini ko‘rishimiz mukin.

Galtonning tadqiqotlari o‘z samarasini bermagan bo‘lsa ham biz uni aqliy qobiliyatlarni aniqlagan dastlabki tadqiqotchi sifatada tan olamiz. Intellektni teslar yordamida aniqlash yana bir qadamni fransuz olimi Alfred Bine tomonidan amalga oshirilgan.

Bunning sababi ularning qobiliyatlaridagi farqlar bo‘lishi mumkin deb qaralgan. 1904 yil A.Bine o‘z xodimi Tedor Simon bilan birga maktabda o‘zlashtirishda ma’lum muammolarga duch keluvchi o‘quvchilarni aniqlovchi ob’ektiv testlarni yaratishgan. Bunning sababi ularning qobiliyatlaridagi farqlar bo‘lishi mumkin deb qaralgan. 1904 yil A.Bine o‘z xodimi Tedor Simon bilan birga maktabda o‘zlashtirishda ma’lum muammolarga duch keluvchi o‘quvchilarni aniqlovchi ob’ektiv testlarni yaratishgan. Bine va Simon aqliy yosh va xronalogik yosh degan hodisani o‘rgantishni boshlashgan. Uning aqliy yoshi xronologik yoshiga mos kelishi kerak edi. Agar kimda bu mutanosib kemasa, uni maxsus ta’lim metodi orqali moslashitirish mumkin deb hisoblagan. Bine va Simon Galtondan farqli o‘laroq aqliy qobiliyatni muhitga bog‘liq deb bilgan.

Binedan so‘ng Stanford universitetining professori Lyuis Terman Bine va Simonning intellekt testlari Stanford universitettining talabalariga mos kelmayotganini aniqlab, unga ma’lum o‘zgartirish kiritdi. Endilikda unga Stenford- Bine testi deb nomladi. Keyinchalik nemis olimi Vilyam SHtern aqliy qobiliyat

koeffitsenti hisoblangan o‘sha mashhur IQ atamasini fanga kiritdi.

$$IQ = \frac{\text{Aqliy yosh}}{\text{Xronologik yosh}} \times 100$$

Demak, dastlab angliyalik olim F.Galton individual- aqliy qobiliyatlarni tadqiq etgan. Lekin unda buni qanday qilib o‘lchash kerakligini aniqlay olmagan bo‘lsa ham. A.Bine esa uning g‘oyasini rivojlantirib, fransuz ta’lim tizimida o‘quvchilarning kelajakda o‘zlanshtirira olishini aytib bera olgan. Xuddi Galton dek L.Terman aqliy qobiliyatlar irsiyatning mevasi deb bilgan. Ctenford- Bine testi bu ko‘rinmayotgan qobiliyatni uyg‘otishga yordam beradi deb aytib o‘tgan.

Intellektning rivojlanishi irsiyatsiyatmi yoki ijtimoiy muhitning roli kuchlimi? F.Galtonning fikricha, intellekning rivojlanishiga irsiyatninng rolini yuqori qo‘ygan. Lekin ijtimoiy muhitnig rolini yuqori qo‘ysak, unda yaxshi ta’lim-tarbiya olmagan nosog‘lom muhitda o‘sgan bola qobiliyatsiz bola deb hisoblashga tg‘ri keladi.

Haqiqatda ham bir tuxumdan tug‘ilgan egizaklarda intellekt koefiitsenti deyarli bir xil natijani ko‘rsatgan. Agar bir tuxumdan tug‘ilgan egizaklarni boshqa boshqa oilalarda tarbiya qilib ularning intellekt koeffitsenti tekshirilganda, baribir natijani bir xiligini ko‘rishimiz mumkin.

Aqliy qobiliyatning jinsiy farqlari mavjud bo‘lib, ayollarning xotirasi erkaklarnikiga qaraganda kuchli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Erkaklarda esa matematik va fazofiy qobiliyatlar yaxshi rivojlanganligi aniqlangan.



Biz intellekt so‘zini talaffuz qilishimiz bilan uni testlar orqali o‘lchashni ko‘z oldimizga keltiramiz. Lekin mana shu teslar qanchalik haqiqatga yaqin. Biz ularga qay darajada ishonishimiz mukin. Bu ko‘rinishdagi testlarning savollari barcha qatlam vakillarining turmush sharitini hisobga olmaganligini

kuzatishimiz mumkin. Hattoki, Alfred Bine ham oʻzi kashf etkan intellekt testlarini tahlili ustida ishlash kerakligini aytib oʻtgan. Sababi, bu teslarning natijasi haqiqatdan uzoq boʻlishini aniqlagan. Bundan tashqari bunday testlar intellektning faqat bir tomonini tadqiq etishga qaratilgan. Emotsional va amaliy intelekti yuqori rivojlangan shaxslarning natijalari bu testlarda yaxshi natija koʻrsatmayotganligi kuzatishgan. Baribir, hozirgi kunda IQ koeffitsenti oʻz ahamiyatini zararcha ham yoʻqotmagan.

Bolaning o'z -o'zini ijodiy rivojlantirishi zarurligi, mustaqil fikrlashi, uning individual qiziqishlarini hisobga olish zarurligi va boshqalar haqidagi g'oyalar har xil variantlarda takrorlanadi. Lekin, shu bilan birga, tarbiya va ta‟lim ko'pincha shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish tabiiy jarayoniga to'sqinlik qiladi, uning ijodiy boshlanishini oldindan "tayyorlangan ramkalarga" kuch bilan kiritishga va o'quv rejalarini oson yo'ldan olib borishga harakat qiladilar. Diqqat bilan tinglash va tirishib esda saqlash qobiliyati shu kungacha namuna bo'ladigan o'quvchining farqli xususiyati hisoblanadi.Ijod -fikrlashning original usulining sinonimi, ya'ni odatdagi, qabul qilingan chegaralarni buzish qobiliyatidir. Ijodiy aql -bu aktiv, sinchkov, boshqalar muammolarni ko'rmagan joylarda ularni topa oladigan aqldir. Ijodkor shaxs o'zgarib turadigan vaziyatda o'zini suvda yurgan baliqday his qiladi, boshqalarga xafv bordek tuyulgan joyda u hech kimga bog'liq bo'lmagan holda, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega. Unday odam o'zini hech qanday turg'un qoidalarga o'ralib qolishga yo'l qo'ymasdan narsalar va tushunchalardan yangicha foydalanadi. Bu xususiyatlarning hammasi ijod qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu jarayon esa hammavaqt, hatto "jiddiy matematika" haqida gap ketganda ham qiziqarlidir. XX asr ijod fenomeni, unga xos xususiyatlarni, ijodning boshlanishi obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligini tekshirishga boy asr bo'ldi. J.Gilfordning ishlari nashr qilinishi fikrlashning ikki turi o'rtasidagi prinsipial farqni aniqlashga imkon yaratdi. Chiziqli mashina qat'iy mantiqqa asoslangan taklif qilingan variantlardan birdan-bir to'g'ri xulosani izlashga yo'naltirilgan. Qo'shimcha fikrlash ichki tuyg'uga mos keladigan qarorlarning iloji boricha keng qamrovini yaratishga yo'naltirilgan. Ijodkorlik qobiliyatining quyidagi asosiy jihatlarini

ajratgan:-muammolarni aniqlab qo’ya bilish qobiliyati;-juda ko’p g’oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;-o’zgaruvchanlik-har xil g’oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;-o’ziga xoslik-ta’sir qiluvchilarga (qolipdan tashqari) javob berish, bevosita bog’lanmagan fikrlarni o’ylab chiqish, odatdagidan boshqacha javoblar topish qobiliyati;

-muammolarni hal qilish qobiliyati, ya’ni semantikaga oid o’zgaruvchanlikni namoyon qilgan holda, obyektda yangi belgilarini ko’rish, analiz va sintez qilish, yangi foydalanish yo’lini topish qobiliyati.Gilfordning ilmiy tekshirishlaridan kelib chiqqan holda ijodkorlik qobiliyati bilan o’qishni o’zlashtirish o’rtasidagi bog’liqlik juda ozligi aniqlangan, “ideal a’lochi” va “ijodkor odamning” shaxsiy xususiyatlari esa bir-biridan jiddiy farq qiladi.Bolalani ijodiy tasavvur mexanizmlariga qanday o’rgatish kerak? Ba’zi katta odamlar “xursandchilik”va “yengiltaklik”aynan bir xil deb o’ylashadi. Aslini olganda, hazil va qiziqchilik -jiddiy muammoning o’zi va bola ongi o’rtasidagi eng yaqin masofadir. Tasavvur va matematika, fantaziya va fan bir-biriga raqib va dushman emas, balki ittifoqdoshlardir. Agar shunday bo’lsa va biz haqiqatan ham bolalarni ijod zavqiga erishtirmoqchi bo’lsak, u holda uchta asosiy maqsadga diqqat-e’tiborni qaratishimiz kerak:-bolalarni ochilmagan sir va jumboqlarni O’z kuchlari bilan ochish mumkinligiga ishontirish;-bu sirlarni topish va ochishga imkon beruvchi ijodiy tasavvurning asosiy yo'llarini o’rgatish;-idrok qilish, diqqat-e’tiborni, xotirani, his-tuyg'u va fikrlashni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur mexanizmlaridan foydalanish.Darslarda teskari ertaklardan foydalanish usullari1-bosqich. O’qituvchi doskaga dars mavzusiga bog’liq bo’lgan asosiy so’zlar va tushunchalarning ro’yxatini yozadi.2-bosqich. O’qituvchi o’quvchilarga hamma biladigan ertakni tanlashni taklif qiladi. Tanlangan ertak asosida o’qituvchi o’quvchilar yordamida qanday qilib bosh qahramonlarning paydo bo’lishini, ularning harakatlari va asosiy syujetda bo’lgan sarguzashtlar ketma-ketligini aks ettiruvchi chizmani tuzish mumkinligini namoyish qiladi.3-bosqich. O’qituvchi qanday usullar yordamida ertakning bosh qahramonlarning joylarini almashtirish, ularning harakatlarini o’zgartirish va shu kabilarning mumkinligini o’quvchilarga ko’rsatadi.4-bosqich. O’qituvchi o’quvchilar bilan birgalikda “yangi ertakning” sxemasini tuzishni taklif qiladi, u yerda dars mavzusiga bog’liq tushunchalar muhim rol o’ynaydi.5-bosqich.

O’qituvchi birgalikda, juft-juft bo’lib yoki kichkina guruh bo’lib og’zaki yoki yozma hikoya -o’qish ertagini tuzishni taklifqiladi.Ijodiy qobiliyat asosida shakllangan bolalar kelajakda innovatsion loyihalar yaratish, ularni rivojlantirish imkoniga ega bo’ladi. Qobiliyatni vaqtida shakllantirish uchun unga berilgan e’tibor juda muhim.

Ishtirokchilar fikriga ko‘ra, bolaning virtual makonda ota-ona tomonidan nazoratsiz qoldirilishi, ota-ona va pedagoglarning zamonaviy dunyoning nisbatan yangi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlaridan yaxshi boxabar emasligi, pedagog bilan hamfikrlik yo‘qligi, axborot va bilim manbai sifatida qabul qiluvchi o‘smir orasida ishonchga asoslangan munosabat o‘rnatilmagani, istagan muammoni muhokama qilish mumkin bo‘lgan katta yoshli do‘stlar – o‘smirni "tarbiyasi og‘ir" bolaga aylantirib qo‘yayotgan asosiy sabablardandir.

So‘rov o‘qituvchilarning o‘zlari ishlayotgan o‘quv muassasasida yo‘lga qo‘yilgan o‘quv jarayoni samaradorligi va sifati haqidagi fikrlarini ham o‘rgandi. Ishtirokchilarning aksariyati o‘quv jarayoni tashkillashtirilishini ijobiy baholadi.

O‘qituvchilar o‘z ta’lim dargohi, sinf xonasi, auditoriya, sport zali va boshqa turli o‘quv, bayram, sport hamda jamoatchilik tadbirlari o‘tkaziladigan bino va maydonlarga ham baho berdi. Ishtirokchilarning yarmidan ko‘pi (60,7 foizi) o‘zi ishlayotgan ta’lim dargohi binosiga ijobiy baho berib, ular yaxshi holatda ekanini qayd etdi. So‘rov natijasida mamlakatimiz o‘quv dargohlarining deyarli yarmi, auditoriya, zal, texnik va sanitar obyektlar bilan birga, (48,6 foizi) kapital ta’mirdan chiqqani aniqlandi. Shuningdek, ta’lim muassasalarining yarmidan ortig‘i (53,6 foizi) axborot resurslarini saqlaydigan ZiyoNET milliy kutubxona ma’lumot tizimiga ulangani oydinlashdi. ZiyoNET tizimiga ulangan ta’lim dargohlarining 61,3 foizi shahardagi o‘quv dargohlari – maktablar, litsey va kollejlar, 46,9 foizi esa qishloq ta’lim dargohlariga tegishli ekani so‘rov o‘tkazuvchilar tomonidan ta’kidlandi.

Ishtirokchilar o‘quv dargohlari kutubxonalarining aniq ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha barcha zarur kitoblar bilan to‘la ta’minlangani xususida ham fikr bildirdi. Umuman, respondentlarning 75 foizi o‘zlari ishlayotgan ta’lim muassasasi kutubxonasi barcha talablarga javob berishi va to‘la ta’minlanganini bildirgan. Litsey va kollejlarda bu ko‘rsatkich biroz past – 69,6 va 62,2 foizni tashkil etadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, ko‘plab maktab, litsey va kollejlarda o‘quvchilarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilgan: sport inventarlari bilan jihozlangan sport zallari mavjud.

Bolalar va o‘smirlar sog‘lig‘ini saqlashning asosiy shartlaridan biri – muntazam ravishda muvofiqlashtirilgan sifatli va to‘laqonli ovqatlanishdir. Shu jihatdan o‘quv muassasasida bolalar sifatli va issiq taom tanovul qilishi mumkin bo‘lgan oshxona faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, oshxona shahar ta’lim dargohlarining aksariyatida, qishloq ta’lim dargohlarining deyarli yarmida faoliyat yuritadi.

Pedagoglar ta’kidlashicha, 11-yillik ta’lim tizimiga o‘tilgani ta’lim jarayoni sifatining oshishiga, o‘quvchilarning maktabdagi asosiy fanlar bo‘yicha tizimli chuqurlashtirilgan bilim olishiga imkon yaratadi. Respondentlarning salmoqli qismi 11-yil davomida o‘quvchi o‘z maktabida qadrdon tengdosh va o‘qituvchilari jamoasida axloqan, ruhan va jismonan barkamol bo‘lib voyaga yetadi, deb hisoblaydi.

Umuman, o‘qituvchilar fikricha, Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘rta ta’limni isloh qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar o‘z vaqtida amalga oshirilmoqda. Ayni paytda bu dolzarbdir va ota-onalar, o‘qituvchi, jamoatchilik tomonidan to‘la qo‘llab-quvvatlanmoqda.

2.O‘qituvchining kreativ kompetensiyasini shakllantirishning modeli

Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak: SHunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi. Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur:

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
2) loyihalash malakalari;
3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
4) tadqiqotchilik malakalari;
5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
6) tashkilotchilik malakalari;

Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi:

Bilishga oid (gnostik) malakalar:

- talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

-zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;

- ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;

-talabalar tomonidan o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o‘zlashtirganlik natijalarini, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

-alabalarning bilishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo‘yicha turli ko‘rinishdagi ishlarni olib borish;

-darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to‘garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- talabalar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;

- talabalarda sog‘lom turmush kechirishga bo‘lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko‘nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish malakalarini shakllantirish;

- ta’lim jarayonida turli ko‘rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish;

-didaktik material va ko‘rsatmali qurollarni ishlab chiqish;

- ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o‘ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o‘rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish;

- o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish. Loyihalash malakalari:

- dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;

- ta’limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;

-maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;

-o‘quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi

maqsadlarini bayon etish;

-o‘quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;

-o‘quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma’lumotlar o‘rtasidagi o‘zaro izchillikni ta’minlash;

- talabalarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash;

-dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;

- yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash;

- muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;

-talabalarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash;

-talabalar jamoasi hamda alohida talabaning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmini yaratish.

Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar:

-alohida-alohida ma’lumotlardan foydalangan holda yaxlit o‘quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;

- o‘quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;

- o‘ziga xos, orginal o‘quv materialini tayyorlash;

- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;

- o‘quv mashg‘uloti (dars) va tarbiya tadbir uchun ko‘rsatmali qurollar to‘plamini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;

- dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun mulьtimediya materiallarini yaratish;

- o‘quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;

- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun talabalarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;

- dars konspektini tayyorlash;

- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish. Tadqiqotchilik malakalari:

-ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;

- manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis, konspekt, referat, kartoteka bilan ishlash, adabiyotlar ro'yxatini tuzish);

- nashr manbalari va axborot texnologiyalari (Internet) materiallari bilan tanishish;

-anketa so'rovini tashkil etish;

- zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash;

-mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini o'rganish;

- pedagogik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;

-uch (yoki to'rt) bosqichli pedagogik tajribani ilmiy-metodik tashkil etish;

-ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;

-ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;

-pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;

-tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;

-statistik tahlil natijalariga ko'ra xulosa chiqarish va ilmiytavsiyalarni ilgari surish;

-pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish).

Tashkilotchilik malakalari:

- talabalarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish;
- talabalarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- dars jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish;
- talabalar bilan individual ishlarni tashkil etish;
- guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;
- talabalarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarga o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
- o'quvchilarning diqqatini boshqarish; - talabalar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;
- darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;
- talabalarning o'quv faolliklarini oshirish, ularning mustaqilligini ta'minlash;

- kichik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini ta’minlash;
- talabalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar ro‘yxatini ishlab chiqish.

Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari:

- talabalar, ota-onalar, ta’lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;
- pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o‘rnatish;
- talabalarga ma’lumotlarni etkazishning samarali yo‘l va vositalarini topish;
- topshiriqlar yuzasidan talabaning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;
- pedagogik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;
- jamoa va turli bosqichdagi talabalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash;
- jamoada sog‘lom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;
- talabalarning faoliyatlarini rag‘batlantirish;
- talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;
- talabalar bilan ta’limiy hamkorlikka erishish.

Izchillikni ta’minlovchi (protsesssual) malakalar:

- o‘quv materiali mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni ta’minlash;
- og‘zaki va yozma nutqni bayon qilishda o‘zaro izchillikni qaror toptirish;
- talabalarning mavjud bilimlari bilan yangi o‘zlashtiriladigan bilimlar o‘rtasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
- talabalarning mavjud hayotiy qarashlarini yangi g‘oyalar bilan boyitish;
- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda talabalarni faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;
- talabalar BKM darajasining DTS talablariga muvofiq kelishida ma’lum izchillikka erishish;guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini o‘rganish metodlaridan foydalanishda
- pedagogik faoliyat izchilligini ta’minlash; talabalarning

tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish.

Texnik-texnologik malakalar:

- ta’lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
- dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
- o‘quv materiali mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;
- o‘quv mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- darslarda proektorni qo‘llay olish;
- o‘quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- talabalarda o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo‘llash;
- kompьyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- talabalarning BKMni baholashni kompьyuter asosida tashkil etish;
- talabalarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompьyuter yordamiga tayanish va b.sh.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari

Aytib o‘tilganidek, barcha shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglara ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. SHunga ko‘ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

1-yo‘l: kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Bunda asosiy urg‘u kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e’tibor markazida bo‘lib, talabalar fe’llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe’llarning bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab bering” mazmunidagi nazorat

savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta’riflab bering” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting” deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so‘z (fe’l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra pedagoglar turli, antiqa, noan’anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so‘z (fe’l)lardan foyalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: “bog‘liqlikni toping”, “yarating”, “bashorat qiling”, “fikrni mantiqan bayon eting”, “tasavvur qiling” kabi so‘z (fe’l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi. Agarda pedagog talabalardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab berish”ni talab qilish o‘rniga, “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikning barcha turlarini keltirish”ni so‘rashi lozim. Natijada talabalar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagoglar birinchi yo‘lni qo‘llash – talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda yosh o‘qituvchilarning “Kreativlik xaritasi”dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2-yo‘l: amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar talabalarda kreativ harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, talabalara interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

3-yo‘l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo‘l talabalarni muammoni echish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. M: “YUrak va qon aylanishi tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish” (Isaksen & Treffinger, 1985). Topshiriqni bajarar ekan, talabalar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

4-yo‘l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo‘lni tutishda pedagog talabalarga “Odamning qon aylanish tizimi” mavzusida Power Point dasturi yoki mulьtimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni

tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi. Talabalar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000). M: talabalar “Immigratsiya hodisasining mohiyati”ni “Aqliy hujum” strategiyasi asosida o‘rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim. Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. SHu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni barataf etishga e’tibor qaratishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

2. Innovatsion ta’lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.

3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.

4. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

5. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjaeva va

b. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moiya”, 2010. – 136-140-b.

21-Mavzu : O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullari.

Mavzu rejasi:

1.O‘qituvchining kreativ salohiyatini aniqlash mezonlari.
2. Pedagogik kreativ salohiyatining tarkibiy asoslari.
3.O‘qituvchining ilmiy ijod usullari.
4.O‘qituvchilarni turli yangiliklarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi.
5. Mustaqil ravishda o‘quv kurslari va mualliflik dasturlarini ishlab chiqish.

Tayanch so`z va iboralar:

“Kompetensiya”, kompetentlik, kreativ qobiliyat

1.O‘qituvchining kreativ salohiyatini aniqlash mezonlari.

Ta'limini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini qayta qurish, bilimga intilayotgan shaxsni tarbiyalashga va voqelikni ijodiy o'zgartirishga qaratilgan yangi federal ta'lim standartlarining paydo bo'lishi sharoitida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. eng dolzarb. Kichik maktab yoshi hissiy tajribalar boyligi, tasavvur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqillikka intilish, barqaror qiziqishlarning paydo bo'lishi, sevimli mashg'ulotlari va o'qituvchining tarbiyaviy ta'siriga yuqori darajada moyillik bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham umumta'lim maktablarida kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni tashkil etish muammosi birinchi navbatda hal qilinishi kerak.

Ijodiy qobiliyatlar deganda shaxsning individual psixofiziologik xususiyatlari va shaxs uchun yangi faoliyat jarayonida (hal qilish jarayonida) yuzaga keladigan yangi sifat holatlari (fikrlash, idrok etish, hayot tajribasi, motivatsion sohadagi o'zgarishlar) sintezini tushunamiz. yangi muammolar, vazifalar), bu uni muvaffaqiyatli

amalga oshirishga yoki sub'ektiv / ob'ektiv ravishda yangi mahsulot (g'oya, ob'ekt, san'at asari va boshqalar) paydo bo'lishiga olib keladi.

Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasini va ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini baholash masalasi ochiqligicha qolmoqda. Kichik maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajalarini aniqlash muammosi Bibikova N.V., Vishnevaya N.E., Klevtsova V.L. tomonidan dissertatsiya tadqiqotida ko'rib chiqilgan. Gin S.I., Shulga E.P. Karpova L.G. .Ularning ishlarini nazariy tahlil qilish va muammoni o'zimiz o'rganishimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini baholashning quyidagi mezonlarini aniqlashga imkon berdi:

Kognitiv-emotsional mezon - chegaradan tashqarida fikrlash, iloji boricha ko'proq g'oyalar va tasvirlarni ishlab chiqarish qobiliyatini ochib beradi; ijodiy jarayonga jalb qilish darajasini - ijodiy vazifaga hissiy munosabatning kuchini tavsiflaydi, bu ijodiy mahsulotda aks etadi, uning o'ziga xosligini, ifodasini, rivojlanishini ta'kidlaydi.

Shaxsan ijodiy mezon - o'z ijodiy salohiyatini faollashtirish qobiliyatini ko'rsatadi - tasavvurdan foydalanish, narsalarga tanqidiy qarash, imkon qadar mustaqil harakat qilish tendentsiyasi (individual strategiya).

Motivatsion-qiymat mezoni - ijodiy mahsulot yaratish orqali ijodiy faoliyatda ishtirok etish, o'zini namoyon qilish istagini tavsiflaydi; o'zining va boshqa birovning ijodi qadrini tushunish va e'tirof etishdan dalolat beradi.

Faoliyat-protsessual mezon mustaqil ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini qo'llashni, qo'yilgan ijodiy vazifani hal qilishda eng muvaffaqiyatli xulq-atvor strategiyasini va aqliy faoliyatning muayyan usullarini tanlashni aks ettiradi va natijalarga e'tibor beradi.

Reflektiv mezon - o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini mulohaza yuritish, kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, dunyo va uning o'zgarishini bilish, o'z ijodiy yutuqlarini va boshqalarni ob'ektiv tanqid qilish qobiliyatini ochib beradi; ijodkorning ichki pozitsiyasining rivojlanishini belgilaydi.

Mezonlarning har biri uning to'liq mazmunini ochib beradigan bir qator ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

Kognitiv-emotsional mezon ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- turlicha fikrlash;

- assotsiatsiyalardan foydalanish qulayligi (assotsiativ va ekspressiv ravonlik);
- temperament xususiyatlari (plastiklik, o'zgaruvchanlik, hissiy barqarorlik, mashaqqatli faoliyatga moyillik, ijtimoiy kuch);
- empatiya.

Shaxsiy-ijodiy mezon ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:
- tasavvur;
- tanqidiy fikrlash;
- mustaqillikka intilish, muammoga o'z nuqtai nazarini bildirishdan qo'rqishning yo'qligi;
- vaziyatdan yuqori faoliyat (tashabbuskorlik, berilgan chegaradan tashqariga chiqish);
- ijodkorning ichki pozitsiyasi (muammo-qidiruv vazifalarini hal qilishga qiziqish, ijodiy faoliyatni individuallashtirish tendentsiyalari).

Motivatsion-qiymat mezonining ko'rsatkichlari quyidagilardir:
- ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj;
- o'quv va kognitiv faoliyatda ishtirok etish zarurati;
- o'qishga, maktabga, o'qituvchiga, sinfdoshlariga ijobiy munosabat;
- ijodkorlikning qadr-qimmatini tan olish.Faoliyat-protsessual mezon ko'rsatkichlari:
- ijodiy va kognitiv mustaqillik;
- ijodiy faoliyat usullarini o'zlashtirish;
- bajarilgan harakatlarning sifati;
- maqsadga erishish, o'z faoliyatining aniq natijalarini olish istagi;
- hamkorlik ko'nikmalari;
- o'z xatti-harakatlarini optimallashtirish qobiliyati (ijodiy jarayonni tashkil etish ko'nikmalari, u yoki bu xatti-harakatlar strategiyasini moslashuvchan tanlash, samarasiz harakat usulini og'riqsiz rad etish).

Refleksiv mezonning ko'rsatkichlari:
- o'ziga nisbatan hissiy-qiymatli munosabatning xususiyatlari (o'zini o'zi qadrlash darajasi, uning adekvatligi);
- o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish istagi;
- o'zingizning va boshqa birovning ijodiy mahsulotini ob'ektiv baholash qobiliyati.

2. Pedagogik kreativ salohiyatining tarkibiy asoslari.

Tanlangan ko'rsatkichlar asosida biz kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajalarini tavsiflaymiz.

1. Past daraja.

Natijaga erishish uchun turli xil variantlarni izlash uchun bola vazifalarni bajarishda qiynaladi; gipotezalarni ishlab chiqish va original g'oyalarni ishlab chiqarish. Bola yaqinlashib kelayotgan ijodiy ish bilan qiziqmaydi, uning jamoaviy shakllarida ishtirok etishga intilmaydi, tashabbus ko'rsatmaydi, muhokamalarda qatnashmaydi, o'z ijodiy g'oyalarini o'rtoqlari bilan baham ko'rmaydi. U topshiriqlarni passiv qabul qiladi, lekin inertlik bilan o'ylaydi. Juda past mahsuldorlik. Rasmlar qiziq emas, ishlab chiqilmagan. Bola murakkab bo'lgan vazifalarni bajarishdan qochadi, muammo-qidiruv vazifalariga qiziqish bildirmaydi. U mustaqil ishni tashkil etishda qiynaladi, shuning uchun u deyarli har doim o'qituvchi yoki o'rtoqlarning yordamiga muhtoj. Ijodiy faoliyat usullarini o'zlashtirish juda sekin, shuning uchun u shablonga muvofiq harakat qilishni afzal ko'radi. Ijodiy mahsulot tugallanmagan ko'rinishga ega. O'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari zaif. Bola o'zini noqulay, ishonchsiz his qiladi, omma oldida gapirishdan qo'rqadi. Uning badiiy asarlarni idrok etishi jonli va hissiyotliligi bilan ajralib turmaydi. Muvaffaqiyatsizliklar uzoq muddatli salbiy his-tuyg'ular bilan birga keladi. O'zini past yoki yuqori baholaydi. Qoida tariqasida, u o'ziga qaratiladi, muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladi.

2. O'rtacha daraja.

Bola natijalarga erishish uchun turli xil variantlarni izlash uchun vazifalarni hal qiladi; gipotezalarni ishlab chiqish va original g'oyalarni ishlab chiqarish bo'yicha, lekin ularning eng ko'p soniga intilmaydi va agar vazifa talab qilsa, muammoning eng muvaffaqiyatli echimini tanlashga qodir emas.Ijodiy ishlarni amalga oshirish zavq bilan qabul qilinadi, ammo unumdorlik etarli darajada emas. U ijodda o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini qidiradi, lekin unga bo'lgan qiziqish izchil emas. Rasmlar qiziqarli va batafsil. Jamoa bilan muvaffaqiyatli muloqot qiladi, lekin har doim ham tanqiddan qo'rqib, o'z nuqtai nazarini bildirmaydi. Bola oson topshiriqlardan ko'ra qiyin vazifalarni afzal ko'radi, lekin ularni hal qilishda har doim ham qat'iyatli emas. Vazifalarning muammoli-qidiruv turlariga qiziqish bor, lekin u doimiy emas. Kuchli faoliyatga qodir, topshiriqda "cho'milish". Bola mustaqil ishlashga qodir, lekin bu har doim ham namoyon bo'lmaydi. Ijodiy faoliyat usullarini o'zlashtirish o'rtacha sur'atda davom etadi, o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat doimiy emas. Ijodiy mahsulot to'liq ko'rinishga ega, ammo barcha tafsilotlar ishlab

chiqilmagan. O'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari kam rivojlangan. Faoliyat bilan birga keladigan his-tuyg'ular, qoida tariqasida, ko'p holatlarga bog'liq: atrof-muhit, kayfiyat, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik. Badiiy asarlarni idrok etish jonliligi va hissiyotliligi bilan ajralib turadi. O'rtacha daraja o'zini-o'zi baholashning etarli darajada rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Bola sezgir, diqqatli, lekin ba'zida sabrsiz va muloqotda qattiqqo'l.

3. Yuqori daraja.

Bolaga xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, tasniflashning turli usullarini topish, natijaga erishish uchun turli xil variantlarni izlash, muammolarni aniqlash va qo'yish, ko'p sonli g'oyalarni, uzoq assotsiatsiyalarni yaratish, ob'ektni yaxshilash, yangi foydalanishni topish bo'yicha vazifalar osongina beriladi. Uning ijodi o‘ziga xos, o‘ziga xos, ijodkor shaxsiyatining izlarini o‘zida mujassam etgan.U o'z ishida individual sur'at va uslubga amal qiladi, hissiy, intellektual va irodaviy harakatlarni aniq maqsadga bo'ysundira oladi. O'qituvchi yordamga muhtoj emas. Bola doimo o'zining ijodiy energiyasini chiqarish uchun har qanday imkoniyatlarni qidiradi va natijadan emas, balki jarayonning o'zidan qoniqish oladi. Muammoni chuqurroq yoki boshqa tomondan ko'rib chiqishga intiladi. Tasvirlar g'ayrioddiy, tafsilotlarga katta e'tibor. Muammolarni shakllantirish, aniq, ixcham savollar berish, oqilona xulosalar va echimlarga kelish, ularni sinab ko'rish, erkin fikrlash, jamoa bilan samarali muloqot qilish, muammoni hal qilishning muqobil usullarini ko'rish va ulardan eng muvaffaqiyatlisini tanlash. Bola mustaqil, tanqiddan qo'rqmaydi, tashabbuskor, qat'iyatli. Uning badiiy asarlarni idroki faolligi, jonliligi va hissiyotliligi bilan ajralib turadi. Bola ma'lum bir vaziyatda eng yuqori samaradorlik bilan har xil mustaqil ish turlaridan foydalanadi. Ijodiy faoliyat usullarini o'zlashtirish tez va oson. Ijodiy mahsulot butunlay tayyor ko'rinishga ega. O'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari ancha rivojlangan, shuning uchun yuqori mahsuldorlik. Qoida tariqasida, faoliyat ijobiy hissiy kayfiyat, ilhomlanish holati bilan birga keladi, bola ko'pincha berilganidan tashqariga chiqadi. Muammoni qidirish turlariga qiziqish

3.O‘qituvchining ilmiy ijod usullari.

Biz har bir mezon bo'yicha ko'rsatkichlarning namoyon bo'lish darajasini aniqlash uchun barcha kerakli diagnostika vositalarini taqdim etamiz, bu bizga o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.

Mezon	Diagnostika usullari
Kognitiv-hissiy	1. Uilyams ijodkorlik testi (E. Tunik tomonidan o'zgartirilgan); 2. Rorschach testi; S. Mednik tomonidan test (L.G. Alekseeva, T.V. Galkina tomonidan moslashtirilgan); test "Piktogramma" (A.R.Luriya); 3. O`qituvchi temperamentini kuzatish yo`li bilan o`rganish; temperament turini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma (O. Anisimovich); 4. O'qituvchisining temperament turini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma (A. Belova); G. Eyzenkning shaxsiy anketasi; "O'z-o'zini tartibga solishni o'rganish" metodikasi (U.V. Ul'enkova); 4. “Emosional javob shkalasi” metodikasi (A.Megrabyan va N.Epshteyn)
Shaxsan ijodiy	1. "Og'zaki fantaziya", "Chizmachilik", "Haykaltaroshlik" usullari (R. Nemov); E.Torrensning “To‘liq bo‘lmagan figuralar” testi asosida o‘qituvchilar tasavvurining xususiyatlarini o‘rganish metodikasi (E.G.Rechitskaya, E.A.Soshina tomonidan ishlab chiqilgan); o'yin testi "Uch so'z"; 2. Abstrakt fikrlash darajasini aniqlash metodikasi (K. Jerasek bo'yicha); og'zaki-mantiqiy fikrlashni diagnostika qilish usullari (L.I. Peresleni, L.F. Chuprova;); og'zaki subtestlar metodikasi (L.I. Peresleni, E.M. Mastyukova, L.F. Chuprova;); "Gapni tugat" texnikasi (N.E. Boguslavskaya); ilmiy-ommabop maqolalar («Nima uchun?.. Va agar?...Isbot!...Bizni ishontir!») materiallari bo‘yicha tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini diagnostikasi (B.Blum bo‘yicha)); 3. J. Renzulli so‘rovnomasi (E. Tunik tomonidan moslashtirilgan); ekspert baholashlari metodologiyasi A.A. Losev; metodologiyasi "Men o'zimni qanday ko'raman" (A.I. Savenkov);

	4. Pedagogik nazorat; mahsulot tahlili
Motivatsion qiymat	1. O‘qituvcilarning motivatsion sohasini o'rganish metodikasi (M.V. Matyuxina); 2. “Hafta uchun reja tuzish” metodikasi (S.Ya.Rubinshteyn, V.F.Morgun tomonidan tahrirlangan); 3. “Tugallanmagan gaplar” metodikasi (M.Nyutten, A.B.Orlov tomonidan tahrirlangan); indikativ anketa A. Bass; o'qituvchilarning maktab hayotidan qoniqishini o'rganish metodikasi (A.A. Andreev); 4. “Emosional orientatsiya” test anketasi (B.I.Dodonova)
faoliyat-protsessual	1. "Maktab o'qituvchilarining o'quv faoliyatining ekspress diagnostikasi" metodikasi (A.A. Volochkova); "Maktab o'qituvchisining sub'ektiv pozitsiyasi (Z.V. Golysheva)" so'rovnomasi; 2. “Kodlash” usuli (A.Yu.Panasyuka); e'tibor uchun test (P.Ya.Galperin va S.L.Kabylnitskaya); 3. Pedagogik nazorat; faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish; Tuluza-Pieron testi; 4. Sotsiometriya; 5. S.Rozenzveygning umidsizlik reaktsiyalarini o'rganish metodologiyasi (N.V.Tarabrina tomonidan moslashtirilgan)
aks ettiruvchi	1. O'z-o'zini hurmat qilish ko'lami va da'volar darajasi T. Dembo va S.Ya. Rubinshteyn; 2. "Ijodkorlik" testi (Vishnyakova N.)

22-Mavzu : Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy kompetensiyalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv

Mavzu rejasi:

1. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy kompetensiyalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv.
2.Shaxsiy sifatlar, insonni ijodkorligi, muvaffaqiyatga yetaklovchi

fazilatlar.

Tayanch so`z va iboralar:
“Kompetensiya”, kompetentlik, kreativ qobiliyat, ma’naviy kompetensiya.

1. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy kompetensiyalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv.

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo‘lgan asosiy vazifani ko‘rsatar ekan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘zligimizni anglash, milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o‘rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat». Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o‘z Vatanining sodiq fuqarosidir. O‘z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g‘ururlana oladigan inson. O‘z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go‘zalliklaridan bahramand bo‘ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir. Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviyruhiy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. «Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma'naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham

ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi. Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o‘quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o‘zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma'naviyaxloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviyaxloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo‘lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo‘llanilib, o‘quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo‘lgandagina shakllangan deyish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg‘ular inson tomonidan, uning hoveahodisalar, kishilar hamda o‘z xulqiga nisbatan his-tuyg‘ularni uyg‘otishga rag‘bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko‘ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag‘bat bilan hosil bo‘ladigan faoliyat eng asosiy bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo‘ladi. Ma'naviy-axloqiy xattiharakatlar esa o‘quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir. Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;
- o‘quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni

tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o‘z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

- shaxsda o‘z idealiga intilishiga bo‘lgan his-tuyg‘ularini uyg‘otishga yo‘naltirilgan xattiharakatlarni tashkil etish borasidagi ko‘nikmalarni tarbiyalash;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;
- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;
- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko‘p ma'naviy-axloqiy sifatlar – boshqlarga g‘amxo‘rlik qilish, odamlarning g‘am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o‘z manfaatidan o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to‘xtataolish, ma'lum xattiharakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o‘rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o‘quvchilar xatti-harakatlarida ko‘zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, ko‘pol so‘zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o‘ylamay gapirish, ishonli bo‘lmagan hamda, dalillar bilan tasdiqlanmagan voqyea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo‘lish, qo‘lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

2.Shaxsiy sifatlar, insonni ijodkorligi, muvaffaqiyatga yetaklovchi fazilatlar

O‘qituvchilik – katta san’atdir. Bu san’atga pedagog osongina, o‘z-o‘zidan erisha olmaydi. SHuning uchun, o‘qituvchilik kasbiga, ya’ni sog‘lom avlod uchun chinakam murabbiy bo‘lishga havasi, ishtiyoqi zo‘r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan

oshirib boruvchi, mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

O‘qituvchi(pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

Buyuk ajdodimiz, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘qituvchining ma’naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo‘yadi. Xususan, “Mudarris kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgazmasa va olg‘irlik uchun gap-so‘z va g‘avg‘o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa. YAramasliklardan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”, deydi.

SHu bilan birga mutafakkir o‘qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanini ham ta’kidlab o‘tadi: “Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim, bunga nima etsin.

SHunisi ham borki, u to‘dada fahm-farosati ozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa, qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi”. Mashhur pedagog, o‘zbek maktabi asoschisi Abdulla Avloniy ham o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasida qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi.
Alloma, bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynashi, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlaydi. YA’ni, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning “Diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa”, “Fikrining quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”.

Mashhur pedagog YAn Amos Komenskiy “O‘qituvchilik er

yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar bo‘lishi maqsadga muvofiqligiga urg‘u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortida ergashtiruvchi va o‘z e’tiqodiga ega bo‘lgan shaxs.

Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog‘liqdir. Ko‘rinib turibdiki, har bir o‘qituvchi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ko‘rsatilganidek, o‘z fanlari buyicha tegishli ma’lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo‘lishi kerak. Dars berish san’atini mukammal egallagan o‘qituvchi uyushtirgan o‘quv mashg‘uloti chuqur bilim berish vositasi bo‘lishi bilan birga, mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo‘lish uchun nimalar qilish zarurligini ko‘rsatuvchi ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchilik kasbining o‘ziga xosligi o‘z huquq, dunyoqarash, o‘z e’tiqodi va o‘z individual xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lishga nisbatan intilishning kuchli ekanligidir. SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, har bir o‘qituvchi ham individual, g‘ayrioddiy, o‘ziga xos xususiyatlar va shaxs sifatlariga egadir. Uning shaxsi qanchalik yorqin va mustaqil bo‘lsa, uning kasbiy mahorati shunchalik yuqori va o‘quvchi shaxsi shakllanishiga shunchalik ko‘p ahamiyatlidir. “O‘qituvchi abadiyatga teginadi: hech kim uni ta’siri qachon tugashini ayta olmaydi”. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi shaxsining jamiyat hayotida eng kerakli inson ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, o‘z kasbi bilan shug‘ullanayotgan pedagoglarimiz nafaqat o‘z sohalariga doir bilim, ko‘nikma va malakalarga balki, pedagogik takt, mahorat hamda qobiliyatlarga ham ega bo‘lishini taqzo etmoqda. CHunonchi, o‘qituvchining mavjud bilimlarini talabalarga etkazishda pedagogik mahorat asosiy o‘rin egallaydi. SHu nuqtai nazardan olganda, pedagogik mahoratning yetakchi jihatlari quyida sanalgan sifatlarda o‘z aksini topadi.

O‘quvchilar faoliyatini ularning har biri o‘z layoqatlari, qiziqishlarini, qobiliyatlarini to‘laqonli rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun tashkil eta olish ko‘nikmasi.

“Nutq fikrlarini rivojlantirib, dastlab uning sxemasini tinglovchi ongiga singdirishi lozim, shundan so‘ng ko‘rgazmali holatda uni tasavvurga taqdim etish lozim va nihoyat yumshoqlik, ehtiyotkorlik bilan uni tinglayotgan yurakka qo‘yish lozim, shundan so‘ng tinglovchi sizning harbiy-askaringizdir, o‘zi hech qachon sizdan qochib ketmaydi, hatto siz uni erkinlikka qo‘yib yuborsangiz ham, doimo sizning mo‘min mijosingizga aylanadi”1 .

Bolani “ko‘ra olish” qobiliyatini egallash – hatto ular faolligining ba’zi salbiy ifodali harakatlariga aql va e’tibor bilan yondashilganda keyinchalik pozitiv natijalarni berishi mumkin bo‘lgan afzalliklarni ajrata bilish ko‘nikmasidir. SHu o‘rinda e’tibor berishimiz kerakki, aslo yaxshi ko‘rib bo‘lmaydigan o‘quvchi bo‘lmasligini tushunish lozim. O‘qituvchi nutqi fikrni uyg‘otishi va uni tetik holda ushlab tura olishi lozim. “O‘qituvchilar uchun so‘z o‘z fikrlarini uxlatish uchun emas, boshqalar fikrlarini uyg‘otish uchun berilgan”. SHuning uchun darsda nafaqat nima aytish, balki uni qanday aytish ham muhim sanaladi. A.S.Makarenkoning ta’kidlashicha, pedagogik mahorat ham ovozini to‘g‘ri qo‘ya olish ham o‘z shaxsini boshqara bilishdan iborat bo‘lar ekan. O‘z tajribasini namoyon etib, u “bu yoqqa kel” jumlasini 15-20 xilda aytishga o‘rganganida haqiqiy mahorat egasiga aylanganligi haqida gapiradi. O‘qituvchining o‘z nutqi intonatsiyasini xilma-xil tusga kirita olishi o‘quvchilar diqqatini ushlab turishga yordam beradi. Hazilning katta bo‘lmagan qismi ma’lumotlarning ifodalashning o‘ziga xos jozibasini ko‘rsatadi. O‘qituvchi diktsiyasi, talaffuz qilish va jumlalar tuzishning aniqligi o‘qituvchi nutq madaniyatini shakllantiradi.

A.P.CHexovning “Zerikarli voqealar” asarida keksa o‘qituvchi shunday deydi: “Men o‘z nutqim adabiy bo‘lishiga, aniqlovchilar qisqa va aniq, jumlalar iloji boricha sodda va chiroyli bo‘lishiga intilaman”. Sinfda umumiy ijodiy ish uchun sevgi, tetiklik, o‘zaro hurmat yaratishga intilish. O‘quvchilar tafakkurini uyg‘otishi, ular oldida bilimlar manzarasini ocha olish, o‘quvchilarga ularni tanqidiy tafakkurga o‘rgatish uchun o‘z gumonlarini aytishdan qo‘rqmaslik. Rejisser P.M.Kozintsev o‘z talabalarga shunday deydi: “Rejissyorlikka o‘rgatib bo‘lmaydi. SHuning uchun men sizlarni

o‘ylashga o‘rgatmoqdaman. Agar sizlar bu jarayonlarni o‘zlashtirishni uddalashdan chiqsangiz, qolgan barchasiga o‘zingiz o‘z aqlingiz bilan erisha olamiz”. Sinfni o‘z “aqliy ta’sirchanligiga” o‘rgata olish, o‘qituvchi o‘zi dars berayotgan o‘quv faniga nisbatan ehtirossiz, hissiz bo‘lishi mumkin emas. L.N.Tolstoy shuni ta’kidlaydiki, agar o‘z fanining bilan o‘quvchini tarbiyalashni istasang, o‘z fanini sevish va uni bilishingiz. Bu holda o‘quvchilar ham seni ham, fanni ham yaxshi ko‘rib qoladi va sen ularni tarbiyalaysan. O‘z xabarini yangiligi va kutilmaganligi bilan hayratlantira olish, qiziqtira olish – muhim pedagogik sifat hisoblanadi. N.V.Gotalь ta’kidlaydiki, inson o‘z tasavvurlarini hayratga solgan xabarlarni xotirasida yaxshi olib qolishadi. Zerikarli, ham ifodali nutqdan qochish istagi va ko‘nikmasi. Hazil, quvnoq falsafiy, ajoyib so‘zlar – hatto eng jiddiy materialni tushuntirishda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lishi kerak. Olimlar o‘quvchilarning akademik yutuqlari, qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va pedagogning ijodiy qobiliyatlari darajasi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlashni uddasidan chiqishgan. Agar o‘qituvchi yuqori ijodiy potentsialga ega bo‘lsa, u holda: ijodiy qobiliyatlari rivojlangan o‘quvchilar ajoyib muvaffaqiyatlarga erishadi; qobiliyatlar kam rivojlangan o‘quvchilar orqada qolishadi, ularning akademik natijalari odatda yuqori emas. Agar o‘qituvchining o‘zi “ijodiy qobiliyat”larning bir muncha past shkalasida bo‘lsa, u holda; yorqin ijodiy qobiliyatlarga ega o‘quvchilar ochilmasdan qolishadi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshira olmaydi; ijodiy qobiliyatlardan mahrum bo‘lgan o‘quvchilarning muvaffaqiyati esa birinchi holatdagidan yuqori

o‘lishi mumkin. O‘qituvchi ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi darajasiga ko‘ra, psixologik turlarning o‘zi tegishli bo‘lganini afzal ko‘ra boshlaydi. O‘quvchilar rivojlanishi uchun o‘qituvchining ularning har biriga nisbatan umidlari ham kam ahamiyatli emas. Bunday umidlarni R.Berks “Pagmilion effekti” deb nomlaydi . O‘quvchiga ishonuvchi o‘qituvchi afsonaviy Pigmalionga o‘xshaydi. O‘qituvchi o‘quv yutuqlarini kutayotgan o‘quvchi atrofida psixologik aura yaratadi. Uni o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham idrok qiladi, “his etadi”. O‘quvchida motivatsiya kuchayadi va o‘quv faoliyati natijaviyligi ortadi. O‘qituvchining past kutishlari o‘quv ishining yuqori bo‘lmagan kuchlari va o‘quvchilarning salbiy sifatlari mustahkamlanishlar yordam beradi, unda yaxshi o‘qishga nisbatan

intilishni yuzaga keltiradi. SHunday qilib, pozitiv va negativ tarzdagi, bashoratni amalga oshirish yuz beradi. U yoki bu faoliyatni, xususan o‘quv faoliyatini ham muvaffaqiyatli egalashning hal qiluvchi shartlaridan biri faol ijobiy munosabat, unga qiziqish hisoblanadi. O‘quvchining o‘quv jarayondagi intellektual va shaxsiy faolligini rivojlanishiga nima to‘sqinlik qiladi? Ko‘p narsa to‘sqinlik beradi, biroq ikki juda muhim jihatga e’tibor qaratamiz.

Birinchidan, o‘qituvchining darsdagi bir tomonlama faolligi. U tushuntiradi, maqtaydi, hayratlantiradi, quvonadi, xafa bo‘ladi. Ma’lumki, axborot beruvchi, tushuntiruvchi – illyustrativ ta’lim mustaqil tafakkur rivojlanishi imkoniyatlarini qisqartiradi.

Ikkinchidan, o‘qituvchi ko‘p hollarda u berayotgan bilimlar o‘quvchi boshida qanday transformatsiyalashganligi haqida kam ma’lumotlarga ega bo‘ladi. O‘quv dasturi, hatto juda yaxshi, darsliklar va metodik qo‘llanmalar bilan mustahkamlanganligi ham bola rivojlanishiga xizmat qilishi ham, xizmat qilmasligi ham mumkin. Ehtimol, agar bola rivojlanishi to‘liq holda o‘quv dasturi sifati va o‘quv materiali mazmuniga bog‘liq bo‘lganida edi. Oson bo‘lgan bo‘lardi. Hammasi aslida bir muncha qiyin kechadi. O‘quv dasturi (umuman o‘quv fani) va o‘quvchi o‘rtasida o‘qituvchi shaxsi qanday hisoblanishini belgilovchi bog‘lovchi zveno mavjud bo‘ladi. Aynan o‘qituvchi o‘quvchilar va o‘quv fani o‘rtasidagi personalli vakil hisoblanadi3 . O‘quv muassasalarda ta’lim shakli turlicha bo‘lishi mumkin: jamoaviy, guruhiy, individual.

Biroq, ta’limning maqsadi amalga oshirishning har qanday shakl, har doim bir xil bo‘ladi: bilimlarni o‘quvchiga yaqinlashtirish, qiziqtira bilish va bu bilimlarni egallashga yordam berish. Fan, dastur, darslik, metodika orqali mustahkamlangan o‘quv bilimlar tashuvchisi o‘qituvchi hisoblanadi. O‘quvchilar o‘qituvchilarni nafaqat vakil va bilimlar tashuvchisi sifatida, balki bilimlarning bevosita manbai sifatida ham qabul qiladi. Ta’limning har qanday shaklida ikki shaxsning o‘zaro ta’siri yuz beradi – katta (o‘qituvchi) va bola (o‘quvchi) o‘zaro ta’siri bu dasturga muvofiq keladigan o‘quv materialini o‘zlashtirish konteksida kechadi. SHuning uchun darsda bola uchun ahamiyatli o‘zaro ta’sir uning o‘qituvchi bilan o‘zaro ta’siri hisoblanadi. Bu o‘zaro ta’sir har bir o‘quvchi uchun muhim psixologik mazmun bilan to‘ldiruvchi maxsus ta’limiy maskanni tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda ko‘pincha “ta’sir”, “ta’sir qilmoq”

tushunchalari qo‘llaniladi (masalan, o‘quvchiga tarbiya jarayonda ta’sir qilmoq).

Biroq, ta’sir qilmoq o‘zaro ta’sirga kirishmoq – tushunchalari turlichadir. Ularning printsipial farqlari shundan iboratki, birinchi holatda biz sub’ekt-ob’ekt munosabatlari bilan ish ko‘ramiz, ikkinchi holatda – sub’ekt-sub’ekt munosabatlari bilan va faqat bunday munosabatlar amaliy psixologiyada normal holat sifatida qaraladi4 . Insonlarning o‘zaro ta’siri – bu murakkab psixologik holat bo‘lib, uning asosida o‘zaro harakat va reaktsiyalarning butun bir tizimi yotadi, ular o‘rtasida esa sababiy bog‘liqlik yuzaga keladi. O‘zaro-ta’sir o‘zida qator zaruriy komponentlarni mujassam etadi. Birinchidan, bu fikrlar bilimlar, g‘oyalar, ya’ni axborotlarni almashish bo‘lsa, ikkinchidan, harakatlar almashishi (faoliyatli komponent),[43]uchinchidan, insonlarni bir-birini idrok etishi jarayonini (pertseptiv – emotsional komponent). Faqat biralikda bu komponentlar insonlarni o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Bu asosiy hisoblanadi. Aynan o‘zaro tushunish to‘laqonli o‘zaro ta’sirni belgilaydi. Agar insonlar bir-birini tushunmasa, o‘zaro harakatlar haqida fikr ham bo‘lishi mumkin. V.O.Klyuchevskiy haqqoniy tarzda shuni aniqlaydi: “SHikoyatlar, insonlar bizni tushunmasligi, ko‘pincha biz insonlarni tushunmasligimizdan yuz beradi”. O‘qituvchi va o‘quvchining (o‘quvchilarning) ta’lim jarayonidagi o‘zaro ta’iri qanday kechadi? O‘qituvchi “orqali” o‘quvchiga ta’lim dasturi maqsadidan bilimlarni o‘tishi yo‘lini sxematik tarzda quyidagicha tasavvur etishimiz mumkin. Bilim – pedagogik faoliyat sub’ekti sifatidagi o‘qituvchi – o‘quv faoliyati sub’ektidagi o‘quvchi.

Bu yo‘lni batafsil tahlil qilishga urinamiz. Demak, biz avval ta’lim maqsadini amalga oshiruvchi o‘quv dasturiga ega bo‘lamiz. Dastur va unga muvofiq keluvchi o‘quv materiali, albatta, o‘qituvchiga kelib tushadi. O‘qituvchi pedagogik faoliyat sub’ekti sifatida ularni qabul qiladi, o‘ylab chiqadi, o‘quv materialini ifodalash va qadriyatli-mazmunli aktsentlashtirishning o‘zi uchun mos logikasini yaratadi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi darsdagi o‘zaro ta’sir faqatgina ular birbirini tushunishganida va hurmat qilishganida, o‘z navbatida bir-biriga ishonishganidagina yuz beradi. O‘qituvchi va o‘quvchining darsdagi faqat bunday o‘zaro ta’sir bir-birini tushunish,

[43] 2 Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitaniya. – Rotsov-na-Donu.: Feniks, 2006.
Zimnyaya.I.A «Pedagogicheskaya psixologiya»: Uchebnik dlya vuzov. –M., “Izd-vo” 2002.-384s

bir-biriga ishonish va o‘zaro hurmatga asoslangan bo‘lib, ta’limning asosiy maqsadiga erishishga yordam beradi: bilimlar o‘quvchining shaxsiy yutug‘iga aylanadi. V.P.Zinchekno shuni ta’kidlashicha: “Ta’limning maqsadi nozik ish. Ular erilishi darajasiga qarab modifikatsiyalanadi. Agar ular noadekvat bo‘lsa, u holda “metin iroda” ham yordam bermaydi. Maqsadlari yo qabul qilinadi, yo qabul qilinmaydi. Hatto ular o‘qituvchi, maktab tomonidan qabul qilinsa ham bu ularga erishilganini bildirmaydi. Bu “tenglashuv”ga maqsadlarni yo qabul qiladigan yoki ulardan o‘z ishlari bilan shug‘ullanishga sekingina jo‘nab qoladigan o‘quvchi ham kiradi”5 . Bilimlar bolaga etib boradigan murakkab yo‘l haqida ko‘p yoki kam darajada to‘liq bo‘lgan tasavvurlar o‘qituvchiga darsda o‘quv materiali bilan ishlashning samarali metod va usullarini tanlashga, dars o‘zining rivojlantiruvchi funktsiyasini, bola intellekti va qalbini boyitish funktsiyasini bajarish uchun o‘z xulq-atvori va munosabatini izchil va mas’uliyatli tarzda o‘ylab chiqishga yordam beradi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida dialog – har qanday o‘zaro ta’sirning asosidir. Dialog teng huquqli o‘quvchilar orasida bo‘lishi mumkin, u dialogga kirishuvchilarning pozitsiyalari tengligini ko‘zda tutadi. Aynan dialogga asoslangan bu tartibdagi o‘zaro ta’sir ta’limning asosiy maqsadiga erishishga yordam beradi: bilimlar o‘quvchining shaxsiy yutug‘iga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O‘qituvchi, 1992.
4. Almetov N.Sh. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Almato‘, 2001.
5. Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 1. – Moskva, Vlados, 1999.
6. Pedagogika. Munavvarov A.K.ning umumiy tahriri ostida. – Toshkent,

23-Mavzu : Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda kreativ yondoshuv.

Mavzu rejasi:

1.“Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati.

2.Kasbiy kompetentlik sifatlari.

3.Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Tayanch so`z va iboralar:

“Kompetensiya”, kompetentlik, kreativ qobiliyat, ma’naviy kompetensiya.

1.“Kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining mohiyati.

Professional kompetensiya

Shaxsning eng yuqori tarkibiy qismi bu kasbiy kompetentsiyadir. Kasbiy kompetentsiya odatda qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan muayyan faoliyat turini amalga oshirish uchun etarli bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba darajasini aks ettiruvchi mutaxassislarning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas xususiyati sifatida tushuniladi.

Kasbiy kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy-huquqiy kompetentsiya - davlat muassasalari va odamlar bilan o'zaro munosabatlar sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shuningdek, professional muloqot va xatti-harakatlar texnikasiga ega bo'lish;

Shaxsiy kompetentsiya - uzluksiz kasbiy o'sish va malaka oshirish, shuningdek kasbiy ishda o'zini o'zi anglash qobiliyati;

Maxsus kompetentsiya - muayyan faoliyat turlarini mustaqil bajarishga tayyorlik, tipik kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z ishining natijalarini baholash qobiliyati, mutaxassislik bo'yicha mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash qobiliyati;

O'z-o'zini kompetentsiya - o'zining ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarini etarli darajada tushunish va kasbiy halokatni engish uchun texnologiyalarga ega bo'lish;

Ekstremal kompetentsiya - to'satdan murakkab sharoitlarda, baxtsiz hodisalar, texnologik jarayonlarning buzilishi holatlarida harakat qilish qobiliyati.

Kasbiy kompetentsiya kasbiy va pedagogik mahoratning shakllanish darajasi bilan baholanadi. Kasb-hunar maktabi o'qituvchisining asosiy operatsion funktsiyalari nuqtai nazaridan quyidagi kasbiy va pedagogik mahorat guruhlarini ajratish mumkin:

Gnostik ko'nikmalar - umumiy kasbiy, ishlab chiqarish va psixologik-pedagogik bilimlarni o'zlashtirish, yangi ma'lumotlarni olishni ta'minlash, undagi asosiy, muhim narsalarni ajratib ko'rsatish, o'z pedagogik tajribasini, ishlab chiqarish innovatorlari va ratsionalizatorlarining tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirish sohasidagi kognitiv ko'nikmalar. ;

Talabalar o'rtasida ishlash, pedagogik bilimlarni targ'ib qilish;

Didaktik malakalar - aniq ta'lim maqsadlarini belgilash, o'qitishning adekvat shakllari, usullari va vositalarini tanlash, pedagogik vaziyatlarni qurish, o'quv va ishlab chiqarish materialini tushuntirish, texnik ob'ektlar va ish usullarini ko'rsatish bo'yicha umumiy pedagogik mahorat;

Tashkiliy-metodik ko‘nikmalar – ta’lim jarayonini amalga oshirish, o‘qishga motivatsiyani shakllantirish, o‘quvchilarning o‘quv va kasbiy faoliyatini tashkil etish, pedagogik asosli munosabatlarni o‘rnatish, jamoani shakllantirish, o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etish;

Kommunikativ va rejissyorlik malakalari - umumiy pedagogik mahorat, jumladan, idrok etish, ifodalash, taklif qilish, notiqlik va pedagogik rejissyorlik sohasidagi malakalar;

Prognostik ko'nikmalar - ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini bashorat qilish, shu jumladan shaxs va talabalar jamoasini diagnostika qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik faoliyatning muqobil modellarini yaratish, shaxs va jamoaning rivojlanishini loyihalash, jarayonni kuzatish uchun umumiy pedagogik ko'nikmalar. Natijalar;

Refleksiv ko'nikmalar - o'z-o'zini bilish, kasbiy faoliyat va kasbiy xulq-atvorni o'z-o'zini baholash, o'zini o'zi amalga oshirish qobiliyati;

Tashkiliy-pedagogik mahorat - ta'lim jarayonini rejalashtirish, pedagogik ta'sir va o'zaro ta'sirning eng yaxshi vositalarini tanlash, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish,

o'quvchilar shaxsining kasbiy yo'nalishini shakllantirishning umumiy pedagogik mahorati;

Umumiy kasbiy malakalar - chizmalarni, sxemalarni, texnik sxemalarni o'qish va tuzish, hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish, ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash;

Konstruktiv qobiliyatlar - integratsiyatexnologik jarayonlarni ishlab chiqish va texnik qurilmalarni loyihalash bo'yicha aniq ko'nikmalar, o'quv va texnik va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, loyihalash ishlarini bajarish, texnologik xaritalar, yo'riqnoma testlarini tayyorlash;

Texnologik jarayonni rejalashtirish, oqilona tashkil etish, texnologik qurilmalarning ishlashi;

Ishlab chiqarish va ekspluatatsiya malakalari - turdosh kasblar bo'yicha umumiy mehnat ko'nikmalari;

Maxsus ko'nikmalar - ishlab chiqarishning har qanday tarmog'i doirasidagi yuqori kasbiy mahorat.

Professional muhim fazilatlar

Kasbiy jihatdan muhim fazilatlar o'qituvchi shaxsi tuzilishining muhim tarkibiy qismidir. V.D. Shadrikov kasbiy jihatdan muhim fazilatlar ostida faoliyatning samaradorligiga va uni o'zlashtirish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi faoliyat sub'ektining individual xususiyatlarini tushunadi. Shuningdek, u kasbiy jihatdan muhim fazilatlarni qobiliyat deb ataydi. Pedagogik faoliyatning mahsuldorligi o`qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlarini shakllantirishga ham bog`liq.

Muhim kasbiy va pedagogik sifat mantiqiy fikrlashdir. Mantiqiy fikrlash tushunchalarni tahlil qilish, sintez qilish, tasniflash, mantiqiy munosabatlarni topish operatsiyalarini bajarishga qaratilgan harakatlar majmui sifatida fikrlashning mantiqiy usullarini shakllantirishni aks ettiradi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatda ustunlik qiluvchi fazilatlar (R.A.Mijerikov, M.N.Ermolenko) - bu shaxsning faolligi, qat'iyatlilik, muvozanat, maktab o'quvchilari bilan ishlashga intilish, ekstremal vaziyatlarda adashmaslik, jozibadorlik, halollik, adolat, zamonaviylik. , pedagogik insonparvarlik , bilimdonlik, pedagogik takt, bag'rikenglik, intizom, pedagogik optimizm. Bundan tashqari, bu erda talabchanlik, mas'uliyat, xushmuomalalik kabi fazilatlarni o'z ichiga olishi kerak.o'qituvchining kasbiy grammasi o'qituvchining shaxsiy

ko'rinishlarining timsoli, xatti-harakati, so'zi, boyligida fikr va kechinmalarni mujassamlash qobiliyatida ifodalangan pedagogik badiiylik kabi sifatni ham o'z ichiga oladi. Badiiy o'qituvchilar faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular, qoida tariqasida, o'zini shaxs sifatida qabul qilish, o'zlarini ijobiy, ijtimoiy jihatdan yaratilgan xususiyatlarning tashuvchisi sifatida tan olish tendentsiyasi, o'ziga ishonch va o'z ishining ahamiyati, shaxsiy va kasbiy manfaatlarning yuqori darajada mos kelishi, doimiy takomillashtirish istagi, yuqori darajadagi faoliyatga yo'naltirilganligi.

Kasbiy vayronagarchilikni bartaraf etishning xususiyatlari va texnologiyalariga ega bo'lish;

Ekstremal kompetentsiya - to'satdan murakkab sharoitlarda, baxtsiz hodisalar, texnologik jarayonlarning buzilishi holatlarida harakat qilish qobiliyati.

Kasbiy kompetentsiya kasbiy va pedagogik mahoratning shakllanish darajasi bilan baholanadi. Kasb-hunar maktabi o'qituvchisining asosiy operatsion funktsiyalari nuqtai nazaridan quyidagi kasbiy va pedagogik mahorat guruhlarini ajratish mumkin:

Gnostik ko'nikmalar - umumiy kasbiy, ishlab chiqarish va psixologik-pedagogik bilimlarni o'zlashtirish, yangi ma'lumotlarni olishni ta'minlash, undagi asosiy, muhim narsalarni ajratib ko'rsatish, o'z pedagogik tajribasini, ishlab chiqarish innovatorlari va ratsionalizatorlarining tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirish sohasidagi kognitiv ko'nikmalar. ;

Mafkuraviy malakalar – o‘quvchilar o‘rtasida siyosiy-ma’rifiy ishlarni olib borish, pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishning ijtimoiy ahamiyatli malakalari;

Didaktik malakalar - aniq ta'lim maqsadlarini belgilash, o'qitishning adekvat shakllari, usullari va vositalarini tanlash, pedagogik vaziyatlarni qurish, o'quv va ishlab chiqarish materialini tushuntirish, texnik ob'ektlar va ish usullarini ko'rsatish bo'yicha umumiy pedagogik mahorat;

Tashkiliy-metodik ko‘nikmalar – ta’lim jarayonini amalga oshirish, o‘qishga motivatsiyani shakllantirish, o‘quvchilarning o‘quv va kasbiy faoliyatini tashkil etish, pedagogik asosli munosabatlarni o‘rnatish, jamoani shakllantirish, o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etish;

Kommunikativ va rejissyorlik malakalari - umumiy pedagogik mahorat, jumladan, idrok etish, ifodalash, taklif qilish, notiqlik va pedagogik rejissyorlik sohasidagi malakalar;

Prognostik ko'nikmalar - ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini bashorat qilish, shu jumladan shaxs va talabalar jamoasini diagnostika qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik faoliyatning muqobil modellarini yaratish, shaxs va jamoaning rivojlanishini loyihalash, jarayonni kuzatish uchun umumiy pedagogik ko'nikmalar. Natijalar;

2.Kasbiy kompetentlik sifatlari.

Ideal o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Pedagogik faoliyat mavjud bo'lgan ming yilliklar davomida faylasuflar, yozuvchilar, jamoat arboblari va o'qituvchilarning o'zlari bu savolga javob berishga harakat qilishdi. Albatta, o‘qituvchiga o‘z fanidan chuqur bilim kerak. Albatta, o‘qituvchi bolalar bilan samarali ishlash uchun o‘qitish metodikasini puxta egallashi kerak. Biroq, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari kam emas. 19-asrning taniqli rus publitstisti V.K. Belinskiy samarali pedagogik faoliyatni bolalarga bo'lgan muhabbatsiz, insonparvarlik g'oyalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi, deb hisoblardi: "Sevgi tarbiya vositasi va vositachisi, insoniylik esa maqsad bo'lishi kerak". L.N.

O‘z hayotida yozuvchi va faylasuf ijodini ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgan Tolstoy o‘qituvchi idealini qisqacha shakllantirdi: “Agar o‘qituvchi mehnatga va o‘quvchilarga mehrni uyg‘unlashtirsa, u komil o‘qituvchidir”. L.N.ning so'zlariga ko'ra. Tolstoyning ta'kidlashicha, "o'qituvchi tarbiyasi va ta'limini olgan o'qituvchi emas, balki o'zining borligiga ichki ishonchga ega bo'lgan kishi boshqacha bo'lishi kerak va bo'lishi mumkin emas".

Insonparvarlik, bolalarga mehr-muhabbat, o‘z vazifasining muhimligini anglash, o‘z o‘rnini his qilish, bolalar, ularning ota-onalari, jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qilish – bular o‘qituvchi shaxsiyatining kasbiy bilimidan ajralmas, o‘ziga xos fazilatlaridir. ko'nikmalar. Biroq, bu etarli emas.

Bolalar bilan qanday muloqot qilishni bilmaslik, ularning ruhiy holatiga sezgir bo'lmaslik, ifodali nutqqa ega bo'lmaslik, ob'ektiv baho berish qobiliyati, xushmuomalalik bilan o'rgatish, tarbiyalash mumkin emas.Shuning uchun o'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari bilim,

ko'nikma va munosabatlarning katta ro'yxatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari - bu o'qituvchi faoliyatining kasbiy natijasiga omilli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik shakllanishlar to'plami (n.e. Shchurkova). Kasbiy o'qituvchining eng muhim shaxsiy fazilatlariga shaxsning kasbiy yo'nalishi, kasbiy-pedagogik kompetentsiya va pedagogik qobiliyat kiradi. O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalishi shaxsning yo'nalishi - bu shaxsni izchil ravishda tavsiflovchi motivlar tizimi (inson nimani xohlaydi, nimaga intiladi, nimadan qochadi, nimaga qarshi kurashishga tayyor). Shaxsning yo'nalishi munosabatlarning va inson faoliyatining tanlanganligini belgilaydi, kasb tanlashga ta'sir qiladi. Kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat tanlangan kasbning shaxsning yo'nalishiga mos kelishiga bog'liq. O'qituvchining shaxsiyati yo'nalishi bo'yicha, albatta, ijtimoiy tipning ("yordamchi") xususiyatlari eng aniq namoyon bo'ladi, chunki pedagogik faoliyat ijtimoiy yo'nalishga ega va talabalarga bilim va tajribani o'zlashtirishda yordam berish uning kasbiy faoliyatining bir qismidir. Vazifalar. Rus olimlari (e.f.zer, v.a.slastenin va boshqalar) oʻqituvchi shaxsidagi yoʻnalishning oʻzaro bogʻliq boʻlgan uchta turini ajratib koʻrsatadilar: ijtimoiy-axloqiy, kasbiy-pedagogik va kognitiv.

1) o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishi ijtimoiy ehtiyojlarni, jamoat burchi va fuqarolik mas'uliyatini his qilishni, qadriyat yo'nalishlarini, mafkuraviy e'tiqodini, kasbiy pozitsiyasini, ijtimoiy faolligini, ishonchliligini o'z ichiga oladi;

2) shaxsning kasbiy-pedagogik yo'nalishi kasbiy va pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabatni, qiziqish va mayllarni, ularning tayyorgarligini oshirish istagini aks ettiradi: ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlar, kasbiy va pedagogik manfaatlar, kasbiy faoliyat va o'z-o'zini takomillashtirish motivlari, pedagogik. Burch va mas'uliyat, pedagogik adolat, pedagogik kasb;

3) kognitiv yo'nalish shaxsning ma'naviy qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslanadi:

O'qitiladigan fanga muhabbat, bilimga bo'lgan ehtiyoj, bilish jarayoniga ishtiyoq, o'z-o'zini tarbiyalash. O'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasi va madaniyati kompetentlik (ingliz tilidan kompetentsiya) – xabardorlik, vakolat; vakolatlar to'plami; ma'lum bir fan sohasida samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligi. Kasbiy va pedagogik kompetentsiya - bu o'qituvchining

kasbiy va pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi, mutaxassisning muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaga ega bo'lishi (t. M. Kovaleva, v. A. Slastenin, i. D. Frumin, a. V. Xutorskoy va boshqalar). Kasbiy va pedagogik kompetentsiya ko'pincha olimlar tomonidan ko'rib chiqiladi:

1) ta'lim va tarbiya mazmuni asosida pedagogik vazifalarni shakllantirish bilan bog'liq ko'nikmalar (talabalar va talabalar jamoasining shaxsiyatini o'rganish, olingan ma'lumotlar asosida maqsad va vazifalarni shakllantirish);

2) pedagogik tizimni qurish va amaliyotga joriy etish qobiliyati (faoliyatni rejalashtirish, pedagogik jarayonni amalga oshirishning eng yaxshi shakllari, usullari va vositalarini tanlash);

3) ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish qobiliyati (optimal shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilarning faolligini faollashtirish, maktabni oila va ijtimoiy muhit bilan bog'lash);

4) pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash qobiliyati (tahlil va introspeksiya, nazorat va diagnostika, olingan natijalar asosida keyingi faoliyatning vazifalarini aniqlash). Pedagogika darsliklarida “**kasbiy-pedagogik kompetensiya**” tushunchasi bilan bir qatorda “**kasbiy-pedagogik madaniyat**” (i.f.isaev, v.a.slastenin va boshqalar) tushunchasi ham qo‘llaniladi. Kasbiy-pedagogik madaniyat o`qituvchi umumiy madaniyatining muhim qismidir. Umumiy va kasbiy madaniyatning farqi shundaki, o’qituvchi shaxsining umumiy madaniyati kasbiy o’ziga xos xususiyatlarga ega emas; kasbiy madaniyat kasbiy faoliyat bilan bog'liq maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi. Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Yuqori umumiy madaniyatga ega odam xushmuomaladir. Xususan, muloqot sherigini noqulay vaziyatga solmaslik uchun suhbatdoshning nutqidagi noaniqlikka "e'tibor bermasligi" mumkin.o'qituvchi esa o'quvchiga o'z xatolarini ko'rsatishi shart, lekin buni tajovuzkor va konstruktiv shaklda, o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradigan, bolada o'rganish istagini uyg'otadigan tarzda amalga oshirishi kerak. Bunday xatolardan xalos bo'ling, va o'rganishni "xalaqit qilmaslik" uchun.

Birinchi holda takt umumiy madaniyatning bir qismi,

ikkinchi holatda u kasbiy-pedagogik madaniyat (pedagogik takt) tarkibiga kiradi.

Birinchi holda, pedagogik tayyorgarlik talab qilinmaydi, ***ikkinchidan***, bu zarur. O`qituvchining umumiy va kasbiy madaniyatining o`zaro bog`liqligi va o`zaro bog`liqligi quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- kasbiy-pedagogik madaniyatda shaxs umumiy madaniyatining elementlari ham mavjud;
- o'zining umumiy madaniy darajasini oshiradi, o'qituvchi yangi bilim va ko'nikmalarni kasbiy faoliyatda qo'llashni topadi;
- o‘qituvchining o‘zi bolalarda uni shakllantirish, ularning ota-onalariga madaniyatli shaxs namunasi bo‘lishi uchun yuksak darajada rivojlangan umumiy madaniyatga ega bo‘lishi kerak;
- o'qituvchi kasb egasi bo'lgan holda, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida o'zining umumiy madaniy darajasini oshirish vazifasini ongli ravishda o'z oldiga qo'yadi.

Kasbiy va pedagogik madaniyat uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: ***aksiologik, texnologik va shaxsiy-ijodiy.***

Aksiologik komponent - bu pedagogik qadriyatlar yig'indisi: o'qituvchining kasbiy zarur bilimlari, g'oyalari, e'tiqodlari.

Texnologik komponent pedagogik faoliyat usullari va usullarini o'z ichiga oladi.

Shaxsiy-ijodiy komponent o'qituvchi faoliyatida pedagogik qadriyatlar, pedagogik faoliyatning uslublari va usullarini aks ettirish: ularni sharhlash va qayta ko'rib chiqish, pedagogik ijodkorlik.

Pedagogik qobiliyatlar pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyatni o`zlashtirishdagi muvaffaqiyatni belgilovchi o`qituvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlari yig`indisidir.

Pedagogik qobiliyatlarning yyetakchi xususiyatlari quyidagilardan iborat: - pedagogik takt (o‘qituvchining turli faoliyat sohalarida o‘quvchilarga to‘g‘ri yondashuvni tanlash qobiliyati); - pedagogik kuzatish (o'quvchilarning muhim, xarakterli, hatto nozik xususiyatlarini sezish, ularning reaktsiyalarini kuzatish, pedagogik jarayonning u yoki bu ob'ektiga e'tiborni qaratish qobiliyati); - bolalarga muhabbat; - bilimlarni uzatish zarurati. Didaktik qobiliyatlar o'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'tkazish bilan bog'liq (uni ochiq, qiziqarli qilish qobiliyati, o'quvchilarni faollik va mustaqil fikrlashga undash). Pertseptiv qobiliyatlar - o'quvchini adekvat idrok etish, uning shaxsiyatini, uning ehtiyojlari va qiziqishlarini tushunish, uning ichki dunyosiga "kirish" qobiliyati. Nutq qobiliyatlari - bu

fikrlarni, fikrlarni, his-tuyg'ularni aniq va ifodali shakllantirish, imo-ishoralar va mimikalardan to'g'ri foydalanish qobiliyati. Tashkiliy qobiliyatlar, birinchidan, talabalar jamoasini tashkil qilish, uni birlashtirish, muhim muammolarni hal qilish uchun ilhomlantirish qobiliyatidir.

Avtoritar qobiliyatlar - o'z hokimiyatiga erishish uchun talabalarga hissiy va irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

Muloqot qobiliyatlari - bolalar bilan muloqot qilish, ularga to'g'ri yondashuvni topish, ular bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatish;

Bu qobiliyatlarga pedagogik taktning mavjudligi ham kiradi.

Prognostik qobiliyatlar (aks holda ularni pedagogik tasavvur deb atash mumkin) - bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, o'quvchi shaxsining imkoniyatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, ulardagi ma'lum fazilatlarning rivojlanishini bashorat qilish, loyihalash bilan bog'liq qobiliyatlar guruhidir. pedagogik jarayon.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati. Darsda sinf ishini (va umuman olganda, har qanday guruh talabalari, o'quvchilarining ishi) yaxshi tashkil etish uchun birinchi navbatda diqqatni taqsimlash talab qilinadi. Buning uchun hammaga topshiriq berishning o‘zi yetarli emas, har bir o‘quvchiga o‘z vaqtida yordam berish, ko‘nglini ko‘tarish, fikr bildirish va hokazolarni “ko‘rish” kerak. Bundan tashqari, diqqatni bir nechta faoliyat turlariga taqsimlash kerak va bu o'qituvchining ishi uchun ham juda muhimdir, chunki biz ilgari ma'lum qilganimizdek, pedagogik faoliyat juda xilma-xil bo'lib, turli xil bilim va ko'nikmalardan foydalanishni talab qiladi. turli holatlar.

3.Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

«Kompetentlik» - tushunchasi esa, shaxsning doimo o’sib boruvchi tasnifi bo’lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish kobiliyati, o’z bilimi, o’quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

«Kompetentlik» atamasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan’anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o’zini *qanday tutish,* muloqotga kirishish, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda

qanday harakat qilishi kerakligi to’g’risida nazariy bilimlar zarurligini ko’rsatadi.

Inglizcha «competence» tushunchasining lug’aviy ma’nosi «qobiliyat» demakdir, biroq *kompetensiya ataması bilim*, ko’nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat kiladi. G’arb mamlakatlarida shakllangan an’anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentlik, ta’lim tizimi esa — bilim, ko’nikma va malakalar darajasi bilan o’lchanadi. Xorijiy mamlakatlarda an’anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o’ziga xos-xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi. Ushbu standart natijasinigina qayd etadi.

Kompetensiya o’z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o’z amaliy faoliyatida qo’llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo’lgan mutaxassis muammolarni yechishda o’zi o’zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan *foydalanishni yaxshi bilishi*, hozirgi vaziyatga munosib bo’lgan metodlarni tanlab olib qo’llashi, to’g’ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko’z bilan qarashi kabi ko’nikmalarga ega bo’ladi. Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta’lim jarayonlarida mavjud bo’lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan. «Mahorat», «malaka», «salohiyat» masalalari, faoliyat, *shu bilan birgalikda*, bir qator faoliyatlarning birikuvi M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.Щyedrovidskiy, V.V.Davidov va boshka pedagogika sohasining olimlari ilmiy asarlari asosini tashkil etgan.

D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo’lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig’indisidir», - deb ta’kidlaydilar.

I.V.Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o’z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi:

" - Ushbu faoliyatga bo’lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o’zining ijtimoiy o’rnini tasavvur qilishi;

- o’zining shaxsiy o’ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va h.)Ko’nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;

- shu asosda o’zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o’sishini boshqara bilishi"

A.K.Markova eng ko’p o’qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo’yicha o’qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachon-ki o’qituvchi o’z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talabalarni o’qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa. Ushbu asoslar bilan birga o’qituvchining kasbiy kompetentligini to’rtga bo’lib o’rganadi:

Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik - bu qo'shimcha faoliyatni olib borish yo’llarini bilish, hamkorlikda bajarish yo’llarini bilish;

Shaxsiy kompetentlik – o’zini rivojlantirish va o’zini ko’rsatish yo’llarini bilish (mutaxassis o’zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma’lumotlar bilan va o’z ustida ishlash).

Individual kompetentlik - bu o’zini boshqarish yo’llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o’qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo’lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo’lishi.

Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. *Kasbiy kompetensiya - bu bilim,* mahorat va tajriba o’zviyligi bo’lib, loyixalash mutaxassis faoliyatini ruyobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e’lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari tug’risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, kasb ta’limi o’qituvchilari uchun bu o’ta muhim jihat sanaladi hamda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg’u beriladi.

Ijodiy dunyoqarash va qo’rqmay ijodiy faoliyat ko’rsatish, Hatto u turmush masalalari bo’lsa ham; «talaba» va uning mashg’ulotlari erkin tarzda takomillashib borishini chin dildan istashi va uni tashkil etish maqsadiv talabaning o’sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun shaxsiy mas’ullik ana shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva T.M., Karimova N. Mustaqil ta'lim jarayonida kasb ta'limi o'qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirish. Oliy va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim tizimida mustaqil ta'lim: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Guliston: GulDU. 2012 yil
2. Abdullaeva K.M., Norbutaeva D.A. Kasb ta'limi (xizmatlar soxasi) yo'nalishida mutaxassislik fanlari buyicha yaratilgan o'quv uslubiy majmualardan foydalanib talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.
3. Tafakkur sarchashmalari. Nizomiy nomidagi TDPU. Magistrlarning ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. 2012 yil.
4. Babanskiy YU.K. Izbrannыe pedagogicheskie trudы. - M.: «Pedagogika», 1989.
5. Bespalьko V.P. Pedagogika i progressivnыe texnologii obucheniya. - M.: «Prosveщenie», 1995
6. Vыgotskiy JI.C. Izbrannыe psixologicheskie issledovaniya. - M., Izd-vo APN RSFSR, 1956.
7.

24-Mavzu : Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda kreativ yondoshuv.

Mavzu rejasi:

1.Pedagogik kompitensiya tushunchasi.
2.Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik savodxonlikni oshirish tizimi.
3.Pedagogik kompitensiyalarni shakllantirishda ijodiy yondoshuv.

Tayanch so`z va iboralar:

“Kompetensiya”, kompetentlik, kreativ qobiliyat, ma’naviy kompetensiya.

1.Pedagogik kompitensiya tushunchasi.

Kompetensiya haqida tushuncha
Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O‘qituvchi - muallimlarning

shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e’tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.
Zardo‘sht ta’limotida, “muallim — kohinlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo‘sinida o‘rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to‘g‘ri yo‘lga hidoyat etishdir” deyilgan. Uning “yasht”larida aqlu farosat bilan, yomonlikka qarshi kurashni amalga oshirib, bolalar ruhiyatiga rost so‘z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi. Shuningdek, “Avesto”ning “Yasht”larida tanballigi, befarqligi, mas’uliyasizligi, loqaydligi, farosatsizligi, o‘quvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehnini, ularning mustaqil tafakkurini o‘tmaslashtiradigan, ayni chog‘da, yoshlarning aqlini “Zanglatadigan”, hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon-e’tiqodini zaiflashtirib, ma’anaviy jihatdan qashshoqlashtiradigan “Yomon ustozlar” qattiq qoralanadi. Zardushtning oliy tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: “Noshud, yomon muallim o‘quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo‘qotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o‘zing asra”.
Talabalarga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o‘qituvchining shaxsiyati qanday bo‘lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:
— bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
— beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
— ta’limda turli usul va shakllardan foydalanish;
— talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
— fanga qiziqgira olish;
— berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o‘qitish;
— bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
— har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan, adabiyot va san’at, ma’rifatchilik jadal taraqqiy etgan. Shuningdek, o‘qitishning sinf tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib

o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari surilgan va ma’lum darajada amalga oshirilgan. Shu bilan birga Ulug‘bek o‘qituvchi va mudarrislarning insoniy xislatlariga bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergan. Ularning moddiy ehtiyojlari davlat ta’minotidan qondirilishini yo‘lga qo‘ygan, eng mahoratli ustozlarni e’zozlagan. Ayni paytda, u mudarrislarning dars berishdan tashqari ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishlarini talab qilgan.

Shunga o‘xshash fikrlarni G‘arb pedagoglari ham aytib ketishgan. Jumladan, Disterverg: “Yaxshi o‘qituvchi o‘zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O‘qituvchi o‘z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim, yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o‘rgatadi” degan.

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi oliy o‘quv yurti dargohida kasbiy ta’lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, o‘qituvchi kasbi haqida ma’lumot berish va ko‘nikma hosil qilish nazarda tutiladi

Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi davrdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o‘ynaydi. Yosh o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilarni biriktirib qo‘yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O‘qituvchi o‘z kasbini sekin-asta o‘zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib etadi. Shu yo‘l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

O‘qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o‘qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o‘z o‘rnini topib keta olishi yosh o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq. Jamoaning yordamidan yuz

o‘girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o‘qituvchi bo‘lib shakllanishidan darak beradi.
Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy shakllanishi o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga va o‘z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog‘liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchi kompetensiyasining ahamiyati

O‘zbekistonda ta’lim tizimini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g‘oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.
Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko‘tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Pedagogik mahorat – o‘qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo‘lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan ko‘pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchigina o‘z kasbiga layoqatli, iste’dodli bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning

samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O‘qituvchi o‘quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining ruhiyatiga ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O‘qituvchida nutq o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.
O‘qituvchi obro‘si – o‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olishdir. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig‘indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga Shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog‘liq.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan xislatlar, ya’ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o‘z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko‘nikmalar asosida rivojlanadi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o‘qituvchidan o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya talablarini to‘g‘ri tushunish, tashabbuskorlik, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do‘stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o‘qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko‘nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko‘ngilli, ochiq chehrali, shirinso‘zli, bolalarni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g‘urini o‘quvchilarga bab-baravar bo‘lib berishi, sinfda do‘stona muhitni yaratish va o‘quvchilarning o‘quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag‘batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O‘quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas’ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e’zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o‘quvchilarga qo‘pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo‘rqitishdan o‘zini tiyishi zarur;

- O‘quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg‘ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o‘quv jarayoniga o‘zgacha talab va o‘zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Bu esa ta’lim sohasida o‘quvchi, o‘qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya’ni, DTS talablarini o‘zlashtirish va undagi me’yorlardan yuqoriroq natijalarga erishishni taqozo etadi. DTS talablarini bajarishning asosiy omillaridan biri ta’lim jarayoniga samarali natijaga ega yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etishidir.

Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy

etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O‘quv soatlarida o‘quvchilarga etarli bilim berish hayotiy ko‘nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

O‘quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o‘z yo‘nalishini tanlashi va buning asosi bo‘lgan qarashlarini isbotlashi, o‘rni kelganda himoya qilishni o‘rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta’lim mazmunining natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ta’limni isloh qilishda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilagn talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan, o‘qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O‘qituvchining ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odobli qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi

Shu munosabat bilan bugungi kunda o‘qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- o‘z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada o‘zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e’tiqod sohibi bo‘lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishi;
- o‘z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo‘lishi va yangilikka intilishi;
- o‘z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o‘rganishi va ularni targ‘ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat’iylik, vazminlik, haqqoniylik, o‘zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo‘lishi;
- o‘z kasbiga to‘la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo‘lmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir

pedagog-o‘qituvchi o‘zining butun bilim va tajribasini ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo‘naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir.

4.Kompetensiya turlari, kvalifikasiya va kompetensiya

O‘qituvchining kasbiy kompentensiyasi turlari quyidagilardan iborat:

1.Kasbiy.
2.Shaxsiy.
3.Umuminsoniy.
4.Ma’daniy.
5.Maxsus.

Kasbiy kompetensiya

Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;

O‘z ustida ishlash;

- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;

O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;

O‘quvchilarda motivasiyani shakllantirish;

AKTni bilishi;

Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;

O‘z fanini mukammal bilishi;

Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Shaxsiy kompetensiya

- Muloqatchanlik;
Bag‘rikenglik;
Etakchilik;
Faol,tashabbuskor;
Moslashuvchan;
Sog‘lom turmush tarzi;
Mas’uliyat;
Ishchanlik;
Insonparvarlik.

Umummadaniy

Ma’lumotli;

Madaniyatli;
Umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
Milliy madaniyatga ega bo‘lish;
Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.

Maxsus

O‘quvchilar ehtiyojini bilishi;
Turli yosh xususiyatlarini bilishi;

Kvalifikasiya va kompetensiyaning o‘zaro munosabati

Kvalifikasiya- potensial faoliyatda bilim va ko‘nikmaning namoyon bo‘lish.

Kompetensiya-bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi.

2.Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik savodxonlikni oshirish tizimi.

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda.

Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta’lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya’ni ta’lim maskanlarining maqsadini bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta’lim standartlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta’limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o‘zlashtirilgan ma’lumotlar tinglovchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda, talabalar juda ko‘p axborotni behuda jamg‘arilishi, ta’limning samarasi past ekani va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko‘zga tashlanmoqda. Aniqrog‘i, o‘quvchi real

hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to‘plangan axborotlarnigina o‘zlashtirish maqsadi qo‘yilgandek tuyuladi. Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta’lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muxtaram prezidentimiz sh.m.mirziyoyev “yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqiyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1], degan fikrlari ham mustaqil o’zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. Shunday ekan biz o’qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkzamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabadan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi.

O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li -oily ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Kompetent yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) - “bilim - ko‘nikma - malaka”ni oltita birlik (sekstet) - “bilim - ko‘nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab

“kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) - sub’yektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rta ta’lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud. Kompetensiya - lotincha «competentia» so’z bo’lib, o’zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo’lgan» kabi ma’nolarni bildiradi. Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati [2]. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishidir [2]. L.m.mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o’qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko’nikma va malakasi, shuningdek o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini takomillashtirish, o’zo’zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg’un birlashishini tushungan .

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.m.mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo’lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz: - faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko’nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari); - shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o’z-o’zini takomillashtirish va o’zo’zini amalga oshirishga oid bilim, ko’nikma va malakalar); - kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko’nikma va malaka) professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va

standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir: - maxsus pedagogik kompetensiya; - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish. Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog’liq; - ijtimoiy pedagogik kompetensiya; - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik; - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan; - shaxsiy pedagogik kompetensiya; - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir [4-30]. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIK SIFATLARI	
1	O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish
2	Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o’rnata olish
3	Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish
4	O‘z ustida ishlash
5	Pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish
6	O‘z fanini mukammal bilish
7	Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi

kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o’z kasbini nomoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin. Kompetentlik nima ekanligini tushungandan so‘ng, uning darajalarini aniqlash qiyinchilik tug’dirmaydi. Kompetenlik modelini yaratish bo‘yicha quyidagi algoritmni taklif etishimiz mumkin:

1-bosqich lavozim yo‘riknomasini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda lavozim uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar turlarini aniq ko‘rsatish muhimdir.

2-bosqich tekshirish sur’atini aniqlash. Bu ta’lim muassasasining o‘ziga xos xususiyatlariga va kadrlar almashinuviga bog’liq.

3-bosqich har bir o‘rin uchun taqqoslash asosida sinov yoki imtihonni o‘tkazish tartibini tasdiqlash.

4-bosqich sinov yoki imtihondan o‘tish.

5-bosqich ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimga keltirish.

6-bosqich baholash natijalari to‘g’risida qaror qabul qilish: qo‘shimcha o‘qishga yuborish, boshqa lavozimga o‘tish, ishdan bo‘shatish.

7-bosqich hisobot davrida ta’lim muassasasining vakolati va ishini baholash samaradorligini yakuniy tahlilini qilish. 8-bosqich xavf-xatar va to‘siqlar bo‘yicha ish namunasini to‘liq ishlab chiqish.

a.a. Derkach tomonidan kasbiy muloqatdagi kompetentlikning - kommunikativlik yoki muloqotchanlik kompetentligi (kasbdoshlar bilan muloqot qila olish qobiliyati), - ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilish va baholay olish qobiliyati), differansial va psixologik kompetentlik (insonlar o’rtasidagi individual psixologik tafovutlarni farqlay olish), - diagnostik kompetentlik (boshqa kishilarga xos bo’lgan xususiyatlarni o’rganish qobiliyati), - axloqiy kompetentlik (shu kasb taqozo etadigan odob-axloq normalariga rioya qilish), - empatik kompetentlik (jamoa a’zolariga hamdard bo’la olish, ularni to’g’ri tushunish va boshqa tarkibiy qismlari ajaratib ko’rsatilgan. Mutaxassisning ijtimoiy-perseptiv kompetentligi xususiyatlarining tuzilishi: - boshqa kishilarni idrok qilish, tushunish va baholashning aniqliligi; - ijtimoiy sub’yektlar bilan tizimli munosabat o’rnata olish qobiliyatining mavjudligi; - idrok qilinayotgan shax sning xulq-atvori va xususiyatlarini fikran adekvat tarzda modellashtira olish; - shaxslararo baholash jarayonida turli mezonlardan foydalana olish va boshqalar. Bo’lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya’ni perseptiv, kognitiv, refleksiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e’tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo’lib borish uchun mutaxassis o’zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko’nikmalar,

ijobiy kasbiy “men”- siymosi, ba’zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag’rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg’ulotlar bilan shug’ullnishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik-psixologik trening-seminar, ish o’yini, mahorat darsi va turli amaliy mashg’ulotlarga jalb qilish, malakaviy amaliyotning rolini oshirish, har bir talabaga o’zining pedagogik faoliyatga xos imkoniyatlari va mahoratini namoyon etishi

Mumkin bo’lgan qulay sharoitlarni yaratib berish orqali unda ijtimoiu-perseptiv kompetentlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o’rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko’rib borish lozim.

Kompetentlikni baholash mezonlari

Kompetentlikning tarkibiy qismlari	Kompetentlikni baholash mezonlari
Tayyorgarlik	Maxsus xususiyatlar, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, o’rganish qobiliyati, tipologik xususiyatlar va boshqalar
Bilim	Kompetentlik, stereotiplar, bilim, kompetentlik bilan bog’liq bo’lgan o’rganishning ustunligi haqidagi tasavvurning mavjudligi
Tajriba	Kompetentlikka yaqin yoki aynan unga mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish
Munosabat	Kompetentlikni amalga oshirish yoki faoliyat kompetentligi bilan bog’liq holda o’ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi
Muntazamlilik	Kompetentlikka bog’liq amallarga «turtki»larni nazorat qilish qobiliyati, matonat, qat’iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirish bilan bog’liq maqsadga erishishdagi to’siqlarni zabt etishga tayyorgarlik

3.Pedagogik kompitensiyalarni shakllantirishda ijodiy yondoshuv

Ma’lumki ijod – insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan yangilik yaratishi, kashf etishi bilan bog’liq murakkab psixologik jarayon bo’lib, inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol

ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste’dod namoyon bo’ladi. Buyuk mutafakkirlardan biri Abu Nasr Farobiyning ta’riflashicha “ijod – bilish jarayonida shunday ulug’ fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak”. Darhaqiqat, ijod qilish jarayonida inson izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosaning to’g’ri yoki noto’g’ri ekanligi tajribada sinab boriladi. Kreativ kompetentlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo’lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Barcha tariflar bir-biridan keskin farq qiliga qaramay, uning ba’zi umumiy jihatlarini ko’rsatish mumkin. Birinchidan, kreativ kompetentlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo’lishi; ikkinchidan, ushbu jihatlar kreativ kompetentlikning dastlabki asoslarida mavjud bo’lmaganligi; uchinchidan esa, har qanday kreativ kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi. O’quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini quyidagicha belgilariga ko’ra tasniflash mumkin:

- ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, pedagogik, didaktik, o’quvchilarda, aralash);
- ijod darajasi (mono ijod, mulьti ijod, mega ijod);
- ijod qamrovi (bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro);
- ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o’rta muddatli, uzoq muddatli);
- ijodning shakli (innovatsion, ta’limiy, investitsion, aralash);
- umumiy jihatlariga ko’ra (yangi g’oyalarni hayotga tadbiq etish;
-printsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo’llash);
- yaratilgan ijod mahsulini ma’nosi va murakkabligiga ko’ra (ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot).

Tahlillar o’quvchining ijodkorligi uning masalalar yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, o’quv topshiriqlarini bajarishi bilan bog’liq muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo’lishini

ko’rsatdi. Fikrimizga ko’ra, o’quvchining ijodi – o’zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog’lay olishi, olingan natijalarni to’g’ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishidir. Ijodiy faoliyatni o’qituvchi va o’quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Muntazam ravishda muayyan usul, shakl, vositalarga tayanib qolish – yangi vaziyatlarga moslasha olmaslik, kutilmagan vaziyatlarda ish yurita olmaslikka olib keladi. Bu psixologik holat sifatida turli shakllarda namoyon bo’lishi mumkin, jumladan: o’zgalar fikr va mulohazalarini umuman qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan nuqtai nazardan qat’iy himoyalanish; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski usullarni qo’llash; yangi usullarda eski usullarning saqlanib qolishi; umuman yangi masalani yechishda an’anaviy usullarni qo’llash kabilar. O’quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o’zaro bog’liq vazifani e’tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o’quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan;
ikkinchisi – o’zlashtirilgan bilimlarni ta’limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo’llay olishga o’rgatish bilan belgilanadi. Quyidagi ko’rsatkichlar o’quvchilarda kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlari sifatida taklif qilindi: mustaqil qaror qabul qilish; o’z imkoniyatlariga ishonch; faol izlanuvchanlik; fikrlash tezligi; fikrlash moslashuvchanligi; g’oyaning o’ziga xosligi; g’oyaning mukammalligi; g’oyaning ijobiy yo’naltirilganligi; axborotlarni qayta ishlash va maqsadli qo’llay olish; tasavvur kengligi; bir-biridan uzoq fikrlarni o’zaro bog’lay olish; g’oya salmog’ini baholay olish; yechimning nafis, bejirim va oddiyligi; ko’plab g’oyalarni yuzaga keltira olish; g’oyaning asosliligi. Ushbu sifat ko’rsatkichlarini baholashda test sinovi, muammoli topshiriq va tajriba usullardlan foydalaniladi. Pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biri butun guruhni bo’lajak o’quvchilarda faoliyatiga barqaror

yo’naltirilganlikni shakllantirishga qaratiladi. Bu mashg’ulotlar asosan treninglar shaklida amalga oshirilib, ushbu asosda amaliy mashg’ulotlarni tashkil qilish o’quvchilarda o’quvchilarda faoliyatga oid muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko’nikmalarining shakllanib borishini tajriba-sinov ishlari tasdiqlab berdi.

Maqsadimiz o’quvchilardagi kreativlik kompetentlikni o’rganish va uni baholash usullari, shuningdek kreativlik kompetentlikni shakllantirish mezonlarini aniqlash va qo’llash asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar samaradorligini asoslashdan iborat etib belgilandi. Natijada quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

- uzluksiz ta’lim tizimi mazmunining tahlili asosida o’quv-tarbiya jarayonida o’quvchilar kreativ kompetentlikini shakllantirish bo’yicha nazariy ma’lumotlar o’rganildi va umumlashtirildi;
- kreativ kompetentlikni o’rganish usullari, shuningdek kreativlikni shakllantirish mezonlari belgilab olindi;
- so’rovnomalar vositasida o’quvchilarda kreativ kompetentlik borasidagi asosiy tushunchalarni o’zlashtirganlik darajasi aniqlandi;
- tadqiqot ishida o’quvchilarda kreativ kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan tavsiyalar sinovdan o’tkazildi;
- umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarini kreativ kompetentlikini shakllantirish uchun zarur didaktik shart-sharoitlar hamda ijodkor shaxs o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining didaktik modeli samaradorligi baholandi.

O’quvchilar kreativ kompetentliki shakllanganlik darajasini shakllantirishda ta’lim mazmuni asosida ishlab chiqilgan ijodiy, o’quv hamda muammoli-vaziyatli topshiriqlarga monand mezonlar va usullari tanlandi. O’quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish jarayonining o’zlashtirish ko’rsatkichlarini baholash va monitoringini amalga oshirish tartibi belgilandi hamda sinab ko’rildi. Olingan natijalar tahlili o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslangan trening mashg’ulotlari o’quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaraga erishilganligini ko’rsatdi. Nazariy

hamda amaliy mashg’ulotlar, muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko’nikmalarni mustahkamlab borishda kreativ kompetentlik asosida o’quvchilar o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish usulikasidan foydalanish o’quvchilarda tayyorgarlik ko’rsatkichlarining yuqori darajaga bo’lishini ta’minladi. Kreativ kompetentlik o’quvchilarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta’minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo’lajak mutaxassislarning fan asoslarini o’zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda o’quvchilarda kreativ kompetentlikka asoslangan yondoshuvlarni joriy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. O’quvchi shaxsiga xos bo’lgan kreativ kompetentlik bilim, ko’nikma va malakalari tushunchalarini tadqiqot nuqtai nazaridan aniqlashtirib oldik. Jumladan: kreativ kompetentlik bilimlari – yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan in’ikosini; kreativ kompetentlik ko’nikmalari – shaxsning maqsadga yo’naltirilgan ijodiy faoliyatda, aqliy jarayon bosqichlarini tez va to’laqonli amalga oshirish darajasini ifodalashi aniqlandi. Kreativ kompetentlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyatni qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi. O’quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o’quv faoliyatining asosi bo’lishi lozim. Kreativ kompetentlik faoliyati o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tashkil qilish butun ta’lim jarayonining sifatini ta’minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirishda ilmiy-texnik ma’lumotlar bilan tanishish muhim o’rin tutadi. O’quvchilarga axborotnomalar, ilmiy atamalar bo’yicha ma’lumotlar, ixtirochilik va

patentshunoslik materiallari haqida ma’lumotlar berib borish muhim manba vazifasini o’taydi. Axborot texnologiyalari va patentshunoslik sohasidagi mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilish, shu sohalarga oid davriy nashrlar bilan muntazam tanishib borish o’zining ijobiy natijalarini beradi. Malakaga ega o’quvchilarda ijodkor mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda innovatsion g’oyalar va texnologiyalarning muhim manbaini shakllantirishni talab etadi. Bu ishda kreativ kompetentlik tushunchasi o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini ilmiy-texnik bilimlar hamda ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi asosida kreativ kompetentlik mahsulini intellektual mulk sifatida yaratishga qaratilgan faoliyat jarayoni sifatida qabul qilindi. Fikrimizcha, umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilarida kreativ kompetentlik asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ishlab chiqarish va soha texnologiyalarini yangilanib borish mexanizmlarini o’zlashtirish, o’zining kelgusi faoliyati dinamikasini tasavvur qilish, tadbiqiy bilimlarni o’zlashtirish ahamiyatini anglash, o’zining keyingi faoliyati yo’nalishini aniqlashtirish, faol amaliy ish olib borish tajribasini egallash hamda ilmiy axborotlar bilan ishlash malakasini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi. Pedagog o’quvchilar bilan o’zaro muloqoti jarayonida albatta ularning qadriyatlari tizimini, o’zini o’quvchilarda-ijodiy rivojlantirishga intiluvchanligi hamda onglilik darajasini e’tiborga olishi lozim. Inson yuksak qadriyatlar hamda g’oyalarga asoslanmas ekan, shaxsiy sifatlari hamda o’quvchilarda ijodkorlik mahoratini rivojlantirish jarayonlari ahamiyatini anglab yetmaydi, oqibatda pedagog va o’quvchining o’zaro hamkorlikdagi ijodkorligi to’laqonli amalga oshmasligi mumkin. SHaxs individual rivojlanishining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog’liq bo’lgan xususiyatlaridir. CHunki, taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o’zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o’zgarishlariga ega bo’lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati va bilish jarayonlariga bevosita ta’sirini o’tkazadi. SHaxsning yosh davrlari ichida o’smirlik davri

eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. O’quvchi o’g’il va qizlar hayoti hamda faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o’quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo’lg’usi mutaxasis shaxsining shakllanishida o’z ta’sirini o’tkazadi. SHaxs kreativ kompetentlikini tashkil qilishda faqatgina bitta, eng asosiy xususiyatga e’tibor berish bilan cheklanib qolish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bermaydi. SHu sababli o’smir shaxsining barcha sohalardagi faoliyat ko’rsatkichlarini umumiy majmua sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog’ini oshirishga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlar tahlili asosida kreativlik muammosining asosan to’rt yo’nalishda o’rganilganligi aniqlandi, ya’ni: kreativlik jarayon sifatida; kreativlik natija sifatida; kreativlik qobiliyat sifatida; kreativlik shaxsning xususiyati sifatida. Bilim olishdagi tizimlilik va izchillik nazariya va amaliyotning birligi, Davlat ta’lim standartlari ta’lim-tarbiya jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish bilan ta’minlanadi. Taxlilga ko’ra o’quvchilarni kreativ kompetentlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini quyidagi yo’nalishlarda amalga oshadi deb hisoblash mumkin:

- o’quvchilar e’tiborini masalani hal qilishda qo’llanilgan usulning umumiyligi, keng qamrovligiga qaratish;
- o’quvchilarni kreativ kompetentlik usullariga o’rgatishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda qo’yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo’l, imkoniyat sifatida qaralishi;
- o’quvchilar o’zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g’oyalar kreativ kompetentlik darslarinining asosiy mahsuli sifatida qaralishi;
- axborotlarni yig’ish, tahlil va talqin qilishni kreativ kompetentlikni yo’lga qo’yishning muhim jihati sifatida qaralishi;
- shaxs kreativ kompetentlik sifatlarini tarbiyalashni ta’lim muassasalarida o’tkaziladigan mashg’ulotlarining muhim, qamrovi jihatidan dars va darsdan tashqari mashg’ulotlardan ham tashqariga

chiqadigan masala sifatida qaralishi. O’quvchilar kreativ kompetentlik sifatlarini shakllantirishda ta’lim mazmunini loyihalash va standartlashtirish, o’quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, o’quvchilar kreativ kompetentlikini tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari, o’quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil etish va intensivlashtirishning intellektual o’qitish tizimlarini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq ekan. Ta’lim mazmuni uzviyligini ta’minlashda takrorlanmaslikni ta’minlash asosida fanlar uchun ajratilgan o’quv soatlari, o’quvchi va o’qituvchilarning vaqtdan samarali foydalanishga alohida ahamiyat qaratilishi, o’quvchi yoshlarni mustaqil fikrlash va mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantiruvchi bo’limlar, masala va testlar o’z aksini topishi lozim. Qo’llanma va tavsiyalarni yaratish bilan bir qatorda ta’lim jarayonida shaxs ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondoshuvlarni joriy etish o’quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekan. SHaxsga yo’naltirilgan ta’lim avvalo ta’limning paradigmasini o’zgartiradi. SHu paytga qadar mavjud ta’lim tizimida o’qitish ustuvor sanalgan bo’lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o’qishga o’rgatishga yo’naltirilgan. Pedagog olimlar tomonidan ta’lim jarayonida shaxsga yo’naltirilgan yondoshuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo’lib, u quyidagilardan iborat: shaxsga yo’naltirilgan ta’lim; hamkorlik pedagogikasi; adaptiv muloqot pedagogik moslanuvchan texnologiyasi; o’yin texnologiyasi; motivatsion o’qitish texnologiyasi; muammoli o’qitish texnologiyasi; differentsial o’qitish; individual o’qitish texnologiyasi. Kreativ kompetentlikni shakllantirishda pedagogik asoslarni taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichida umumta’lim maktabi o’quvchilari kompetentlikini ta’minlashning usulologik talablari hamda didaktik shart-sharoitlarini belgilashda yangi yondoshuvga asoslangan o’qitish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelganligini ko’rsatmoqda. Bunda, o’quvchilar kreativ kompetentlikini

rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari quyidagilarga asoslanadi: nazariy bilimlarning amaliy ko'nikma va malakalarga o'tib borishi ustuvorligi; ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi muhitning birligi; ta'lim olish hamda ijodiy faoliyatga bo'lgan ijobiy motivatsiyani rag'batlantirish; muammolilik; individual hamda differentsial yondoshuvlarning uyg'unligi; ta'lim shaxs faolligini ta'minlashga yo'naltirilganligi; ta'lim mazmuni hamda o'quv-didaktik materiallarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilganligi. I.Ya.Lerner ijodiy masala ijodiy bo'lmagan masaladan shu bilan farq qiladiki, fikrlovchi sub'ekt (shaxs) o'zining mustaqil ish faoliyatida ya'ni, masalani yechish jarayonida o'zi uchun yangi bo'lgan natijalar topishga erishadi, deb ta'kidlaydi. Ijodiy masala – algoritmli masala emas, standart masalaga o'xshash va oddiy masala ham emas, balki topilishi lozim bo'lgan yechimni ishlab chiqishga qaratilgan nostandart masaladir. Masalaning g'oyaviy tomoni faqatgina uning yechimini topishda emas, balki sub'ektning masalaga ijodiy yondoshish talablarini qondiruvchi munosabatiga bog'liqdir. Masalaning g'oyasini anglash – bu ushbu masalani yechiladigan masalalar guruhiga qo'shishdir. O'quv-tarbiya jarayoni motivatsiyasi o'quvchilarni faollika, hamjihatlikka, mashg'ulotning barcha bosqichlarida yuqori darajadagi qiziquvchanlik bilan ishtirok etishga da'vat qilishni maqsad qilib qo'yadi. Motivatsiyani uyg'ota olish ijodkor o'qituvchilar mahoratining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Motivatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga tez kirishib ketishini ta'minlaydi va aksincha beriladigan topshiriqlarning me'yoridan ortiq murakkabligi, olinadigan natijalarning mavhumligi motivatsiyaning turg'un bo'lmasligiga olib keladi. M.V.Klarinning fikriga qo'shilgan holda qat'iy va moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni o'zaro farqlashni ma'qullaymiz. Qat'iy pedagogik texnologiyalarda jarayonga nisbatan ham, ta'lim natijalariga nisbatan ham tashhislilik hamda qayta hosil qilinuvchanlik xos bo'lib, u ta'lim maqsadlariga erishishdagi qat'iy talablarni o'zida aks ettiradi. Bundan farqli ravishda moslashuvchan

pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini amalga oshirishga nisbatan qayta hosil qilinuvchanlik talabini qo’yadi, biroq, o’qitish natijalarini tashhisli belgilashni shart qilib qo’ymaydi.

Taklif etilayotgan kreativ pedagogik texnologiyaning o’ziga xos jihatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Nafaqat butun pedagogik tizim, balki uning har bir tarkibiy qismlari: maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, usullari hamda ta’lim vositalari, pedagogik kadrlar hamda ichki ta’lim muhitining shaxs kreativligini rivojlantirishga yo’naltirilganligi.

2. Kreativ pedagogik texnologiyaning yaxlit ta’lim jarayonda ham, lokal pedagogik bosqichda ham tizimli tavsifga ega ekanligi.

3. O’quvchilar tomonidan ijodiy o’quv topshiriqlarini bajarishda yechimni ishlab chiqish traektoriyasi va mazmunining mustaqil belgilanishi.

4. O’quvchilarda kreativ kompetentlikka yo’naltirish orqali o’quvchilarda moslashuvchanlik, harakatchanlik innovatsion yechimni ishlab chiqishga intiluvchanlik sifatlarini tarkib toptirishga qaratilganligi.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishda hamkorlik va hamjihatlik; avtodidaktikaning ustuvorligi; rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarga rioya etiladi. Taklif etilayotgan texnologiyani ikki yo’nalishdagi yondoshuv: a) amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi;

v) nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi asosida joriy qilish mumkin. Kreativ pedagogik texnologiyaning asosida to’rt bosqichdan iborat produktiv didaktik tsikl g’oyasi yotadi.

1-bosqich – o’quvchilarni yangi o’quv materiali bilan muammoli ta’lim asosida tanishtirish, ularda yangi materialni o’zlashtirishga ijodiy motivatsiyani shakllantirish hamda ijodiy o’quv topshiriqlarini bajarish tartibi bilan tanishtirish.

2-bosqich – o’quvchilarning ijodiy o’quv topshiriqlari asosiy xususiyatlarini hamda ular yechimini ishlab chiqish ishlab bilan bog’liq o’quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilish.

3-bosqich – o’quvchi o’zi uchun mustaqil o’quv topshiriqlarini belgilashi.

4-bosqich – o’quvchining mustaqil ijodiy faoliyatini yo’lga qo’yish.

Bunda o’quvchi o’zi loyihalagan kreativ kompetentlik faoliyati mahsulini asoslashni o’rganadi. O’quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirish uzviyligini ta’minlashda texnologiya fanining imkoniyatlari, o’quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta’minlash jarayonlarini modellashtirish, uzluksiz ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda o’quvchilarning kreativ kompetentlikini rivojlantirish mexanizmlari, kreativ kompetentlik faoliyati asosida o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirish lozim. Mehnat faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratiladi, ularni xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalariga o’rgatiladi. Ta’kidlash joizki, ijtimoiy gumanitar, tabiiy hamda aniq fanlar asosan akademik litseylarda tahsil yo’nalishini tanlashga tayyorlasa, texnologiya esa asosan umumta’lim maktablarida kasb-hunar soha yo’nalishiga tayyorlashga xizmat qiladi. O’quvchilar kreativ kompetentliki uzviyligini ta’minlash jarayonlarini modellashtirish bu jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishni optimallashtirish bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. SHunga ko’ra, ijodkor shaxs o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining didaktik modeli ishlab chiqildi. Unda o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining maqsad va vazifalari belgilab berildi. SHuningdek, modelda ijodkor o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish jarayonining motivatsion maqsadli, mazmunli-axborotli, operatsion-faoliyatli hamda nazorat-baholash darajalari asoslangan o’z aksini topgan. O’z navbatida ushbu vazifalarni amalga oshirishning motivatsion maqsadli, mazmunli-axborotli, operatsion-faoliyatli, nazorat-baholash darajalariga mos ravishdagi didaktik sharoitlari asoslab berildi. Mavjud sifatlar aynan qaysi bir o’quvchilarda jihatlar bilan bevosita bog’liqligi va ularning o’quvchi shaxsiga ta’sir doirasiga bog’liq ravishda quyidagi

guruhlarga ajratildi:
individual-tipologik sifatlar;
sensor va pertseptiv xususiyatlar;
attentsion xususiyatlar;
psixomotor xususiyatlar;
mnemik xususiyatlar;
imajinitiv xususiyatlar;
tafakkur xususiyatlari;
irodaviy xususiyatlar.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan kreativ pedagogik texnologiyalar o'quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirish asosida ularning o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. G.Perkins tomonidan taklif qilingan «intellektual chegara» nazariyasi keng ommalashgan bo'lib, u o'tkazilgan ko'plab korrelyatsion tadqiqotlar natijasida har qanday faoliyat turini egallash uchun zaruriy va yetarli intellektual daraja talab qilinishini ta'kidlaydi. Agar individning intellekt darajasi zarur darajadan past bo'lsa, u bu turdagi faoliyat bilan to'laqonli shug'ullana olmaydi, biroq, intellektning zarur darajadan yuqori bo'lishi qo'shimcha samara bermaydi. Intellekt darajasi «chegara»dan yuqori bo'lgan shaxslar faoliyatining unumdorligidagi farqlar motivatsiya, shaxs xislatlari va boshqa shu kabi omillar bilan izohlanadi, biroq, bu farq intellekt darajasidagi tafovutni ifodalamaydi. Olimlar kreativlikni shaxsning umumiy qobiliyati sifatida, faoliyat ko'rsatish sohasidan qat'iy nazar, ijodiy mahsuldorlikka katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraydilar. Umumiy qobiliyatlar tuzilmasiga intellekt, kreativlik va o'rganuvchanlikni kiritishda biz kognitiv jarayonlarning uch tarkibli modeliga asoslandik. Bunga ko'ra, har qanday kognitiv jarayon o'zida kognitiv tajribani o'zlashtirish, qo'llash va o'zgartirishni mujassamlashtirishi lozim. Tajriba o'zlashtiruvini amalga oshiruvchi qobiliyatni o'rganuvchanlik bilan, tajribani qo'llash samaradorligini umumiy intellekt bilan, uni o'zgartirishni kreativlik bilan izohlash mumkin. Pedagogik texnologiya

samaradorligini tadqiq etishda pedagogik tizim tarkibiga pedagogik kuzatuv elementlarining kiritilganligi, ya’ni mazkur ta’lim texnologiyasini amalga oshirish muhim o’quvchilarda jihatlarni shakllantirishga qaratilgangligiga e’tibor berildi. CHunki, pedagogik kuzatuvga asoslangan pedagogik texnologiya uni to’g’ri amalga oshirish asosida erishilishi lozim bo’lgan imkoniyatlar chegarasini belgilab beradi. O’quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishni yanada samaraliroq tashkil etish ta’lim jarayoniga yangi mashqlar va treninglarni joriy etishni taqozo etdi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv ta’lim texnologiyasida mavjud ayrim nuqsonlarni bartaraf etish imkonini berdi. Pedagogik texnologiyalarni qo’llash jarayonida pedagogik kuzatuvni amalga oshirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratildi:

-pedagogik kuzatuv texnologiyalarini belgilash; taklif etilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash;

-pedagogik kuzatuvni amalga oshirishni optimallashtirish maqsadida ta’lim muassasalari uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish;

- o’quvchilarda ahamiyatli sifatlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Semina E.A. (2010). Kompetentnostnaya modelь vыpusknika pedagogicheskogo vuza - budushhego uchitelya matematiki. Alьmanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. - № 5 (36). - S. 133-135.

2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.

25- Mavzu : Didaktik ta’minotni yaratishga kreativ yondoshuv

Mavzu rejasi:

1.O‘quv dasturlarini yaratishga kreativ yondoshuv.

2. Kreativ yondoshuv – o‘quv manbalari (ma’ruza matni, o‘quv darsligi, o‘quv va metodik qo‘llanma hamda o‘quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili.

3.Nazariy va amaliy mashg’ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshuvning ahamiyati.

4.O‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash – pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko‘rsatuvchi muhim holat ekanligi.

Tayanch so`z va iboralar:

“Kompetensiya”, kompetentlik, kreativ qobiliyat, ma’naviy kompetensiya

1. O‘quv dasturlarini yaratishga kreativ yondoshuv.

Pedagogik nuqtai nazardan ta’lim mazmunini shakllantirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi :

- umumiy nazariy bosqich;
- o‘quv bosqichi;
- o‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichi.

O‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichida ta’lim mazmunining o‘quv modul (fan)lari bo‘yicha yaratilgan DTS, o‘quv rejasi va o‘quv dasturi kabi me’yoriy hujjatlar, shuningdek, o‘quv manbalari (darslik, o‘quv va metodik qo‘llanma, yo‘riqnoma, tavsiyanoma va shu kabilar)da aks etishni ta’minlanadi Ta’lim mazmuni quyidagi davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari mazmunida namoyon bo‘ladi3 . Davlat ta’lim standartlari – umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan me’yoriy hujjat. O‘quv rejasi me’yoriy hujjat bo‘lib, unda har bir o‘quv predmetning mazmuni ochib beriladi va o‘quv yili davomida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi ko‘rsatib beriladi. Ta’lim mazmuni o‘quv dasturlarida yanada batafsil yoritiladi. O‘quv dasturi – muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqt, muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat. Dasturda ko‘rsatilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning

o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishi o‘qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi. Pedagoglarda ham kreativlik sifatlarining to‘laqonli namoyon bo‘lishi o‘quv dasturlari bilan ishlashda ham ko‘zga tashlanadi. Mualliflik o‘quv dasturlari:

1) o‘quvchilarning ehtiyoji, qiziqishi, xohishistaklarini inobatga olgan holda o‘quv moduli (fani) doirasida muayyan mavzu (masala)ni chuqur o‘rganish yoki ma’lum muammoning echimini topishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturi;

2) o‘quv dasturlarining bir turi4 . Bu turdagi dasturlar ham DTS talablarini hisobga olgan holda o‘quv fani qurilishining o‘zgacha shaklda bo‘lishi, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan muallif nuqtai nazarining aks etishi bilan boshqa o‘quv dasturlaridan farqlanadi.

Bu turdagi dasturlar tegishli fan sohasi bo‘yicha faoliyat olib borayotgan pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi taqrizlariga ega bo‘lishi va ta’lim muassasalarining pedagogik kengashlari tomonidan tasdiqlanishi zarur . Mualliflik o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravisha o‘zining kreativlik layoqatini to‘la namoyon etish imkoniyatiga ega. Odatda mualliflik o‘quv dasturlari o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy yoki maxsus) kurslar tashkil etishda, to‘garaklar, ilmiy jamiyatlar, «Fan klublari», texnik va badiiy ijodiyot markazlari faoliyatida samarali qo‘llaniladi. Qolaversa, o‘quv fanining mazmunini shakllantirishda har bir pedagog 15 foiz miqdorda ijodiy yondashgan holda unga o‘zgartirish kiritish imkoniyatiga ega. Binobarin, o‘quv dasturlarining innovatsion, kreativ xarakter kasb etishi o‘quvchilarda ta’lim olishga qiziqishni kuchaytiradi, ularning o‘quv-bilish faoliyatining faollashuvini ta’minlaydi. Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi. O‘quv adabiyotlari orasida darslik alohida o‘rin tutadi.

O‘QUV DASTURI — ta’lim tizimidagi har bir o‘quv fanining mazmuni va o‘tilish tartibini, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O‘zbekistonda O‘quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir O‘quv dasturi uqtirish xati, o‘quv

fani mazmunining qisqa bayoni, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat. O‘quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O‘quv dasturining muhim belgisidir. CHunki ayni shu narsa yaratiladigan o‘quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o‘qituvchiga esa pedagogik mo‘ljalni to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. Ta’lim amaliyotida O‘quv dasturi yaratishning kontsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Kontsentrik yo‘l bilan tuzilgan O‘quv dasturida ta’limning mazmuni yoki o‘quv materiallari o‘qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko‘zda tutiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan o‘quv fanlari bo‘yicha O‘quv dasturi lari shu usudda tuziladi. Tizimli usuddagi O‘quv dasturi larida o‘quv materiallari fan mantig‘iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketmaket joylashtiriladi. Maktabning boshlang‘ich sinfdan keyingi bosqichlarida qo‘llaniladigan bu usudda ortiqcha takrorlarga yo‘l qo‘yilmaydi, har bir mavzuning o‘z o‘rnida o‘tilishi ko‘zda tutiladi. Ta’limning O‘quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to‘la namoyon bo‘ladi.

2. Kreativ yondoshuv – o‘quv manbalari (ma’ruza matni, o‘quv darsligi, o‘quv va metodik qo‘llanma hamda o‘quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili.

Ma’lumki, mamlakatimiz mustaqilligi milliy ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan MDH davlatlarida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida qat’iy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning amalga kiritilishi yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada ta’lim tizimi va mazmun - mohiyati bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqib takomillashtirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, etuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis

kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning “O‘zbek modeli” hayotga tadbiq etilmoqda. Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarini boshqarish soxasida xar bir raxbar xodimlar va professor-o‘qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Ushbu dasturda oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari xamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari bayon etilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining 5 Konstitutsiyasi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, Kadrlar tayorlash Milliy dasturi, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini sub’ektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jixatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu xolatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini xar tomonlama nazariy va amaliy jixatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi. Modulning maqsadi va vazifalari Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish,

normativ hujjatlarni qo‘llashdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish. Modulning vazifalari: - oliy ta’limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonun hujjatlarini tahlil etish; - oliy ta’limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonun osti hujjatlarini tahlil etish; - tinglovchilarda normativ - huquqiy hujjatlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasi va malakalarini shakllantirish; - oliy ta’limga tegishli bo‘lgan normativ -huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatish; - normativ - huquqiy hujjatlarga amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash; - tinglovchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish. Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar “Ta’lim va tarbiya jarayonlarining qonunchilik normalari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida: Tinglovchi: - normativ -huquqiy hujjatlar tushunchasi; - normativ huquqiy hujjatlarning turlari; - normativ -huquqiy hujjatlarni ishlab chiqilishi; - normativ -huquqiy hujjatlarni amalga kiritilishi; - normativ-huquqiy hujjatlarni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lishi; Tinglovchi: - o‘z kasbiy faoliyat sohalarida normativ - huquqiy hujjatlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish; - normativ -huquqiy hujjatlarni tahlil qilish; - normativ -huquqiy hujjatlarni targ‘ib qilish; 6 - normativ huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallashi; Tinglovchi: - normativ -huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish; - normativ -huquqiy hujjatlarni amalda to‘g‘ri qo‘llash; - normativ -huquqiy hujjatlarni tahlil etish; - normativ -huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish; - normativ-huquqiy hujjatlarni baholash va umumlashtirish malakalarini egallashi; Tinglovchi: - normativ-huquqiy hujjatlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish; - normativ-huquqiy hujjatlar asosida ta’lim va tarbiya jarayonlarini boshqarish; - normativ-huquqiy hujjatlar asosida maslaxatlar berish; - normativ-huquqiy hujjatlar asosida qarorlar qabul qilish; - tizimli - faoliyat tavsifidagi kompetentsiyalarni egallashi lozim. Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar “Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborotkommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompьyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan; - o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspressso‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi. Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi “Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Oliy ta’limda zamonaviy yondashuvlar” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning me’yoriy - huquqiy hujjatlar bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi. Modulning oliy ta’limdagi o‘rni Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar

3.Nazariy va amaliy mashg’ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshuvning ahamiyati.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o‘quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog‘liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta’lim tizimida ham o‘ziga xos o‘zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda. Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil qilishning innovatsion usullaridan biri bu turli interaktiv o‘yinlarni dars jarayonlariga taqbiq qilishdir. Shu o‘rinda amaliy mashg‘ulotlarni qizg‘in tarzda namoyish qilishning usuli bu “Rolli va ishbop” o‘yinlardir. “Rolli va ishbop” interaktiv o‘yini bu, qatnashchilarning tajribasini kengaytirish metodi bo’lib, ularni kutilmagan vaziyatga duchor qilish orqali shu vaziyatda qatnashchilardan kimningdir rolini ijro etish taklif etiladi, shu orqali vaziyatning mos intixosini topadigan metod ishlab chiqishga erishiladi. Rollar o’yini nazariyasi mashhur amerikalik tadqiqotchi Dj.Moreno aytganidek, “Role” so’zi lotincha rotula (kichik g’ildirak yoki g’o’la) so’zidan olingan bo’lib, keyinchalik pesaning aktyor uchun qog’ozga yozigan va dumaloq naycha qilib o’ralgan varaqdagi so’zlari edi. Faqatgina XVI-XVII asrga kelib bu so’z aktyorlar “Rolli va ishbop” yini ma’nosini anglata boshladi. Rolli o’yinlar vaqtinchalik qatnashchining boshqa kishining rolini o’ynashni, yoki o’zini boshqa vaqt oralig’ida ko’rsatishini ko’zda tutadi. Kishi rolni qabul qilganidan keyin shu roldagi personaj kabi his qilishga, harakat qilishga va o’zini ko’rsatishga harakat qiladi. Boshqa qatnashchilar biron bir maqsad bilan rol o‘ynayotganlarini kuzatadilar. Ishning bunday shakli turli maqsadlarda qo’llaniladi. Ayni vaqtda ta’limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o’yinlardan samarali foydalanishga e’tibor berilmoqda. O’yin chog’ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o’quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o’zlarining atrof - muhitga bo’lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O’yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oshirib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O’quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko’nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta’limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o’yinlar o’ziga xos o’rin tutadi. O’yin texnologiyalari ta’lim samaradorligini ta’minlash, o’quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko’nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta’limni jadallashtirishga yordam beradi. O’yin jarayonida namoyon bo’luvchi psixologik xususiyatlar har o’quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o’rnini barqarorlashtiradi, ularda o’z - o’zini boshqarish ko’nikmalarini hosil qiladi. O’yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko’nikmalarning malakalarga aylanishini

ta’minlab qolmay, o’quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi. O’yinni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir: – ta’limiy (didaktik) maqsad; – tarbiyaviy maqsad; – faoliyatni rivojlantirishga yo’naltiruvchi maqsad; – ijtimoiy maqsad. S.Kallaganning ta’qidlashicha, rolli o’yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilar: – Jamoa a’zolari o’rtasida samimiy muhitni qaror toptirish; – o’yin jarayonida qat’iy talablar qo’yilishini inkor etadi; – o’qituvchi va o’quvchilarning erkin, bemalol, o’ziga ishongan holda, hotirjam harakat qilishlariga erishish; – sinfda qulay sharoitning mavjud bo’lishi(shovqin darajasini nazorat qilish, o’quvchilarni chalg’ituvchi harakatlarni sodir etmaslik); – sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o’quvchilarning o’yin faolligiga ta’sir qilmaslik. Ta’lim jarayonidagi o’quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo’lib kelgan va shunday bo’lib qoladi. O’quvchining faolligi, maqsadi yo’naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta’sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O’quvchilarning faolligini ta’minlovchi, o’qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o’yini hisoblanadi. O’yin faoliyatiga qiziqish, o’quvchilarning o’z-o’zini ifoda etish, ro’yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta’minlanadi. O’yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o’zida ham rivojlanish ham o’rganish hisoblanadi. Pedagogik o’yin, o’qitishning aniq qo’yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o’quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo’ladilar Pedagogik o’yinlar o’yin uslubiga ko’ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo’yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitastion, dramalashtirilgan o’yinlar. Oliy, O’yin O’ynash uchun olingan rollar yoki o’yin turi Tanlangan ro llarni ijro etish vosita si bo’lgan o’yinlar harakatlar muayyan predmet (jism)larni o’yinning shartli moddiy vositasi sifatida tanlash o’yin ishtirokchilari o’rtasidagi real munosabatlar mazmuni shartli ravishda yaratilgan syujet (o’yin syujeti) o’rta maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimida foydalanadigan barcha pedagogik o’yinlar o’z mazmuniga ko’ra ishbilarmonlik o’yini hisoblanadi. Chunki ular, odatda ma’lum o’quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo’ladi, turli vaziyatlar immitatsiya qilinadi. Rolli o’yinlar - ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi,

rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Ishbilarmonlik teatri - qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xattiharakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlarini, maqsadlari ko'rsatilgan senariy tuziladi. Bu yerda, ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri hatti-harakatni tanlash, muhim hisoblanadi. Psixodrama va sostiodrama - bu rolli o'yinga, ishbilarmonlik teatriga o'xshagan bo'lib, faqat bu erda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi. Bu bosqich o'z navbatida ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish - o'yin senariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ishbilarmonlik o'yini, senariysi quyidagilardan iborat: o'quv maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi: – guruhni shakllantirish; – mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash; – muammo va vaziyatni vujudga keltirish; – rollarni taqsimlash, – o'yin reglamentini o'rnatish; – materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish; – maslahatlar berish. "Ishbop o'yin" metodi - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarni qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarni imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarni belgilaydi. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruh xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan

natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o’yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

– O’yin shartlari va baholash mezonlari bilan tanishtirish;

– azifalarni taqsimlash;

– vazifalar bo’yicha ishtirokchilar qaror qabul qiladilar;

– o’yinni amalga oshirish

– muhokama qilish; baholash. “Ishbop o’yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo’riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta’lim oluvchilarni o’yinning maqsadi, shartlari natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta’lim oluvchilar o’z rollari bo’yicha tayyorgarlik ko’radilar.

5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o’yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o’yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O’yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tainglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi. Har bir rolni ijro etuvchi o’z vazifasini to’g’ri bajarishi, berilgan vaziyatda o’zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko’rsata olishi kerak.

I. TAYYORLASH BOSQIChI

1.1. O’yinni ishlab chiqish, senariyani ishlab chiqish, yo’riqnoma mazmunini ishlab chiqish, moddiy ta’minotni tayyorlash, guruhni shakllantirish.

1.2. O’yinga kirishish Rollar taqismoti Muammo va maqsadlarni vujuga keltirish shartlar, qoidalar, reglament o’rnatish, maslahatlar berish

II. O’TKAZISH BOSQICHI

2.1. Topshiriq ustida guruh bilan ishlash, manbalar bilan ishlash, trening, miyalar hujumi, o’yin texnikasi bilan ishlash.

2.2. Guruhlararo munozara guruhlarning chiqishi, natijalarni himoya qilish, munozara qoidasi, taqrizchilar (ekspert) ishi

III. TAHLIL BOSQICHI

3.1. O’yindan chiqarish

3.2. Tahlil

3.3. Ishni baholash va o’ziga baho berish
3.4. Xulosa va umumlashtirish
3.5. Tavsiyalar “Ishbop o’yin” metodining afzalliklari:
– ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini, qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
– ta’lim oluvchining boshlang’ich bilimlari tajibalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
– ta’lim oluvchilar o’z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratadi. “Ishbop o’yin” metodining kamchiliklari:
– ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi, vaqt ko’p sarflanadi;
– tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
– ta’lim oluvchining his-hayajoni to’g’ri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.
Didaktik o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda bilimga qiziqishni uyg‘otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo‘ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg‘onadi, bilimga qiziqish uyg‘onadi. Bilimga qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash o‘quvchilarning o‘qishga ijlbiy munosabatlarini tarbiyalaydi o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Bilitshga qiziqish kichik maktab o‘quvchisini izlanishga o‘rgatadi udoim har xil savollarga javobni qidirishga o‘rganadi. O‘quvchining izlanuvchanlik faoliyati unda emotsional ko‘tarinkilik muvaffaqiyatdan quvonish hissini tarbiyalaydi. Bilishga qiziqish faqat jarayon natidasiga ijobiy ta‘sir qilb qolmy balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlanishiga ham ta‘sir ko‘rsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Semina E.A. (2010). Kompetentnostnaya modelь vыpusknika pedagogicheskogo vuza - budushhego uchitelya matematiki. Alьmanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. - № 5 (36). - S. 133-135.
2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Mitina L.M. (2004). Psixologiya truda i professionalьnogo razvitiya uchitelya. M.: Akademiya. - 320 s.
4. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.

26- Mavzu . Amaliy pedagogik faoliyatni tashkil etishga kreativ yondoshuv

Mavzu rejasi:

1.Kreativ yondoshuv asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash.
2.Ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o'quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir, giperbolik va b.) ko'rinishda bo'lishiga erishish).
3.O'quv topshiriqlari va ularning turlari.
4. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv topshiriqlari turlarini belgilash.
5.O'quv jarayonining bosqichi va o'quv materialining mohiyatidan kelib chiqqan holda turli murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanish – pedagog kreativligining muhim jihati.

Tayanch so`z va iboralar:

"Kompetensiya", kompetentlik, kreativ qobiliyat, ma'naviy kompetensiya

1.Kreativ yondoshuv asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash.

XX asrning oxirgi XXI asrning boshida jamiyatimizning mustaqillikka erishganligi bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlatning shakllanishi, milliy istiqlol mafkurasining vujudga kelishi, o'z tilimiz va madaniyatimizdagi tiklanish, axborotlar hajmining keskin ko'payishi, fan va texnika taraqqiyoti bu ta'limini, uning asosiy halqasi bo'lgan darsni mazmunan isloh qilishni taqozo qiluvchi zaruriy omillardandir. Metodik adabiyotlarda "Standart dars","Nostandart dars", "Zamonaviy dars" degan iboralarni ko'proq uchratamiz.

Zamonaviy dars haqida ba'zi olimlarning fikrlarini keldiramiz.

M.A.Daminov “Zamonaviy dars o’quv jarayonini faolashtirishdir” deb hisoblaydi. B.B.Shatalov esa “Zamonaviy dars har bir o’quvchini va hammani o’qitish” deb hisoblaydi. O’zbekistondagi pedagogik olimlar ham o’z taqiqotlari davomida zamonaviy dars muamolariga e’tiborni qaratib “Zamonaviy dars eng avvalo, o’quvchi shaxsini ta’lim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga o’rgatuvchi usullar majmui” deb ko’rsatishadi. O’qituvchi darsda o’zi “So’rab”, o’zi “Gapirib beruvchi” bo’lib qolmasligi kerak, balki o’quvchilarga yangi bilimlarni o’zlashtirishga yaqindan turib ko’maklashuvi lozim. Ta’kidlash joizki, hozirgi zamonaviy darslarda uning ishtirokchilari bo’lmish o’qituvchi va o’quvchilarning vazifalari o’zgargan. O’qituvchi darsda yetakchi, yo’naltiruvchi, ko’mak beruvchi rejissyor, boshqaruvchi vazifasini bajarsa, o’quvchi darsning faol ishtirokchisiga aylanadi, u mustaqil ishlaydi, fikrlay, ijod qiladi. Bahs-munozarada o’z fikr mulohazalarni himoya qiladi, unda o’z-o’zini boshqarish malakasi hosil bo’ladi. Hozirgi kunda ilm-fan taraqqiyotining jadal rivojlanib borishi o’qituvchi, o’quvchilar faoliyatini yanada takomillashtirib, dars mashg’ulotlariga yangicha talqin berib, ta’lim samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda. Shu o’rinda e’tirof etish joizki “Xalq ta’limi” jurnali 2006-yil 1-sonida e’lon qilingan professor R.Jo’rayevning “Zamonaviy dars. U qanday bo’lmog’i lozim” nomli maqolasida ham olib borilgan ilmiy taqiqotlar natijasiga ko’ra, bugungi darslarning yutuq va kamchilliklari batafsil fikr yuritilgan bo’lib darslarni yangicha tashkillashtirish unga yangi tus va shakl berish bilan bog’liq ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi hamda maskur masala shu kunning eng dolzarb muamolaridan biri ekanligi alohida ta’kidlangan. Ko’p pedagogik adabiyotlarda ta’lim samaradorligiga erishishning yuzlab usullari haqida ilmiy tavsiyalar keltirilgan. Ammo ularning kamchiligi shundaki, bu usullarni qo’llash asosan o’qituvchi zimmasiga yuklatilagan. Nostandart darslar va ta’limning interfaol usullarida markaziy o’rinda o’quvchi shaxsi qo’yilgan, bunda o’qituvchi tashkilotchi va mazmunni to’ldiruvchi vazifasini bajaradi, tadqiq qiladi biz nostandart darslar va ta’limning interfaol usullarning ba’zilariga to’xtalib o’tamiz. Ularni to’ldirish, yangilarni o’ylab topish, samaradorligini oshirish albatta barchamizdan izlanishni talab etadi. Ayrim pedagogik texnologiyalarni o’quv mashg’ulotlariga qo’llash jarayonida o’zgartirishga, to’ldirishga, takomillashtirishga to’g’ri keladi. Bunda

o’qituvchining pedagogik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

DIDAKTIK TALABLAR HAQIDA

Endi darsga qo’yilgan didaktik talablarga to’xtalib o’tamiz. Ular quyidagilardan iborat.

1. Darsning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadini aniq belgilash. Darhaqiqat har bir dars aniq maqsadni ko’zlagan holda puxta rejalashtirilishi lozim. Bu jarayonda o’qituvchi darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. 2. Dars mavzusini qiziqarli, ilmiy faktlar bilan boyitish.

3. Dars mavzusining mohiyatini o’quvchilarning mustaqil fikrlab o’zlashtirishiga erishish.

Agar o’quvchi muamoli vaziyatni o’zining hayotiy tajribasiga tayanib yechadigan bo’lsa, u nafaqat o’quvchi tafakkurini kuchaytiradi, balki uning xotirasida mustahkam saqlanib qolishiga ham sabab bo’ladi. Shu jarayonda qatnashadigan psixologik qonuniyatlardan yana biri-tafakkurni emotsional tomonini qamrab oladi. U ham bo’lsa, o’quvchi u muammoli vaziyatni o’zi mustaqil hal qilganda unda qiziqish, ya’ni o’z mehnatining mahsulini ko’rishdan qoniqish tuyg’usi paydo bo’ladi. T.V.Kidyavtsev (T.V.Kidyavtsev), I.Ya.Lerner (I.YA.Lerner), A.M.Matyushkin (A.M.Matyushkin), M.I.Mahmutov singari olimlar muammoli vaziyatni psixologik o’rganish asosida hamda vaziyatdan chiqishga yo’naltirilgan qaror qabul qilish jarayoniga tayanib, ta’limning muammoli “tadqiqot” usulini taklif qilishdi. Mazkur ta’lim metodi o’quvchini “ilk kashfiyotchi”, “tadqiqotchi” qiyofasiga keltiradi va muammoni o’zi hal qilishga undaydi. Bu yerda o’qituvchining roli muammoli vaziyatni rejali maqsadga yo’naltirilgan holda tashkil qilishda yotadi. Shuningdek, u o’quvchilar oldiga masalani qo’yadi va zarur hollarda yordam ko’rsatish bilan ham shug’ullanadi. Bu usul bilimlarni egallash va tafakkurni rivojlantirish uchun yangi qulay usul hisoblanadi. Chunki bu vaziyatda o’quvchi qandaydir darajada qandaydir yangilikni o’zi kashf qiladi. Natijada o’quvchi o’quv jarayonida ijodiy va qiziqish bilan yondashadi. O’tkazilgan tadqiqotlar va pedagogik tajriba-bu ta’lim usulining samarali ekanligini isbotladi. Yana shuni isbotladiki, har qanday o’quvchining tafakkurida minimal darajada bo’lsada, ijodkorlik elementlari mavjud ekan. Psixologiya fanida turli-tuman usullarini shunday yaxlit tizimi ishlab chiqilganki, bu tizim yordamida pedagoglar o’quvchilarning o’quv faoliyatini

muammoli vaziyatlarini mustaqil yechishga oqibatda, ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga erishdilar. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, muammoli ta'lim standart "Ma'lumot uzatish" ta'limi bilan ziddiyatga bormaydi. Aksincha, u qonuniy holda an'anaviy (standart) usulda uzatiladigan materialni o'quvchi aqliy qobiyatini faollashtiruvchi zaruriy vositaga aylantiradi. Shunday bo'lsada, biz quydagi muammoli ta'limni standart ta'lim usuli bilan qiyoslab ko'ramiz. Standart ta'lim uslubida, birinchi navbatda, o'qituvchi "tayyor" bilimlarni uzatadi, o'quvchi esa ularni passiv holda o'zlashtiradi. Shundan so'ng o'zlashtirgan bilim xotirada mustahkamlanadi va nazariy holda amaliy o'quv topshiriqlarini yechish jarayonida qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu usul bilimlarini o'zlashtirish va hayotda qo'llash uslubi deb ataladi. Muammoli ta'lim esa an'anaviy (standart) ta'lim usulida shu bilan farq qiladiki, u o'quvchidan umuman ma'lum masalalarni yechishni talab qilmaydi, bu asosiy talab emas. Farq shundaki, bu usul o'quvchilarga masalalarni yechish jarayoni ularning o'quv faoliyatida qanday o'rin tutishini tushuntirib beradi. Muammoli ta'limda ma'lum bir muammo pedagogik rahbarligida o'quvchi tamonidan mustaqil o'zlashtiriladi.

4. O'quv materialini o'quvchilar tomonidan sodda tarzda qabul qilishga, hayot bilan chambarchas bog'lashiga erishish.

5. Mavzu mazmunida mos ta'lim metodlarini tanlash bu metodlar asosan, qisman izlanish hamda izlanish darajasida bo'lishi zarur. Ta'lim jarayoning doimiy ravishda qat'iy belgilangan va uzoq yillar davomida amal qilib, kelinayotgan vaqt davomida tashkil etilishi, mutaxassislik fani bo'yicha mavzularga har o'quv yilida takror murojaat qilinishi, o'quvchilar ta'limiy faoligi hamisha ham yuqori darajada bo'lavermasligi kabi holatlar hatto o'qituvchining o'zida ham darsda tayyorlashga nisbatan befarqlikni yuzaga keltiradi. Iqtisodiy o'quvchilarni matematik fikrlashlarni taraqqiy ettirishda mustaqil fikrlashga o'rgatishda ularga turli misol, masalalarni turli usullar bilan yechishni o'rgatish yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa, maktab dasturiga kiritilgan mavzular yoki o'quvchilarga tanish bo'lmagan yangi mavzular ularda yana ham katta qiziqish uyg'otadi. Bu esa o'quvchini o'z-o'zining mavzuga katta qiziqish bilan kirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

6. Mavzu mazmuniga mos ta'lim vositalarni tanlash va ulardan

ko’proq o’quvchilarning foydalanishiga erishishi.

7. O’quvchilarning bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga o’rgatib borish. Bugungi kunda Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida amalga oshirilgan ishlarni har tomonlama tahlil qilish va uni yanada takomillashtirish chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ya’ni O’zbekistonda ta’limning zamon talablari darajasida yuqori bosqichga olib chiqishdir. Islohotlarning bosh maqsadi komil inson va malakaviy mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Ma’lumki o’quvchi har tomonlama mukamal shaxs sifatida shakllanishi hamda ma’lum bir yo’nalishda yuqori darajadagi kasbiy bilim malakaga ega bo’lishi ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog’liq. Ta’lim mazmuni o’z navbatida, o’quv reja, o’quv dastur, o’quv predmedlarini o’z ichiga olib ta’limning asosiy tashkiliy shakli dars orqali amalgam oshiriladi. Dars juda tarixiy davr mobaynida bugungi kungacha davom etib kelayotgan ta’lim jarayoni bo’lib, yildan yilga uning mazmuni va metodlari rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. U shunday pedagogik jarayonki, jamiyat taraqqiyoti bilan hammohang ravishda mazmunan boyib takomillashib, har bir darsda o’quvchi nimanidir o’rganadi, qandaydir yangi bilimlarni o’zlashtiradi, hamda uning zaminida xohish-istak, qiziqish, ma’lum maqsad sari intilish paydo bo’ladi. Shuningdek, dars o’quvchini kelajak hayotga tayyorlaydi, ya’ni o’quvchi darsning ishtirokchisi sifatida tarbiyalanadi, ma’naviy rivojlanadi. Zero dars ma’lumdan noma’lumga bilishdan yana bilishga intilish sari doimiy ravishda davomli ta’lim jarayonidir.

Darsning yana bir jihati- u ta’limning boshqa shakllari bo’lgan fan olimpiadalari, tanlovlar, sayohatlar, to’garaklar, turli tematik kechalar va boshqa tadbirlar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

8. O’quvchilarning dars mazmuniga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi, o’z tarixi, milliy urf-odatlari hamda boy madaniyatimiz bilan faxrlanishga o’rgatish

9. Dars mavzusini boshqa o’quv fanlari bilan bog’liqligini ta’minlash.

10. O’quvchilarni yaxlit ilmiy dunyo qarashni shakllantirish.

11. O’quvchilarda dars mavzusini mos ravishda iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatini tarkib taptirish.

12. Darsda davlat ta’lim satandartlariga o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yilgan talablarni to’liq bajarishga

erishish.

Zamonaviy darsni tashkil etish bilan bog'liq bu talablar mazmunidan shunday xulosa qilish mumkinki, maktab amaliyotda mustahkam o'rnashib qolgan standart darslarda ushbu talablarni bajarish imkoniyati yo'q.

DARS JARAYONIDA MATEMATIKANI O'RGANISH BOSQICHLARI

Dars jarayonida o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars jarayonida matematikani o'rganish bosqichlari, uning metodik izchilligi va amaliy ishni qanday boshlash hamda qanday tugatish haqidagi ko'rgazmali materiallaridan foydalanilmog'i lozim. Bulardan tashqari

1.Har bir dars aniq g'oyaviy mafkuraviy tizimga ega bo'lishi, o'qituvchi undan tarbiyaviy, maqsadda foydalanmog'i lozim.

2. Har bir dars ijtimoiy imkoniyatlatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanishi, ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanishi kerak.

3. Mashg'ulotlar o'ziga mos zamonaviy uslub, vosita va texnologiyalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi kerak.

4. Dars uchun ajratilgan soatlardan samaraviy foydalanish nazarda tutilishi lozim.

5. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi, mashg'ulotlarda esa o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

6. Mashg'ulotlar davomida xalqimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan unumli foydalangan holda yurtimizdagi bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan o'quvchilarni boxabar qilish maqsadga muvofiqdir.

Xususan dars davomida keltiriladigan matematik tushunchaga qaysi olim asos solganligi va aynan o'sha olimning matematika fani rivojiga qo'shgan hissasi haqida qisqa, lo'nda ma'lumot berish o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarni orttiradi. Bunday ma'lumotlarni o'qituvchi darsga kirishdan oldin turli adaboyotlardan va internet manbalaridan shakllantirishi mumkin bo'ladi.

2.Ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o'quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir, giperbolik va b.) ko'rinishda bo'lishiga erishish).

EATR – o‘quv fan (modul)lari bo‘yicha tizimlilik, izchillik, o‘zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o‘quv materiallarini to‘liq yoki qisman qamrab olgan holda kompьyuter texnologiyasi yoki internet axborot tarmog‘ida maxsus (alohida) saytda joylashtirilgan elektron nashrlar majmui
EATR ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun talab etiladigan sharoitni yaratadi1 :
1) ta’limiy vazifalarni shakllantirish;
2) o‘quv materiali mazmunini bayon qilish;
3) bilimlarni qabul qilishni tashkil etish;
4) qaytar aloqa;
5) o‘quvchilarning bilish faoliyatini nazorat qilish;
6) o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko‘rish (o‘quvchilarni mustaqil ta’lim olishga, qo‘shimcha o‘quv adabiyotlarini mustaqil o‘qib o‘rganishga yo‘naltirish).

Ta’lim jarayonidagi kreativlik o‘quvchilarda o‘qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, ta’lim oluvchilarga bayon etilayotgan o‘quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo‘lmagan g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlilikni topish kabi vazifalarni berish, kichik kichik guruhlarda ishlashlarini ta’minlash kabi harakatlarda aks etadi. O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning kreativ fikrlashlariga erishish, o‘quv-bilish faoliyatlarida ijodiy mahsulotlarni yaratishlarini ta’minlashga undash, rag‘batlantirish qanday natijalarga olib kelgan bo‘lardi? Xuddi shu holat o‘qituvchilar izlayotgan hodisa bo‘lmasmidi?
2 . Ma’lumki, ta’lim mazmunini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari bir nechta turga ajratiladi. Ular3 :
- matnli bosma o‘quv axboroti;
- vizual bosma o‘quv axboroti;
- matnli elektron o‘quv axboroti;
- vizual elektron o‘quv axboroti;
- ish qog‘ozlarida ifodalanadigan bosma o‘quv axboroti;
- ish qog‘ozlarida ifodalanadigan elektron o‘quv axborotlar.

O‘quv materiallari o‘quvchilarning umumiy va kasbiy bilimlarini boyitish bilan birga ularda dunyoqarashni boyitish, tasavvurni ken gaytirish, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabatni

shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur. SHu sababli pedagoglar o‘quv materiallarini tayyorlashga ijodiy yondashish bilan birga muayyan tamoyillarga rioya etishlari zarur:

● g‘oyaviylik;
● ilmiylik;
● vizuallik;
● tizimlilik;
● o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi;
● o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik;
● o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi;
● amaliy ahamiyatga egalik;
● aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;
● estetik talablarga muvofiqlik

4 . Ushbu tamoyillarga muvofiq tayyorlanadigan o‘quv materiallari mutaxassislik yo‘nalishi va ixtisoslik sohasidan qat’iy nazar barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘la qondira oladi. SHaxsda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O‘quv materiallarini o‘quvchilarga taqdim etishda savolning «Agarda ...?» deb qo‘yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham ob’ektiv, ham sub’ektiv fikrlash ko‘nikmalarini samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Kreativlik o‘quvchilarda «nafaqat yangi g‘oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o‘quv masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko‘nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang‘ich g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo‘lsa ulardan voz kechishni ham o‘z ichiga oladi. Ayni o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta’lim olish, o‘quv fanlari asoslarini o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan o‘quvchilar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha o‘quvchilar bilan jonli, qiziqarli, jo‘shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo‘llaniladi. Qolaversa, kreativ xarakterga ega mashg‘ulotlarni nafaqat san’at, madaniyat sohalari yo‘nalishlarida, shu bilan birga barcha istalgan soha (biznes, iqtisodiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, qurilish, qishloq xo‘jaligi, muhandislik, sanoat va b. sohalar) bo‘yicha ta’lim olayotgan o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ham birdek samarali tashkil etish mumkin. O‘qituvchilar, shuningdek, ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ

yondashishda nafaqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan o‘quvchilarga, balki ko‘proq e’tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo‘lmagan ta’lim oluvchilarga ham birdek e’tiborni qaratishlari zarur

1 . Pedagoglarning o‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko‘rishlari kutilgan ta’limiy natijaning qo‘lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi

2 : – aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi;
– o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi
– o‘quv axborotlarining asoslanganligi;
– o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini – faollashtirish imkoniyatiga egalik;
– o‘quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
– o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va – kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
– zamonaviy ahamiyat kasb etishi; – estetik jihatdan sifatli bo‘lishi;
– noaniq tushuncha va iboralardan holi bo‘lishi;
– aniq natijani kafolatlay olishi;
– turli vaziyatlarda qo‘llay olish imkoniyatiga egalik;
– mavjud bilim, ko‘nikma, malakani mustahkamlashga xizmat qilishi.

O‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o‘quv manbalari (darslik, o‘quv, metodik va o‘quv-metodik qo‘llanma, yo‘riqnoma, tavsiyanoma, lug‘at, entsiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma’lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o‘rinda olingan ma’lumotlarning ishonchliligi muhim. SHu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o‘quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e’tiborni qaratishlari zarur.

Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar o‘quvchilarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Demak, pedagoglarning o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonining

muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o‘quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog‘liq. SHu sababli pedagoglar o‘quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab etiladi. Bunda ular o‘quv materiallarini samarali shakllantirishda g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo‘naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o‘quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlaydi. O‘quv mashg‘ulotlar uchun (ya’ni dars uchun) didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar quyidagi kerativlik mexanizmlarini inobatga olishi zarur (1-jadval). Kreativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik ta’minotni yaratish mexanizmlarini amalga oshirishda quyidagilarni xulosa qilamiz: – o‘quv mashg‘ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o‘quv manbalari (darslik, o‘quv, metodik va o‘quv-metodik qo‘llanma, yo‘riqnoma, tavsiyanoma, lug‘at, entsiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma’lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari;

1-jadval. Darsda o‘quvchilar kreativlik imkoniyatlarini shakllantirish mexanizmi1.

	O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish mexanizmi
O‘quvchilarni	- qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta’minlash
O‘quvchilarga	- kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo‘rquv hissidan xalos bo‘lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko‘nikmalarini boshqa ko‘nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - «qutqarib» qolish emas, balki yo‘l yo‘riq ko‘rsatish.
O‘quvchilarni	- suhbatlar orqali rag‘batlantirish;

	- konstruktiv sharhlar bilan ta’minlash; - yangi ko‘rsatmalar bilan tanishtirib borish
O‘quvchilar	- o‘zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo‘lishlari uchun poydevor bo‘ladigan muhitni yaratish.

- didaktik materiallarni tayyorlashda o‘quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e’tiborni qaratishlarini;

– o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berishi va dars jarayonda «o‘qituvchi sinfda kreativlik muhitini yaratilishini;

– o‘quv dasturlari va o‘quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlar o‘quvchilarning intelektual rivojlanishiga oid savol topshiriqlarni tuzishni.

– didaktik o‘quv materiallarini samarali shakllantirishda g‘oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inobotga olishni;

– o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo‘naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishni o‘quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini.

3.O‘quv topshiriqlari va ularning turlari.

O'qitish amaliyotida uy vazifalarining har xil turlaridan foydalanish bo'yicha boy tajriba to'plangan.

Uyda o'qitishning barcha mashg'ulotlarini uch guruhga bo'lish mumkin: og'zaki, yozma va o'quv va amaliy. Boshlang'ich maktabda:

- og'zaki topshiriqlarga quyidagilar kiradi: darslikdagi qoidalarni o'rganish va mustahkamlash, she'rlarni yodlash, matnni o'qish va o'qilganini qayta aytib berish va boshqalar;

- yozma topshiriqlarga quyidagilar kiradi: yozma mashqlarni bajarish, masalalar yechish, insho va taqdimot yozish va hokazo.

O'qitishda o'quv-amaliy xarakterdagi, kuzatishlar, tajribalar, jismoniy mehnatdan foydalanish, o'lchovlar, maketlarni, mexanizmlarni demontaj qilish va o'rnatish va hokazolarni talab qiladigan vazifalar muhim o'rin tutadi.3-4-sinflarda muammoni joriy etish maqsadga

muvofiqdir va talabalar uchun ochiq bo'lgan tadqiqot vazifalari. Yosh o'quvchilar uchun bu ob-havoni kuzatish kundaliklarini yuritish, turli xil hunarmandchilik va oddiy tajribalarni bajarish, o'simliklarni etishtirish va hk bo'lishi mumkin.Didaktik maqsadlarga ko'ra uy vazifasining quyidagi turlari ajratiladi:

─ yangi materialni idrok etishga tayyorgarlik ko'rish, yangi mavzuni o'rganish (maqollarni, maqollarni, mashhur iboralarni yig'ish; faktlarni tanlash, kuzatishlar qilish; muammolarni tuzish va hal qilish uchun raqamli material to'plash);

─ darsda olingan bilimlarni mustahkamlash, o‘quv-tarbiyaviy ish usullarini amaliy o‘zlashtirishga hissa qo‘shadigan ko‘nikmalarni shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan: she’rlarni yod olish; sahna asarlari; rol bo'yicha o'qiladi; formulalarni, qoidalarni, suvning o'zgarishini, uning bir agregat holatidan ikkinchisiga o'tishini, urug'larning unib chiqishini uyda kuzatishni o'rganish; uy o'simliklariga g'amxo'rlik qilish; uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilish (uy vazifasiga yangi material bo'yicha mashqlarni kiritishdan oldin, ularni darsda mustaqil ishda berish kerak.Bunday topshiriqning bajarilishini kuzatish va uni tekshirish butun sinfning ham, alohida o'quvchilarning ham uy vazifasini bajarishga haqiqiy tayyorligini ko'rishga imkon beradi va shuning uchun agar kerak bo'lsa, uy vazifasi mazmunini yoki unga ko'rsatmalarni tuzatish);

- olingan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, ularni chuqur tushunishga hissa qo'shish: diagrammalar, jadvallar tuzish; rebuslar, krossvordlar, testlar; asarning bosh qahramoniga yoki uning muallifiga xat yozish;

─ sinfda o'rganilayotgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirishga hissa qo'shish (yozuvchi hayotidan qiziqarli faktlarni topish va xabar, tezislar, ijodiy loyihalar, taqdimotlar tayyorlash);

─ tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish, naqshlarni aniqlash kabi mantiqiy operatsiyalarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan; (adabiyot darsida - asar qahramonlarining personajlarini solishtiring);

─ mustaqil mashq qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan; dastur materiali doirasidan tashqariga chiqadigan, lekin talabalarning imkoniyatlariga mos keladigan hajmdagi individual topshiriqlarni bajarish orqali mustaqil fikrlashni

rivojlantirishga hissa qo'shish.
Maktab amaliyotida ularni tashkil qilish uchun uy vazifalarining quyidagi shakllari qo'llaniladi:
farqlangan;
individual;
juftlashgan guruh;
ijodiy;
butun sinf uchun bitta.
Differentsial va individual yondashuv
Differentsial uy vazifasi - bu ham "kuchli" va "zaif" talabalar, shuningdek, nogiron o'quvchilar uchun ishlab chiqilishi mumkin. Uy vazifasini yaxshi bajarishga hissa qo'shadigan barcha parametrlarni hisobga olish, shu jumladan o'quvchilarga tabaqalashtirilgan yondashuvni hisobga olish va har biri uchun bo'lmasa, ma'lum talabalar guruhlari uchun uy vazifasini bajarish uchun eng yaxshi variantni topish muhimdir. Differensiyalash elementlari o'quv jarayonini optimallashtirishga yordam beradi, o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari darajasidagi farqlarni to'liqroq hisobga olishga imkon beradi.
Nogiron bolalar uchun o'quvchilarning kognitiv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirish qiyin. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning eng amaliy yo‘li tabaqalashtirilgan va individual yondashuvdan foydalanishdir. Zamonaviy maktablarda nogiron bolalar uchun uy vazifalariga tabaqalashtirilgan va individual yondashuv keng qo'llaniladi.
Ishni farqlash usullaridan biri tanlov vazifalari bo'lib, o'quvchilar ikkita yoki uchta vazifadan birini bajarishlari mumkin. Bunday tizim bilan maktab amaliyotida kamdan-kam qo'llaniladigan ushbu vazifalardan birini taklif qilish mumkin (axir, agar butun sinf uchun bitta topshiriq berilsa, u har bir o'quvchi uchun bajariladigan bo'lishi kerak). Ammo odatdagi mashqni oldindan tushuntirish kerak. Talaba uy vazifasi bo'yicha va tushuntirish paytida, shuningdek test sinovi paytida savollar berishga haqli. Ishda nima qiyin bo'lishini aniqlash odati mavzuga qiziqish bildiradi.O'qituvchining uy vazifasini o'z-o'zini tushuntirishi batafsil, lekin ortiqcha tafsilotlarsiz amalga oshirilishi kerak. Talabalar topshiriqning mohiyatini va uni bajarish tartibini to'g'ri tushunishlari uchun o'qituvchi bajarilish namunasini ko'rsatishi, ya'ni shunga o'xshash misollarni yoki darslikning tavsiya

etilgan mashqidan birinchi misollarni tahlil qilishi kerak.
Topshiriq berishda talabalarga uni qanday bajarish mumkinligi, ishning ketma-ketligi qanday, qiyinchilik tug’ilganda qanday ma’lumotnomalarga murojaat qilish va ularni qayerdan olish mumkinligi haqida maslahat berish kerak.
Avvalo, o'qituvchi nogiron bolalar bilan ishlashda o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yishi kerak:
1. O`quvchining o`ziga bo`lgan hurmatini oshirish kerak.
2. O`quvchilarning atrofdagi dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirish zarur.
3. O'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish.
Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchining intellektual va psixologik qobiliyatlarini hisobga olgan holda keyingi samarali faoliyat uchun etarlicha ijobiy muhit va munosabatni yaratishi kerak.
Differentsial va individual yondashuvda, uy vazifasini tekshirishda o'qituvchi bajarilgan ishga o'quvchilar sog'lig'i tufayli xato qilishlari mumkinligini tushunishi, noto'g'ri uy vazifasini bajarishda yordam berishi, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishi, uni bajarilgan ish uchun rag'batlantirishi kerak. uyda, "muvaffaqiyatli vaziyat" yarating.
Shaxsiy akademik uy vazifasi, qoida tariqasida, sinfning alohida o'quvchilariga beriladi. Bunday holda, o'qituvchiga ma'lum bir o'quvchining o'zlashtirilgan bilim darajasini tekshirish oson.Bunday ishlarni kartochkalarda yoki bosma daftarlardan foydalanish mumkin.
Shunday qilib, differentsial yondashuv bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi, uning asosiy maqsadi nogiron o'quvchining individual qobiliyatlarini, o'quvchining individual xususiyatlarini ko'rish va uni saqlab qolish qobiliyatini hisobga olgan holda uy vazifasini tashkil etishdir. talabaga o'z kuchiga ishonishga yordam berish, uning maksimal aqliy rivojlanishini ta'minlash , shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish. Aynan shu ikki yondashuv uy vazifasini samaraliroq qiladi.
Juftlik yoki guruhli uy vazifasi
Juftlik yoki guruhli uy vazifasini bajarayotganda, bir juftlik yoki talabalar guruhi umumiy sinf topshirig'ining bir qismi bo'lgan biron bir vazifani bajaradilar. Masalan, “Materiklar” (SLIDE) mavzusini atrofdagi dunyo bo'yicha o'rganishda maktab o'quvchilariga ma'lum

bir qit'aning iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida materiallar to'plash taklif etiladi. Talabalar guruhda topshiriqni bajaradilar, devor gazetalari, kitoblar, albomlar (SLIDE) shaklida ijodiy loyihalar yaratadilar. Bu holda uy vazifasi talabalarni kelgusi darsda bajariladigan ishlarga tayyorlaydi yoki aksincha, mavzu bo'yicha dasturning o'rganilgan bo'limlarini o'rganishni umumlashtiradi. Bunday vazifalarni oldindan belgilash yaxshiroqdir.Bolalarning sa'y-harakatlariga qo'shilish o'zining afzalliklariga ega:

Hazm qilinadigan materialning hajmi va uni tushunish chuqurligi ortadi

Bolalarning ijobiy dinamikasi va kognitiv faolligi va ijodiy mustaqilligi

Sinf ahilligi, o'zaro hurmat, o'zining va boshqa odamlarning imkoniyatlarini munosib baholash qobiliyati oshadi.

Talabalar eng muhim ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar: xushmuomalalik, mas'uliyat, muloqot uchun insonparvarlik motivlari

Bolalar darslardan ko'proq zavq olishadi, maktabda o'zlarini qulay his qilishadi, intizomiy qiyinchiliklar kamayadi

Hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, buning natijasida bola rivojlanadi:

- aks ettirish qobiliyati;
- xulq-atvorda o'z-o'zini tartibga solish;
- tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- samarali o'zaro ta'lim ko'nikmalari;
- birgalikda taqsimlangan faoliyat ko'nikmalarini egallash
- o'rganish uchun kognitiv motivatsiya darajasini oshirish

Bunday qo'shma tadbirlarda minimal ishtirok etgan taqdirda ham, bola paydo bo'lgan muammolarni, maqsad va vazifalarni hal qilishda hammuallif sifatida his qiladi, bu esa o'z kuchiga ishonchni uyg'otadi. Shunday qilib, guruh uy vazifalarini bajarishda bolalarni ta'lim o'zaro ta'sirining faol shakllariga qo'shib, biz uning ishtirokchilarining bilim faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratamiz, bu esa o'rganish qobiliyatini rivojlantirish uchun zarurdir. Hamkorlik qobiliyatidan o'rganish qobiliyatiga qadar ijodiy uy vazifasi

Hozirgi vaqtda uyda mustaqil ish uchun yangi turdagi vazifalar mavjud bo'lib, ular nafaqat reproduktiv faoliyatni, balki yechimni mustaqil izlashni, vazifani bajarish uchun turli xil variantlarni ko'rib chiqishni, ya'ni. ijodiy faoliyat.

Ijodiy uy vazifasi ham ertasi kuni emas, balki bir necha kun oldin berilishi kerak. Bola turli adabiyotlar, turli manbalar bilan ishlashi kerakligi sababli, topilgan materialni qayta ishlash kerak (masalan, "Salavat shahri yodgorliklari" mavzusida). Ijodiy vazifalarga shuningdek: chizmalar, hunarmandchilik, xabarlar, insholar, g'ayrioddiy mavzularda insholar yozish, she'rlar, topishmoqlar, ertaklar yozish, ijodiy loyihalar (guruh va individual) va boshqalar kiradi. Agar bolalar asarni sahnalashtirish uchun juftlik yoki guruhlarda ishlayotgan bo'lsa, ularga kostyumlar tikish va mashq qilish uchun vaqt kerak. Mustaqil ijodiy faoliyat mustaqil ishning eng samarali turi hisoblanadi.

Bittasi butun sinf uchun

Butun sinf uchun bittasi uy vazifasining eng keng tarqalgan turidir. Bunday topshiriqlardan doimiy foydalanish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga olib kelmaydi, ammo ularni istisno qilmaslik kerak, chunki ularni amalga oshirish jarayonida talabalarda turli xil ko'nikmalar shakllanadi, ko'nikmalar shakllanadi.

Shunday qilib, o'qituvchining uy vazifasiga to'g'ri yondashishi bilan u o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.O'qituvchi uchun bir nechta oddiy qoidalarga rioya qilish juda muhim: darsdan chaqiruv oldidan uy vazifasi haqida hisobot berish, talabalarga uy vazifasini bajarishga ko'rsatma berish, talabalarning moyilligi va istaklarini hisobga olgan holda tez-tez tabaqalashtirilgan va individual topshiriqlarni berish, nafaqat tekshirish. ishning mavjudligi, balki uni bajarish sifati, talabalar bilan birgalikda xatolar va muvaffaqiyatli echimlarni tahlil qilish. Bundan tashqari, uy vazifasi darsning ajralmas qismi va uning uyg'un davomi ekanligini unutmaslik kerak. Uy vazifasini o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazorat qilish, yozma ish yoki o‘yin shaklida tekshirish, mustaqil bajarilgan topshiriqlar uchun mukofot tizimini yaratish darsni ancha mazmunli, samarali va qiziqarli o‘tkazishga yordam beradi.

5. Uy vazifasini tekshirish usullari.

Talabalarning uy vazifasini tekshirish har qanday darsning muhim va ajralmas qismidir. Agar tekshirish tizimi o'rnatilmagan bo'lsa, talabaning mustaqil uy vazifasining roli amalda qadrsizlanadi.

Uy vazifangizni quyidagi an'anaviy usullar bilan tekshirishingiz mumkin:

bir yoki bir necha talabani doskaga chaqirib, mavzu yuzasidan so‘roq qilish;
sinfda frontal so'rov o'tkazish (joydan so'rov);
shunga o'xshash vazifani bajarish;
individual kartalardan foydalanish;
yozma topshiriqni tasodifiy tekshirishni o'tkazish;
yozma topshiriqni o'z-o'zini tekshirish yoki o'zaro tekshirish.
Doskaga chiqish va o'rganilgan qoidani aytib berish yoki yechilgan misolni daftardan qayta yozish - ko'plab talabalar uchun bunday tekshirish juda zerikarli vazifa bo'lib tuyuladi. Ko'pincha, shu sababli, talaba uyda mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rish istagini yo'qotadi.
Og'zaki so'rovni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar (SLIDE)
Talabalarni so'roq qilish orqali uy vazifasini tekshirish an'anaviy va eng mashhur usuldir. Ko'pincha so'rovning asosiy vazifasi - o'quvchini qo'llab-quvvatlash, yordam berish, o'rgatish haqida unutib, bilimdagi kamchiliklar yoki kamchiliklarni topish uchun ishlatiladi. Bu erda og'zaki so'rovning qiziqarli turlari mavjud.
so'rovnoma - svetofor
Bizning holatlarimizda, bir tomonida qizil, ikkinchisida yashil rangli uzun karton chiziq svetofor vazifasini bajaradi. O'qituvchiga qaragan yashil tomon talabaning savolga javob berishga tayyorligini bildiradi ("Men bilaman!"), Qizil tomon esa talabaning javob berishga tayyor emasligini bildiradi ("Men bilmayman!"). Agar talaba asosiy darajadagi savollarga qizil tomonni ko'rsatsa, bu o'qituvchi uchun signaldir. Bu talabaning o'zi o'rnatgan ikkilikdir. Shuningdek, siz ijodiy savollarni berishingiz mumkin, qizil signal esa "Men javob berishni xohlamayman!", yashil esa "Men javob berishni xohlayman!" degan ma'noni anglatadi.
Birdamlik so'rovi
Agar doskadagi talaba topshiriqni bajara olmasa, sinfdan yordam so'rash kerak. Kim yordam berishni xohlaydi? Yordam berishni istaganlar orasidan o'qituvchi eng kuchli talabani tanlaydi va uni do'stiga shivirlab maslahat berishga taklif qiladi. Shu bilan bir qatorda, talabaning o'zi yordami kerak bo'lganini tanlaydi.
O'zaro so'roq
O'qituvchi eng ko'p tayyorlangan uchta o'quvchiga "5", "4" yoki "3" ga tayyorlanganlar so'rovini o'tkazishni buyuradi. Uchinchi guruhga kirgan va undagi savollarga muvaffaqiyatli javob bergan talaba yana

o‘zini sinab ko‘rishi mumkin.Dasturlashtiriladigan so'rov
Bunday holda, talaba o'qituvchi tomonidan taklif qilingan javoblardan to'g'ri javobni tanlashi kerak. Og'zaki so'rovda bu ish shakli kamdan-kam qo'llaniladi. Va mutlaqo behuda. Darhaqiqat, talabalarning turli fikrlari to'qnashuvida tushunmovchilik "eriydi". O'qituvchi bolalarga bahslashish imkoniyatini berish uchun noto'g'ri javobni himoya qilishi mumkin.
Ovozsiz so'rov
O'qituvchi bir yoki bir nechta o'quvchilar bilan jimgina gaplashadi va butun sinf boshqa vazifani bajaradi.
So'rovlar zanjiri
Ushbu savol berish usulidan batafsil va mantiqiy izchil javob olish uchun foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, bir talaba javobni boshlaydi, o'qituvchi uni har qanday joyda imo-ishora bilan to'xtatadi va boshqa o'quvchini fikrni davom ettirishga taklif qiladi.
"Himoya" varag'i
Tayyor bo'lmagan talabalar uchun yaratilgan va har doim bir joyda. Darsga tayyor bo'lmagan o'quvchi himoya varag'iga o'z ismini yozadi va bugun undan so'ralmasligiga ishonch hosil qilishi mumkin. O'qituvchining vazifasi vaziyatni nazorat ostida ushlab turishdir.
An'anaviy ta'lim turi bilan o'quv motivatsiyasi va o'quvchilarning samarali faoliyatini tashkil etish ko'proq Materialni eng kam tashqi (ritorik) va sifat jihatidan o'zlashtirish - o'quvchilar tomonidan ma'lum miqdordagi tayyor bilimlarni yodlash va takrorlash. Biroq, bu etarli emas. Bugungi kunga kelib, sertifikatlash mamlakatimizda maktab bitiruvchilari yagona tizimi orqali amalga oshiriladi davlat imtihoni (USE), bu ham asosiy darajadagi, ham murakkablikning ortib borayotgan va yuqori darajadagi test topshiriqlari turlarini o'z ichiga oladi.Bu vazifalar faqat bajarilishi mumkin ijodiy, tanqidiy, mantiqiy bitiruv fikrlash, integral bilim va ko'nikmalar tizimiga ega bo'lish, shuningdek, ushbu bilim tizimini amaliyotda qo'llashga tayyor; ko'pincha yangi vaziyatlarda.

Shubhasiz, faqat kasbiy ijodkorlikka ega, ijodiy rivojlangan shaxs bo‘lgan o‘qituvchigina o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantira oladi. Bunday o'qituvchi nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak mavzu, balki shakllangan kasbiy tizimga ega bo'lish ijodiy qobiliyatlar. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ushbu tendentsiyalari bizni bakalavrlarning o'qituvchining kasbiy faoliyatida ijodkorlikka tayyorligini shakllantirish muammosiga aylantiradi. Har xil pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga

tayyorgarligini shakllantirish jihatlari olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarning asosiy qismi bunda Yo'nalish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ijodiy faoliyatiga tayyorligini shakllantirish bilan bog'liq. Boshqa tadqiqotchilar mutaxassisning shakllanishini ko'rib chiqadilar o'qituvchining faqat darsdan tashqaridagi ijodiy faoliyati ish. Shunday qilib, bakalavrlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish muammosi bo'yicha adabiyotlarni, shuningdek, oliy ta'limning o'quv amaliyotini tahlil qilish shuni ta'kidlash imkonini beradi:

ijodiy kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha ta'lim bakalavrining faoliyati etarli darajada ishlamaydi, va bu muammoli sohada tadqiqotni talab qiladigan vazifalar mavjud.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotlar kasbiy pedagogikada ijodkorlik muammolari faoliyati, uning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi aniqlandi nostandart vazifalarni hal qilish bo'yicha ko'nikmalar to'plami muammoli ta’lim jarayonida shakllangan. Binobarin, jarayonida bo`lajak o`qituvchining kasbiy ijodiy mahoratini shakllantirish metodlari tizimini ishlab chiqish zarur universitetda o'qish, chunki aynan shu bosqichda uning kelajakdagi professional ijodga tayyorligi tadbirlar.Darhaqiqat, barcha pedagogik faoliyat reproduktiv va ijodiy komponentlarning kombinatsiyasi, chunki boshida har doim bilim va ko'nikmalarni tanish muhitda qo'llash mavjud.

Keyin, bilim va ko'nikmalarning ma'lum darajasiga erishgandan so'ng, ular yangi notanish vaziyatga o'tkaziladi, bu esa allaqachon professional ijodiy qobiliyatlarni qo'llash va o'tish professional ijodiy faoliyat. Boshqacha qilib aytganda, reproduktiv faoliyat ma'lum bir boshlang'ich rolini o'ynaydi bakalavrlarning kelajakdagi ijodiy faoliyati uchun platformalar.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ko'payish bilim, ko'nikma to'plashning majburiy boshlang'ich bosqichi sifatida qabul qilingan taqdirdagina ijodiy bo'ladi va tajriba. Shuning uchun bakalavrlarni tayyorlashda ularning kasbiy ijodiy faoliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ijodiy faoliyat allaqachon shakllana boshlaydi o'quvchilar qobiliyatni o'zlashtirgan maktab yillari har xil turdagi ijodiy vazifalarni bajarish orqali ijodiy fikrlash;

tezis yozish, hisobotlar tayyorlash, tashkil etish kabi maktabda

o‘zini o‘zi boshqarish, fan to‘garaklaridagi mashg‘ulotlar, seksiyalar maktabda va boshqalar.

Oliy ta'limning vazifasi talabaning ushbu ijodiy faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdir. Aniq kelajak kasbi doirasida, ya'ni kasbiy ijodiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirish.

Tahlil natijalariga ko'ra, pedagogika va psixologiyada mavjud Oliy ta'lim muassasalarida muammoli ta'lim kontekstida "ijodiy faoliyat" tushunchasining kasbiy ijodiy faoliyat sifatidagi ta'riflari.

O'qituvchi deganda uning pedagogik harakatlarining yig'indisi tushuniladi nazariy bilimlar asosi, amaliy ko'nikmalar va ustunlik ijodiy o'z-o'ziga ishonishga qaratilgan qadriyatlar tizimi professional muammolarni hal qilish.

Ijodiy shaxsning rivojlanishiga muammoli ta'lim katta yordam beradi, chunki u bevosita professional ijodiy fikrlashni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Shaxslararo muloqot va professional ijodiy fan materialini o'zlashtirish ko'nikmalari. Muammoli trening talabalarning ijodiy ishtiroki uchun imkoniyat yaratadi yangi bilimlarni olish jarayoni, kognitiv shakllanishi mustaqillik va ijodiy fikrlash, ularning yuksak darajasi motivatsiya va muvaffaqiyatli o'rganish.Muammoli ta’limning maqsadi, an’anaviy ta’limdan farqli o’laroq, faqat o’zlashtirish emas o'quv dasturlari, o'quv jarayonining natijalariga erishish, lekin va bu natijalarni olish metodikasi talabaning bilim mustaqilligini rivojlantirishga olib keladi, uning ijodiy qobiliyatlarini faollashtiradi. O'rganish muammosi oliy ta’lim muassasalari tashkil etadi o'qituvchi va talabalarni kasbiy ijodiy jarayonda o'z ichiga olgan samarali fikrlash nuqtai nazaridan ta'lim faoliyati.

2.O‘qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarishi.

Kommunikativ kompetensiyaning zamonaviy jamiyatda, kundalik hayotda, kasbiy faoliyatda o„rni juda muhim. Uning sharofati bilan olingan ma‟lumotlarni muntazam to„plash, tahlil qilish va tartibga solish amalga oshirilmoqda. Bu ma’lumotlarni sifatli uzatish uchun muloqotning verbal va noverbal usullaridan foydalaniladi. Biroq samarali kommunikatsiya, har holda kishilarning shaxslararo muloqotda bir-birlarini tushunishga qodirligini nazarda tutishi kerak. SHu bilan birga insonning nafaqat shaxs, shuningdek, faoliyatning sub‟ekti sifatida to„laqonli shakllanishi uchun kommunikatsiyaning ahamiyati haqida, tadqiqotchi L.P.Grimak

shunday yozadi: “insonning inson bo„lishining yana bir sababi shundaki, u o„ziga o„xshaganlar bilan faol muloqotda bo„lgan..., tug„ilishining ilk kunlaridan boshlab insonlar bilan doimiy muloqotda bo„lish – shaxsning to„laqonli rivojlanishida amalga oshirilishi kerak bo„lgan shart..., muloqot somatik va ruhiy muvozanatni saqlashga yordam beradi, uchraydigan to„qnashuv va nizolarni yumshatadi, stress holatidan chiqaradi, ijtimoiy hayotdagi o„rnini, nufuzini oshiradi”.1 “Kommunikatsiya” va “muloqot” tushunchalarini ajratish shu darajada qiyinki, tadqiqotchi V.M.Kurbatov bu haqda mulohaza yuritib, o„zining quyidagi ikki ta‟rifini taklif qiladi: “Kommunikatsiya – muloqot akti, ikki va undan ortiq individlar aloqasi, bitta inson tomonidan boshqasiga ma‟lumotni etkazish. Torroq ma‟noda– yuboruvchidan oluvchiga (kommunikatordan retsipientga) ma‟lumot uzatish jarayoni”, sanaladi..2 “Muloqot” esa – insonlar orasidagi o„zaro aloqa va hamkorlik jarayoni bo„lib, unda faoliyat, ma‟lumot, his-tuyg„u, ko„nikma, malaka, mehnatning natijasi bilan o„zaro almashish sodir bo„ladi”.3 Bugungi kunda tadqiqotchilar har bir shaxs butun umri davomida deyarli har kuni bajaradigan qator ijtimoiy rollarga ham e‟tibor qaratmoqdalar. Ijtimoiy rollar mutloqo bir-birlari bilan bog„lanmagan bo„lib, ma‟lum ketma-ketlikda amalga oshirilishi ham shart emas. SHunga qaramay ular bir vaqtning o„zida hatto bir kommunikativ-maishiy vaziyatda ham kuzatilishi mumkin. Asosiy rollar orasida “barcha uchun rol” yoki namoyish qilinadigan xulq-atvor ajralib turadi; “guruh uchun rol” jumladan, kasbiy va avvalgi har ikkisidan keskin farqlanuvchi “o„zi uchun rol” 4 kabilar. Bo„lajak o„qituvchining kommunikativ kompetentliligining shakllanish jarayoni ta‟lim mazmuni orqali amalga oshirilishi mumkin va u quyidagilarni qamrab oladi: - o„quv fanlarining alohida ro„yxati; - talabalarning o„quv fanlarini o„zlashtirish jarayonida shakllanuvchi kasbiy (professional) kompetensiyalari; - talabaning ijtimoiy-madaniy hayotidagi faol hayotiy o„rni. Bularning barchasi o„ziga xos majmuani ifodalab, ularning vositasida bo„lajak o„qituvchi shaxsi yuqori darajada shakllanadi va rivojlanadiki, bunda o„zining keyingi rivojlanishi va kamolotga etkazish usullarini egallashga imkoni bo„ladi va bu bo„lajak o„qituvchini “inson – jamiyat - olam” tizimida professional sub‟ekt sifatida yanada samarali ishlashini ta‟minlaydi. Ma‟lumki, o„qituvchining kasbiy mahorati uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati vositasida ta‟minlanishi kerak. Ushbu faoliyat esa o„z

o„rnida, ma‟lum qobiliyatlarsiz, shaxsning kommunikativ sifatlarisiz bo„lmaydi, chunki ular ham faoliyatning o„ziga, ham qaror qabul qilishdagi ijtimoiy yondashuv va muhitga bog’liq. YUqorida ko„rsatib o„tilgankommunikativ qobiliyatlar esa aynan kasbiy qobiliyatlar tizimida mavjud va bo„lajak o„qituvchiningkommunikativ kompetentliligini shakllantirishda etarli darajada muhim ahamiyatga ega bo„ladi, bunda ular hatto pedagogning kasbiy faoliyati asosi ham bo„lishi mumkin. “Kommunikativ qobiliyatlar individ faoliyatining muvaffaqiyatli bo„lishini ta‟minlovchi xususiyatlar yoki fazilatlar sifatida yaqqol ko„rinishi mumkin, ya‟ni bir insonni boshqasidan ajratib turuvchi va muvaffaqiyatli faoliyatda ko„rinadigan individual sifatlar” 5 shular jumlasidan. SHaxsning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni “kasbiy faoliyatni rivojlantirishga asos bo„luvchi kommunikativ mahorat orqali takomillashtirish kerak. Kommunikativ mahoratni tartibsiz ravishda rivojlanishi ko„pincha fe‟latvorni avtoritar uslubiga, tez-tez konfliktli vaziyatlarning paydo bo„lishiga, pedagog va ta‟lim olayotganlar munosabatlarida keskinliklar kelib chiqishiga, o„zlashtirish va o„qish istagining pasayishiga, ruhiy shikastlanishga va axloqiyma‟naviy tarbiyada o„rnini qoplab bo„lmaydigan yo„qotishlarga, aksar hollarda esa o„quvchilarning asotsial(ijtimoiy loqaydlik)xatti-harakatlarigaolib keladi”. Kommunikativ kompetentlilikni shaxsga oid murakkab tavsifnoma sifatida ham tushunish mumkin, u kommunikativ kompetensiyalarni, ruhiy-pedagogik kompetensiyalarni, shaxsning boshqa insonlar bilan muloqotida ko„rinadigan ruhiy holatlarini qamrab oladi – bularning barchasi insonning kommunikativ xulqatvorida namoyon bo„ladi. Aynan kommunikativ xulq-atvor muloqot uchun zarur bo„lgan alohida ruhiypedagogik kompetensiyalarni qamrab oladi. Lekin shunga qaramay, bu erda yetakchi o’rin umuman olganda pedagogda yo„nalishni aniqlash va asoslash uchun javob beruvchiuning muloqot qilishga ehtiyojini anglatuvchi kommunikativ qadriyatlarga tegishli bo„ladi. SHuningdek, kommunikativ kompetentlilikka ma’lum vaziyatlarda kommunikativ harakatlarni sifatli va foydali tashkil qilish uchun zarur bo’lgan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda shaxsning ichki imkoniyatlarining alohida tizimi sifatida ham qaraladi.

3.Pedagogik muloqotni tashkil etish yo‘nalishlari.

Kommunikativ kompetentlilikni o„qituvchining kasbiy faoliyatida alohida tutgan o’rnini o’rganish, kommunikativ

kompetentlilik kishilar o’rtasidagi muloqotda ko’pvazifaviy shart-sharoit sifatida ham ko„rinishi va bu orqali tarbiyaviy, ta’limiy hamda dunyoqarashga oid vazifalarni bajarishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. O’sib kelayotgan avlod uchun kerakli kommunikativ tajribani o’zlashtirish nafaqat boshqa insonlar bilan kommunikativ bog’lanish jarayonlarida sodir bo’ladi, balki har bir inson o’zi uchun kerakli bo’lgan kommunikativ vaziyatlar xarakteri, shaxslararo o’zaro ta’sir muammolari va ularni xal qilishning samarali usullari haqidagi ma’lumotolish uchun zarur bo„lgan vositalar: adabiyot, publitsistika, ommaviy axborot vositalari, kino va teatrga hamalohida e‟tibor berish lozim. SHu sababli har bir insonga xos bo’lgan integratsion kommunikativ kompetentlilikka ham e’tibor qaratish zarur. Kommunikativ kompetentlilikka murojaat qilar ekanmiz, ta’kidlash joizki, u o’z rivojlanishida qandaydir dinamik ta’lim sifatida ikki bosqichdan o’tadi: yuqorida aytib o’tilgan, shaxs rivojlanishining ma’lum bosqichidan birga mavjud bo„luvchi, shuningdek, darajadan darajaga rivojlana oladigan kasbiy va umumiy bosqichlar. Bu kommunikatsiya “tilini” tartibsiz, stixiyali o’zlashtirish ta’lim olish vositasida sodir bo’ladi. Gap kasb haqida borganda, bu jarayon maxsus tashkil etilsa va ma’lum shartlar bajarilsagina, samaralinatijaga erishilishini ta’kidlash joiz. Kommunikatsiyaning mazmuni va teranligi, sheriklarning bilim darajasi, muloqot mavzusidan xabardorligiga bog’liq bo„lib, hissiy-psixologik o’z-o’zini tartibga solish layoqatinio’z ichiga oladi.U “sharoitning o’zgarishiga keskin, faol muloqot bildirishni bilish, sheriklarning hissiyotlar bilan bog’liq kayfiyatlaridagi o’zgarishlarni e’tiborga olib muloqotni qayta o’rnatish” bilan ifodalanadi. Ma’lumki, oliy o’quv yurtining birinchi navbatdagi vazifasi bo’lajak o’qituvchini shaxsga oid-insoniy xislatlarini rivojlantirish hisoblanadi, bu ayniqsa, ta’lim va tarbiya faoliyatining kommunikativ aspektlarida keng namoyon bo„lishi mumkin. SHunday qilib, kommunikativ kompetentlilik muhim ahamiyatli tavsiflardan biri bo„lib, ushbu kompetentlilikning shakllanishi esa bo’lajak o’qituvchi shaxsini talablarga mos ravishda shakllanishi va rivojlanishining alohida vazifasi sanaladi.

Kompetensiyalarni batafsil tekshirib, muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun zarur bo’lgan integratsion kompetensiyalarni ajratib ko’rsatish mumkin.

Bu kompetensiyalar:

- nutqiy;
- muloqotga to„g„ri kirishish;
- muloqotni qo„llab-quvvatlab turish;
- muloqotda o„z strategik yo„nalishiga ega bo„lish;
- muloqot vaziyatini hisobga olish;
- muloqot natijasini prognoz qilish;
- muloqotdagi sherigining fikrini bir martada tushunish;
- suhbatdoshdan qayta so„zlashni iltimos qilish;
- kommunikatsiyadagi tashabbusni qo'lga olish;
- kutilgan natijaga undash;
- tasdiqlash, shubha qilish, ajablanish, iltimosni izhor qilish;
- ifodali, dona-dona so'zlash (diksiya, ton, sur'at, mantiqiy urg'u, ohang, imoishoralar, mimika va h.k.);
- o'z fikrini izchil va ravon bayon qilish;
- ilgari o'qilgan, ko'rilgan va eshitganlarni hikoya qilib berish.

Bunga nutq etiketi (odob-axloq qoidalari) sohasidagi kompetensiyalar, muloqotning turli shakllarida uyushtirilgan muomala qilish kompetensiyalari:

intervyu, faoliyat natijalarini muhokama qilish, bahs-munozaralar, ma'ruza hisobot, nutqlarni;

turli darajalarda muomala qilish kompetensiyalarini: 3-5 kishilik guruhlar, ko'p sonli jamoalarni;

yozma shakldagi kommunikatsiyalar uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar(xat, ma'lumotnoma, maqola, rezyume, internet orqali muloqot olib borish va h.k.)ni qo'shish mumkin.

SHunday qilib, kommunikativ kompetentlilikning yuqori darajasi shaxslararo muloqotlarning jadallashgan sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi kasbiy faoliyatining eng muhim jihatiinsonlar bilan ishlash kerak. Biroq kommunikativ muloqotning barcha shakllarini yuqori darajada egallash va mos ravishda o'zini o'rab turgan insonlar bilan ishni to'g'ri tashkil qilish uchun pedagog, ayniqsa, topqirlik, hozirjavoblik, uddaburonlik, o'ziga bo'lgan ishonch, notiqlik qobiliyatini egallagan bo'lishi kerak. SHuningdek, improvizatsiya qilishga qodir bo'lishi, barcha zamonaviy informatsion-kommunikatsion texnologiyalardan foydalana bilishi, ayniqsa, rasmiy (xizmat) hujjatlarni tuzish, yuritish, rasmiylashtirishni a'lo darajada va savodli egallagan bo'lishi kerak. Pedagog shaxsining

kommunikativ kompetentliligi o’z mohiyatiga ko’ra shakllanish va yanada rivojlanish jarayoni asosini shaxslararo muloqotda to’plagan katta tajriba va mos ravishdagi hamkorlik tashkil qiladi. Turli xil ilmiy-pedagogik adabiyotlarning (SH.A.Abdullaeva, F.S.Ismoilova, A.N.Leontev, A.V.Xutorskoy, M.T.Axmedova, N.SH.Turdiev) mufassal tahlili bizga bo„lajak o’qituvchi shaxsi kommunikativ kompetensiyasining shakllanish va rivojlanish jarayoni samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Uning uchta yakuniy darajasi mavjud bo’lib, hamdabilim olishga oid quyidagi mezonlar asosida ta‟minlanadi:

- talabalar motivatsiyasini oshirish;
- talabalar ijodiy faolligini oshirish;
- ta‟lim jarayoni mazmunini sifatli boyitish

G.G.Chanishevaning fikricha, “kommunikativ ta’sirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi to’g’ridan-to’g’ri o’qituvchining muloqotning asosiy uslublari va modellarini bilishi hamda ularni amaliyotda qo’llay olishiga bog’liq bo’ladi, chunki ular muloqot sub’ektlariga psixologik ta‟sir ko’rsatadi. Muloqot uslubi insonning o’zaro bog’lanishining har qanday sharoitlarida namoyon bo’luvchi kommunikativ xulq-atvori, muomalasining individual barqaror shakli sifatida belgilanadi”. SHuningdek, uning fikricha, to’g’ri tashkil qilingan kommunikativ o’zaro ta’sir quyidagi qoidalarga tayanadi, ular uning tashkilotchilari tomonidan o’zlashtirilishi va keyinchalik boshqa ishtirokchilarga uzatilishi kerak:

- berilgan savol javobini shakllantirish uchun pauza bilan bir vaqtda bo’lishi kerak;
- talaba tomonidan muhokama qilinayotgan muammoga bildirilgan nuqtai nazar yoki o’z fikrini aytishi o’qituvchi tomonidan rag’batlantirilishi, taqdirlanishi kerak;
- har qanday rad qilish, belgilangan norma, lekin u asosli bo’lishi lozim;
- kommunikativ makon muloqotning barcha ishtirokchilariga tegishli;
- dialogik muloqot bevosita (“ko’z ko’zga”) formulasi bo’yicha amalga oshiriladi;
- o’qituvchining burchi – muloqot ishtirokchilari faolligini asoslash va rag’batlantirish”.

Ta’kidlash joizki, kommunikativ kompetentlilikni

rivojlantirishdagi kasbiy yo’nalganlik N.Muslimov, N.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.Turaevlarning “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” nomli o’quv qo’llanmasi S.Vasileyskiyning “Oliy maktabda ma‟ruzaviy o’qitish” nomli ilmiy tadqiqot ishida aks ettirilgan, ularda o’qituvchining yaxlit holga keltirilgan ilmiy, pedagogik va ijtimoiy-siyosiy guruhlari va ularning kompetentlik sifati ajratib ko’rsatiladi. Ular bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentliligini shakllantirish imkonini beradi. O’qituvchining olim sifatidagi ilmiy jihatlarini tavsiflaydi, fanni tanqidiy o,,qitish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi.

Bunda o’qituvchining kommunikativ kompetentliligini rivojlantirishning yuqori darajasi quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ta’lim jarayonining ijobiy yo’nalishga egaligi va manipulyasiya hamda e’tiborsizlik reaksiyasining mavjud emasligi,shuningdek, o’zaro muloqotlarda dialogik shakllarning(boshqa insonga muloqotda unga qadriyat sifatda qarash nazarda tutiladi) va ta’limga yordam berishning umumiy strategiyasi ustunlik qilishida;

- o’qituvchi tomonidan pedagogik muloqotda suhbatdoshidan yoki butun auditoriyadan umumiy qanoatlanganligi o’zining huquqiy holat (status)iga o’zo’ziga baho berishning yuqori darajasida;

- foydalanayotgan kommunikativ usullarning variantliligida va o,,qitishning tanlangan uslubida aynan bir xilligida, shuningdek, pedagogik muloqotning butun vaziyatida.

Test, shaxsni guruh bo,,lib baholash, ekspert baholashi, sotsiometriya kabi ko’plab metodlarni qo’llash, bizga nafaqat umumiy darajani, dinamikani ham,shu bilan birga bo’lajak o’qituvchilar shaxsining kommunikativ kompetentliligini oliy o’quv yurtida o,,qish jarayonida rivojlanish omillarini aniqlash imkonini beradi. Talabalarda shaxsning kommunikativ kompetentliligini butun integratsiyalangan qurilish dinamikasining yuzaga kelishi va rivojlanishini tavsiflovchi ruhiypedagogik mayl, asta-sekinlik bilan ijtimoiy-ruhiy kompetensiyalarni o’zlashtirib, atrofdagilarni bilish asoslarini shakllantirishga o,,tishni, shuningdek, buning asosida o’zini individual ijtimoiy-perseptiv idealini va pedagogik muloqotda o’zo’zini idora qilishni bildiradi. Xulosa sifatida bo’lajak o’qituvchida kommunikativ kompetentlikning mavjud bo’lishi, nafaqat biror bir ma’lumotni etkazish samaradorligi, boy lug’at zaxirasi, nutq

madaniyati, til vositalarining to’g’ri tanlaganligini belgilashi mumkinligini, shu bilan birga turli-tuman ijtimoiy vaziyatlarda muloqotni, shuningdek boshqa insonlar bilan muloqot jarayonida, o’z shaxsiy ma’naviy-axloqiy holatini tartibga solishni boshqarish mahoratini ta’kidlash mumkin. O„qituvchining kasbiy tayyorgarligi qanday bo’lishidan qat’i nazar, u avvalo, o’ziga xos xususiyati, fazilatlari, ya’ni qiziqishlari, muloqotning ustun bo’lgan uslubi, qadriyatlari, dasturi va shu kabilarga egainson hisoblanadi. Bularning barchasi uning kasbiy faoliyatining o’ziga xos xarakterini belgilaydi, u pedagogik ta’sir ob’ektining boshqa xususiyatlariga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. (ham yakka, ham hamkorlikda). Ta’sirning natijasi shunga bog’liq ravishda bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O„zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: «O„zbekiston». 1998.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta‟lim Me‟yoriy hujjatlari /– T.: “SHarq”, 2001.
3. “Ta‟lim to„g„risida” O„zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta‟lim Me‟yoriy hujjatlari . – T.: “SHarq”, 2001.
4. O„zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O„zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo„yicha Harakatlar strategiyasi to„g„risida”gi PF–4947-sonli Farmoni, O„zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to„plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo„limizni qat‟iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko„taramiz. – T.: O„zbekiston, 2017. – 146 b.
6. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 302-304.

31-32- Mavzu : Ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish

Mavzu rejasi:

1. Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati
2. Dars – ta'lim jarayonining asosiy shakli.
3. O'qituvchining ta'lim jarayonida kasbiy omilkorligi
4. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi

Tayanch iboralar: Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash; zamonaviy o'qituvchi; samimiylik; dars jarayoni; pedagogik ta'sir ko'rsatish; ma'naviy – axloqiy sifatlar; dars turlari; aralash darslar; nazariy bilimlar; tashkiliy va yakuniy bosqich; ta'limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat, ta'limning rivojlantiruvchi talablari; ijodiy kayfiyat; pedagogik ijodkorlik; o'z–o'ziga ta'sir qilish; kasbiy omilkorlik; individual kasbiy xususiyatlar; pedagogik madaniyat; texnologik madaniyat; o'quv harakatlari; tashxislash; bashoratlash; loyihalashtirish.

Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati

O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim–tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan.

Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar

mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'limni qanday tashkil etishi zarur?

Avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi.

Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliya-tini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi.

Ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi.

Ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi.

Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jahonning rivojlangan mamlakatla-rida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalana olishi.

Darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi.

O'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi):

O'qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga

to’g’ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

Zamonaviy o’qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo’lishi talab etiladi.

O’qituvchi o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqur, puxta bilimga ega bo’lishi, o’z ustida tinimsiz izlanishi shart.

O’qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o’z faoliyati tashkil etishi kerak.

O’qituvchi ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo’lmog’i lozim.

O’qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi davr talabidir.

O’qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, yuz, qo’l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o’zlashtirib olishga erishishi lozim.

Ayniqsa, o’qituvchi o’zining individual nutq madaniyatiga ega bo’lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni aks ettirishi kerak:

a) nutqning to’g’riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodali bayon etilishi;

g) nutqning sofligi (ya’ni, nutq tozaligiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi so’zlardan holi bo’lishi, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo’lmagan so’zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan, o’zga millatlarga xos so’zlarni noo’rin qo’llanilishi); vulgarizm (haqorat qilishda qo’llaniladigan qo’pol so’zlar) hamda kontselyarizm (o’rni bo’lmagan vaziyatlarda rasmiy so’zlardan foydalanish) so’zlaridan holi bo’lishi;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so’zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko’chirma gaplardan o’rinli va samarali foydalana olish). o’qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo’lishi kerak.

O’qituvchi pedagogik-psixologik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o’zida bir qator sifatlarni tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to’g’ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni o’z iroda kuchi bilan bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O’qituvchi o’quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to’la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so’zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o’quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi, u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o’qituvchining so’zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do’stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko’tarinki kayfiyatda bo’lishi zarur.

O’qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o’quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro’-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Dars – ta’lim jarayonining asosiy shakli

Dars –ta’lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo’lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi. Darsda o’qituvchi tashkiliy tartibni va o’quv ishlarining muntazamligini ta’minlaydi.

Dars bevosita o’qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shaklidir. O’qituvchining o’quvchilarga pedagogik ta’sir ko’rsatish mahorati dars jarayonida namoyon bo’ladi.

O’qituvchi darsda bir xildagi muayyan tayyorgarlikka ega o’quvchilar sinfi bilan faoliyat olib boradi. Darsda o’qituvchi o’ziga tegishli mutaxassislik fanining ma’lum bir reja asosida belgilangan mavzusi bo’yicha ishlaydi. Bilimlarni ta’lim metodlari asosida o’quvchilar ongiga singdiradi, o’quvchilarning olgan bilimini muntazam ravishda baholab boradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’lim shakllarini birlashtirish imkoniyatlari paydo bo’ladi.

Darsda o’qituvchi rahbarligida har bir o’quvchining bilim olish xususiyatlari inobatga olinadi, o’quvchilarning mashg’ulot jarayonida o’rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo’lishi mumkin. Bu o’quv materialining mazmuniga, darsning didaktik maqsadiga, o’quvchilar va sinf jamoasining xususiyatlariga bog’liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko’rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi materiallar bilan tanishish darslari;
- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o’rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- ko’nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish darslari;

Aralash (kombinatsiyalashgan) darslar, yoki murakkab tuzilishga ega bo’lgan ushbu dars jarayonida o’qituvchi quyidagi kombinatsiyani qo’llashi mumkin: uy vazifalarini tekshirish va o’quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o’rganish, bilimlarni mustahkamlash, o’quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

O’quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o’rganish) darsida o’qituvchi rahbarligida o’quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, o’qituvchi darsning tuzilishi va olib borilishini quyidagicha ta’minlaydi: yangi materialni o’rganish uchun asos bo’lgan avvalgi materialni takrorlash, o’qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsida o’qituvchi darsning asosiy mazmunini ilgari o’zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratadi. O’qituvchi asosiy e’tiborni o’rganilgan mavzularni takrorlash tarzida mashg’ulot olib borishga qaratadi. Tuzilishi bo’yicha bunday darslarni o’qituvchi quyidagi bosqichda

tashkil etadi: o’quvchilarning bilish qobiliyatini va tafakkurini tekshirish, og’zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, uyga vazifa berish.

O’rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida bevosita o’qituvchi rahbarligida o’rganilgan o’quv materiallaridan murakkab savollarni takrorlash va tizimlashtirish asosida o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan bilimlarning mavjud kamchiliklari to’ldiriladi va o’rganilayotgan yangi mavzuning muhim g’oyalari ochib beriladi. O’rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini o’qituvchi o’rganilgan mavzuning, bo’lim yoki o’quv kurslarining yakunida o’tkazadi.

Ko’nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi egallangan bilimlarni o’quvchilar tomonidan mustahkamlash hamda amaliyotda qo’llay olish bilan bog’liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslarda amalga oshiriladi. Yangi mavzularni o’rganishda davom ettiriladi. Bunda o’qituvchining vazifasi o’quvchilarning nazariy bilimlar asosida egallagan malaka va ko’nikmalarini, hayotiy amaliyotlarida turli vaziyatlarda qo’llashni o’zlashtirib olishlarini nazorat qilishdan iborat.

Bilimlarni tekshirish (nazorat) darsida o’qituvchi o’quvchilarning fanlar yuzasidan o’zlashtirgan bilimlarini egallash, ko’nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini, o’quv materiallarining o’zlashtirishdagi kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarni bajarish yo’llarini belgilab olishiga yordam beradi.

Yuqorida ifodalangan barcha darslarning samaradorligiga erishish o’qituvchining pedagogik mahoratiga, pedagogik-psixologik metodlarni qo’llay olish tajribasiga bog’liq. Darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo’yish va ularni o’quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta’minlash, bilimlarni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko’rsatmalarni shakllantirish ko’zda tutiladi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi. Shu bilan birga o’qituvchi yangi, zamonaviy, odatdan tashqari dars berishning dars–ma’ruza, dars–seminar, dars–munozara, dars–konferentsiya, dars–sayohat, dars–musobaqa, mustaqil ish darslari kabi noan’anaviy

metodlaridan foydalanishi mumkin.

O’qituvchi o’z tajribalaridan va kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda, sinf o’quvchilarining yosh xususiyatlarini e’tiborga olib zamonaviy darslarning quyidagi kombinatsiyalariga alohida e’tibor berishi lozim:

- integral fanlarning ilg’or yutuqlari, kompyuter, pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, darsni hozirgi zamon o’quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;
- o’quvchilarning qiziqishlari, iqtidori va talablarini e’tiborga olgan holda, ular tomonidan bilimlarning puxta o’zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- o’quvchilarda fanlarning o’zaro aloqadorligi asosida bilishga qiziqishni rivojlantirish;
- o’quvchilar tomonidan egallangan bilim va malakalarga, shuningdek, ular ongi va tafakkurini rivojlantirish darajasiga tayanish;
- o’quvchining o’zi qiziqqan, orzu qilgan kasbi bo’yicha mahoratini har tomonlama shakllantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o’quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida mantiqiylik va emotsionallikni ta’minlash;
- pedagogik texnologiyalarning eng so’nggi yutuqlaridan o’z o’rnida samarali foydalanishni bilish;
- zarur bilim, ko’nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni dunyoviy bilimlar bilan doimo boyitib borish va o’z ehtiyoji darajasida foydalanish;
- har bir darsni yuksak mahorat bilan puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxislash va taxmin qilish.

O’qituvchi darsga tayyorgarlik ko’rar ekan, asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi talablardan foydalanib, o’z imkoniyatlariga erishishi lozim:

- ta’limiy;

- tarbiyaviy;
- rivojlantiruvchi.

Ta’limiy talablarga har bir darsning ta’limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o’rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog’lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so’nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta’lim shakli, metodlari va ko’rinishlarini qo’llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o’tkazishni ta’minlash kabilar kiradi.

Tarbiyaviy talablardan asosiy maqsad, dars jarayonida o’qituvchi tomonidan yangi o’quv materiali asosida egallangan bilimlardan tashqari uning tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, o’quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatni his etish, intizomlilik, erkin fikr yuritish, qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollikni shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi talablar dars jarayonida o’qituvchi o’z imkoniyatlarini o’quvchilarda o’quv-bilish faoliyatining ijobiy sifatlariga nisbatan qiziqishni oshirishga, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirishga hamda o’quvchilarning mudroq qobiliyatlarini uyg’otishga, ong va tafakkurlarini dars jarayonida shakllantirishga qaratadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, ta’limning yordamchi shakllari ham mavjud bo’lib, ular asosan o’qituvchining pedagogik tashabbuskorligi natijasida tashkil etiladi. Ta’limning yordamchi shakllari quyidagilar: turli to’garaklar, praktikum, seminar, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg’ulotlar, o’quv sayohatlari, o’quvchilarning mustaqil uy vazifalari.

Ta’lim jarayonida o’qituvchiga qo’yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish

Ta’lim jarayoni o’qituvchi ijodiy qobiliyatini namoyish etuvchi sahnadir. Yuqorida ta’kidlab o’tilgan o’qituvchilik mahorati hech qachon bir yo’nalishda qotib qolmasligi kerak. O’qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati jamiyatda fan olamida ro’y berayotgan yangiliklar hodisalar bilan doimo chambarchas bog’langan holda shakllanib boradi. Mamlakatimizda olib

borilayotgan ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar ta'lim sohasida o'qituvchi oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim o'qituvchidan quyidagi vazifalarni e'tiborga olishni talab qiladi:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha eng so'nggi bilimlardan xabardor bo'lib borish, ta'limni pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib amaldagi o'quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi;
- ta'limda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib o'z mahoratini, bilimini va qobiliyatini namoyish etishi;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini xisobga olgan xolda, ular tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirilishiga sharoit yaratish;
- o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan o'quv fanlarining o'zaro aloqadorlini ta'minlash;
- ta'limni tarbiyaviy jarayon bilan o'zaro aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish;
- o'quv tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida ta'limning emotsionalligini ta'minlash;
- kompyuter va axborot texnologiyalari asosida fanning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lib borish;
- ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, fikrlash va faoliyat turlarini boyitish maqsadida ular ruhiyatini doimiy o'rganib borish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq. Ijodiy kayfiyat o'qituvchi kasbida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir. Ijodiy kayfiyat, o'qituvchi aql idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning muhim qirrasi hisoblanadi. Ijodiy kayfiyat – o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi, kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi, o'quvchilar jamoasiga tez kirishib ketishini ta'minlovchi vositadir.

O'qituvchi o'z ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish uchun

psixologik yo’nalishlarning xilma-xil usullarini bilish kerak. Bu, darsni fikran xayoldan o’tkazish va loyihalash, har bir o’quvchi qalbiga oson yo’l topa olish mahorati, muloqot madaniyati. O’qituvchi ijodiy kayfiyatini avvalo o’zi yaratadi, bu uning xarakter xususiyatidan, o’z kasbiga nisbatan munosabatidan paydo bo’ladi. Quyida tajribali ustozlar sinovidan o’tgan, ijodiy kayfiyatni ta’lim jarayonida shakllantirishning ba’zi vositalarini havola etamiz:

Yangi o’rganilayotgan o’quv mavzusidan o’z ijodiy kayfiyati uchun vositalar qidirish.

Sinf o’quvchilari bilan bo’layotgan har bir muloqotdan ijodiy kayfiyat uchun motivlar topa olish.

His tuyg’u va kechinmalarini yaxshilikka, ijodiy kayfiyatga yo’naltira olish.

O’quvchilarning nojo’ya hatti-harakatlariga doimiy e’tibor bermaslik va qulay vaziyatda rasmiy, ta’sirchan tanbeh berish.

Dars jarayonida aslo g’azablanmaslik, o’quvchilar kulgisini achchiq so’z bilan to’xtatmaslik, aksincha to’g’ri qabul qila olish.

Dars jarayonida muloyimlik, mehr shafqatli bo’lish ulkan pedagogik yutuqlar kaliti ekanligini unutmaslik.

Doimiy jiddiylik va asabiylashish, asab va yurak tizimini tez charchatishini unutmaslik.

Bolalar bilan bo’lajak muomala oldidan o’qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishida uning o’rganilishi lozim bo’lgan o’quv materialiga o’z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o’ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir.

Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi o’qituvchining o’rganilayotgan yangi o’quv materialiga nisbatan o’z hissiy munosabatini ifodalashda topgan tashqi shakllarni mustahkamlashdir, u o’qituvchi tomonidan quyidagi yo’llar orqali amalga oshiriladi: darsning borishini, tadbirni fikran yodga tushirish; ko’zgu oldida takrorlash; namuna sifatida san’at (adabiyot, kino, rang tasvir) asarlaridagi vaziyatlardan foydalanish.

Ijodiy kayfiyatni boshqarish – o’qituvchi mehnatining eng muhim kasbiy jihatdan talabi bo’lib, u o’qituvchining sinfda, bolalar bilan muomalada erkin bo’lishini, xulq-atvorining samarali

bo’lishini ta’minlaydi. Pedagogik ijodkorlikning asosiy bosqichlariga nisbatan o’qituvchining ijodiy kayfiyatiga muomala ta’sirining quyidagi jihatlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

1) O’qituvchi sinf jamoasi bilan bo’ladigan dastlabki muomalani oldindan payqashi, uning ijodiy kayfiyatini saqlovchi omil ekanligi.

2) Sinf jamoasi bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida

sodir bo’lishi, o’qituvchi ijodiy kayfiyatini rag’batlantiruvchi omil sifatida.

3)O’qituvchining sinf jamoasi bilan muloqoti tizimi, pedagogik faoliyat jarayonida o’qituvchining ijodiy kayfiyatini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlaydi va rag’batlantiradi.

4) O’quvchilar bilan muomaladan qanoat hosil qilish, keyingi pedagogik faoliyatda o’qituvchining ijodiy kayfiyatini rag’batlantiruvchi omil ekanligi.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan har qanday zo’riqishni, shuningdek boshqa noxush holatlarni engish uchun o’qituvchi o’z-o’zini tarbiyalash yuzasidan doimiy faoliyat olib borishi zarur. O’z-o’ziga ta’sir qilishning bir qator usullari mavjud bo’lib ulardan eng muhimlari quyidagilardir: O’z-o’zini ishontirish, o’z-o’ziga buyruq berish, o’z-o’zini majbur qilish, o’z-o’ziga majburiyat yuklash, o’z-o’zini rag’batlantirish, o’z-o’zini jazolash, o’z-o’zini mashq qildirish, nihoyat o’z-o’ziga ta’sir qilish. O’qituvchining o’z-o’ziga ta’sir qilishi va uning samarali jihatlari alohida mavzu asosida o’rganiladi.

O’qituvchining ta’lim jarayonida kasbiy omilkorligi

Mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega, metodologiya va pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, ta’lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o’qituvchilarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Shu jihatdan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida asosiy e’tibor bo’lajak o’qituvchilarda ijodiy pedagogik faoliyatning o’ziga xos usullarini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan.

O’qituvchilik kasbining mohir ustasi bo’lish, avvalo shaxsning o’z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog’liq. Bu usul oliy o’quv yurtida o’quv va amaliy mashg’ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta’lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi individual, o’ziga xos usullar tizimidan iborat bo’ladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g’oyasi etakchi o’rinda bo’lishi kerak. Yuqori malakali kasbiy mahoratni shakllantirish yo’llari har xil bo’lishi mumkin. Bo’lajak o’qituvchi o’z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar yig’indisiga, pedagogikmuomala madaniyatiga ega bo’lishlik kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o’qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi.

Shakllantirish mumkinligi to’g’risida ma’lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, barcha sohalarda bo’lganidek, kasb mahorati ham o’qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashadi. Shu narsa alohida e’tiborga loyiqki, o’qituvchining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribaga ega bo’lishi uchun asosiy zamin ish faoliyati jarayonida shakllanadi. Chunki kasb mahorati o’ta murakkab va milliy xususiyatga ega jarayon bo’lgani bois, uni egallash, yuqorida ta’kidlanganidek, o’qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro’yobga chiqadi. Ammo pedagogik mahorat sirlarining ilmiy va amaliy negizi o’z vaqtida berilmas ekan, uni oliy ta’lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham o’z samarasini bermaydi.

Har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg’or turmush tarziga moslashgan, ta’lim va kasb hunar dasturlarini hamda pedagogik va axborot texnologiyalarning eng so’nggi yutuqlaridan doimo xabardor, ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan bilimlarga ega bo’lgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan fuqarolarni tarbiyalovchi o’qituvchida yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik bo’lishi lozim. Hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari

hamda fan va texnikaning so’nggi yutuqlarini o’zlashtirgan, milliy va ma’naviy qadriyatlarimizni ta’lim tizimiga tatbiq eta oladigan o’qituvchidan yangicha kasb mahorati talab qilinadi.

O’qituvchi o’z kasbining mohir ustasi bo’lishi uchun, avvalo o’zining individual kasbiy xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanishi va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog’liq. Bu usul oliy ta’lim muassasasi faoliyatida o’quv va amaliy mashg’ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda muvaffaqiyatni ta’minlovchi individual, o’ziga xos usullar tizimidan iborat bo’ladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g’oyasi etakchi o’rinda bo’lishi kerak. Yuqori malakali kasbiy mahoratni shakllantirish yo’llari har xil bo’lishi mumkin. Bo’lajak o’qituvchi o’z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar yig’indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo’lishi kasbiy – pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o’qituvchining kasbiy mahoratini namoyon qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida yuksak mahoratli omilkor o’qituvchini shakllantirish uchta yo’nalish bo’yicha amalga oshiriladi:

- o’z mutaxassisligi bo’yicha bazaviy puxta tayyorgarlik (kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlar);
- metodologik bilimlarni egallash madaniyati;
- pedagogik ijodkorlik va kreativlik.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ta’lim tizimi bo’lajak mutaxassisni shakllantiradi va uni murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassis lozim bo’lgan kasbiy sifatlarning murakkab to’plamini an’anaviy ta’lim jarayonida qisqa fursatda egallashi lozim. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida barcha ijobiy xususiyatlar amaldagi ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etib borgan holda ular yangi zamonaviy bilimlar bilan to’ldirilib borilsa, unga ratsional yondashuvlar joriy etilgan integral bilimlar tizimi bir-birini to’ldirib qo’llanilganda shakllantirilishi mumkin.

O’qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyati va darsga

tayyorgarligi

Har qanday ta’lim muassasasida tashkil etiluvchi ta’lim jarayonida o’quvchining faoliyati o’qituvchining bevosita rahbarligi ostida kechadi. O’qituvchining vazifasi pedagogik mahorat imkoniyatlaridan foydalanib, o’quvchilarni fan asoslarini chuqur egallashga yo’naltirish, bilim olishga va kasbiy mahorat sirlarini bilishga nisbatan qiziqish uyg’otish, ijtimoiy borliqqa erkin va ongli munosabatni tarbiyalashdan iboratdir.

O’qituvchi tomonidan ta’lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo’lishi mumkin va o’qituvchi o’zining ijodkorligi, pedagogik mahorati nuqtai nazaridan ushbu jarayonni tashkillashtiradi:

Rejalashtirish.

Tashkil etish.

O’quv harakatlari.

Natijalarni baholash va tahlil qilish.

O’qituvchi faoliyatida rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslarning rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ijodiy faoliyat lozim bo’ladi. O’qituvchi mustaqil ravishda o’quvchilarning tayyorgarliklari darajasini, ularning o’quv imkoniyatlarini, moddiy baza holatini, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o’rganib chiqishi, o’quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini ishlab chiqishi kerak.

O’quvchilarga dars o’tish faoliyatini tashkil etish uchun o’qituvchi o’quvchilar oldiga o’rganilgan mavzu asosida o’quv masalalarini qo’yishi va uni bajarishi uchun imkoniyatlar yaratishi lozim. Bunda o’quvchilarning faoliyati bilim olishdan iborat bo’ladi. Bilim olish faoliyatining o’ziga xos xususiyati faoliyat qonuniyatlariga egaligidir. Bilim olish borliqni idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajribalar asosida xulq-atvor hamda ko’nikma va malakalarning mustahkamlanib borishi, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borishi jarayonidir. Bilim olishning ushbu komponenti ta’limiy xarakterga ega bo’lgan faoliyat natijasida rag’batni his etish, ehtiyojning yuzaga

kelishidir.

Bilim olishning yana bir komponenti o’quv harakatlari sanalab, ular belgilangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O’quv harakatlari o’quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo’ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko’rinishda bo’ladi.

Tashqi o’quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o’tkazish); pertseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki, ya’ni mnemonik (yunonchadan «mnemonikon» –– eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari kiradi.

Natijalarni baholash va tahlil etish o’quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o’quvchi tomonidan o’zini nazorat qilish, o’zini baholash va o’zini tahlil qilishni amalga oshirish o’qituvchining o’rgatuvchi harakatlari asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o’quvchilarni o’z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o’zaro nazoratni tashkil etish, o’rnatilgan mezonlar asosida o’z faoliyati natijalarini o’zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

O’qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uni samarali tashkil etilganligi bilan bog’liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, etarlicha o’ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o’quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo’la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O’qituvchining ma’lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko’rishida quyidagi uchta bosqich muhim ahamiyatga ega: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).

- tashxislashda o’qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi. O’qituvchining tashxislashida o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat

qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

- bashoratlash o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlab olish va qo'llashdir.

- loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, o'qituvchi o'zi uchun boshqarish jarayoni (kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish)ni belgilab olishga imkoniyat beruvchi faoliyatdir.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik fazilati qanday bo'lishi kerak?
2. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talablar mazmuni nimalardan iborat?
3. Yosh o'qituvchining darsda pedagogik–psixologik jihatdan tayyorgarligi?
4. O'qituvchining individual nutq madaniyatiga ega bo'lishiga ta'rif bering?
5. Pedagogik – psixologik muloqot jarayonining asosiy mohiyati nimalardan iborat?
6. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida o'tiladigan dars turlari haqida?
7. O'qituvchi zamonaviy darslarning qanday kombinatsiyalarini bilishi lozim?
8. Dars jarayonida asosiy maqsadga erishish uchun qanday talablar qo'yiladi?
9. Zamonaviy ta'limda o'qituvchining vazifalari?
10. Ijodiy kayfiyat nima va u ta'lim – tarbiya jarayonida qanday

shakllantiriladi?

11. O'qituvchining o'z – o'ziga ta'sir qilish usullariga ta'rif bering?
12. O'qituvchining kasbiy omilkorligini shakllantirish istiqbollari?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. G'G' Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.

Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.

Xoliqov G'Pedagogik mahoratG'Darslik.T.:Iqtisod-moliya nashriyoti, 2011- 420 b.

N.N. Azizodjaeva G'Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratG' T.: O'zbkiston yozuvchilar uyushmasi. 2006 - 159 b.

B. ZiyomuxammedovG' Pedagogik mahorat asoslariG' T.:TIB-KITOB, 2009-183b

33- **Mavzu** : P**edagogik qobiliyatni shakllantirishda kreativ yondoshuv**

Mavzu rejasi:

1.Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi.

2.O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirishda kreativ funksyalari.

3. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash; zamonaviy o'qituvchi; samimiylik; dars jarayoni; pedagogik ta'sir ko'rsatish; ma'naviy – axloqiy sifatlar; dars turlari; aralash darslar; nazariy bilimlar; tashkiliy va yakuniy bosqich;

ta’limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat, ta’limning rivojlantiruvchi talablari; ijodiy kayfiyat; pedagogik ijodkorlik;

1.Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi.

Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi

Qobiliyat - shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muay-yan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisidir. Zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga., xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modiflkatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. *O 'qitnvchi o 'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.*

2.Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: *Ushbu qobiliyat turi har bir o 'qituvchining sergakligida, o 'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko 'ra olishida namoyon bo 'ladi. Shunda o 'qituvchi kirn nima-ga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3.Eshitish va his qilish qobiliyati. *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o 'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she 'r va qo 'shiqlarni sevib*

tinglaydi.

4.Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. *O'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo 'naltiradi, vaqtni harakat sur 'ati bilan his qiladi, o 'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.*

5.Mantiqiy qobiliyat. *Falsafly mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkin-chi darajalisidan ajrata oladi;*

6.Shaxsning ichki qobiliyati. *O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat 'iyatli, har qanday vaziyatda o 'zfikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar. Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi muta-xassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim - bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik.va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahorat-ni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir.

Ko 'nikmalar - o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilin-gan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar - o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hpsil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Ular o'qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil

qiluv-chi jarayonlar bo'lib, qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo 'ladi. Ko 'nikma va malakalar etarli bo l-magan qobiliyatni birmuncha to 'Idirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib *mohirlik* ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati - bu imkoniyatdir, uning mohir-ligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomil-lashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyat-lar zehn deyiladi. *Iqtidor, iste'dod, daholik* - insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat - insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituv-chining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoli-yatdir.

2.O‘qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirishda kreativ funksyalari.

Ta'lim madaniyatning bir qismi bo'lib, uni saqlash va rivojlantirishga ta'sir qiladi, dunyoni bilishni ta'minlaydi, shaxsni o'ziga xosligi, o'ziga xosligi bilan rivojlantiradi, bu esa o'zlashtirishga imkon beradi.

Jahon madaniyatining barcha boyliklari. Batafsil S.I. Hessen oqimni qo'ydi va endi ta'lim va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosi. Bu bog'liqlikning zaruriy sharti ta'limning madaniyatga va

aksincha, madaniyatning ta'limga o'zaro kirib borishidir.

I.A. Zimnyaya madaniyat tegishli bo'lgan asosiy sohalarni ajratib ko'rsatadi: • munosabatlar madaniyati va o'zini o'zi tartibga solish madaniyati - shaxs madaniyati;

• intellektual faoliyat madaniyati va ob'ektiv faoliyat madaniyati — faoliyat madaniyati;

• xulq-atvor madaniyati va muloqot madaniyati — ijtimoiy madaniyat o'zaro ta'sirlar.

Madaniyatning tarkibiy qismlari har birida ko'rib chiqiladi insonga xos bo'lgan madaniyatning yuqorida qayd etilgan oltita sohasi, ta'limning har bir darajasida. Bunday komponentlar sifatida quyidagilar aniqlanadi: dunyoni anglash (idrok etish); dunyo bilimi va men unda; mahorat; yaratilish va insonning kelajakka tayyorligi rivojlantirish . Shunday qilib, madaniyatning ulkan rolini tushunmasdan va ta'lim, o'qituvchining shaxsiy va ijodiy o'zini o'zi anglashi, mahalliy ta'limni rivojlantirish mumkin emas.

Har xil turdagi va turdagi umumta'lim muassasalarini rivojlantirish hozirgi vaqtda innovatsiyalarni joriy etish va sinovdan o'tkazish orqali sodir bo'ladi ta'lim jarayonining barcha jabhalarida - tashkil etilishi, mazmuni, ta'lim va tarbiya metodologiyasi, ularning natijalarini aniqlash va baholash.

Yangilik pedagogik tadqiqotlarni baholashning asosiy mezonlaridan biri, innovatsiya natijasidir.Yangilik har doim nisbiydir shaxsiy va ob'ektiv-vaqtinchalik nuqtai nazardan . Innovatsiya ta'lim - bu pedagogik vosita, usul, texnika, texnologiya, dastur va boshqalar. Innovatsiya ko'pincha maqsadli deb tushuniladi progressiv o'zgarish, ya'ni. Muayyan jarayon .

Innovatsiya va innovatsiyani farqlang. Agar pedagogik innovatsiya orqali biz ma'lum bir g'oya, usul, vosita, texnologiyani tushunamiz yoki tizim bo'lsa, bu holda yangilik joriy etish jarayoni bo'ladi va ushbu innovatsiyaning rivojlanishi. Innovatsiya - bu yangi narsa ishlab chiqilgan, tadqiq qilingan, ishlab chiqilgan yoki tasodifan topilgan. Bu yangi pedagogik bilim, texnologiya, metodika, texnika bo'lishi mumkin. Innovatsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish mahsulidir innovatsiyalar. Innovatsiyalarni loyihalash yordamida maktab darajasida ham, maktabda ham ta'lim tizimini rivojlantirishni boshqarish mumkin.

Mintaqaviy, mamlakat darajasida.

Innovatsiyalarga nisbatan innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyat sifatida belgilanadi. Innovatsiya tezda paydo bo'lishi mumkin

Ko'pchilikning mulki, norma, umumiy qabul qilingan ommaviy amaliyot yoki, aksincha, eskirib qoladi.

Innovatsiyadan innovatsiyaga boshqacha. Ta'limdagi yangilik darajasi ta'lim jarayoni yoki ta'lim tizimiga kiritilgan o'zgarishlar darajasiga qarab belgilanadi. Keling, darajalarni sanab o'tamiz

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar. 1. Takomillashtirish - ta'lim jarayonining bir yoki bir nechta elementlarini o'zgartirish; ma'lum usullarni yangilariga moslashtirish

ta'lim faoliyati shartlari.

Misol: hozirgi guruhda o'qitish tizimida o'qituvchi guruhlarni yaratishning yangi usullaridan foydalanadi.

2. Ratsionalizatsiya - an'anaviy muammolarni hal qilishda ma'lum pedagogik vositalardan foydalanishning yangi qoidasini o'rnatish.

Misol: bosh o'qituvchi o'rta maktabda dars jadvalini tuzadi

Shunday qilib, talabalar yukni tushirish paytida o'rganilayotgan mavzularga chuqurroq kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

uy vazifasi (masalan, juftliklar). Bunda o‘quvchilar har kuni 5-7 emas, 2-3 ta fandan puxta tayyorgarlik ko‘radilar.

3. Modernizatsiya - oqimning bir nechta elementlarini o'zgartirish ta'lim tizimi.

Misol: umumiy o'rta ta'lim tuzilmasini o'zgartirish - 11 yillik o'qish o'rniga 12 yil taklif etiladi.

4. Evristik yechim – ma’lum yechish yo‘lini topish pedagogik muammolar; dolzarb pedagogik muammolarni hal qilish uchun ilgari noma'lum bo'lgan pedagogik shakllar, usullar, vositalarni yaratish va ulardan foydalanish.

Misol: Shatalovning notalarni qo'llab-quvvatlash usuli - an'anaviy materialning bir xil miqdorini qisqa vaqt ichida o'rganish usuli vaqt.

5. Pedagogik ixtiro - ta'limni amalga oshirish uchun yangi vosita, texnologiya yoki ma'lum pedagogik vositalarning yangi kombinatsiyasi. Pedagogik ixtiro ma'lum vositalarning kombinatsiyasi yoki o'qitishga mutlaqo yangi yondashuv bo'lishi mumkin.

Misol: M.P.ning "immersion" tizimi. Shchetinin.

6.Pedagogik kashfiyot - butun ta'lim tizimini tubdan yangilashga yoki uning tarkibiy qismini sezilarli darajada yaxshilashga olib

keladigan yangi pedagogik vazifani shakllantirish va hal qilish.

element .

"Innovatsiya" tushunchasi lotincha innovatis (in - in, novus - yangi) va yangilik sifatida qaraladi. Akademik ta'rifida A.V. Xutorskiy, innovatsiyalar o'zaro bog'liqlik majmuasidir jarayon va muammoni hal qilishga qaratilgan yangi g'oyaning kontseptualizatsiyasi va keyinchalik - yangi g'oyani amaliy qo'llash natijasidir.

hodisalar. XXI asr boshlariga kelib. ta'limdagi innovatsion jarayonlar muassasalar yangi texnologiyalarni, maktabni rivojlantirish jarayonlarini, ta'lim amaliyotini o'rganish bilan bog'liq pedagogik innovatsiyalarni yaratish; ularni amalga oshirish va rivojlantirish; qo'llash va tarqatish).

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar bilan quyidagi muammolar ham bog'liq: o'qituvchilar va ma'murlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi, uni loyihalash;

• innovatsiyalar tarqalishining berilgan muhit xususiyatlariga bog'liqligi;

• o'qituvchilar va talabalar tomonidan innovatsiyalarni idrok etish shakllari;

• innovatsiyalar uchun psixologik to'siqlarni olib tashlash;

• abituriyentlarni tayyorlash bo'yicha oliy o'quv yurtlarining talablari bilan muvofiqlashtirish

va boshq.

Ta’lim muassasalari faoliyatini mazmuni va tashkil etishdagi o‘zgarishlar, ularning innovatsion yo‘nalishi chambarchas bog‘liqdir

o'qituvchilar va rahbarlarning uslubiy va texnologik tayyorgarligidagi o'zgarishlar bilan.

Shubhasiz, davom etayotgan o'zgarishlarning intensivligi olib keladi

davlat darajasida ham, innovatsion jarayonlarni boshqarishning mohiyatini yangicha nazariy tushunishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

individual ta'lim muassasalari, pedagogika rivojlanishida

samarali innovatsion harakat uchun shart-sharoitlar.

Bundan tashqari, innovatsion jarayonlar o'qituvchilar va ma'murlarga kasbiy rivojlanish va o'zini o'zi anglash imkonini berishi muhim [2: 10-11]. Hayot zamonaviy o'qituvchidan talab qiladi va

rahbari, A.V. Xutorskiy, innovatsion xulq-atvor, bular. pedagogik faoliyatda faol va tizimli ijodkorlik. Innovatsion xulq-atvor maksimal rivojlanishdir individuallik .

Ushbu maqolada biz pedagogik mahoratni ko'rib chiqamiz

ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini rivojlantirish sharti.

Pedagogik mahorat, pedagogikaning ustunligi san'at, o'qituvchilik mahoratining keng doirasini ifodalaydi usul va uslublar, pedagogik mahorat va malakalar.Aynan ular shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida pedagogik san'atning amaliy amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'qituvchining individual xususiyatlarini ochib beradi va o'zining pedagogik tizimini taqdim etishga imkon beradi. Ta'kidlangan o'qituvchi shaxsiga e'tibor, bizning fikrimizcha, qurilishni nazarda tutadi shaxsiy va kasbiy rivojlanishning individual traektoriyasi o'qituvchining mahorati .

Bugungi kunda hech kimni o'qituvchi bo'lishi mumkinligiga ishontirish qiyin har bir emas. Yaxshi, turli mutaxassislar jamiyat uchun birdek salmoqli. Ammo siz o'qituvchini umumiy qatorga qo'ya olmaysiz - undan va mutaxassisning (muhandis, tadbirkor, harbiy, shifokor) ma'naviy va kasbiy hayotiyligi va malakasi faqat unga bog'liqdir . O'qituvchi kasbi uchun o'yin-kulgi kiradi damental umumiy ta'lim, psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ega bo'lish. Kasbiy rivojlanishning eng muhim jihati o'qituvchi - pedagogik mahoratni egallashdir Pedagogik mahorat, G.M. Qojaspirova, Bu pedagogik faoliyatni mukammal egallash darajasidir.

Pedagogik mahoratning mohiyati o'qituvchining o'zi shaxsiy fazilatlarida yotadi, u bu ishni amalga oshiradi.

uning muvaffaqiyati. Pedagogik mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi,

lekin bunga tushmaydi. Bu rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi maxsus mahorat, lekin bu asosiy narsa emas. Asosiysi, o'qituvchining pozitsiyasida, o'z o'quvchilarining faoliyatini mohirona boshqarish qobiliyati.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishga yordam beradi avlodlar davomiyligi, yoshlarni mavjudlar qatoriga kiritish ijtimoiy aloqalar tizimi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shaxsning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirish.

Pedagogik mukammallik insonparvarlik pozitsiyasidan

boshlanadi va pedagogik muloqot, rang beruvchi muhit yaratish pedagogik hamkorlik va ta'lim jarayonini optimallashtiradi. Pedagogik faoliyatda u ishlab chiqadi va amalga oshiradi o'qituvchi mahorati. Hunarmandchilik yuqori darajani ta'minlaydi kasbiy faoliyatni o'z-o'zini tashkil etish, o'z ichiga oladi o'zlari: insonparvarlik yo'nalishi, kasbiy bilim, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika.

• Pedagogik mukammallik insonparvarlik yo'nalishining mavjudligini nazarda tutadi, bu esa zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq, maqsadga muvofiq ravishda qurish imkonini beradi.

ta'lim jarayoni.

• O‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishning asosi kasbiy bilimdir.Bu faoliyatdagi professionallikning "skeleti" ni tashkil qiladi va buni amalga oshiradi uni doimiy ravishda takomillashtirish.

• Pedagogik qobiliyatlar – mahoratning “xamirturushi”, uni takomillashtirish tezligini ta’minlash.

• Pedagogik texnika bilim, qobiliyat, barcha ta'sir vositalarini maqsad bilan bog'lash imkonini beradi, shu bilan pedagogik faoliyat strukturasini uyg'unlashtirish.

• amalga oshiradigan professional va individual fazilatlar o'qituvchining shaxsiy salohiyatini rivojlantirish. Bularga quyidagilar kiradi: ijodkorlik, pedagogik san'atkorlik, mustaqillik, xolislik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqalar Bu fazilatlar.

ustoz-ustozning noyob portretini shakllantirish.

• o'zaro munosabat madaniyati kasbiy faoliyatda ustunlik qiladi o'qituvchi faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydigan yaxlitlik. O'zaro munosabat madaniyatining asosiy xususiyatlari muloqot, nutq madaniyati, pedagogik etika va hisoblanadi o'qituvchining tashqi ko'rinishi.

3. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari

Pedagogik qobiliyatlar deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional-irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri-biri bilan o`zaro bog`langan bo`lib, bir-biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi. Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta'rif beriladi: qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko`nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda nomoyon bo`ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Pedagogik

psixologiyada o`qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o`rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borildi. Psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o`tganidek, pedagogik jarayon o`qituvchitarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o`quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog`liq. Bola shaxsining rivojlanishida o`qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o`qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo`yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko`lamini ortishiga bevosita bog`liq. 70-80 yillarda o`qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o`rganildi. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o`qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o`rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U o`z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni:

• Gnostik (bilishga oid) • Proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan)

• Konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif bildiradi.

N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatorida kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o`qituchining bu hislari o`quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg`ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi. O`qituvchida kuzatuvchanlikning paydo bo`lishi natijasida u diagnostik sifatni vujudga keltiradi. Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko`ra, pedagogik faoliyat-bu o`qituvchi oldiga jiddiy talablar qo`yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o`qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo`lishimni taqazo qiladi. A.I.Shcherbakov o`qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

• Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat.
• Yo`nalishning aniq ifolanganligi.
• Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
• Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
• Qat'iy va silliq xarakter.
• Pedagogik qobiliyatlar. Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik

qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

- Didaktik qobiliyatlar
- Akademik qobiliyatlar.
- Pertseptiv qobiliyatlar.
- Nutq qobiliyatlari.
- Tashkimlotchilik qobiliyati.
- Avtoritar qobiliyatlar. "Science and Education" Scientific Journal
- Kommunikativ qobiliyatlar.
- Pedagogik xayolot.
- Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to`g`risida mukamml ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi. Yirik o`zbek olimi

S.R.Rajabov va uning yuzlab shogirdlarining ishlari ham o`qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatiga qaratilgandir. Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o`qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin. Didaktik qobiliyat - bu oson yo`l bilan murakkab bilimlarni o`quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o`qituvchining o`quv materialini o`quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o`quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg`ota olishi ko`zda tutiladi. O`qituvchi zarurat tug`ilgan hollarda o`quv materialini o`zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi. Akademik qobiliyat - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo`lishlik. Bunday qobiliyalarga ega bo`lgan o`qituvchi o`z fanini o`quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o`z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosat hayotga doir qiziqishlari bilan ko`p narsalarni o`rganib boradi. Pertseptiv qobiliyat - qisqa daqiqalarda o`quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o`quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o`quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog`liq bo`lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday

o`qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo`lmagan tashqi belgilar asosida o`quvchi ruhiyatidagi ko`z ilg`amas o`zgarishlarni ham fahmlab oladi. Nutqiy qobiliyat - ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo`lgan nutq; shuningdek, o`qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiiqiy urg`uga rioya qilishi, qobiliyatli o`qituvchining nutqi darsda hamisha o`quvchilarga qaratilgan bo`ladi. O`qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o`quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo`lsa ham uning nutqi hamisha o`zining ichki kuchi, ishonchi, o`zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o`quvchi uchun aniq, soda, tushunarli bo`ladi. Tashkilotchilik qobiliyati - sinf-guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o`quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o`quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo`lsa, ikkinchidan, o`z shaxsiy ishini to`g`ri uyushtirish qobiliyatidir. Obro`ga ega bo`lishlik qobiliyati - o`zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aqlfarosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro` orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi-avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro`ga ega bo`lish o`qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazo) shuningdek, o`quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, bu ishonchni o`quvchilarga ham etkaza olishiga bog`liq bo`ladi. Qaysi o`qituvchi hurmatga sazovor?

1.O`qituvchimizning zo`rlamas-dan va baqirmasdan talab qila olishdek ajoyib xislati bor.

2. Biz uni qattiqqo`l va talabchan bo`lganligi uchun juda yaxshi ko`ramiz, u hamisha osoyishtalik va muloyimlik bilan talab qiladi, biroq, shunday ta'sir etadiki, unga quloq solmay ilojing yo`q.

3. Ximiya o`qituvchimiz hamisha xotirjam o`zini tutgan odam va shu xislati bilan butun sinfga qattiq ta'sir ko`rsatadi.

4. Biologiya o`qituvchisining obro`yini saqlamay ko`r-chi. Har qanday sharoitda ham u o`z obro`sining saqlanishiga erishadi.

1. O`zi yaxshi odam-u, lekin juda yumshoq-da, uni aldash xech gap emas.

2. Uning qanday odam ekanligini tushunib bo`lmaydi: bir

qarasang qattiqqo`l, bir qarasang hech narsa talab qilmaydi.

3. Juda bo`shang: uni ko`rsang uyqung keladi.

4. Biz P.I ning ketganidan juda xursandmiz.

5. U bizni baqirib-chaqirib, buyruq berishlar bilan qo`lga olmoqchi edi, ammo unga majburan chidayotganimizni bilmasdi

7. Kommunikativ qobiliyatlar - muomala va muloqot o`rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o`quvchilarga to`g`ri yondoshish yo`lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o`zaro munosabatlar o`rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati - Insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o`z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko`rishda, o`quvchining kelgusida qanday odam bo`lishi haqidagi tasavvur bilan bog`liq bo`lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiyot etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog`liq bo`ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha ob'ektlarga bir davrning o`zida o`z munosabatini bildirish.

O`quvchi, o`qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlarihajmi, uning kuchi, ko`chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo`lishi muhimdir. O`qituvchining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlaiga bog`liq bo`ladi.

Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

• obektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;

• kommunikativlik - insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, xushmuomalalik;

• perseptiv qobiliyatlar - kasbiy etuklik, empatiya, pedagogik tuyg`u;

• shaxs dinamikasi - irodaga ta 'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;

• hissiy barqarorlik - o`zini boshqara olish;

• kreativlik - ijodiy ish qobiliyati. Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko`nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O`qitish, o`iganish va o`igatish bo`yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

• talabani tushunishini ko`rish va sezish hamda bunday tushunishning darajasini va xarakterini o`rnatish qobiliyati;

• o`quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o`qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;

• materialni etarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga tushunarliligini ta'minlash qobiliyati;

• talabalarning individualligini hisobga olgan holda o`qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;

• o`qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;

• talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;

• o`zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;

• o`zining tajribasini boshqalar bilan baham ko`rish qobiliyati;

• mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

• boshqa insonning ichki holatini to`gri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo`la olish qobiliyati (empatiya qobiliyati);

• taqlid qilish uchun namuna bo`lish qobiliyati;

• tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;

• muloqotning lozim topilgan uslubini hamda o`z o`rnini topish, kelisha olish qobiliyati;

• hurmat qozonish, ya'ni talabalar o`rtasida obro`ga ega bo`lish qobiliyati. Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo`lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.

O`qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog`laydilar. Kommunikativ qobiliyat - bu pedagogik o`zaro aloqalar doirasidagi o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladigan muloqot qobiliyatidir. Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlari farqlanadi:

1. Kishining boshqa kishini bilishi. Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning alohida qiyofasi, motivi va xatti-

harakatlariga baho berish, kishining tashqi ko`rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berish; savlati, imoishora, mimika, pantomimikasini «o`qiy» olish kabilar qamrab olinadi.

2. Kishining o`z-o`zini bilishi. U o`z bilimlarini, qobiliyatlarini o`z xarakteri va o`z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baho berishi lozim bo`lsa, shunday baho berishni ko`zda tutadi. 3. Muloqot vaziyatini to`g`ri baholay olish. Bu vaziyatni kuzatish, uning ko`proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to`g`ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Qobiliyatli, tajribali o`qituvchini materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o`z fikrini (yoki o`quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o`quvchilarni o`z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o`z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi. Tajribasiz o`qituvchi ko`pincha mavzuni bayon etilishga berilib ketib, shu vaqt ichida o`quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo`yadi, bordi-yu, o`quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, bayon qilish kalavasini yo`qotib qo`yadi. Konstruktiv qobiliyat - o`quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o`quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o`quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o`quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Gnostik qobiliyat - tadqiqotga layoqatlilik bo`lib, o`z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o`rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir. Shuningdek, zamonaviy o`qituvchi o`zida aqli donishlik qobiliyati, iymone'tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo`naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlarn bo`lishi zarurligi ko`zda tutilmoqda. Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o`rganish qobiliyatlar shaxsning aql idroki, hiya-tuyg`usi va iroda sifatlarining namoyon bo`lishidan iborat ekanligini ko`rsatdi.

Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog`langan. Ular o`qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday

o`qituvchilar o`z o`quvchilarini (talabalarni) ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta'lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge-as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.

2. Dilova N.G. (2019). Vliyanie texnologii sotrudnichestva na uspevaemostь uchaщixsya nachalьnыx klassov. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. S. 63-64.

3. Dilova N.G. (2018). Vajnostь sovmestnogo obucheniya v povыshenii effektivnosti nachalьnogo obrazovaniya. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. S. 90-91.

4. Dilova N.G. (2012). Vozmojnosti organizatsii uchebnogo protsessa na osnove pedagogicheskogo sotrudnichestva. Molodoy uchenыy. T. 46, № 11, S. 409- 411.

34-Mavzu : O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda kreativ yondoshuv

Mavzu rejasi:

1.O‘qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog’liq kreativ xususiyatlari.

2. Pedagogik kreativ ta’sir ko‘rsatish - kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida.

3.O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatida kreativ, tanqidiy ta’sir o‘tkazish.

Tayanch iboralar: Bilish, tushunish, qo’llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash; zamonaviy o’qituvchi; samimiylik; dars jarayoni; pedagogik ta’sir ko’rsatish; ta’limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat,

ta’limning rivojlantiruvchi talablari; ijodiy kayfiyat; pedagogik ijodkorlik;

1.O‘qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog’liq kreativ xususiyatlari.

O‘qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. O‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar ‘rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o‘ziga ishontira olish va jalb qilish -o‘qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo‘lib, bunda bevosita o‘qituvchi bilan bog‘liq bo‘lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma’lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo‘lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatishning shakl va uslublariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatida majburiy itoat korli ko‘rninish ongli intizom egallashi, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. O‘qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o‘rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta, bu nih oyatda qiyin jarayon, zero,tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o‘rnatishning samaradorligiga bog‘liq. Ushbu jarayon bevosita o‘qituvchining fikr lmashuvi(refleksiya) bilan bog‘liq xususiyatlariga, o‘q uvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san’atiga va pedagogik ta’sir ko‘rsatishning turi usullarini bir -biri bilan o‘zaro aloqadorlikda qo‘llay bilishiga taalluqli bo‘lib, ular uzluksiz shakllanadi.

Hali maktab bo‘lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a’zolarining bolalarda mehnatsevarlik, axloq -odob, nafosat, do‘stlik, mehr -shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql -idroki va usullari yillar davomida hayot tajrib asi va sinovlaridan o‘tib, sayqallanib o‘sha davrning oli y janob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib keldi. VII asrlarga kelib O‘rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta’lim va tarbiya beruvchi mudarrislarning qizg‘in faoli yati hamda ularga qo‘yiladigan talablarning nihoyatda rang -barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik

davrlaridan boshlab, bolalarning ta’lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, ragbatlantirish, maqtash, namuna ko‘rsatish, tanbeh berish, ta’qiqlash, majbur qilish, po‘pisa qilish, qo‘rqitish kabi usullardan foydalanganlar.

Y.A.Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning haxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi maq sadga muvofiqligini ta’kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga mexr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va boshqalar.

I.G.Pestalossi o‘qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta’limi tarmog‘ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to‘xtalib o‘tadi.

A.Disterverg o‘qituvchining ta’limdagi roliga yuqori baho berib, u o‘z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o‘quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O‘qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tgan. Pedagog olim Djon Lokk o‘qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarin i ishlab chiqqan. Ular orasiga mo‘tadillik, g‘ayrat - shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o‘qituvchin ing pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan. A.I.Gersen, L.N. Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g‘arb mutafakkirlari goyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o‘z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko‘ra, o‘qituvchining asosiy xislati bu uning bolalar bilan munosabatda bo‘layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste’dodga ega bo‘lmog‘i zarurki, unga har qaysi o‘qituvchi erisha olmaydi.

O‘qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy - nazariy asoslari pedagog olim V.A.Slastenin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, o‘qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo‘nalishi va bunda pedagogik mahorat to‘g‘risida so‘z yuritib, shunday yozadi: “ o‘qituvchi muntazam ravi shda pedagogik nazariyalarga tayansagina,

o‘qituvchilik mahoratini egallaydi.

Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi”

O‘qituvchining fikr almashuvi bilan bog‘liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o‘quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo‘lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O‘zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kommunikativ qobiliyating quyidagi yo‘nal ishlari mavjud:

-o‘quvchilarni ishontirish;

-o‘quvchilar ongiga ta’sir etish;

-o‘zgalarga taqlid qilish.

O‘quvchilarni ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qara tilgan bo‘lib, o‘qituvchi fikr-mulohazalarini ta’sirchan nutq orqali o‘quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq -atvoriga, xatti-harakatiga ta’sir etadi va uni qisman o‘zgartiradi. Ishontirish o‘qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo‘lgan murakkab faoliyatida asosiy ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida ishlati ladigan usullardan biri hisoblanadi.

O‘quvchi ongiga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan ishontirish usuli o‘qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasi da o‘rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo‘lganda, tanqid va fikrlar kur ashiga tayanilganda samarali bo‘ladi. Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o‘qituvchining his-tuyg‘usi, nutqi va ishontira olish san’ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o‘quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo‘llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o‘quvchi bilan individual suhbatlar o‘tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo‘llaniladi.Ishontirish usuli yordamida o‘quvchilarning dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqsa o‘quvchi ongini begona mafkuraviy g‘oyalardan himo ya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishontirish asosida o‘quvchiga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba’zi psixik ta’sirlar tufayli sodir boiadigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, o‘ziga va kela jagiga ishonch uyg‘otadi, o‘z-

o‘zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi. O‘quvchilar ongiga ta’sir o‘zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo‘lib, o‘qituvchi kommunikativ qobiliyat ining universal omili hisoblanadi.

O‘qituvchilarning o‘zaro suhbati va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o‘quvchilarning psixikasi va xulq -atvoriga sezilarsiz ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Ta’sir o‘quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti -harakatlarida, intilishlarida yo‘l uo‘riqlar ko‘rsatish tarzida amalga oshiriladi. Ongga ta’sir shunday bir psixik jara yonki, o‘quvchilar o‘qituvchining yoki biror shaxsning ta’siri ostida, o‘z ongining yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi.

Agar o‘qituvchi bunda pedagogic mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo‘lmasa, o‘quvchilar ongiga ta’si r qila olmaydi, natijada ta’lim - tarbiya jarayoni ijobiy natijalar bermaydi o‘qituvchi o‘quvchilarning hurmat - e’tiboriga sazovor bo‘la olmaydi. O‘qituvchi o‘z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta’sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg‘unchi g‘oyalaridan himoya qilishga mas’ul shaxsdir O‘quvchi ongiga ta’sir o‘tkazishda o‘qituvchi yetakchilikni o‘z qo‘liga olishi uchun:

-o‘quvchilarning salbiy xatti

-harakatlari tufayli sodir bo‘ladigan emotsional his-tuyg‘ularga berilmasligi;

-har bir o‘quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o‘rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishga harakat qilmasligi;

-har bir o‘quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat-e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi;

-sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatti-harakatidan doimo ogoh bo‘lishi;

-pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o‘zida takomillashtirib borishi;

-o‘ylanmay aytilgan har bir so‘z, noo‘rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo‘lmasligini o‘qituvchi doimo his etish ilozim.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalar maydonining nihoyatda kengligi tufayli o‘quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta’sir o‘tkazuvchi g‘oya va mafku ralar bilan band bo‘lishi tabiiy hol. O‘qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta’sir qilishning keng imkoniyatlarini o‘z o‘rnida qo‘llay olsalar, o‘quvchilar ongini turli keraksiz g‘oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. Shuni unutmaslik kera kki, o‘quvchilar o‘zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta’sirga moyilligi tufayli har qanday ta’sirga nihoyatda beriluvchan bo‘ladila

3.O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatida kreativ, tanqidiy ta’sir o‘tkazish.

Tayanch tushunchalar

O‘qituvchining kommunikativ malakasi, Kommunikativ ta’sir etish yo‘li,O‘qituvchining kommunikativ madaniyati, O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari Kommunikativ qobiliyat – bu o`qituvchining tarbiyalanuvchilar bilan aloqa o`rnata olish faoliyatini tashkil qilishi uchun zarur bo`lgan bilim, malaka, ko`nikma va tajribasidir. o`qituvchining kommunikativ qobiliyati pedagogik faoliyat jarayonida shakllanadi. buning uchun quyidagi asosiy shartlar mavjud:

o`quvchilarning yuz ifodasini o`qish va o`qish qobiliyati;

o`quvchining tashqi ko`rinishidan uning psixik holatini aniqlagan holda uning adekvat modelini yasab chiqish;

o`qituvchi-o`quvchi bilan muloqot va muomala qilishga imkoniyat yarata bilishi kerak. Unga yo`l ochib berishi va yo`l berishi kerak;

o`qituvchi o`zini ota – onaning, o`quvchining o`rnida qo`ya bilishi va yuzaga kelgan vaziyatni ijobiy, ziddiyatsiz echishda ular kabi fikrlay olishi kerak.

Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish yo`llari:

1. O`qituvchi jamiyat ko`ygan talablarni amalga oshirishda mas’ul shaxs hisoblanadi. SHuning uchun u o`z faoliyatini, ko`ndalik turmish tarzini, jamiyat qo`ygan g`oya va siyosat asosida ko`radi.

2. . Jamiyat oldga qo`ygan g`oya, siyosati va talabi o`qituvchi shaxsining shaxsiy nuqtai nazari va ishonchi sifatida namoyon bo`lishi

zarur. U davlatning ishonchli vakili sifatida davlat siyosatining barcha tamoyillariga amal qiladi

3. Har bir o`qituvchi o`z shaxsini tahlil qilishi, o`z kamchiliklarini sezishi, bartaraf qilish yo`llarini izlab, o`z – o`zini hurmat qilib, o`z o`rnini egallab, mavqeini mustaxkamlashga harakat qilmog`i lozim.

4. O`qituvchi o`quvchining har bir ijobiy fazilatini ta'kidlab, ko`pchilik oldida o`quvchi kilgan ishiga munosabatini ta'kidlashi kerak.

5. O`quvchi yo`l qo`ygan xatolarni bartaraf etish, kelishmovchiliklarni oldini olish maqsadida o`quvchini ko`pchilik oldida izza qilmaslik, nafsoniyatiga tegib, shaxsini kamsitmaslik zarur.

Kommunikativlik qobiliyati deganda biz o`qituvchining bolalar bilan muloqatda bo`lishga, o`quvchilarga yondashish uchun to`g`ri yo`l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o`zaro aloqa bog`lashda pedagogik nazokatning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatlarni tushunamiz.

Psixolog olimlarning fikriga qaraganda, kommunikativlikda eng muhimi – bolalarga ta'sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta'sirni qo`llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o`quvchi shaxsining psixologik hususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olishning zarurligidir.

Pedagogik nazokatning amaldagi kurinishlaridan biri – har qanday pedagogik ta'sirga nisbatan kullaniladigan chora va tadbirlarni (ragbatlantirish, jazolash, pand-nasixat, kungil kutarish, maktash va boshqalar.) his eta bilishdan iboratdir. Aql – farosatli, nazokatli o`qituvchi har bir o`quvchi shaxsining psixologik hususiyatlari bilan hisoblashadi, bolalarga e'tibor bilan qarab, kuzatib yuradi va ularning har biri haqida o`z fikriga ega bo`ladi. Misol tariqasida o`rta va yuqori sinf o`quvchilarining o`z o`qituvchilari haqidagi fikrlariga e'tibor bering: «... Bizning tarix o`qituvchimizning kuchli tomoni - uning bizlarni har birimizga qanday munosabatda bo`lishni bilishida edi.», «U bizlar bilan xayron qolarli darajada ajoyib, yaqin do`st, katta yoshdagi urtoqdek muomalada bo`lar edi». «... Zoologiya o`qituvchimiz Farida opamlar esa qanday qilib bo`lsada bolalarni

o`ziga qaratish, diqqatini tortish uchun hushomadgo`ylik qiladilar. Nega u o`zini shunchalik kamsitib erga uradi?,-deb o`ylar edim. – Balki ular bolalardan chuchiganidan shunday kilarmikan? Adabiyot o`qituvchimiz Raximboy aka hech bir sababsiz kishi diliga ozor berar yoki behudaga urishib, koyib tashlar edi»..

Ko`rganingizdek, pedagogik nazokat (takt)ning yo`qligi og`ir oqibatlarga olib keladi. Bolalarning o`qituvchidan ko`ngli soviydi, obro`siga putir etadi. Natijada o`quvchilarning noroziligi, e'tirozlari namoyishkorona bildirila boshlanadi, ular ichidan ataylab tartib – intizomni buzadiganlari paydo bo`ladi. «... Ko`p hollarda nohaq ish qiladilar, arzimagan xato yoki tartibni buzganligi uchun darhol juda qo`pol va kungilga og`ir botadigan keskin gaplarni aytib, jerkib, yomon baho qo`yadi...», deyishadi.

O`qituvchining pedagogik nazokati masalasi munosabati bilan yana shuni ham ta'kidlab aytish lozimki, qachonki o`quvchilar o`qituvchining ijobiy hislatlari to`g`risida gapirar ekanlar, ular hamisha o`qituvchining adolatliligi kabi hislatlarni birinchi o`ringa qo`yadilar.

Pedagogika va psixologiya fanlari pedagogik nazokat (takt) haqida ko`plagan ilmiy tadqiqot ishlariga ega. Ushbu mavzu buyicha chuqur bilimlarga ega bo`lish va ularni amalda kullay bilish, o`qituvchiga bolalar bilan muloqat qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan ko`plab kelishmovchiliklar, nizolar va arazlashlarning oldini olishga yordam beradi

O`qituvchi darsning barcha bosqichlarida (kismlarida) o`zini og`ir, vazmin tutmog`i, pedagogik nazokatga amal etmog`i darkor. Ayniqsa, bunga o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalarini hisobga olish va baholash paytida e'tibor bermoq kerak. YA'ni, o`qituvchi o`quvchi javoblarini sabr-toqat qilib tinglashi, keraksiz savollar bilan gapini bo`lmasligi lozim. Masalan, o`quvchi javob berayotganda «Buni aytishning keragi yo`q!», yoki «Ezmalanmay, qisqa gapir!», «O`tir joyingga. Har doimgidey sen xech nimani bilmaysan!» - kabi so`zlar bilan uni jerkib bermasligi shart. O`qituvchilik amaliyotida shunday hollar kuzatilganki, bunda mahorali o`qituvchi darsida duduklanib gapiradigan o`quvchilar o`z nuqsonini unutib tuppa-tuzuk gapirishgan, qo`pol va dangal o`qituvchilar darsida esa ravon gapiradigan o`quvchilar ham esankirab qolib, duduklana boshlagan... Kuyida biz yana bir vaziyatni ko`rib

chiqamiz. Masalan, maktabda oltinchi soat – ona tili darsi. Beshinchi soat esa jismoniy tarbiya darsi bo`lgan. Darsdan kaytgan o`quvchilarning ko`pchiligi xali kiyinib ulgurmagan, sochlari tuzgigan, terlashgan va charchashgan. Bunday vaziyatda o`qituvchi qanday yo`l tutmog`i kerak?

Bunda tajribali, mahoratli o`qituvchi aql bilan ish ko`radi. Masalan, u shunday qilishi mumkin: «Ha, xozir bizlarni ishlashimiz ancha qiyin bo`ladi. Kelinglar, bir-birimizga yordam beraylik, Derazalarni ochaylik, kiyim boshimizni tuzatib, nafasimizni rostlab olaylik. Aytganday, men sizlarga kecha o`zim ko`rgan va meni juda ham hayron qoldirgan voqea haqida so`zlab bermoqchi edim...» va xakozo. Darsni allaqachon boshlanib ketganini faqatgina o`qituvchi biladi. CHunki, o`quvchilar o`qituvchi gapirayotganda usti-boshlarini tartibga solib, o`quv qurollarini darhol sozlab, o`z o`qituvchilariga diqqat bilan qarab, uning gaplarini tinglay boshlaydilar. Eng muhimi mana shunda! O`zini tuta olmaydigan, kayfiyatiga qul bo`lgan, avtoritar stildagi o`qituvchi esa – «Sizlarni tashvishingiz bilan meni nima ishim bor, men dars o`tishim kerak», - deydi va dastlabki daqiqalardan boshlaboq: «Turing o`rningizdan! Sizlarning harhashangiz jonimga tegdi. Nima gap, quloqlaring tom bitganmi yoki jismoniy tarbiya darsida shunchalik tanballashib qoldingizmi?» - deb bolalarni jerkiydi...

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan qobiliyatlardan tashqari, o`qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi qator ijobiy hislatlarga ega bo`lishi lozim. O`qituvchi bolalarni tarbiyalar ekan, o`zining xulq – atvori, xatti – harakati va yurish – turishi, xullas, butun o`qituvchilik shaxsi bilan o`quvchilarga namuna bo`lishi lozim. «Qadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o`qituvchisining hislatlari, uning ijodiy faoliyati mana shu XXI asr boshlarida shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge-as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.

2. Dilova N.G. (2019). Vliyanie texnologii sotrudnichestva na

uspevaemostь uchaщixsya nachalьnыx klassov. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. S. 63-64.

3. Dilova N.G. (2018). Vajnostь sovmestnogo obucheniya v povыshenii effektivnosti nachalьnogo obrazovaniya. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. S. 90-91.

4. Dilova N.G. (2012). Vozmojnosti organizatsii uchebnogo protsessa na osnove pedagogicheskogo sotrudnichestva. Molodoy uchenыy. T. 46, № 11, S. 409- 411.

5. Dilova N.G‘. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim. №3, 63-68 b.

6. Dilova N.G. (2017). Opportunities of Pupils’ Complex Development on the Bases of Modernization the Content of Primary Education. Eastern European Scientific Journal. No. 1, pp. 1-4.

7. Dilova N.G. (2013). Trebovaniya k uchitelyu po organizatsii sotrudnichestva uchaщixsya nachalьnыx klassov v uchebnom protsesse. Aktualьnыe problemы sovremennoy nauki. № 4 (72). S. 55-57.

8. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12, P. 190-196.

9. Dilova N.G. (2017). Activity Areas of Primary School Teachers. Eastern European Scientific Journal. No. 6, pp. 1-6.

10. Dilova N.G‘. (2017). O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni. Zamonaviy ta’lim.

35-Mavzu : O‘qituvchining ta’lim jarayoniga kreativ yondoshuvi

Mavzu rejasi:

1.Hozirgi zamon o‘qituvchisining kreativ pedagogik faoliyati.
2.O‘qituvchining ta’lim jarayonida kasbiy omilkorligi.
3.O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi.

Tayanch iboralar: Bilish, tushunish, qo’llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash; zamonaviy o’qituvchi; samimiylik; dars jarayoni;

pedagogik ta’sir ko’rsatish; ma’naviy – axloqiy sifatlar; dars turlari; aralash darslar; nazariy bilimlar; tashkiliy va yakuniy bosqich; ta’limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat, ta’limning rivojlantiruvchi talablari; ijodiy kayfiyat; pedagogik ijodkorlik;

1.Hozirgi zamon o‘qituvchisining kreativ pedagogik faoliyati.

Ta'limni modernizatsiya qilish ta'lim sifati, foydalanish imkoniyati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu pedagogik salohiyatni rivojlantirishning yangi modelini joriy etish zarurligini belgilaydi. Bu, birinchi navbatda, ta'lim jarayonini individuallashtirish zarurati bilan bog'liq, chunki, bir tomondan, iqtidorli bolalarni rivojlantirish, ikkinchi tomondan, maxsus pedagogik ehtiyoji bo'lgan bolalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish kerak. Ushbu maqsadga erishishda bolaning faoliyatini boshqaradigan, kerak bo'lganda unga yordam beradigan, o'zi harakat qilishi mumkin bo'lgan joyda harakat qilishni qoldiradigan o'qituvchi, o'qituvchi-ustozning roli katta.

Zamonaviy o'qituvchi - bu fan va psixologik-pedagogik bilimlarga ega bo'lgan o'qituvchi; yuqori kasbiy fazilatlarga ega; bolaga o'zini o'zi anglash yo'lini topishga, mustaqil, ijodiy va o'ziga ishongan shaxs bo'lishga yordam bera oladi. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiyatining ajralmas qismi bu ijodkorlikdir.

Ijodiy o'qituvchi ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak, jumladan:

Dizayn qobiliyatlari (o'qituvchi-ssenariy muallifi);

Moslashish qobiliyatlari (o'qituvchi-direktor);

Muloqot qobiliyatlari (o'qituvchi nutq sherigi sifatida);

Tashkilotchilik qobiliyati;

Nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari;

Tadqiqot qobiliyatlari.

Pedagogik ijodkorlik - bu o'qituvchi shaxsining individual, psixologik, intellektual kuchlari va qobiliyatlarini kasbiy faoliyatda o'z-o'zini anglash jarayoni.Kasbiy pedagogik faoliyat - bu faoliyat turi bo'lib, uning mazmuni o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishdir. Pedagogik faoliyatning tuzilishi - bu sub'ekt va ob'ekt, maqsad, vazifalar, mavzu, vositalar va natijalarning birligi.

Pedagogik faoliyatning sub'ektlari - o'qituvchilar, ota-onalar, talabalar guruhi (jamoasi). Ob'ekt - shaxs sifatida tarbiyalangan,

shakllangan. O'z-o'zini tarbiyalashda, o'z-o'zini tarbiyalashda sub'ekt va ob'ekt mos keladi. Pedagogik faoliyat ob'ektining o'zi sub'ektdir.

Pedagogik faoliyatning umumiy maqsadi insonni madaniyat qadriyatlari bilan tanishtirish, ko'p qirrali shaxsni shakllantirishdir. Pedagogik faoliyatning umumiy maqsadini amalga oshirish ta'lim muhitini shakllantirish, o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, o'quv jamoasini yaratish, individual shaxsni rivojlantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyatning predmeti - shaxsning har tomonlama rivojlanishi: jismoniy, aqliy, ma'naviy, intellektual va boshqalar. Pedagogik faoliyatning muayyan bosqichida rivojlanishning alohida sohalari sub'ektga aylanadi.

Pedagogik faoliyat vositalariga pedagogik jarayonning mazmuni va barcha turdagi axborot tashuvchilar (adabiyot, ommaviy axborot vositalari, texnik vositalar va boshqalar) kiradi.

Natija pedagogik faoliyatning haqiqiy natijasidir.

Kasbiy pedagogik faoliyat insonparvarlik xususiyatiga ega.Uning asosiy xususiyatlarini nomlaylik:

Pedagogik faoliyat zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan maxsus shaxs tomonidan amalga oshiriladi va bu faoliyatni amalga oshirishning muayyan shakllari mavjud: dars, dars, "sinflar";

Aniq maqsadning mavjudligi: bolaga biror narsani o'rgatish, unga bilimlar tizimini o'tkazish, ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish, uni tarbiyalash, qobiliyatini, qiziqishlarini, tafakkurini, xotirasini, tasavvurini va boshqalarni rivojlantirish;

Maqsad asosan ta'lim, tarbiya, ta'lim mazmunini belgilaydi;

Bola o'qituvchi bilan maxsus munosabatlarga kiritilgan (biznes, rasmiy, tartibga solingan);

Pedagogik faoliyat natijalari (ayniqsa, o'qitishda) tekshirilishi mumkin; uning natijasi bolaning bilim va ko'nikmalaridir; tarbiya natijalari unchalik ravshan bo'lmasligi mumkin - ular o'z vaqtida "kechiktirilgan";

Haqiqiy o'qituvchi talabaga ta'sir qilish uchun turli xil imkoniyatlardan foydalanadi: norasmiy suhbatlar, maxfiy suhbatlar, o'quvchini tashvishga soladigan muammolarni muhokama qilish, maslahat, qo'llab-quvvatlash, yordam. O'qituvchining asosiy faoliyati

Vazifalariga qarab, kasbiy pedagogik faoliyatning quyidagi turlari ajratiladi:

Loyihalash - ta'lim va tarbiya maqsadlarini belgilash, ularga erishish yo'llarini belgilash;

Tashkiliy - o'quvchilarni turli xil mehnat turlariga jalb qilish, sinf jamoasini shakllantirish;

Kommunikativ – “o‘qituvchi-shogird”, “o‘quvchi-ota-ona”, “o‘quvchi-talaba” tizimida pedagogik jihatdan mos munosabatlarni o‘rnatish;

Konstruktiv - o'quv materialini tanlash, o'quv jarayonini rejalashtirish va qurish va boshqalar.

Bu tadbirlarning barchasi o‘quv-tarbiyaviy ishlar doirasida amalga oshiriladi.

O'qitish - o'quvchilarning ongli, faol o'quv faoliyatini boshqarish, ularning bilim olishiga yordam berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

O'qitishning umumiy xususiyatlari:

Turli tashkiliy shakllar doirasida amalga oshiriladigan, muddatlari, aniq maqsadi va unga erishish imkoniyatlari mavjud;

O'qitish samaradorligining eng muhim mezoni - ta'lim maqsadlarining harakati va muammolarni hal qilish;

O'qitishning mazmuni va mantig'i o'quv dasturlarida aniq ko'rsatilgan;

Samaradorlik mezoni - bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, o'quv, kognitiv va amaliy muammolarni hal qilish usullarini o'zlashtirish darajasi;

O'rganish natijalari deyarli bir ma'noda o'qitish bilan belgilanadi va sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda qayd etiladi.

O'qitish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan o'tadi:

Rejalashtirish;

Talabalar faoliyatini tashkil etish;

O'quv jarayonini tartibga solish va sozlash (doimiy monitoring asosida);

Natijalarni baholash va tahlil qilish;

Keyingi pedagogik o'zaro ta'sir qilish usullarini tanlash.

Shuni esda tutish kerakki, hamkorlik ikki dunyoning o'zaro ta'siridir: o'qituvchi va talaba. Bu haqda O.A.Kazanskiy shunday deydi: “O‘qish juda qiyinligini bilaman; Men sizning hayotingizni osonlashtirmayman - bilim, ko'nikma, ko'nikmalarning "hapini shirin qilaman" - men sizga shunchaki yordam bera olaman, chunki shifokor

bemorga nafaqat og'riqni yo'qotishga, balki odamni davolashga ham yordam beradi.

Va buning uchun men:

birinchidan, men siz uchun "qiyin"ni odatiy holga keltiraman;

ikkinchidan, men sizning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolaringizni, muvaffaqiyatsizliklaringizni oldini olishga yordam beraman (o'rganishdagi muvaffaqiyatsizliklar normaldir);

uchinchidan, men sevish “o‘zganing” muvaffaqiyatiga ishonish ekanligini bilaman – men bilan hatto “jardan sakrash” ham mumkin;

to‘rtinchidan, men o‘qituvchilik faoliyatimning ma’nosini sizning muvaffaqiyatingiz tashkiloti sifatida tushunaman;

beshinchidan, u sizni muvaffaqiyatga tayyorlashi kerak, ya'ni. O'zingiznikini taqdim etishingiz uchun hamma narsani qiling (o'zingizni o'zingizda kashf eting).

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi - tarbiyaviy ish. U o'quvchilarning turli faoliyatini boshqarishga, o'quv muhitini tashkil etishga qaratilgan va quyidagi xarakterli xususiyatlarga ega:

turli tashkiliy shakllar doirasida amalga oshiriladi;

maqsadlarga ega, umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan ta'limning aniq vazifalarini izchil hal qilishni ta'minlaydi;

ta'lim samaradorligi mezoni - o'quvchilar ongida his-tuyg'ular, xatti-harakatlar va faoliyatda namoyon bo'ladigan ijobiy o'zgarishlar;

ta'lim ishlarini rejalashtirishda faqat umumiy ma'noda qabul qilinadi;

har bir alohida sinfdagi o'quv ishlarining mantiqiyligini me'yoriy hujjatlarda belgilab bo'lmaydi;

o'quv faoliyati natijalari ehtimollik xususiyatiga ega;

tarbiyaviy ishdagi tayyorgarlik qismi asosiy qismga qaraganda ancha mazmunli va uzoqroq;

natijalarni har doim ham oldindan aytib bo'lmaydi, ular ko'pincha o'z vaqtida kechiktiriladi;

Ijodiy jarayonning bosqichlari (g'oyaning paydo bo'lishi, ishlab chiqish, amalga oshirish va boshqalar).) vaqt bo'yicha o'zaro bog'langan, bir bosqichdan ikkinchisiga operativ o'tishni talab qiladi; agar yozuvchi, rassom, olim faoliyatida ularga ruxsat berilgan bo'lsa, u holda o'qituvchining kasbiy faoliyatida ular amalda istisno qilinadi (o'qituvchi mavzuni, bo'limni va hokazolarni o'rganish uchun ajratilgan soatlar soni bilan cheklanadi). Dars davomida kutilmagan

muammoli vaziyatlar yuzaga keladi, ular malakali yechimni, pedagogik jarayonda o'qituvchining talabalar va hamkasblar bilan birgalikda yaratishini talab qiladi. Ijodiy izlanish muhiti kuchli rag'batlantiruvchi omildir. O'qituvchi ma'lum bir bilim sohasi mutaxassisi sifatida o'z o'quvchilariga kasbiy faoliyatga ijodiy munosabatda bo'lishini ko'rsatadi.

O'qituvchining ta'lim faoliyati tizimi - bu turli xil pedagogik faoliyat turlarining kombinatsiyasi: tashkiliy, kommunikativ, konstruktiv, dizayn va boshqalar.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari muhim rol o'ynaydi, chunki ular pedagogik mahorat darajasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. O'qituvchi, birinchi navbatda, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Uning kasbiy fazilatlari uning mutaxassislik sohasi uchun umumiy qabul qilingan talablar va standartlarga javob berishi kerak. Pedagogik faoliyat ham o'ziga xos san'atdir, chunki muayyan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha o'zining shaxsiy ijodiy qarashlarini kiritmasdan turib, o'qituvchi kerakli samaraga erisha olmaydi.Hozirgi vaqtda ijodkorlik va ijodiy faoliyat insonning qadr-qimmatini belgilaydi, shuning uchun ijodiy shaxsni shakllantirish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ma'noga ham ega bo'ladi. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari: o'quvchi, o'qituvchi, ota-onaning qobiliyatlarini ochib berishdir. Jamiyatni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish sharoitida insonning eng muhim fazilatlari tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va nostandart echimlarni topish qobiliyati, kasbiy yo'lni tanlash qobiliyati, hayot davomida o'rganish va muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlikdir. .

O`qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik darajasi uning o`z imkoniyatlaridan maqsadlarga erishish uchun qay darajada foydalanayotganligini ko`rsatadi. Shu munosabat bilan pedagogik faoliyatning ijodiy xususiyati uning eng muhim xususiyati hisoblanadi. O'qituvchining ijodi ijtimoiy qimmatli, yangi, o'ziga xoslikni yaratishni maqsad qilib qo'ymaydi, chunki uning mahsuli doimo shaxsning rivojlanishidir. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi o'zining pedagogik tizimini yaratadi, lekin u faqat ma'lum sharoitlarda eng yaxshi natijaga erishish vositasidir.

O'qituvchi shaxsining ijodiy salohiyati uning to'plangan ijtimoiy

tajribasi, psixologik-pedagogik va fan bilimlari, yangi g'oyalar, ko'nikma va malakalar asosida shakllanadi, bu unga o'ziga xos echimlarni, innovatsion shakl va usullarni topish va qo'llash imkonini beradi va shu orqali o'z faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. uning professional funktsiyalari. Faqat bilimdon va maxsus tayyorlangan

Pedagogik ijod o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. V.A.Slastenin o'qituvchi ijodini rivojlantirish uchun quyidagi shartlarni belgilaydi:

ob'ektiv

sub'ektiv

Pedagogik ijodkorlikning quyidagi darajalarini ajratish mumkin.

Axborotni takrorlash: o'qituvchi boshqalarning tajribasini takrorlay oladi, natijaga erishish yo'lida oddiy muammolarni hal qiladi, muayyan vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarning samaradorligini tahlil qiladi.

Moslashuvchan-prognozli: o'qituvchi o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni o'zgartira oladi, o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini hisobga olgan holda o'zaro munosabatlarning usullari, vositalari, usullarini tanlashi mumkin.

ratsionalizatsiya: o'qituvchi ratsionalizatsiya qobiliyatlarini ko'rsatadi (nostandart pedagogik muammolarni hal qilish va optimal echimlarni topish qobiliyati). Uning ijodida shaxsiyat elementlari mavjud.

tadqiqot: o'qituvchi uning natijasini o'rganish asosida o'z faoliyat tizimini ishlab chiqishga qodir.

Ijodiy o'qituvchi o'z kasbiy darajasini doimiy ravishda o'z-o'zini tashkil etish, ijodiy o'zini-o'zi anglash, kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini tarbiyalash, yangi bilimlarni, faoliyat usullarini va boshqalarni o'zlashtirgan holda oshiradi.

O'qituvchining ijodiy faoliyatining uchta yo'nalishi mavjud:

uslubiy ijodkorlik (paydo bo'layotgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, uslubiy modellarni to'g'ri tanlash va qurish, o'quv jarayoniga ta'sir qilish mazmuni va usullarini loyihalash; ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda uni o'z amaliyotida malakali qo'llash qobiliyati bilan bog'liq. o'qituvchi va bolalar jamoasi).kommunikativ ijodkorlik (bolalar bilan o'zaro munosabat) (bu ijodkorlik bolalar bilan ham, ota-onalar, hamkasblar, ma'muriyat bilan ham pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va samarali muloqotni tashkil etish bilan bog'liq;

o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati).

ijodiy o'zini o'zi tarbiyalash (o'zini o'ziga xos ijodiy individuallik sifatida anglash, yanada takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlash, shuningdek, uzluksiz rivojlanish tizimida o'z-o'zini takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish o'z-o'zini tarbiyalash).

Demak, o`qituvchining shaxsiy ijodi pedagogik faoliyatning turli jabhalarida namoyon bo`ladi. Ijodkorlik o‘qituvchi shaxsining to‘plangan ijtimoiy tajribasi, yangi g‘oyalari, o‘ziga xos yechimlarni topish va qo‘llash imkonini beruvchi ko‘nikma va malakalari, innovatsion shakl va usullari asosida shakllangan salohiyati bilan belgilanadi. Ijodiy tasavvur va tajriba orqali muammoni yechishning yangi, o‘ziga xos yo‘llari va vositalarini faqat bilimdon va ijtimoiy jihatdan tayyor o‘qituvchigina topa oladi. Shaxs sohasida pedagogik ijodkorlik o'qituvchining ijodiy individuallik sifatida o'zini o'zi anglash, kasbiy o'sishning individual yo'llarini belgilash va o'z-o'zini takomillashtirish dasturini qurish asosida o'zini o'zi anglashi sifatida namoyon bo'ladi.

2.O‘qituvchining ta’lim jarayonida kasbiy omilkorligi.

Olimlar pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishni ijodkorlikning shakllanish darajasi bilan bog‘laydilar. O'qituvchining ijodkorligi qanchalik yuqori bo'lsa, mehnati shunchalik unumli bo'ladi, uning faoliyatini tashkil etish vositalarini o'zlashtirish darajasi, o'z-o'zini tadqiq qilish va o'z-o'zini tuzatish. Tadqiqotning asosiy qoidalari:

1. Qo‘shimcha kasb-hunar ta’limi muassasasida o‘qituvchining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish muvaffaqiyatini ta’minlovchi andragogika yordamida quyidagilar aniqlanadi: asosiy andragogik tamoyillar: mustaqil ta’limning ustuvorligi, birgalikdagi faoliyat tamoyili, o‘z bilimiga tayanish. o‘quvchi tajribasi, o‘rganishni individuallashtirish, tizimli o‘rganish, kontekstli ta’lim, ta’lim natijalarini yangilash tamoyillari, ta’limning selektivligi, ta’lim ehtiyojlarini rivojlantirish, o‘rganishdan xabardorlik [2]; qo'shimcha kasbiy ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishga andragogik yondashuv.

Andragogik yondashuv - bu o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining tizimlashtirilgan to'plamidir, bunda o'quvchi o'z ta'lim jarayonini tashkil etishda faol va haqiqatan ham ishtirok etadi va uning teng

huquqli sub'ektlaridan biri hisoblanadi [1].

Andragogik yondashuv qulay psixologik muhitni, barcha bosqichlarda o'quv jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatida o'zaro hurmatni, o'quvchilarning bir-biriga o'rtoqlik munosabatini va fikr erkinligini ta'minlashni nazarda tutadi.Andragogikaning ajratilgan mablag'larining samaradorligi o'qituvchi va talabalarning maqsadli, bosqichma-bosqich o'zaro hamkorligi, ijodkorlik mexanizmlarini faollashtirish orqali tizimli yondashuvni amalga oshiradigan o'qituvchining ijodiy salohiyatini amalga oshirishning nazariy modelini ishlab chiqish va amalga oshirish sharti bilan mumkin. o'qituvchining ichki ijod manbai.

Andragogik o'zaro ta'sirning quyidagi bosqichlari aniqlanadi: diagnostika bosqichi va o'quvchilarning o'z-o'zini diagnostikasi; birgalikda maqsadlarni belgilash va rejalashtirish; o'quv jarayonini amalga oshirish va o'quv jarayonining samaradorligini tahlil qilish va uni tuzatish bosqichi.

Kurslardagi o'quv jarayoni modelning barcha tarkibiy qismlaridan foydalangan holda, maqsadni bosqichma-bosqich amalga oshirgan holda qurilgan: o'qituvchining ijodiy salohiyatini andragogika yordamida yangilash.

Birinchi bosqichda - diagnostika va o'z-o'zini diagnostika bosqichida - qo'shma faoliyatning andragogik printsipidan foydalangan holda va talaba tajribasiga tayangan holda, so'rov va introspeksiya usuli individual xususiyatlarni, o'rganishning ustuvor maqsadlarini, ta'lim ehtiyojlarini, hajmi va hajmini aniqladi. talabalarning kasbiy tajribasining tabiati.

Bunday ishning natijasi o'quvchining o'quv jarayonini tashkil etishga mazmunli va qiziquvchan munosabati bo'ldi, o'qituvchining motivatsiyasi oshdi.“Individual o‘quv rejasi bo‘yicha malaka oshirish kurslarida o‘qishga munosabatingiz qanday?” degan savolga. (350 kishi so'roq qilindi) quyidagi natijalarga erishildi: 62t ijobiy javob berdi; 10t qo'rqinchli javob berdi, ularning fikricha, javob rejalashtirilgan o'quv jarayonining samaradorligiga bog'liq; 24t respondent keskin salbiy javob berdi; 4t respondent - javob yo'q.

O'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishga mazmunli va manfaatdor munosabati o'quv jarayonini maqsad qo'yish va rejalashtirish bosqichida kuchaydi.

Talabaning tajribasiga tayanish, o'rganishdan xabardorlik

tamoyillarini amalga oshirish, o'qituvchi va talabaning harakatlari to'liq mos kelishi uchun shunday maqsadlar qo'yildi. Yaratilgan individual dasturlar (o'quv rejalari) kurslarning ta'lim dasturiga mos keladi va har bir talabaning ta'lim ehtiyojlarini, uning kasbiy tajribasining hajmi va xarakterini, individual va kasbiy xususiyatlarini, ijodkorlik darajasini hisobga olish imkonini berdi. .

Quyidagi maqsadlar barcha o‘quvchilar va pedagoglar uchun umumiy bo‘lib qoldi: o‘quv jarayonini pedagogik mahorat va ijodkorlikni oshirishga yo‘naltirish; individual ta'lim strategiyasini aniqlash; tarkibni tuzish.

Diagnostika va o'z-o'zini diagnostika bosqichida har bir talaba tomonidan belgilangan umumiy va individual maqsadlarga erishish uchun individual dasturlarning quyidagi bo'limlari birgalikda aniqlandi: o'qitish shakllari va usullari; o'rganishning mumkin bo'lgan vositalari va manbalari; yakuniy ishlar mavzulari va ularni taqdim etish shakllari; har birining kasbiy darajasi, tajribasi, individual ijodiy imkoniyatlariga qarab kurslar mazmuniga qo‘shgan hissasi; o'quv jarayonida har bir o'qituvchining muvaffaqiyati mezonlari.

“Yakuniy ishlarni taqdim etishning qanday shakllarini ishlab chiqishni rejalashtiryapsiz?” degan savolga. (350 kishi so'ralgan)), javob berdi: muammoli muhokama - 8t; "Aqliy hujum" - 5t; davra stoli - 24t; plakat muhokamasi - 4t; "ish o'yini" - bir guruh hamkasblar bo'yicha dars -16t; master-klass - 26t; moderatorlik seminari - 12t; boshqa ish shakllari - 5t.

O'quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish mezonlarini rejalashtirishda talabalar quyidagi fikrlarni aniqladilar: o'quv jarayonida ijodkorlik darajasining o'zgarishi; yangi texnologiyalar, qiziqarli va samarali shakllar, usullar, o'quv qo'llanmalarini o'zlashtirish; kelgusida ijodiy o'sish strategiyasini aniqlash, kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish, belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlarini real tarzda tortish va baholash qobiliyati.

Shaxsiy dasturlarni yaratish, ishtirokchilarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirish o'quv jarayonini amalga oshirish bosqichida talabaning tajribasiga, yangi bilimlarni yangilash va ta'lim ehtiyojlarini rivojlantirish tamoyillariga tayanishga imkon berdi. Diagnostika bosqichida va o'quv jarayonining maqsadlarini belgilash va rejalashtirish bosqichida birgalikdagi ish; repetitorning yordami - maslahatchi, ma'lumotni ijodiy tushunish va yangi darajada

o'zlashtirishda ilhomlantiruvchi - bularning barchasi qulay psixologik sharoitlarning paydo bo'lishiga yordam berdi.“Sizning fikringizcha, ushbu kurslarda ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaysi omillar ko‘proq yordam beradi?” degan savolga respondentlar shunday javob berishdi: qulay, ijodiy muhit – 76t, o‘quv jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro hurmati. jarayon - 62t, o'qituvchi va talabalarning do'stona munosabati - 49t, o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyati - 67t, tajribaga qiziqish, har birining hayotiy pozitsiyasini hurmat qilish - 68t, amaliy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni darhol amalga oshirish qobiliyati - 46t, turli faol ish shakllari - 82t, fikr erkinligi, o'quv jarayoni ishtirokchilarini tanqid qilishdan bosh tortish - 81t.

Andragogik jarayon o'quv jarayonining o'zi va uning natijalarini tahlil qilish va baholashdan ajralmasdir. Barcha bosqichlarda tajribaning tanlangan strategiyasining to'g'riligini tekshirish uchun o'qituvchilar talabalar bilan birgalikda yondashuvlarning samaradorligini, o'quv jarayoni ishtirokchilarining samaradorligini, tanlangan vositalar, shakllarni tahlil qiladilar va baholaydilar. va usullari.

“Sizning fikringizcha, darslarda o‘qitish vositalari, shakllari va usullaridan qanchalik samarali foydalaniladi?” degan savolga (350 kishi so‘rovda qatnashgan) 53t “juda samarali”, 22t – “etarlicha samarali emas”, 12t respondent javob bermadi. javob berishdan 13t darslarda qo’llaniladigan o’qitish vositalari, shakllari va usullariga yuqori baho berdi (2-rasm).

O'quv jarayonidagi muvaffaqiyat mezonlarini individual dasturlar bo'yicha rejalashtirishda o'quvchilar ijodkorlik darajasidagi ijobiy o'zgarishlarni asosiy ko'rsatkichlardan biri deb hisoblaydilar.

3.O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog‘liq. YAxshi rejalashtirilmagan, etarlicha o‘ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o‘quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo‘la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta’minlash, komleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko‘zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). SHu bilan birga o‘qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o‘z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo‘lajak mashg‘ultning algoritmlari, samaradorligi bog‘liq bo‘lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta’minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o‘zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi.

Bashoratlash bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o‘zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so‘rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tish, oldindan ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo‘yicha qayta o‘zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an’anaviy rejasidan boshqarish ta’sir ko‘rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi. **Ta’limning yordamchi shakllari.** Ta’limning yordamchi shakllari: to‘garak, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulot, o‘quv ekskursiyalari, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish,

o‘quvchilarning individual layoqati, iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o‘quv dasturi talablari, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O‘quvchilarning mustaqil uy ishlari ma’lum didaktik vazifalarni bajaradi. CHunonchi, darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o‘quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma’lumotlar kabi o‘quv qo‘llanmalarini to‘plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o‘quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e’tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib bormasliklari ta’lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko‘pincha vaqt etmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda, o‘quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko‘rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo‘lini esa ko‘rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo‘lib qoldi.

Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. To‘garaklar o‘qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog‘liqlikni rivojlantiradi. Fan to‘garaklarida o‘quvchilarning ishlari o‘quv jarayonini faollashtiradi, o‘qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta’limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo‘yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun o‘qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob’ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to‘la rejani ishlab chiqishi, o‘quvchilarni bo‘lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, ob’ekt, u bilan tanishish tartibi, o‘quvchilar idrok

etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko‘rsatiladi. Ekskursiyani o‘tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o‘quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya ob’ektiga bog‘liq bo‘ladi.

Maktab o‘quv rejasi turli fakultativ va tanlovi bo‘yicha kurslarni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Ular o‘quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba’zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o‘rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro‘yxatini aniqlashda faqat o‘quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo‘yicha mashg‘ulotlar majburiy va umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - o‘quv suhbati)ga talablar ko‘pincha o‘quvchilarning ma’lum o‘quv materiali yoki topshirig‘i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko‘proq o‘quvchi savol beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan konsultatsiya o‘quvchilarga o‘quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to‘g‘ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o‘rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o‘rganadigan qilib yo‘naltiradi. Konsultatsiya o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e’tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan konsultatsiya o‘quvchilarda o‘zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni tarbiyalaydi. O‘qimishlilik darajasini to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi.

Oliy ta’lim tizimida ta’limning qanday tashkiliy shakllari qo’llanilmoqda?

Uzluksiz ta’limning hamma bosqichlarida ta’limning o’ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan: ikki bosqichli oliy ta’lim tizimida o’ziga xos ta’lim shakllari mavjud. Bularga: ma’ruzalar, seminar va amaliy mashg’ulotlar, kafedra o’qituvchilarining ochiq

ma’ruzalarida qatnashish, ma’ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o’quv kurslari bo’yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilar kiradi.

Oliy ta’lim tizimida ma’ruza o’quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og’zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma’ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o’ylashga majbur etadi. Shu sababli ma’ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o’ziga xos maktabiga aylanadi.

Ma’ruzani shunday o’qish lozimki, uning ta’sirida talabalarda shu fanga, uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e’tiqod, g’oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o’qituvchi har bir ma’ruzaning mazmunini, fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma’ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma’ruza jarayonida ham ta’limiy ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo’llaridan biri - o’qituvchilar bilan talabalar o’rtasidagi do’stona, faol munosabatlarni tiklab olishdan iborat.

Bundan tashqari dars va ma’ruzaning samarali natijasi o’quvchi talabalarning o’quv jarayonidagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog’liq. Shunday ekan ta’limni samarali tashkil etish, uning dars, ma’ruza va boshqa shakllaridan o’qitish jarayonida foydalanishlari uchun shubhasiz, o’qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o’z fanini puxta bilishligi va o’quvchi - talabalar bilan umumiy til topa olishlari g’oyat katta ahamiyatga egadir.

Ta’limni tashkil etishning zamonaviy (noan’anaviy) shakllari zarurati nimada? Uning qanday shakllari qo’llanilmoqda?

Mustaqil O’zbekistonimizda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirishda ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog’liq ishlar qilinmoqda. Ta’limni KVN, munozara, disput, konferensiya, mushoira, sud o’yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O’quvchilar faolligini oshiruvchi turli interfaol usullar keng qo’llanilmoqda. Bularga misol tariqasida Sinkveyn, Klaster, Aqliy hujum, T-Chizma, Insert jadvali, B-B-B jadvali, Venn diagrammasi, Konseptual jadval, Semantik xususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin.

An’anaviy metodlarning afzalliklari:

ma’lum ko’nikmalarga ega bo’lgan va aniq ma’lum tushunchalarni, fanni o’rganishda foydali.

- O’qituvchi tomonidan o’qitish jarayonini va o’qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.
- Vaqtdan unumli foydalanish.
- Aniq, ilmiy bilimlarga tayanish.

Kamchiliklari:

O’quvchilar passiv ishtirokchi bo’lib qoladilar.

- O’qituvchining to’la nazorati barcha o’quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.
- O’quvchilar o’qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi.
- Eslab qolish darajasi hamma o’quvchilarda bir xil bulmaganligi sababali, sinf bo’yicha o’zlashtirish darajasi past bulib kolishi mumkin.
- Mustaqil o’rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan’anaviy o’qitish metodlarining afzalliklari:

- O’qitish mazmunini yaxshi o’zlashtirishga olib kelishi.
- O’z vaqtida aloqalarning ta’minlanishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo’llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O’qitish usullarining turli xil ko’rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyani yuqori darajada bo’lishi.
- O’tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- Muloqatga kirishish ko’nikmasining takomillashishi.
- O’z-o’zini baholashning o’sishi.
- O’quvchilarning predmetning mazmuniga, o’qitish jarayoniga bo’lgan ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oladigan o’quvchining shakllanishiga yordam berishi.
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi.
- Muammolar yechish ko’nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

Ko’p vaqt talab etilishi.

- O’quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.

- Juda murakkab mazmundagi material o’rganilayotganda ham o’qituvchi rolining past bo’lishi.
- «Kuchsiz» o’quvchilar bo’lganligi sababali «kuchli» o’quvchilarning ham past baho olishi.
- O’qituvchining o’zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko’nikmalariga ega bulishining talab etilishi

An’anaviy dars o’tish modelida ko’prok ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi.

Shu sabab, bu xollarda an’anaviy dars samaradorligi ancha past bo’lib, o’quvchilar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o’quvchilar faolligini oshiradigan metodlar bilan boyitib borilsa, o’quvchilar o’zlashtirish darajasini ko’tarilishiga olib keladi.

Buning uchun daras jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o’qituvchi tomonidan o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirilib turilishi, o’quv **materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda baxs, munozara, aqliy hujum, kichik** guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o’yinlar metodlarini qo’llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o’quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta’lim vositalaridan urinli foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge-as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.

2. Dilova N.G. (2019). Vliyanie texnologii sotrudnichestva na uspevaemostь uchaщixsya nachalьnых klassov. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. S. 63-64.

3. Dilova N.G. (2018). Vajnostь sovmestnogo obucheniya v povыshenii effektivnosti nachalьnogo obrazovaniya. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. S. 90-91.

4. Dilova N.G. (2012). Vozmojnosti organizatsii uchebnogo protsessa na osnove pedagogicheskogo sotrudnichestva. Molodoy

uchenыy. T. 46, № 11, S. 409- 411.

5. Dilova N.G‘. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim. №3, 63-68 b.

6. Dilova N.G. (2017). Opportunities of Pupils’ Complex Development on the Bases of Modernization the Content of Primary Education. Eastern European Scientific Journal. No. 1, pp. 1-4.

7. Dilova N.G. (2013). Trebovaniya k uchitelyu po organizatsii sotrudnichestva uchaщixsya nachalьnыx klassov v uchebnom protsesse. Aktualьnыe problemы sovremennoy nauki. № 4 (72). S. 55-57.

8. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12, P. 190-196.

9. Dilova N.G. (2017). Activity Areas of Primary School Teachers. Eastern European Scientific Journal. No. 6, pp. 1-6.

10. Dilova N.G‘. (2017). O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni. Zamonaviy ta’lim.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

Mavzu: “Kreativ pedagogika” fanining nazariy asoslari (amaliy mashg‘ulot)

Maqsad: Talaba “Kreativ pedagogika” fani, uni ta’lim jarayonida yangi, zamonaviy kreativ vaziyatlarni vujudga kelishi tarixini o‘rganish. Test, maxsus, test, shaxs kreativligini aniqlovchi test, topshiriq, pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriq, E.P.Torrens, “Tugallanmagan rasmlar” testi, Devid L‘yuis, bolalarda kreativlikni rivojlantirish, Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalarini o‘rganib tahlil qilish.

Reja:

1. Kreativ pedagogika fanining nazariy asoslari.
2. Kreativ pedagogika fanining o‘qitish va o‘qish jarayonlari tavsifi.

Mashg‘ulotning topshirig‘i:

1. “To‘ldirilgan hikoya” testi yordamida pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini o‘rganish

“To‘ldirilgan hikoya” testi

Test har biri 8 ta rasmdan iborat ikkita to‘plam asosida tashkil etiladi. Hikoyaning qahramoni – Ferdinand nomli shaxs. Testning maqsadi ta’lim oluvchilarning Ferdinandning odatiy kundalik hayotida ro‘y bergan ikki hodisalarning mohiyatini qanchalik to‘g‘ri anglay olishlarini aniqlashdan iborat.

Ferdinand oilali, uning rafiqasi va o‘g‘li bor. U korxonalardan birida rahbar bo‘lib ishlaydi. Shu sababli ikkinchi hikoyada uning qo‘l ostida ishlaydigan xodimlari ham ishtirok etadi.

Har ikki to‘plam testlarida birinchi qatorda joylashgan to‘rtta rasm orqali Ferdinandning hayotida ro‘y bergan voqealarning izchilligi aks ettirilgan. Biroq, bu qatorda bitta rasm tushirib

qoldirilgan. Sizlar ikkinchi qatorda berilgan yana to‘rtta rasm orasidan birinchi qatordan tushirib qoldirilgan rasmni joyiga qo‘yish talab etiladi. Tegishli rasm o‘z joyiga qo‘yilgach, Ferdinand bilan bog‘liq voqeaning mazmuni to‘la anglanadi.

Tinglovchilarning xatti-harakatlari ikki holatni yuzaga keltiradi:

1) bordi-yu, tegishli rasm to‘g‘ri topilsa, personajlarning his- tuyg‘ularini to‘g‘ri anglanadi va Ferdinandning hayotida ro‘y bergan voqeaning mazmuni ham to‘g‘ri tushuniladi;

2) agarda tegishli bo‘lmagan rasm bo‘sh katakka qo‘yilsa, u holda voqeaning izchilligi ta’minlanmaydi.

Demak, e’tiboringizga havola etilayotgan rasmlarni diqqat bilan ko‘zdan kechiring va bo‘sh katakni tegishli rasm bilan to‘ldiring!

Har bir test bilan ishlashingiz uchun Sizlarga 10 daqiqa vaqt beriladi.

Reglament tugashiga bir daqiqa qolganda Sizlarni ogohlantiramiz.

Topshiriqni imkon qadar tez bajarishga harakat qiling. Bir topshiriq uchun ko‘p vaqt ajratmang. Garchi javobni noto‘g‘ri deb hisoblasangiz-da, uni bayon eting!

1-variant

2-variant

2. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriqlarni bajarish. Obyektni shakllantirishga oid topshiriq

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq bir-biri bilan mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan ixtiyoriy 3-4 ta predmetni oling. Ular asosida imkon qadar ko‘proq “hodisa”lar haqida hikoya (xabar) qiling. Hikoya (xabar)ingiz imkon qadar badiiylik kasb etsin!

Misol uchun: devor, velosiped, osmon.

Hodisa: “Bola uy yo‘lagining devoriga suyab qo‘yilgan velosipedni yetaklab, deraza oldiga keldi va osmonga qaradi” (jumlada ifoda etilgan hodisa shunchaki xabar. Hodisaning

mohiyati ijodiy xarakter kasb etishi uchun badiiy ibora va o‘xshatishlardan foydalanish zarur.

- Obyektlarning umumiy belgilarini topishga oid topshiriq

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo kam bog‘langan yoki mutlaqo bog‘lanmagan 2 ta obyektni oling. Quyidagi jadval asosida ularga taalluqli o‘zaro o‘xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling. O‘xshash jihat (belgi)larni ot yordamida ifodalang. O‘zaro o‘xshash jihat (belgi)larning imkon qadar ko‘proq bo‘lishiga harakat qiling.

Namuna

Bir-biri bilan mutlaqo kam bog‘langan yoki mutlaqo bog‘lanmagan obyektlar

Tarbiyaviy tadbir Sayohat

- Obyektning muqobillari yoki unga zid bo‘lgan obyektlarni topishga oid topshiriq

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli bir obyektni oling. Ikki ustunli jadvalni shakllantiring. Birinchi ustunga muqobili, ikkinchi ustunga esa doir zidi bo‘lgan obyektni qayd eting. Ularning xususiyatlarini tizimlashtiring.

Samolyot Olov

3. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bo‘yicha ishlash

Amerikalik psixolog E.P.Torrens tomonidan asoslangan “Tugallanmagan rasmlar” testi yuzasidan ishlashga oid topshiriq.

Tinglovchilarning e’tiborlariga E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi havola etiladi va berilgan shtrixlarga tayangan holda to‘laqonli rasm (surat)ni ishlash topshirig‘i beriladi.

E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi

Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.

Tinglovchilarning e’tiborlariga Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari havola etiladi va u bilan batafsil tanishib chiqish tavsiya etiladi. Ko‘rsatmalar bilan tanishilgach, jamoada muhokama tashkil etiladi.

Muhokama uchun savollar:

1.Devid Lyuis ko‘rsatmalarining ahamiyatini Siz qanday baholaysiz?

2.Shaxsiy hayotingizda ko‘rsatmalardan qaysilariga rioya etasiz?

3.Shaxsiy hayotingizda ko‘rsatmalardan qaysilariga e’tibor qaratasiz?

4.Ko‘rsatmalar bilan tanishish asosida shaxsan Siz qanday xulosalarga keldingiz.

5.Sizningcha, ko‘rsatmalardan eng ahamiyatlisi qaysi?

Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari:

1. Bolalarning savollariga chidam bilan to‘g‘ri javob bering.
2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. Bolalarga o‘z ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.
4. Agarda ijodiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang.
5. Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko‘rishingizni va ularni qanday bo‘lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
7. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko‘maklashing.
8. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.

9. Kamchiliklarini koʻrsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.

10. Bolani kamsitmang va oʻzini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yoʻl qoʻymang.

11. Uni mustaqil fikrlashga oʻrgating.

12. Bolani sevimli mashgʻulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring.

13. Uni turli voqealarni oʻylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.

14. Bolani yoshlikdan oʻqib-oʻrganishga odatlantiring.

15. Doimo bolaning ehtiyojlariga e'tibor qarating.

16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.

17. Oilaga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.

18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.

19. Bolani har bir yutugʻi uchun maqtang.

20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy boʻling.

21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga oʻrgatib boring.

22. Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni oʻylab toping.

23. Bolaga turli latta-puttalar bilan oʻynashni taqiqlamang – bu uning tasavvurini boyitadi.

24. Uni muammoni topish va uni hal qilishga ragʻbatlantiring.

25. Bolaga nisbatan oʻz munosabatingizni baholashda odil boʻling.

26. U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.

27. Bolaga qarorlarnimustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar boʻlish imkonini bering.

28. Bolaga uning shaxs boʻlib shakllanishi uchun yordam bering.

29. Bolaga uning uchun foydali bo‘lgan teleko‘rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko‘maklashing.

30. Uni o‘z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.

31. Bolani kattalardan mustaqil bo‘lishga o‘rgatib boring.

32. Bolaning o‘ziga va uning sog‘lom fikrga egaligiga ishoning.

33. Bolaga “Men ham buni bilmayman” deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bee’tibor bo‘lishga o‘rgatmang.

34. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo‘lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga yetkazishi uchun imkoniyat yarating.

35. Kundalik daftar yuriting va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

Mashg‘ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

2- mavzu. KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK TA’MINOTNI YARATISH (amaliy mashg‘ulot)

Tayanch tushunchalar: o‘quv topshiriqlari, ish qog‘ozlari, keyslar, darajali testlar, auditoriyani jihozlash, ma’naviy-ma’rifiy tadbirni tashkil etish uchun xona (joy, ayditoriya)ni jihozlash.

1. Muayyan mavzu bo‘yicha nazariy yoki amaliy mashg‘ulot uchun o‘quv topshiriqlarini shakllantirish va ular uchun ish qog‘ozlarini tayyorlash.

O‘zingiz uchun yaxshi tanish bo‘lgan mavzuda nazariy yoki amaliy mashg‘ulot uchun kamida 3 ta o‘quv topshiriqni

shakllantiring va ularning barchasi uchun ish qog‘ozlarini tayyorlang.

Namunalar

“Keys-stadi” texnologiyasi bilan ishlash uchun ish qog‘ozlari

Keys yechish uchun modulli yo‘riqnoma

Muammoning dolzarbligini asoslovchi dalillar Muammoning sabablari Muammoning ijobiy yechimini ta’minlovchi shart-sharoit

(omil, metod, vosita)

Keys muammosini tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi

dalillari Muammoni kelib chiqish

sabablari Guruh tomonidan taklif qilingan yechim Guruh yechimi

“Konseptual jadval” GO bilan ishlash uchun ish qog‘ozi.

O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi muhim jihatlar

Muhim belgi (yoki tavsif)lar

1-belgi (tavsif) 2-belgi (tavsif) 3-belgi (tavsif)

1-jihat

2-jihat

3-jihat

4-jihat

5-jihat

6-jihat

2. Muayyan mavzu bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulot, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar to‘plamini shakllantirish.

O‘zingiz uchun yaxshi tanish bo‘lgan mavzuda ma’ruza va amaliy mashg‘ulot, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar to‘plami (kamida 4 ta keys)ni shakllantiring.

Namuna

Keys bayoni. Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o‘rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o‘qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o‘zining karikatura janrida ishlangan rasmini

koʻradi. Karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh oʻqituvchining karikaturasiga, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutyapti. Biroq, oʻqituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qildi va shunday dedi: “Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto oʻchirgim kelmayapti. Rasm ijodkori – yosh rassom uni qogʻozga koʻchirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!”.

Keys savollari: 1. Oʻqituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan Siz qanday baholaysiz?

2. Bu vaziyatda oʻqituvchi qanday tarbiya metodini qoʻlladi?

Keys yechimi. Bu vaziyatda oʻqituvchi oʻzining tarjribali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani oʻzining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san’at asari sifatida qabul qildi. Natijada oʻqituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning oʻrniga oʻzining san’atga boʻlgan muhabbatini koʻrsatdi. Bunday yondashuv talabalarga oʻqituvchining irodali, oʻziga hurmat bilan munosabatda boʻlishi, hissiyotlarini jilovlay olish, oʻz-oʻzini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini koʻrsatdi. Oqibatda talabalar oʻqituvchining ruhan barqaror ekanliklarini angladi. Shu sababli keyingi safar ular oʻqituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istashmaydi.

Bayon etilgan vaziyatda oʻqituvchi 1) izohlash (oʻzida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yoʻnaltirilganlikni ifodalovchi hissiy-ogʻzaki ta’sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni ragʻbatlantirish metodlaridan biri boʻlgan – qoʻllab-quvvatlash metodidan foydalandi.

2-muayyan mavzu boʻyicha ma’ruza va amaliy mashgʻulot, shuningdek, reyting nazorati uchun darajali testlar toʻplamini shakllantirish.

Oʻzingiz oʻqitadigan fan boʻyicha B.Blum taksonomiyasiga koʻra oʻquv maqsadlarini belgilashning 6 ta kategoriyasi boʻyicha, har biri uchun 2 tadan jami 12 ta darajali test tuzing.

3-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINING O‘QITISH MAZMUNI VA MOHIYATI

(amaliy mashg‘ulot)

REJA:

1.Kreativ pedagogika fanining o‘qitish mazmuni va mohiyatini chizma ko‘rinishida tasvirlash.

2.O‘quv fani bo‘yicha aniq mavzularda keyslar to‘plamini shakllantirish. O‘quv fani bo‘yicha aniq mavzularda darajali testlar to‘plamini shakllantirish.

1-g‘oya. “To‘xta va boshla”. Turli kategoriyaga mansub savollar

Odatda o‘qituvchilar bir hil savolar berishga moyil bo‘ladi. Bu esa bir xillikni keltirib chiqaradi. Turli kategoriyaga mansub savollar esa o‘quvchilarda noodatiy javoblar berish, tahmin qilish, natijani oldindan ko‘ra bilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bunday savollar quyidagilarni tashkil etadi:

- Agarda ... (bo‘l)sa nima bo‘lgan bo‘lar edi? Masalan, agarda Amerika fuqarolar urushida Shimoliy shtatlar emas, balki Janubiy shtatlar g‘olib bo‘lganidan, bu qanday natijalarga olib kelgan bo‘lar edi? Agarda o‘lchov birliklari bo‘lmaganida, inson hayoti qanday kechgan bo‘lardi? Agarda Tomas Edison chiroq lampasini ihtiro etmaganida bizning hayotimiz qanday ko‘rinishga ega bo‘lardi?
- Foydalanishning boshqa usullari. Masalan, mobil telefonlardan yana qanday maqsadla va qanday vaziyatlarda foydalanish mumkin? Kompyuterga ma’lumot kiritishda

qo‘llaniladigan disklardan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

- Mahsulot (predmet, obyekt, qonun va h.k.)ni yaxshilash, takomillashtirish. Mustaqillik Deklaratsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish. Ob-havoni oldindan aytib beruvchi uskunani takomillashtirish.
- Istiqbolga intilmoq. Mashhur insonlarning turli muammolar, ta’lim tizimi, siyosiy rejimrga nisbatan bo‘lishi mumkin bo‘lgan munosabati, fikrini yozing.
- Sabab va oqibat. Masalan, Fuqarolar urushining sabab va oqibatlarini yozing. Adabiy asar qahramoni xatti-harakatining sabab va oqibatlarini yozing. Chiqindini qayta ishlash sabab va oqibatlarini keltiring.

2-g‘oya. “To‘xta va boshla”. Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi

Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi yuzaga kelgan muammoga teskari

tomondan qarash va uni boshqacha yondashuv bilan tahlil qilish demakdir. Bunday strategiya o‘quvchilardan erkin fikrlash, maslashuvchanlikni talab etibgina qolmay, balki ularda turli original fikr va qarashlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi g‘oyalari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Havo ifloslanishini oldin olish emas, balki havoni yanada ko‘proq

ifloslantirish.

- Urushlarga barham berish emas, balki yanada ko‘proq urushlarni keltirib chiqarish.
- Ichimlik suvini tejash emas, balki behudaga sarflash.
- Boshqalarni xursand qilish o‘rniga yoqimsiz vaziyatlarni keltirib chiqarish.

- Ijobiy fikrlashni emas, balki salbiy fikrlashni targ‘ib etish.
- A’lochi emas, ikkichi bo‘lish.

3-g‘oya. “To‘xta va boshla”. Ovoz/tovush effektlari

O‘quvchilarga ravon fikrlash, moslashuvchanlik va originallikni o‘rgatish jarayonida matn yoki adabiy asardan parchani ma’noli, intonatsiya va asarda yoritilgan ovoz/tovushlarni o‘hshatib o‘qish, ya’ni matni to‘laligicha, unda ta’riflangan barcha hodisalarni to‘la ifoda etish ko‘nikmasini ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars boshida o‘quvchilardan video/audio yozmadagi tovush, ovozlarga e’tibor qaratishlarini so‘rang; ular nimalarni anglatmoqda, asarga qanday tus, ma’no bermoqda. Tovushlar nimaga xizmat qiladi? Ular asar mazmun va ma’nosini chuqur anglab yetishda o‘quvchilarga yordam beradimi? O‘quvchilarga ma’lum bir asar, audio yozma, matn,esse, hujjatli filmdagi tovushlarni “aqliy hujum” strategiyasini qo‘llagan holda kategoriyalarga bo‘lib, ularning asardagi vazifasini aniqlashni vazifa sifatida bering. So‘ng talabalar asar ma’nosi va mazmunini chuqur anglashda qanday kategoriyaga mansub tovushlar ko‘proq rol o‘ynaganini aytishlari lozim. Mazkur vazifani bajarish va bunday strategiyani qo‘llashda quyidagi savollar varaqasidan foydalanish mumkin (2.4-Jadval). Natija va javoblar qog‘ozga tushirilgach o‘quvchilar berilgan asarni dars jarayonida o‘qib eshittirishlari lozim.

4-g‘oya. “To‘xta va boshla”. Kartochkalar bilan ishlash

Kartochkalar bilan ishlash ma’lum bir adabiy asarning mazmuni va ma’nosini chuqur anglib etishning boshqa usullaridan biridir. Kartochkalarning bir tomoniga asarda yoritilgan voqea yoki qahramon biror bir ramz yoki rasm ko‘rinishida chiziladi.

Kartochkalarning soni asarning hajmiga bog‘liq: ular 30 dan 40 gacha bo‘lishi mumkin. Ramz va rasmlarni chizishda o‘quvchilarni jalb etish ularda abstrakt fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, faqatgina o‘qituvchi rasmlar ma’nosini aytmasligi lozim. O‘quvchilar orasidan biri doskaga chiqib, kartochkalardan birini tanlab sinfxonada o‘tirgan o‘quvchilarga ko‘rsatadi. O‘quvchilar umumiy muhokama orqali kartochkadagi rasm va ramz qaysi qahramon yoki voqeani ifodalashini topishlari lozim.

5-g‘oya. “To‘xta va boshla”. O‘zaro bog‘lang va muammoning yechimini toping

Mazkur strategiya talabalardan ma’lum bir muammo va obyekt/predmet o‘rtasidagi bog‘liqlikni topib, uning yechimini izlashni talab etadi. Muammoning yechimi berilgan obyekt/predmetga asoslangan bo‘lishi shart. Bunday mashqlar o‘quvchilarda erkin fikrlash va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, mavzu bo‘yicha berilgan muammo va obyekt/predmet o‘rtasida iloji boricha ko‘proq bog‘liqlikni topishlari kerak. So‘ng o‘quvchilar tomonidan taqdim etilgan variantlar orasidan eng maqbul yechim tanlab olinadi.

6-g‘oya. “To‘xta va boshla”. O‘zgaruvchan matritsa

O‘zgaruvchan matritsa grafik organayzer bo‘lib, unda asosiy urg‘u talabalarning erkin fikrlash va moslashuvchanlik ko‘nikmalariga beriladi. Bunda talabalar mavjud nazariyalarni o‘z tadqiqotlari va o‘z yondashuvlari asosida o‘zgartiradilar. Organayzer dars mazmuni va mavzudan kelib chiqib tuziladi. Masalan, o‘quvchilar tabiiy fanlardan olgan bilimlari asosida bulutlar, ularning shakli nimalarga bog‘liq ekanligi haqida organayzer yordamida ifoda etishlari mumkin.

7-g‘oya. “To‘xta va boshla”. Nima nimani anglatadi?

O‘quvchilar mavzu, matn mazmuni o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lgan biror bir ramz yoki rasmni chizish mashqi Vilgelm ramziy obraz konsepsiyasi deb nomlanadi (2002). Masalan, o‘rta ta’lim maktabining adabiyot darsida o‘qituvchi o‘quvchilardan yozuvchi S.E. Xintonning (1967) “Autsayderlar” (The Outsiders) nomli hikoyasi mazmunini ifodalovchi simvol chizib berishni so‘raydi. O‘quvchilardan biri ramka ichiga rasm chizadi; rasm mozaika shaklida bo‘lib, har bir rasm bo‘lagining orqa tomoniga 1 yoki 2 raqami qo‘yilgan bo‘ladi. So‘ng o‘quvchilar rasm bo‘laklaridan birini tanlab, raqamlar asosida ikki guruh tuzadilar. Guruhlarga ajralgach, berilgan asar mazmun mohiyatini ifodalovchi ramziy rasmni muhokama qiladilar va uni mayda detallar bilan to‘ldiradilar. Har bir guruhning qo‘shimchalari turlicha bo‘lib, o‘quvchilar o‘z qarashlarini himoya qilishlari lozim.

8-g‘oya. “To‘xta va oshla”. YANM (Yangi va noodatiy mahsulot)

Mazkur strategiyadan talabalarni yangi mahsulot (narsa, konsepsiya, g‘oya, musiqa, she’r, badiiy asar, global muammoning yechimi va h.k.)ni yaratishga rag‘batlantirishda foydalanish katta samara beradi. Mazkur strategiyani uch o‘lchamli materiallarni qo‘llagan holda turli vaziyatlarga moslashtirish mumkin. Masalan, dars jarayonida noodatiy fikrlashni targ‘ib qilish orqali o‘rnatilgan qonunlarni o‘zgartirish yoki ularni yangilari bilan almashtirish, ya’ni o‘quvchilarning kiritgan yangiliklari o‘zgalarning manfaatlari va haq- huquqlariga zarar yetkazmasligi lozim. O‘quvchilarning ixtiro va yangiliklari tajribada tatbiq qilinsa, qilinmasada, ular insoniyat uchun xizmat qilishi, ularning hayotini qulaylashtirishi zarur. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi o‘quvchilarda biror narsani o‘zgartirish orqali erkin va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirshdir.

9-g‘oya. “To‘xta va boshla”. His eting

Mazkur strategiyani biror narsaga timsol berishda qo‘llash mumkin. Talabalar biror bir obyekt yoki buyum o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ko‘radilar. Bunda ularga quyidagi savollar yordam beradi:

- O‘zingizni qanday his etyapsiz?
- Nima haqida o‘ylayapsiz?
- Hozir nima qilmoqchisiz?

Bu startegiyani boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini o‘qitishda ham qo‘llash mumkin, masalan, 2.6-jadval parallelogram va Luis Sakarning Holes (O‘ra) (1998) mazmunini yoritishda qo‘llash mumkin. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar mazkur strategiyadan asarga qisqacha muzmun berish yoki asar qahramonining fe’l-atvorini ta’riflab berish yoki bir asar qahramonini boshqasi bilan taqqoslashda foydalanadilar. Bu usul asar yoki uning qahramonlari muhokama qilishda katta samara beradi.

10-g‘oya. “To‘xta va boshla”. Yo‘qotilgan va topib olingan

Talabalar “yo‘qolgan” ma’lumotni topadilar. Hayolan yo‘qotilgan ma’lumot mavjud ma’lumotga aniqlik kiritishga hizmat qiladi.

Masalan, o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari Shaping Earth’s Surface: Water (Kramer, 2005) kitobida yoritilgan “Venetsiyada toshqin” nomli maqolani o‘qiydilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga avval toshqin, uning oqibatlari haqidagi yo‘qolgan ma’lumot (matn, maqola)ni topishlari kerakligi aytadi. Bu qanday ma’lumot bo‘lishi mumkin? O‘quvchilar kitobdagi ma’lumot bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotni izlashga kirishadilar, ya’ni ularning o‘zlari ma’lumotni olgan bilimlari asosida yozadilar. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muhokama asosida ma’lumotlarni qog‘ozga tushiradilar.

Bunday usulni adabiyot darslarida ham qo‘llash mumkin. Masalan, biror bir badiiy asar: hikoya, masal yoki she’rning bir qismi olib tashlanadi, ya’ni ma’lumot yo‘qoladi. O‘quvchilar esa yo‘qolgan ma’lumotni qayta tiklashlari lozim. Bunda o‘quvchilar taklagan ma’lumot asarning mazmunini saqlab qolishi shart.

11- g‘oya. “To‘xta va boshla”. Nuqtai nazarni ifodalash

Mazkur strategiyani debat deb nomlash ham mumkin. Bunda talabalar boshqalarning fikrini inobatgan olgan holda o‘z qarashlari to‘g‘ri ekanligini isbotlashlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarni ikki guruhga ajratib, ikki xil nuqtai nazarni o‘rtaga tashlaydi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini himoya qilgan holda kichik bayon yozadi, so‘ng kichik guruhdagi boshqa talaba bilan bo‘lishadi. O‘quvchilar har bir bayondan eng asosiy fikrlarni saralab oladilar va boshqa guruhdagi

o‘quvchilarga qarshi turishda ulardan foydalanadilar. Har bir fikr og‘zaki bildirilib, bir o‘quvchi bittadan gap o‘qiydi. O‘quvchilar guruhlarda har bir fikr va qarashlarning ketma-ketligini ham muhokama orqali kelishib oladilar. Bunday usul o‘quvchilarda jamoa bo‘lib, hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini tarbiyalaydi.

4-MAVZU: KREATIV TA’LIM MUHITI (amaliy mashg‘ulot)

Kreativ ta’lim muhitini klaster orqali tasvirlash, o‘quv fani bo‘yicha aniq mavzularda rebus va anagrammalarni tayyorlash. O‘quv fani bo‘yicha aniq mavzularda krossvord, skanvord va boshqa boshqotirmalarni tayyorlash.

Keys. Pedagogik kengash yeig‘ilishida maktab direktori o‘qituvchilarning e’tiborlariga quyidagi ma’lumotni aytib o‘tdi: 6 nafar ota-ona tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o‘tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so‘ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o‘quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz?

Ariza bergan o‘quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqalashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari:

1- o‘quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a’lo baholarga o‘qiydi.

2- o‘quvchi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha do‘stlari ana shu sinfda ta’lim olishganligi sababli shu maktabga o‘tishga qaror qilgan.

3- o‘quvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli o‘quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so‘ng ular boshqa davlatga ko‘chib ketadi.

4- o‘quvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni “qoniqarsiz” bahoga o‘zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo‘limda ro‘yxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

5- o‘quvchi: qishloqdan ko‘chib kelgan, u yerdagi maktabda esa ingliz tili

o‘qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko‘p vaqtini bekor o‘tkazadi.

6- o‘quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar selebral paralichi (ВЦР) tashxisiga ega, fanlarni “4” va “5” baholarga o‘zlashtiradi, yolg‘iz onaning qo‘lida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o‘quvchi qabul qilinadi?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to‘g‘risida”gi Qonuni.

Ta’lim muassasalarining “Ta baqalashtirilgan ta’limni tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizomi.

Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi va “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash toʻgʻrisida”gi Qonunlarida bayon etilgan me’yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi boʻlgan oʻquvchi qabul qilinadi.

5-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI OʻQITISH SHAKLLARI

(amaliy mashgʻulot)

Kreativ pedagogika fanini oʻqitish shakllari mavzusida intellekt karta tuzish. Oʻquv fani boʻyicha aniq mavzularda krossvord, skanvord va boshqa boshqotirmalarni tayyorlash.

Interfaol metodlardan foydalanish. Mashgʻulotlarda interfaol metod (strategiya, grafikr organayzer)lar bilan ishlash talabalar tomonidan oʻquv axborotlarini tizimli, yaxlit holda oʻzlashtirish

imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, interfaol metodlar yordamida talabalar o‘quv axborotlari bilan ishlashda bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, muhim tushunchalarni tizimlashtirish, obyekt, jarayon, faoliyat, voqea, hodisalarning umumiy mohiyatini aniq ifodalash kabi ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Quyida pedagogik turkum fanlarini o‘qitish hamda talabalar, OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakalarini oshirish kurslari tinglovchilarida kreativlik sifatlari, ijodiy-kasbiy faoliyat malakalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanishga oid misollar keltiriladi. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri (GO) talabalarda mavzuga tahliliy yondashish, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:

GO talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

6-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA METOD VA VOSITALAR

(amaliy mashg‘ulot)

Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda metodlar. Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda ta’lim vositalari. Kreativ yondashuv asosida muayyan mavzuda ma’naviy-ma’rifiy tadbirni tashkil etish uchun auditoriyani jihozlash.

1- topshiriq: Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechimini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2-topshiriq: Kreativ pedagogika tushunchalari ma’nosini yozing

3-topshiriq:

Kreativ pedagogika tushunchalari Kreativ pedagogikaning tadqiqot metodlari

4-topshiriq

Berilgan gaplardan ishonchliligini asoslab, to‘g‘ri gapni tanlang, izohlang

1) Ijodkorlikni psixologik faollashtirish usullari - qidiruvning inertial yo‘nalishini oshirishga, tasodifiy, kutilmagan elementlardan qochishga imkon beradigan, odamning assotsiativ qobiliyatini inhibe qiluvchi, sinovlar va echimlar sonini ko'paytirishga imkon beradigan maxsus psixologik usullar.

2) Ijodkorlikni psixologik faollashtirish usullari - qidiruvning inertial yo'nalishidan qochishga, tasodifiy elementlarni, kutilmagan ni kiritishga, odamning assotsiativ qobiliyatini faollashtirishga, sinovlar va yechimlar sonini ko‘paytirishga imkon beradigan maxsus psixologik usullar.

3) Ijodkorlikni psixologik faollashtirish usullari - qidiruvning inertial yo'nalishidan, tasodifiy, kutilmagan hodisalardan qochishga, odamning assotsiativ qobiliyatini faollashtirishga, sinovlar va yechimlar sonini kamaytirishga imkon beradigan maxsus psixologik usullar.

7-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

(amaliy mashg‘ulot)

Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda metodlar. Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda ta’lim vositalari. Kreativ yondashuv asosida muayyan mavzuda ma’naviy-ma’rifiy tadbirni tashkil etish uchun auditoriyani jihozlash.

1- topshiriq:

Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechumini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2- topshiriq:

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farqni jadvalga solib yozing!

3- topshiriq:

Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib kichik rolik tayyorlang.

8-MAVZU: KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ZARURATI

(amaliy mashg‘ulot)

1- topshiriq:

Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechimini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2- topshiriq:

1- jadvalni to‘ldiring

Reproduktiv (an’anaviy) va ijodiy (proyektiv) didaktikani taqqoslash

O‘qitishning professional elementlar Didaktikaning o‘rganish turi

O‘qituvchi tomonidan

vazifani belgilash

Yechim usuli

O‘rganuvchi namuna

9- MAVZU. KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH

(amaliy mashg‘ulot)

1- topshiriq:

Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechimini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2- topshiriq:

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarini joriy etilishi nimalarda aks etadi

1. Mtematika va tabiiy fanlar (TIMSS) tizimi nima?
2. O‘qish (PIRLS) tizimini izohlang.
3. Fuqarolik va fuqarolik ta’limi (ICCS) tizimini izohlang
4. Kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ICILS) tizimini izohlang.

3- topshiriq:

Kredit-modul tizimini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlash.

10-11-MAVZU. O‘RTA SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV

(amaliy mashg‘ulot)

1- topshiriq:

Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechimini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2- topshiriq:

O‘rta sinflarda tarbiya fanini darsligini tahlil qilish

3- topshiriq:

5-6-sinflarda tarbiya fani darsiga kreativ yondashgan holda dars ishlanmasi va taqdimot yoki videorolik tayyorlash.

12-13-MAVZU. YUQORI SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDA KREATIV YONDASHUV

(amaliy mashg‘ulot)

1- topshiriq:

Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechimini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2- topshiriq:

Yuqori sinflarda tarbiya fanini darsligini tahlil qilish

3- topshiriq:

9-10-11-sinflarda tarbiya fani darsiga kreativ yondashgan holda dars ishlanmasi va taqdimot yoki videorolik tayyorlash.

14-15-MAVZU: TARBIYA FANI DARSLIKLARIGA KREATIV YONDASHUV
(amaliy mashg‘ulot)

1- topshiriq:

Kreativ ta’lim usullari ifodalangan pedagogik masalalar yechish

Pedagogik masalalar yechish Kreativ ta’lim usullari ishtirokida muammoli vaziyatlarning kreativ yechimini topish.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan zamonaviy kreativ talablar qanday?

2- topshiriq:

O‘rta sinflarda tarbiya fani darsligini kreativ yondashgan tarzda tahlil qilish

3- topshiriq:

Umumta’lim maktabi tarbiya fani darsiga kreativ yondashgan holda dars ishlanmasi va taqdimot yoki videorolik tayyorlash.

16-mavzu: Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda ijodiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ahamiyati
(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

Mashg’ulot rejasi:

1.O‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash – pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko‘rsatuvchi muhim holat ekanligi.

2. Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv.

3.Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati.

1-topshiriq. “Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv” mavzusida esse mavzusida o‘n minutlik esse yozish.

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish

shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi. O‘n minutlik esseni yozish qoidalari:

1. Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.

2. “Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv “tarbiyadan maqsad ... bo‘lishi kerak” kabi jumlalardan foydalaning.

2-topshiriq. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga doir blits-so‘rov savollari

1. Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish nima tushuniladi?

2. Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning keng ma’nolardagi ifodasini izohlang.

3. . Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish deb nimaga aytiladi?

4. . Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirisdan ko‘zlangan maqsad nima?

5. . Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni deganda nimani tushunasiz?

6. . Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.N.N. Azizxo’jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.

2.R.A.Mavlonova, N.X.Raxmankulova. “Boshlang’ich ta’limda innovatsiya”. T., TDPU 2007-y.

IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON3493.Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.4.Minamatov, Y. E. U. (2021).

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2.www.pedagog.uz
3.www.tdpu.uz

17-Amaliy: O‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash – pedagogning kreativlik sifatlari
(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)
Mashg’ulot rejasi:
1. O‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash yo‘llari .
2. Axborot (ma’lumot)larini samarali izlash – pedagogning kreativlik.
3. Pedagogning kreativlik sifatlari
.

1-topshiriq. Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalarini tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.
Axborotlarini jamlashning reja namunasi

Kunlar yoki sana	**Axborot olish manbalari**	**Olingan axborot dinamikasi**	**Kunlar yoki sana**	**Axborot olish manbalari**	**Olingan axborot dinamikasi**
Dushanba (sana)			Payshanba (sana)		
Seshanba (sana)			Juma (sana)		
Chorshanba (sana)			Shanba (sana)		

Tarbiyaviy ishlar rejasida yoritiladigan ishlar mazmuni quyidagi yo‘nalishlar asosida bo‘lishi mumkin.

I. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning nutq va asarlarini oʻrganish.

II. Milliy mafkura tarbiyasi.

III. Gʻoyaviy-siyosiy tarbiya masalalari.

IV. Maʼnaviy-ahloqiy tarbiya.

V. Huquqiy tarbiya.

VI. Iqtisodiy va ekologik tarbiya.

VII. Jismoniy va estetik tarbiya.

2-topshiriq. “Har qanday guruh jamoa boʻla oladimi?” mavzusida munozarani oʻtkazishga doir koʻrsatmalar

1. Oʻqituvchi munozara uchun savolni muhokama qilish uchun oʻrtaga tashlaydi va oʻylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi.Garchi takrorlanish holati mavjud boʻlsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.

3. Hamma oʻz fikrini bildirib boʻlgach, oʻqituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va toʻgʻri javoblar ajratib olinadi.

3-topshirq. Jamoa va uning oʻziga xos belgilarini oʻzlashtirilishiga doir blis-soʻrov savollari

1. Jamoa deganda nima tushuniladi?
2. Jamoaning oʻziga xos belgilari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsad deganda nima tushuniladi?
4. Jamoaning birgalikdagi umumiy faoliyati nimalarda aks etadi?
5. Oʻquvchilar jamoasining majburiy masʼuliyatli munosabatini yoʻlga qoʻyish nima uchun zarur?
6. Jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishidagi farqlar nimada namoyon boʻladi?

4-topshiriq. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirishga doir toifalash jadvali

O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari	**O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari mazmuni**	**O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari**	**O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari mazmuni**

5-topshiriq. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllariga doir amaliy topshiriqlar

5.1-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va ularni mazmunan guruh rahbarining qaysi funksiyasini ifoda etishini aniqlang.

1) hududiy, mikromuhit, ta’lim muassasasi, o‘quvchilarning o‘zlarini rivojlantirish bilan bog‘liq ulardagi ijobiy tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash;

2) o‘quvchilar tarbiyasidagi mavjud holat va doimiy o‘zgarishlarni aniqlab borish, tarbiyalanuvchi shaxsi hamda individual rivojlanishini tadqiq va tahlil etish, samarali natijalarga erishilmayotganligining sabablarini izlash;

3) o‘quvchilar bilan birgalikda tarbiyaviy faoliyatga doir maqsadlarni aniqlashtirish,guruh rahbarining burchi o‘quvchilarning yoshi va guruh jamoasining shakllanganlik darajasini hisobga olish;

4) o‘z-o‘zining va guruh jamoasi faoliyatini oqilona tashkil etishga yordam berish, pedagogik faoliyatning ketma-ketligini belgilash, pedagogik jarayonning ketma-ketligi, izchilligi, tizimliligini ta’minlash;

5) tarbiyalanuvchilarning jismoniy, aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishi uchun shart-sharoityaratish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga muvafaqqiyatli moslashuvini ta’minlash.

18-Amaliy: Teatr pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv.
(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

Mavzu rejasi:

1.Teatr pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishda kreativ yondoshuv.
2. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi.
3.O‘quv mashg’ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv.

1-Topshiriq.“ Teatr ommaviy nutq qo'rquviga qarshi kurashning samarali vositasiga, o'ziga ishonchni tarbiyalash vositasi qanday yo‘llardan foydalanishgan?” mavzusida erkin yozish topshirig‘i

Topshiriq:“ Teatr ommaviy nutq qo'rquviga qarshi kurashning samarali vositasiga, o'ziga ishonchni tarbiyalash vositasi qanday yo‘llardan foydalanishgan?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.

2.besh daqiqa tugagach,vaqt tuganganligi ma’lum qilinadi.biroqbir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan

talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

2-topshiriq. Tarbiyaning umumiy metodlarini aniqlashga doir nostandart topshiriq



1. Ijtimoiy fikr. 2. Nasihat. 3. O‘z-o‘zini baholash. 4. Jazolash. 5. Munozara. 6. Musobaqa. 7. Rag‘batlantirish. 8. Izohlash 9.Hikoya. 10. Mashq. 11. Namuna. 12. Ishontirish. 13. O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish. 14.Yo‘riqnoma. 15. Topshiriq. 16.Ma’ruza. 17. Tushuntirish. 18. Odatlantirish. 19. Etik suhbat 20.Pedagogik talablar. 21. Tarbiyalovchi vaziyat.

3-topshiriq. .“ Teatr ommaviy nutq qo'rquviga qarshi kurashning samarali vositasiga, o'ziga ishonchni tarbiyalash vositasi qanday

yo‘llardan foydalanishgan?” o‘zlashtirishga oid interfaol metodlar.
1-topshiriq. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari hamda tarbiya metodlari tasnifiga doir Assisment metodi

Test Tarbiya metodlariga berilgan ta’rifni tanlang. A. Turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari. V.Shaxsga tarbiyaviy ta’sir etish, uning hayoti va faoliyatini uyushtirish asosida unda ma’naviy-axloqiy tushuncha, e’tiqod va fazilatlarni tarkib toptirish usullari. S. Tarbiyalash, pedagogik ta’sir ko‘rsatish xususiyatga ega xatti-harakatlar majmui.	Muammoli vaziyat Sinf o‘quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.
Simptom Tarbiyaning umumiy metodlari: Tarbiya vositalari:	Amaliy ko‘nikma Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari qo‘llaniladi?

19-Amaliy: Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi
(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)
Mashg’ulot rejasi:
1. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda

kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi.

2.O‘quv mashg’ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv.

1-topshiriq. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi.

.



2-topshiriq. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik doir blits-so‘rov savollari

1. **Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik** deganda nima tushuniladi?

2. “aqliy”, “Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik” va “Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda o‘qituvchining o‘rni” tushunchalariga izoh bering.

3. **Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik usullari**?

3-topshiriq. O‘quv mashg’ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar

tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuviga oid topshiriqlar

3.1-topshiriq. "Tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik**"** mavzusida sayohat metodini tashkil etish va o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

1. Talabalar uch guruhga bo‘linadilar hamda ularga "vatanparvarlik", "baynalmilallik" va **"**harbiy vatanparvarlik" mavzusiga doir ijodiy ish tayyorlash vazifasi topshiriladi;
2. Guruhlarda ishlash uchun vatman qog‘ozi, marker va skoch kabi jihozlar taqdim etiladi.
3. Guruhlarda ishlash tartibini o‘qituvchi boshqarib borishi va talabalarning har birining ishtirokini ta'minlashi zarur.
4. Talabalar ularga berilgan mavzu bo‘yicha ijodiy ishni tayyorlab bo‘lganlaridan so‘ng, uning taqdimotini amalga oshirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.
3. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
4. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

20-Amaliy: O‘quv mashg‘ulotlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv. (Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

Mashg'ulot rejasi:

1. O‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning pedagogik ahamiyati.
2. O‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning maqsad va vazifalari.
3. O‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning olib borishning shakllari.

1-topshiriq. Iqtisodiy va ekologik tarbiyani o‘zlashtirilishiga doir blis-so‘rov savollari

1. Nima uchun o‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning tarkibiy qismi hisoblanadi?

2. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuvni amalga oshirishning qanday shakllari mavjud?

2. **2-topshiriq. «Qanday» organayzerini to‘ldiring**

1-ilova

Muhim muammoning Yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.





3-oʻquv topshiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni щal etishda ҳamda ўқuv jarayonini baxs-munozarali ўtkazishda қўllaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni ўz fikrini ximoya қilishga, erkin fikrlash va ўz fikrini boshқalarga ўtkazishga, ochiқ xolda baxslashishga ҳamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini ўratadi.Tinglovchilarga tarқatilgan oddiy қoғozga ўz fikrlarini aniқ va қisқa xolatda ifoda etib, tasdiқlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting
S – fikringiz bayoniga sabab kўrsating
M – kўrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni toʻldiring

1-2-guruh

Savol	Oʻquvchilarni mehnat qilish va kasb tanlashiga tayyorlash
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab koʻrsating	
(M) Koʻrsatgan	

sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent, Fan, 2008.
3. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
4. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

21-Amaliy: Kreativ kompetentsiya.
(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

O‘qituvchilarning Kreativ kompetentsiya rivojlantirishga doir blits-so‘rov savollari

1. Kreativ kompetentsiya deganda nima tushuniladi?
2. Kreativ kompetentsiyaviy majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Kreativ kompetentsiyaviy ma’suliyati nimalardan iborat?
4. Kreativ kompetentsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Kreativ kompetentsiya tarbiyasining maqsadi nima?
6. Kreativ kompetentsiya tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat?

1-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir ijodiy test topshirig‘i

1. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... o‘quvchilarga huquqiy mehyorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo‘lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va ehtiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

3. Gapni tugallang.

Huquqiy mehyorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qathiy va og‘ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida ehtirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy xatti–harakatlar majmui ...

4. Gapni davom ettiring.

...xalqni xalq, millatni millat qilib ko‘rsatadi.

5. Gapni davom ettiring.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi: ...

6.Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o‘zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

5. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
6. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent, Fan, 2008.
7. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

8. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

22-Amaliy: Kreativ pedagogik faoliyat ijodiy salohiyatning asosiy komponentidir

(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

Mashg’ulot rejasi:

1.Kreativ pedagogik faoliyat ijodiy salohiyatning asosiy komponenti.

2.Kreativ pedagogik faoliyat ijodiy salohiyatning asosiy komponenti, tamoyillari va metodlari.

3.Kreativ pedagogik faoliyat ijodiy salohiyatning asosiy komponenti boshqarish.

1-topshiriq.

Ta’lim muassasasi menejmenti mohiyatini aniqlashtirishga doir blis-so‘rov savollari

1. Kreativ pedagogik faoliyat deb nimaga aytiladi?
2. Kreativ pedagogik faoliyat ijodiy salohiyat tushunchalariga izoh bering.
3. Kreativ pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
4. Kreativ ijodiy salohiyat deganda nima tushuniladi?

2-topshiriq. Kreativ pedagogik faoliyat ijodiy salohiyatni boshqarish funksiyalari, tamoyillariva metodlariga doir toifalash jadvali

Kreativ funksiyalari	**Kreativ tamoyillari**	**Kreativ funksiyalari**	**Kreativ tamoyillari**

23-Amaliy: Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari

(Amaliy mashg‘uloti)

Mashg’ulot rejasi:

1.Kreativ kompetentsiyaning mezonlari aniqlash darajalari

2.Kreativ kompetentsiyaning darajalarini belgilash yo‘llari

3.Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari. Yosh o‘qituvchilar bilan ishlash yo‘llari.

1-topshiriq. Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari belgilash bo‘yicha amaliy topshiriqlar

1.1-topshiriq. “Men Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari haqida nimalarni bilaman?” mavzusidagi erkin yozish topshirig‘i.

Topshiriq: “Men Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari haqida nimalarni bilaman?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.

2. Besh daqiqa tugagach,vaqt tuganganligi ma’lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda engyaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan

talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

1.2-topshiriq. Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari maqsad va vazifalariga doir blis-so‘rov savollari

1. Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari maqsad nimada?
2. Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
3. Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari qanday mohiyatga ega?
4. Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalarini amalga oshirish maqsadi nima ?

2-topshiriq. Kreativ kompetentsiyani takomillashtirishni tashkil etishga doir topshiriqlar

2.1-topshiriq. Kreativ kompetentsiyani shakillantirish rejasini tuzish.

Yillik ish rejalarni tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.

№	Bajariladigan ishlar	Bajarilish muddati	Mas’ul

3-topshiriq. O‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini oshirish va yosh o‘qituvchilar bilan ishlash shakllariga doir quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish shakllari	Yosh o‘qituvchilar bilan ishlash shakllari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

2. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.

3.Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

4.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

5.TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

6.Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

7. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma’naviyat. 2007.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz 3.www.tdpu.uz

2.www.pedagog.uz

24-Amaliy: Kreativ kompetentsiya modelining shakllanishi. (Amaliy mashg‘uloti)

Mashg’ulot rejasi:

1. Kreativ kompetentsiya modelining shakllanishi tamoyillari.
2. Umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimining malaka tavsiflari.
3. Kreativ kompetentsiya modelining shakllanishi amalga oshirish shart- sharoitlari.

Kreativ kompetentsiya mohiyati va asosiy tamoyillari.

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko’rsating).
M (Ko’rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

2-topshiriq. Kreativ kompetentsiyaning malaka tavsiflarini “Qanday?” texnologiyasi orqali bayon qiling.



3-topshiriq
Klaster metodi



25- Amaliy: O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullari

(Amaliy mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

Reja:

1.O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullarining

maqsad va vazifalari.
2. O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullarining tamoyillari va metodlari.
3. O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish usullarining umumiy tavsifi.
3.Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari.

1-topshiriq. “O‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirish...“ mavzusida asoslangan esse yozish.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o‘z nuqtai nazaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

2-topshiriq. O‘qituvchining kreativ rivojlanishidagi diagnostika qilishda korrektsion ishlar aniqlashda “Charxpalak” metodini aniqlash.

Xususiyatlari	**tamoyillar**	**metodlar**
Insonparvarlik		
Bolalarni kompleks o‘rganish		
Suhbat		
Kuzatish		
Bolani har tomonlama va yaxlit o‘rganish		
Bolani dinamik o‘rganish		
Sifatiy-miqdoriy yondashuv		
Rasmlarini o‘rganish		
Yoshi		
Tajriba-psixologik tadqiqotlar		
Testlar		

4-topshirirq. O‘qituvchining kreativ rivojlanishi metodlariga

doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. O‘qituvchining kreativ fikrlashini o‘rganish maqsadida taxminiy so‘rovnoma variantini ishlab chiqing.

2-topshiriq. O‘qituvchining kreativ rivojlanishi ro‘yxatini ishlab chiqing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1.Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

2.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

2. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.

3.Usanova O.N. Ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar. –Moskva: Pedagogika, 1995.

4.Novotortseva N.V. Korrektsionnaya pedagogika i spetsialьnaya psixologiya. Slovarь. – Moskva: Pedagogika, 1999.. Shubina A.B. Toshkent. 2009.

6. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta’minlashning ilmiy-pedagogik asoslari. L.Sh.Nurmuhammedova.-Toshkent. 2014.

7. Maxsus pedagogika. Toshkent.: “Fan va texnologiyalar” 2014.

8. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

5. Boshqalardan farqli bola: parvarishlash va rivojlantirish

9. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore

MUSTAQIL TA’LIM MAQSADI, MAZMUNI VA VAZIFALARI

Mustaqil ta’limning maqsadi:

- talabalarni “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanining pedagogika nazariyasi bo‘limi bo‘yicha nazariy bilimlar mustahkamlash va umumlashtirish;

- talabalarda fan asoslarini mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- talabalarning bilish faolligi, mustaqil ijodiy ish qobiliyatlari va kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- talabalarda o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish va takomillashtirish malakalarini qaror toptirishdan iborat.

Mustaqil ta’lim mazmuni

Mustaqil ta’lim mavzusi talabalar mustaqil o‘rganadigan ma’ruza va seminar mashg‘uloti mavzulalaridan iborat bo‘ladi. Jumladan: Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati,

maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta’lim muassasalarini boshqarish, korrektsion pedagogika asoslari.

Mustaqil ta’lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga mavzularni tushunishg qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyo¬qa¬rash¬lini kengaytirishga yordam beradi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o‘quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o‘rin egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o‘quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko‘nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta’minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog‘liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi – bu sirtdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma’lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya’ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko‘zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi tipi - bunda o‘zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya’ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g‘oyasi (tamoyili) e’lon qilinadi, talabalardan ushbu g‘oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo‘lmagan vazifalarni bajarish chog‘ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir.

Bu maqsadga talabalardan o‘rganilayotgan ob’ektdagi o‘zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to‘rtinchi tipi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan ob’ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo‘lgan yangi, oldindan noma’lum bo‘lgan g‘oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan yangi aloqalar munosabatlarni o‘rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o‘zi yaratishi lozim bo‘lgan, uning uchun yangi bo‘lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo‘ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

namunalar bo‘yicha mustaqil ishlar;

rekonstruktiv-variativ;

evristik (qisman, ijodiy);

ijodiy tadqiqot.

Namunalar bo‘yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o‘zlashtirishga omil bo‘ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o‘stirmaydi.

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko‘zda tutadi.

Evristik mustaqil ishlar lektsiya, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda qo‘yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog‘liqdir.

Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko‘ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish,

muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo‘ljallaydi.

Ijodiy tadqiqot ishlari. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo‘ladi. Talaba o‘z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo‘lgan holda masalaning hal qilinish yo‘llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo‘yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi.

SHunday qilib, mustaqil ishlar o‘qitishning eng muhim metodi bo‘lib, unda talabalar mashg‘ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;

mustaqil ravishda o‘z bilimlarini yanada oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi;

mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;

mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.

Mustaqil ta’lim jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil ta’limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to‘g‘ri baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo‘lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo‘ladigan sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlaydi.

SHuningdek, mustaqil ta’limga amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiradi.

Mustaqil ta’limning muhim metodlaridan biri ularning muloqotidir. Mustaqil ta’limning pirovard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o‘zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan soatlarning miqdoriy taqsimoti.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari bo‘yicha tavsiyalar.

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” bo’yicha mustaqil ta’lim semestr davomida amalga oshriladi. Mustaqil ta’lim joriy nazorat hisobidan maksimal 20 ball bilan baholanadi.

1. Mustaqil ta’lim				
№	**Mustaqil ta’lim mavzulari**	**Mustaqil ish topshirig’i**	**Dars soati**	**ball**
V - semestr				
1	Badiiy pedagogika imkoniyatlari-dan foydalanishda kreativ yondoshuv.Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda ijodiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ahamiyati Teatr pedagogikasi imkoniyatlari-dan foydalanishda kreativ yondoshuv	Badiiy pedagogika imkoniyatlaridan foydalanishda ijodiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ahamiyati va teatr pedagogikasi imkoniyatlari-dan foydalanishda kreativ yondoshuv bo‘yicha tezis tayyorlash	4	2 ball
2	Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo‘lishi. O‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv	O‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladigan auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondoshuv asosida xona proektini tayyorlash	8	2 ball
3	Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari. Pedagogning kreativ kompetentsiya-sini shakllantirishning tamoyil-lari va omillari.	Kreativ kompetentsiyaning mezonlari va darajalari bo’yicha klaster tuzish	8	2 ball
4	O‘qituvchining kreativ kompeten-tsiyasini shakllantirishning modeli. Kreativ tayyorgarlik-ijodiy etuklikning tarkibiy qismi.O‘qituvchining ilmiy ijod usullari.	Kreativ tayyorgarlik-ijodiy etuklikning tarkibiy qismi.O‘qituvchining ilmiy ijod usullarini foydalanish bo`yicha klaster va venn diagrammalarini tuzish	8	2 ball
5	Mustaqil ravishda o‘quv kurslari va mualliflik dasturlarini ishlab chiqish.Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy kompeten-	Mustaqil ravishda o‘quv kurslari va mualliflik dasturlarini ishlab chiqish.	8	2 ball

	tsiyalarini shakllantirishda kreativ yondoshuv. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirishda ijodiy yondoshuv.			
6	O‘quv dasturlarini yaratishga kreativ yondoshuv. Kreativ yondoshuv – o‘quv manbalari (ma’ruza matni, o‘quv darsligi, o‘quv va metodik qo‘llanma hamda o‘quv metodik majmualar)ni samarali yaratishning muhim omili. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshuvning ahamiyati	Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshuv bo’yicha electron dasturiy vosita yaratish	8	2 ball
7	O‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash – pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini ko‘rsatuvchi muhim holat ekanligi. Kreativ yondoshuv asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash O‘quv jarayonining bosqichi va o‘quv materialining mohiyatidan kelib chiqqan holda turli murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanish – pedagog kreativligining muhim jihati O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondoshuv	O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga kreativ yondoshuv mavzusiga doir ilmiy maqola tayyorlash	8	2 ball
8	Boshqaruv jarayonida sog‘lom muhitni shakllantirish. Ijodiy muhitni shakllantirish mexanizmlari**.**O‘qituvchining kasbiy faoliyatida kreativ muloqot tizimi. SHaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish. O‘qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirishda kreativ funktsiyalari.	Ijodiy muhitni shakllantirish mexanizmlari mavzusida o‘quv loyihasi tayyorlash	8	2 ball
9	O‘qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog‘liq kreativ xususiyatlari. Pedagogik kreativ ta’sir ko‘rsatish - kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida.O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatida kreativ, tanqidiy ta’sir o‘tkazish.	O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatida kreativ, tanqidiy ta’sir o‘tkazish bo‘yicha tezis tayyorlash.		2 ball
10	Hozirgi zamon o‘qituvchisining kreativ pedagogik faoliyati. O‘qituvchining ta’lim jarayonida	Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshgan xolda tayyorlash,		2 ball

	kasbiy omilkorligi. O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralashda kreativ yondoshuvning ahamiyati	eg‘ma jild xosil qilish		
		Jami	**60**	20

Glossariy

Termin	O’zbek tilidagi izohi	Rus tilidagi izohi	Ingliz tilidagi izohi
Modernizatsiya Modernizatsiya Modernization	Pedagogik ta’lim jarayoni va pedagogika fanini davr talablari asosida yangilash	Protsess pedagogicheskogo obrazovaniya i obrazovatelьnoy nauki na osnove obnovleniya perioda	Modernization of pedagogical process and pedagogical science on the basis of time requirements
Uzluksiz ta’lim Neprerыvnoeob razovanie Continuous education	O’zaro mantiqiy izchillik asosida bog’langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi	Ssыlka na osnove logicheskoy posledovatelьnosti i prostoty, v zavisimosti ot slojnosti razrabotki i trebuet odin shag tselostnoy sistemы obrazovaniya	Integrated learning system consisting of interconnected and interconnected stages, connected by a logical sequence
Milliy model natsionalьnaya modelь National model	“kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o’zagini tashkil etuvchi yaxlit tizim	«Natsionalьnaya programma» sostavlyaet yadro vsey sistemы	A unified system that forms the core of the National Program of Personnel Training
ta’limni milliy modeli, natsionalьnыy modelь obrazovaniya,	O’zbekiston respublikasida ta’lim tizimini yangilangan sog’lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta’lim-	Sistema obrazovaniya Respubliki Uzbekistana na osnove obnovlennogo zvuka pedagogicheskogo mыshleniya radikalьnых reform, uchebnые	Theoretical and methodological, practical and pedagogical approaches to radical reforming of the

Educationnational model	tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy-pedagogik yondoshuvlar majmui. Ta'limning milliy modelida ma'naviy-intellektual jihatdan barkamol shaxsning o'z ijodiy qobiliyatini to'la namoyon etishini ta'minlash ko'zda tutiladi.	zavedeniya i personal podgotovili intellektualьnыy, duxovnыy i nravstvennыy urovenь razvitыx stran v sootvetstvii s urovnem teoretiko-metodologicheskogo i prakticheskogo naborom pedagogicheskix podxodov.	education system in the Republic of Uzbekistan on the basis of up-to-date healthy pedagogical thinking, as well as bringing the cadres trained in the educational institutions to the level of developed countries at the level of intellectual, spiritual and ethical level.
Ta'lim Obrazovaniya, education	O'quvchi va talabalarga bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi	SHkolьniki i studentы po razvitiyu znaniy, podgotovki, navыkov i kvalifikatsii, chtobы ubeditьsya, chto protsess, osnovnыm sredstvom podgotovki molodыx lyudey k jizni i rabote	The process of educating, educating, developing skills and skill in pupils and students is a major tool for preparing young people for life and work.
Tizim Sistema, system	Tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa	Cledstvennaya svyazь mejdu obrazovatelьnым sobытiem	A regulated, interdependent and influential pedagogical event
Ta'lim tizimi Smstema obrazova niya, Eeducational system	Turli daraja va yo'nalishdagi o'zaro aloqador uzluksiz ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy-huquqiy tarlaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni	Razlichnыe stepeni i vzaimnыe svyazannыe programmы neprerыvnogo obrazovaniya i gosudarstvennыe obrazovatelьnыe standartы, nezavisimo ot organizatsionno-pravovogo Tarlev vse sektora obrazovatelьnыx uchrejdeniy, organы	Integrated continuing education programs of varying degrees and directions, and the system of inclusive education, regardless of organizational and legal status, covering all sectors of educational institutions, education management bodies

	qamrab oluvchi tizim	upravleniya obrazovaniya i uchrejdeniya i organizatsii v ramkax sistemы konteynera	and their institutions and organizations
Ta’lim printsiplariprintsipы obrazovaniya EducationPrinciples	Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ta’lim maqsadlariga muvofiq o’qitishning asosiy xarakterini belgilab beruvchi tayanch qoidalar	Po obrazovaniyu molodeji v obrazovatelьnыx tselyax prepodavaniya osnovnыx pravil, kotorыe opredelyayut xarakter bazы	Guidelines for determining the basic character of education in accordance with educational objectives for young people
Tarbiya Vospitanie Education	SHaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; yosh avlodni mujassam rivojlantirishga yo’naltirilgan umuminsoniy hamda milliy ijtimoiy tajribani o’quvchi va talabalarga uzluksio’ taqdim etish jarayoni	Lichnыe opredelennыe fizicheskie, psixicheskie, moralьnыe i duxovnыe obrazovaniya, napravlennыe na uchebnom protsesse; razvitie molodogo pokoleniya, sochetayuщee v sebe chelovecheskiy i sotsialьnыy opыt shkolьnikov i studentov, chtobы obespechitь neprerыvnыy protsess	Practical pedagogical process aimed at the formation of certain physical, psychological, moral, spiritual qualities in a person; Continuous delivery of universal and national social experience to students and students aimed at the inclusive development of the younger generation
Innovatsiya, Innovatsiya innovation	Yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar	Novыe kontseptsii, protsedurы i texnologii novosti	New concepts, rules, technologies and news
Menejment, Menejment, Management	Mavjud minimal imkoniyatlarda nmaksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayoni	Dlya dostijeniya tekuщego minimuma nmaksimal effekta konkretnogo litsa ili gruppы lits, oni doljnы sotrudnichatь s protsessom	Effect on a particular employee or team, the process of collaboration with them in order to achieve the best possible results in the existing minimum capabilities
Kompetentsiya	Lotinchada “competo” erishyapman, munosibman, loyiqman-u yoki bu sohadagi	Latinskaya «Konkurirovatь» tselь, dostoynaya, loyiqman-on ili sredstva poznaniya,	In Lotin, I'm gaining a "competo", meaning worthy, worthy, or knowledgeable, or

	bilimlar, tajribaga degan ma’nolarni anglatadi.	opыt rabotы v etoy oblasti.	experience.
Boshqaruv	Bu qadimgi san’at va eng yangi fandir	Eto samoe drevnee iskusstvo i nauka	It is the oldest art and the latest fanatic
Ko’pqir rali qobiliyat lar	Soddaroq qilib tushuntiradigan bo’lsak ko’pqirrali qobiliyatlar deganda turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o’rganilishi tushuniladi. Xou ta’kidlashicha hech qachon ikki o’rganuvchi bir xil bo’lmaydi: har bir shaxs o’ziga xos qobiliyatlar egasidir	Prostoe ob’yasnenie mnogoobraznыx navыkov s pomoщьyu razlichnыx metodov dlya raznыx lyudey oznachaet raznыe veщi dlya cheloveka ili ponyatь razlichnыe vidы obucheniya. Xou skazal, chto nikakie dva issledovaniya ne yavlyayutsya ne to je samoe: kajdыy chelovek imeet nedostatok sostoyanie	To illustrate, it is understood that multidimensional abilities can mean that different people learn differently or in different ways. As Hoe argues, the two learners will never be the same: each person has his own abilities
Avtoritar rahbar-	Barcha ko’rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq, ravshan, keskin ohangda xodimlariga yetkazadi	Vse instruktsii konstruktivnыy dux, chetkie, yarkie, ostrыe navыki	It sends all instructions to its employees in a business sense, clear, clear, sharp tone
Liberal (loqayd)	Uslubda ishlaydigan rahbar - kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda ta’qiqlash, po’pisa bo’lmaydi, uning o’rniga, ko’pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos.	Upravlenie materialьnыx potokov - nastroenie, otnoshenie, dovolьnoe ili nedovolьnoe znatь, chto tyajeluyu rabotu. Zapret ne budet ugrojatь, a, po bolьshey chasti ogranichivaetsya vstretitь konets poslednego sluchaya.	It is difficult to know how the manager working in style - mood, work attitude, satisfaction, or dissatisfaction with the job. It does not intimidate, and it is often limited to getting acquainted with the final outcome of the case.
Demokratik rahbar -	Aksincha, o’z qo’l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning qobiliyatini hisobga oladi, shaxsiy moyilliklarni ham	Naprotiv, yego podchinennыe, vыstupayuщie za nezavisimostь, svobodu. Uchitыvaya vozmojnostь rabotы v predostavlenii instruktsii rabotnikov, prinimaya vo vnimanie	On the contrary, he is a supporter of freedom and self-determination. She takes into account the capabilities of the worker when she gives her assignments, and takes into account

	hisobga oladi.	lichnыe naklonnostey.	individual trends.
Tarbiya	Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.	TSelь konkretnogo, yasno i rastet vse aspektы cheloveka na osnove sotsialьnogo i istoricheskogo opыta, soznaniya, povedeniya i perspektivы protsessa razrabotki kontenta.	A process of comprehensively cultivating a person, developing consciousness, behavior and outlook on the basis of specific, concrete goals and socio-historical experience.
Aqliy tarbiya	Ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish;	Nauki, texniki i texnologii dostijeniya, innovatsii i otkrытiya osvedomlenы o sotsialьnыx i yestestvennыx nauk osnove znaniy o formirovanii stilya mыshleniya i mirovozzreniya razvitiya;	Developing the world of thought and thinking in the way of science, technology and technology achievements, innovations and discoveries, teaching them the basics of social and natural sciences;
Estetik tarbiya	Estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;	Esteticheskie emotsii, esteticheskoe i kulьturnoe nasledie ix tvorcheskix sposobnostey, potrebnostey razvitiya chuvstva pogone za lyubvi i krasotы, krasotы, kulьturы;	Aesthetic feelings, upbringing of aesthetic taste, love of their creative abilities, aesthetic needs and beauty, development of emotions of beauty, formation of aesthetic culture;
Ekologik tarbiya	Ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati	Ekologicheskie znaniya o yedinstve lichnosti, obщestva i prirodы, i ob'yasnitь studentam, ix uchastie v chelovecheskoy ekosisteme, vajnaya rolь v razvitii chelovecheskogo obщestva, a takje	Explanation to the reader of the individual, society and nature on the basis of the ecological knowledge, as well as the understanding of the ecosystem's role in the development of human, humanity and

	borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;	ukrepitь nashe ponimanie sushnosti prirodы ostorojnыy i otvetstvennoe otnoshenie k uxodu za soxranenie dikoy prirodы, sozdanie takix chuvstv a takje formirovanie ekologicheskoy kulьturы;	society, careful and responsive attitude to nature, care for nature conservation , As well as the formation of ecological culture;
Oila	Oila-er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.	Semeynыy brak, semeynыe otnosheniya, YeS ekonomicheskiy i jena, roditeli i deti, bratьya i sestrы i drugie rodstvenniki, osnovannыe na otnosheniyax mejdu maloy sotsialьnoy gruppoy; osnova obщestva, istochnik vlasti gosudarstva	A small social group based on relationships between family and marriage, kinship relationships, common husband and wife, parents and children, brothers and sisters and other relatives; The basis of society is the source of state power.
Dunyoqarash	Dunyoqarash–insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir	Perspektivы na lyudyax vokrug vokrug okrujayuщey deystvitelьnosti, sutь Vselennoy, yee struktura, yee sistema znaniy o roli kresta,	The world is a system of knowledge, reality, structure, conceptions, sections, knowledge about the reality surrounding human surroundings
Motiva tsiya	Skot barmenning fikriga ko'ra motivatsiya 4 ta asosiy kategoriyadan iborat: faoliyatning o'zidagi qiziqishdan kelib chiqadigan xolat–ichki motivatsiya. Boshqa odamlarni hursand qiladigan xolat yoki vazifa – ijtimoiy	Po slovam Skotta motivatsii barmenov sostoit iz 4-x osnovnыx kategoriy: xolat- ot interesa k funktsionirovaniyu vnutrenney motivatsii. Ili udovletvoritь drugix lyudey, kotorыe sluchilisь delatь -	According to the Scottish bartender, motivation consists of four main categories: the motivation behind the activity itself is internal motivation. The social status or motivation that other people enjoy. Winning

	motivatsiyadir. Yutuq motivatsiyasi – bunda boshqalar bilan raqobatlashish maqsadida vazifalarni yaxshi bajarish. Ko'makchi motivatsiya – bunda motivatsiya rag'batlash yoki jazolash orqali paydo qilinadi. (jelfhelstead. Navigating the new pedagogy: six prinsiplexthet transform teaching. 26-b.)	sotsialьnuyu sredu. Pobeda motivatsii dlya vыpolneniya zadach, dlya togo, chtobы konkurirovatь s drugimi - eto xorosho. Vspomogatelьnaya motivatsiya - motivatsiya ili stimulы, kajetsya, nakazыvaya	motivation is to perform tasks well in order to compete with others. Assistant motivation - motivation is generated through encouragement or punishment
Didaktika	(grekcha "didaktikos" – o'qituvchi, "didako" o'rganuvchi) pedagogikaning ta'lim muammolarini ishlab chiquvchi qismi.	Grecheskie didaktikos «» uchitelь «issledovanie didako») pedagogika yavlyaetsya chastьyu razrabotchikov problem.	Greek language "didactic" - teacher, "didako" learning) is a part of the educational problem of pedagogy.
Kasbiy yo'nalgan lik	Shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat'iy ishonchi (a.b. Seyteshev); 2) kasb tanlash, qiziqish, qat'iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o'rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda yetakchilik qilishi (n.k. Stepankova).	Tip deyatelьnosti, kotorыy nujdaetsya chelovek, interesov i tverdo verit v sposobnosti (SSHA Seyteshev); 2) vыbor professii, uverennostь, interes i vыbor motivov svyazi mejdu lichnыmi kachestvami rukovodstva (mobilьnыe telefonы Štěpbnkovb).	Ability, interests, needs and perseverance of a person for a particular activity (a. Seyteshev); 2) Leadership of choice, choice of profession, motivation and choice of occupation in private qualities (eg, Stepankova).
Dars	Bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli, o'qituvchi *rahbarligida* muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayoni.	Neposredstvenno k opredelennoy gruppe studentov pod rukovodstvom prepodavatelya k aktivnomu protsessu obucheniya, provedennomu gruppoy studentov pod rukovodstvom protsessa	The main form of the instructional process with a specific group of students under the guidance of a teacher is a learning process conducted with a group of students under the guidance of a teacher.

		podgotovki uchiteley.	
Metod	Grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. "metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat".	Grecheskoe issledovanie, putь k dostijeniyu etoy tseli, sposob raboty. Eta etimologiya (proisxojdenie) slova v svoey kategorii, kak peredacha proshla. «Metod - metod dlya dostijeniya tseli zdravogo smysla, opredelennых reguliruemых vidov deyatelьnosti».	Greek research means the way to achieve goals. The etymology of this word is reflected in its scientific category. "Method - in the most general sense - the method of achieving the goal, the activity that has been specifically regulated".
Seminar	Bu o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'limni tashkil etish shaklidir.	Etot uchitelь obuchen obщatьsya s aktivnыmi teoreticheskimi znaniyami s prakticheskoy deyatelьnostьyu, napravlennoy na obespechenie neobxodimых usloviy dlya realizatsii formы organizatsii obrazovaniya.	This is a form of education that provides the teacher with an opportunity to communicate effectively with the learners, providing the necessary conditions for the implementation of theoretical knowledge in practical activities.

TARQATMA MATERIALLAR, MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR

1. KEYS

Fan:"Kreativ pedagogika"

1- Mavzu: : *"Kreativ pedagogika" fanining predmeti, maqsad va vazifalari*

“Kreativ pedagogika” o‘quv qo‘llanmasidan “Kreativ pedagogika” fanining predmeti, maqsad va vazifalari” mavzusini tayanch konspekt qiling

Mavzuning talaba tomonidan namunaviy yoritilishi:

A) Talaba dastlab mavzuni to‘liq o‘qib, tanishib chiqadi

B) Talaba mavzudan rejaga mos keladigan ma’lumotlarni ajratib, saralab chiqadi

V) Ma’lumotlarni tizimlashtirib konspektlashtirish uchun reja tuzib oladi

G) Tizimlashtirilgan ma’lumotlarni rejaga tayangan holda ko‘chirib chiqadi

Yuqoridagi holatda bajarilgan mustaqil ta’lim quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

Mavzu: “Kreativ pedagogika” fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. Kreativ pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Kreativ pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.
3. Kreativ pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tayanch tushunchalar: *kreativlik, pedagogika, “Kreativ pedagogika” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning ob’ekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ilmiy-tadqiqot metodlari.*

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ

pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007-yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o‘qituvchilar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013). O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta’lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan’anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta’lim departamenti, 2013).

Darsdan tashqari faoliyat tizimi ko‘p komponentli bo‘lib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini quyidagi tarkibda, tartibda, shaklda va joylarda o‘tishi mumkin:

-o‘quv guruhi tarkibida;

-o‘quv yurti jamoasi tarkibida;

-individual (yakka tartibda);

-ijtimoiy birlashmalar va tashkilotlarda;

-klublar, to‘garaklar, muzeylarda;

-mehnat jamoalarida;

-alohida fanlarni chuqur mustaqil o‘rganish chog‘ida;

-ta’lim muassasasidan tashqaridagi madaniy dam olishning turli shakllarida. O‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyat tizimining o‘ziga xosligi shundaki, uning har bir komponenti alohida loyihalashtiriladi va har doim ham pedagogik ta’sir doirasi bilan qamrab olinmaydi.

O‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyat tizimini rejalashtirish shakllari:

-o‘quv yurtining ish rejasi;

-o‘quv yurtining o‘quvchilar bilan olib boradigan ma’naviy-ma’rifiy ishlari rejasi;

-o‘quv guruhlari o‘quvchilari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi va boshqalar.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishning asosiy tartib va qoidalari:

-diagnostik asos;

-o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, jamoaning mahorat darajasi va shakllanganligini hisobga olish;

-tarbiyaviy jarayonda asosiy mazmuniy komponentlarga muvofiq faoliyat aniq yo‘nalishlarini belgilash;

-tadbirlarni o‘tkazishning muddatlarini, shakllarini, ishtirokchilarini aniq belgilash;

-tarbiyaviy ishlar rejasining qulayligi, hayotiyligi va aniqligi;

-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda o‘quvchilarning shaxsan ishtiroki. Darsdan tashqari faoliyatni zamonaviy tashkil etish ijodiy jarayon bo‘lib, tarbiyachidan chuqur bilim, malaka va hohish talab qilgani kabi o‘quvchilardan ham ularning intilishlari va ehtiyojlarini talab etadi. Darsdan tashqari faoliyat (dam olishni tashkil etish) esa shaxsning ijodiy imkoniyatlarini yuqoriga ko‘tarish (birinchi navbatda tarbiyachining), uning ijtimoiy faolligini amalga oshirish maydoni sifatida tasavvur etilishi mumkin.

5. IJODIY TOPSHIRIQLAR

Fan: “Kreativ pedagogika”

IJODIY TOPSHIRIQLAR:

Kreativ pedagogikani boshq

Kreativ pedagogika tushunchalari

Kreativ pedagogika tushunchalari	Kreativ pedagogikaning tadqiqot metodlari

6. INFOGRAFIKA

Fan: “Kreativ pedagogika ”

Infografika axborotlarni grafik, jadval, chizma, rasm tarzida, aniq asosiy va muhim jihatlarini taqdimot orqali yaratishdir.

Mavzu yuzasidan olgan ma’lumotlarni grafik, jadval, chizma, rasm tarzida tahlil qilish.

7. DARSLARNING METODIK ISHLANMALARINI TAYYORLASH

Fan: “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”

Taklif etilgan dars shakli va mavzu yuzasidan manbaalar asosida mavzuning asosiy mazmunini ketma ketlikda amalga oshirish jarayoni tuzimidir. shakllantirilgan mavzular bo‘yicha dars ishlanmalarini ishlab chiqish

DARS ISHLANMASI

Fan: _____Guruh: Sana:_____ Dars mavzusi: _ __ Dars maqsadlari:_Dars turi:_____Dars metodlari:___ Dars foydalaniladigan o‘quv uslubiy adabiyotlar, ma’lumot manbalari va elektron resurslar:_____ Darsda ishlatiladigan zarur texnik vositalar va jihozlar:

_____

Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti: _____

VEDEOROLIK YARATISH. Taklif etilgan mavzuning mazmunini ifodalash va to‘liq yoritilmagan qismini mustaqil tahlil qilish orqali lavhalar, video tasvirlar, ko‘rsatmalar yaratish.

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1.“Munosabat” metodi

Texnologiya ta’lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarga o‘zlarida ijobiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

2.“Reja” metodi

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

3.“Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini

topish koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta’lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni oʻrganish va tahlil qilishga oʻrgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni toʻplash, ularni oʻrganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, oʻqituvchi va ta’lim oluvchi oʻrtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, oʻquv natijalari.

4.“T-jadval” GO

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan oʻzaro solishtirish, qiyoslash asosida oʻrganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga koʻra batafsil yoritish maqsadida qoʻllaniladi. Koʻp hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qoʻllaniladi.

5.“Klaster” GO

“Klaster” (gʻuncha, toʻplam, bogʻlam) grafik organayzeri puxta oʻylangan strategiya boʻlib, uni ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlarda qoʻllash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan gʻoyalarni umumlashtirish, ular oʻrtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

6.“Konseptual jadval” GO

Ta’lim oluvchilarni oʻrganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari boʻyicha taqqoslashga oʻrgatadi. Undan foydalanishda ta’lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

8. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

8.“Nilufar guli” GO

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylanalar)larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

9. “Qarama-qarshi munosabat” strategiyasi

Strategiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo‘lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Ta’lim oluvchilar faoliyatining samaradorligini ta’minlash uchun ularning e’tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

Tayanch tushunchalar			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1. 2.	

10. “SWOT-tahlil” strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to‘rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to‘rt jihati tahlil qilinadi:



11. “FSMU” STRTEGIYASI

Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu

yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	Ta’lim metodlari				
2.	Ta’lim vositalari				
3.	Ta’limni tashxis qilish				

12. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



KREATIV PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI BO‘YICHA SLAYD TAYYORLASH

KEYS

Vaziyat-baholash. Ijtimoiy pedagogik darsi. O‘quvchilarga “Kreativ pedagogika fanini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari” bo‘yicha slayd tayyorlash berilgan. O‘quvchilar mustakil ta’lim bo‘yicha berilgan vazifani tayyorlamagah yoki chala tayyorlagan, bundan tashqati shovqin, o‘rinsiz savollar ko‘p. Bu jarayonda bir o‘quvchi alohida ajralib turibdi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga berilgan topshiriqni nazorat qilishda bunday vaziyatlarga e’tibor bermasdan, vazifani izohlagan holda past ball qo‘yishini va bu kelgusi vazifani baholanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ogohlantirib vazifalarni nazorat qildi.

Navbatdagi vazifa – salayd tayyorlash.

Bir oz vaqtdan keyin, o‘qituvchi eng ko‘p savol bergan o‘quvchidan slayd tayyorladingmi deb so‘ramoqda. “Men slayd tayyorlay olmayman”, deb javob berdi o‘quvchi.

O‘qituvchi: “Demak, senga “nol” ball qo‘yaman”.

O‘quvchi: “Yo‘q, u holda slayd tayyorlashga harakat qilaman”, dedi. O‘qituvchi: “Endi kech bo‘ldi. Vaqtliroq o‘ylash kerak edi”.

O‘quvchi: “Men hammasini tayyorlayman, deyapman-ku”.

Janjal yana bir necha daqiqa davom etgandan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchiga “nol” ball qo‘yadi, o‘quvchi esa eshikni qattiq yopib sinf xonasidan chiqib ketadi. O‘qituvchi hech nima demay, darsni davom ettiradi.

Vaziyatni baholash. Bu yerda qator pedagogik vaziyatlar to‘plami mavjud. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabat anchadan beri bo‘shashib ketgan. Agar oxirgi vaziyat haqida gapiradigan bo‘lsak, o‘qituvchi o‘zining jahlini ochiqchasiga namoyon etdi.

Bunday holda uning nohaqligi yana shundan iboratki,

o‘quvchiga hatto javob berishga imkoniyat bermay, “nol” ballni uning xulqiga emas (juda bo‘lmaganda, to‘g‘ri bo‘lar edi), balki bilimiga (aniqrog‘i, bilimsizligiga) qo‘yishni ma’qul ko‘rdi. Agar baho talabaning haqiqiy qiliqlari uchun belgilansa, jazo haqqoniy bo‘lardi. O‘qituvchi o‘quvchiga, hatto barcha sinf o‘quvchilariga ham, agar u nimadadir kuchsiz bo‘lsa, o‘zining mavqeidan foydalanib, boshqa vaziyatda ham jahlini ko‘rsatishga qodir ekanligini ko‘rsatdi.

O‘quvchi o‘zining kuchsizligidan xafa bo‘lgan va ichki hissiyot bilan o‘qituvchini yomon ko‘rgan, shuningdek, chuqur nohaqlik tuyg‘usidan kamsitilgan holatda sinfdan chiqib ketgan.

Nima bo‘lishini oldindan aytish. O‘qituvchi va o‘quvchining ikki tomonlama nafratlari tobora kuchayadi. Bunday vaziyatlar keyin ham davom etadi. O‘qituvchining na o‘quvchi, na barcha sinf o‘quvchilari oldida hurmati bo‘lmaydi.

Keysga savol-vazifa:

Sizning harakatlaringiz qanday bo‘lar edi?

Yechim. O‘quvchi o‘zini sinab ko‘rmoqchi ekan, o‘qituvchi unga imkon berishi kerak edi. O‘qituvchi darsni qiziqarli va yangi zamonaviy usullardan foydalangan holda o‘tishga harakat qilish kerak.

Talaba quyidagilarni bilishi kerak:

- Tayanch konspekt tuzishda asosiy savollarni ajratish va baholash;
- chizma tasviriy modellar, intellekt kart, freym, mantiqiy graf va boshqalar yaratish kengaytirilgan shaklda taqdim etish;
- tadqiqiy ravishda ijodiy yondashuv namoyon qilish.
-

ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI

Fan: Kreativ pedagogika

***2-mavzu*: Papov V.V., Bashmakov A.V., Kruglov Yu.G. “Kreativ pedagogika ” o‘quv qo‘llanmasi**

Papov V.V., Bashmakov A.V., KruglovYu.G. “Kreativ pedagogika ” o‘quv qo‘llanmasini umumiy tarzda tahlil qiling.

Mavzuning talaba tomonidan namunaviy yoritilishi:

- talaba dastlab o‘quv qo‘llanmaning mundarijasi bilan tanishib chiqadi;
- so‘ng mustaqil ta’limni bajarish uchun reja tuzib oladi;
- talaba o‘quv qo‘llanmadan rejaga mos keladigan ma’lumotlarni ajratib, saralab chiqadi;
- saralangan ma’lumotlarga tayangan holda asosiy mazmun mohiyatni yozma bayon etadi;
- mustaqil ta’limni xulosalash uchun tavsiya etilgan adabiyot bilan tanishib chiqish davomida o‘zi o‘zlashtirgan bilimlar, ko‘nikma va malakalarni yoritadi.

Reja

Kirish

Asosiy qism:

1. “Kreativ pedagogika ” o‘quv qo‘llanmasining nazariy ahamiyati. 2.“Kreativ pedagogika ” o‘quv qo‘llanmasining amaliy ahamiyati.

Xulosa (“Kreativ pedagogika” o‘quv qo‘llanmasini o‘qish jarayonida egallagan BKMlar yoritiladi)

Yuqoridagi holatda bajarilgan mustaqil ta’lim quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

Kirish. Milliy mafkura vazifalari tarbiyaviy jarayonda maxsus tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaviy jarayon ta’lim muassasalarida o‘ziga xos ma’no kasb etadi. Ilg‘or milliy, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o‘yinlar va boshqalar ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish asosiga qo‘yilishi kerak.

Asosiy qism:

“Kreativ pedagogika” o‘quv qo‘llanmasining nazariy ahamiyati

Ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘kituvchilari milliy istiqlol g‘oyasi bilan qurollangan bo‘lib, uni har bir fuqaro ongiga yetkazish malakalariga ega bo‘lishlari lozim. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ta’lim

muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ydi. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Kreativ pedagogika” o‘quv qo‘llanmasining amaliy ahamiyati

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida shaxsning ma’naviy-ma’rifiy shakllanishi bilan bog‘liq savollarga javob berish, uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni shu yo‘nalishdagi ko‘nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berish, ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublarini taklif etish, ularda treninglar va ochiq munozaralar o‘tkazish, shuningdek, mashg‘ulotlarni yakka, juftlik, kichik guruhlar va jamoa tartibida tashkil qilish va o‘tkazish hamda o‘quvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bag‘ishlangan kerakli uslubiy tavsiyalar va maslahatlarni pedagog kadrlarga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridir.

(Shu taxlit davom ettiriladi) Mazkur o‘quv qo‘llanma mana shu kabi malakarni nazariy jihatdan yoritib berishga xizmat qiladi.

Xulosa

“Kreativ pedagogika ” o‘quv qo‘llanmasini o‘qish jarayonida men:

Kreativ pedagogikaga tegishli qonuniyatlar

Kreativ pedagogika haqida olimlarning ta’riflari va fikrlari

Kreativ pedagogika vazifalari va tomonlari

Kreativ pedagogika turlari va darajalari

Kreativ pedagogikani yoshga oid o‘ziga xosliklari

Kreativ pedagogika haqida BKMlaga ega bo‘ldim.

ESSE

Fan: ***Kreativ pedagogika***

Mavzu: Kreativ pedagogika fanini o‘qitish mazmuni.

Tarbiyachilar o‘z ish faoliyatlari davomida asosiy e’tiborni

doimiy ravishda o‘quvchilar tarbiyasi, xulq-atvori, tartib-intizomiga tuzatishlar kiritishlari, ulardagi kerakli shaxsiy xislatlar va xarakterlaridagi qirralarni rivojlantirishlari, mavjud kamchiliklarini bartaraf qilishga kreativ yodashishlari lozim. Bunday jarayonni tashkil etishda tarbiyachilar pedagogik ta’sirning kreativ usullaridan foydalanishlari mumkin.

Pedagogik kreativ ta’sir usuli – bu aniq pedagogik holatlarni tashkil qilish usulidan iborat bo‘lib, unda ma’lum qonuniyatlar asosida o‘quvchilarning ijobiy ishlarida o‘z kamchiliklarini yo‘qotishga undovchi yangi fikrlar va hissiyotlar uyg‘onadi.

Tarbiya jarayonida zarur pedagogik ta’sir usulni tanlash uchun o‘quvchining hissiy holati, harakatining xarakteri va sababi oldindan aniqlanishi lozim. Bu o‘z navbatida ushbu harakatning psixologik tahlili, uni o‘quvchi shaxsiyati bilan yaqin aloqasini ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Pedagogik holat tarbiyachining kreativ ijodiy fikrlariga binoan yaratiladi. *Birinchidan*, tarbiyachi foydalanishni mo‘ljallagan kreativ ta’sir usulini amalga oshirish uchun mos sharoitlarni hayolan tanlashi kerak. *Ikkinchidan*, tarbiyachi o‘z mo‘ljallagan ishi va xulqini o‘quvchining harakatiga bo‘lgan munosabatiga binoan mos ravishda o‘ylab chiqishi lozim.

KEYSLAR BANKI

1-keys. XXI asr boshida Rossiya aholisining 3/2 qismi qashshoqlikda yashagan. Shunisi qiziqki, BMT olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra dunyo boyliklarining 50 % Rossiyada joylashgan. Qolaversa, Rossiya – ziyolilar yurti bo‘lib, butun jahonda oliy va o‘rta texnik ma’lumotli mutaxassislar bo‘yicha oldingi o‘rinlardan birini egallagan (Г. “Аргументы и факты”).

Savollar:

1. Muammo nimadan iborat?
2. Mazkur muammoni yechishda hukumat qanday ishlar olib bormoqda?
3. Siz bu muammoga qanday yechimlar taklif qilasiz?

Manba: shaxs imkoniyatlari va ulardan to‘g‘ri foydalanishga doir adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1- omil: Rossiya aholisining aksariyati o‘z ichki imk

2- omil: jamiyat taraqqiyoti moddiy boyliklarning ko‘pligi emas, balki ulardan oqilona foydalana olishga imkonberadigan inson salohiyati, qobiliyati va uning ijtimoiy faolligi asosida ta’minlanadi. Muammo mavjudligining sababi har bir shaxs ham o‘zi ega bo‘lgan nazariy bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq eta olmaydi. YOki o‘z bilimlarini

amalda qo‘llash borasida yetarli darajada faollik ko‘rsata olmaydi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchi va talaba o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratishni taqozo etadi.

2- **keys.** Sobir o‘rta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida “uch” baholar ko‘p bo‘lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadi. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o‘g‘illarini o‘zlari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta’lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Savollar:

1.Ayting-chi, kasb-hunar kollejlarining rahbarlari Sobirni o‘qishga

qabul qilmaslikka haqlimilar?

2.Sobirnining ota-onalari-chi?

3.Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Inson huquqlari deklaratsiyasi”, “Bola huquqlari haqida”gi Konvensiya, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha

anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

Kasb-hunar kolleji rahbarlari ijtimoiy xavf bo‘lmagan holda “uch” bahoga o‘qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko‘zga tashlanishi uchungina Sobirni o‘qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo‘lgan huquqini poymol etishgan. Qolaversa, kasb-hunar kollejlarida ta’lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o‘zlari tanlay oladi.

Bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o‘zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o‘ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi.

Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar kollejlarining rahbarlari ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

3- **keys.** Pedagogik kengash yig‘ilishida maktab direktori o‘qituvchilarning e’tiborlariga quyidagi ma’lumotni aytib o‘tdi: 6 nafar ota-ona tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o‘tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so‘ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o‘quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz?

Ariza bergan o‘quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqalashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovchi holatlari:

1- oʻquvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a'lo baholarga oʻqiydi.

2- oʻquvchi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha doʻstlari ana shu sinfda ta'lim olishganligi sababli shu maktabga oʻtishga qaror qilgan.

3- oʻquvchi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli oʻquvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan soʻng ular boshqa davlatga koʻchib ketadi.

4- oʻquvchi: ikkinchi yilga qolgan, 4 fanni "qoniqarsiz" bahoga oʻzlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar boʻlimda roʻyxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

5- oʻquvchi: qishloqdan koʻchib kelgan, u yerdagi maktabda esa ingliz tili oʻqitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, koʻp vaqtini bekor oʻtkazadi.

6- oʻquvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar selebral paralichi (BTSP) tashxisiga ega, fanlarni "4" va "5" baholarga oʻzlashtiradi, yolgʻiz onaning qoʻlida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi oʻquvchi qabul qilinadi?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim toʻgʻrsida"gi Qonuni.
2. Oʻzbekiston Respublikasining "Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash toʻgʻrisida"gi Qonuni.
3. Ta'lim muassasalarining "Tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish toʻgʻrisida"gi Nizomi.

Tinglovchilar uchun koʻrsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish

orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim toʻgʻrisida"gi va "Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash toʻgʻrisida"gi Qonunlarida bayon etilgan me'yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi boʻlgan oʻquvchi qabul qilinadi.

4- **keys.** Bir kuni algebra darsida, - deb oʻquvchi qiz hikoya qiladi, - men darsga quloq solmay, hech narsaga e'tibor qilmay, kitob oʻqib oʻtirgan edim. Birdan oʻqituvchi meni doskaning oldiga chaqirdi. Men buni eshitmadim, ammo orqa partada oʻtirgan sinfdoshlarim mening yelkamga niqtay boshlashdi. Avval bundan jahlim chiqdim va hech narsaga tushunmay atrofga alanglab qaray boshladim. Butun sinf oʻquvchilari mening ustimdan kulishdi. Oʻqituvchi: "Nima boʻldi?", deb soʻradi. Men xotirjam holda "Bilmadim" dedim va doskaning oldiga chiqdim. Oʻqituvchining savolari juda yaxshi javob berdim va joyimga oʻtirdim. Oʻqituvchi esa men u toʻgʻrisida sinfdoshlarimga nimadir deganligim uchun ular kulishdi, deb oʻylagan boʻlsa kerak, oʻsha kundan boshlab menga gʻalati qaraydigan boʻldi. Men ham bolalar nima uchun kulishganligini oʻqituvchiga ochiq ayta olmadim va oʻqituvchidan qochib yuradigan boʻldim. Bu holat deyarli bir yil davom etdi. Men algebra fani asoslarini puxta oʻzlashtirdim, biroq, bu fandan boʻladigan darslarga borish men uchun azob boʻldi".

Savollar:

1. O‘qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?
2. Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi zarur?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

Pedagogik faoliyat, ta’limni tashkil etish va yosh xususiyatlariga oid manbalar.

Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1. O‘qituvchining pedagogik xatosi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaganligida. Avvalo, yumor yordamida vaziyatni aniqlashtirib olishi zarur edi.
2. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchilarning kulgusini bartaraf etish uchun insonning diqqati bir obyektdan ikkinchi obyektga tez

koʻchishini, fikrlash tezligi esa optik tezlikka nisbatan sust ekanligini, shu sababli miya tomonidan axborotlarni

qabul qilishda baʼzan noqulay holatlar roʻy berishi mumkinligini tushuntirib oʻtishi, nima uchun kulgu koʻtarilganligining sababini esa tanaffusda oʻquvchi bilan muloqotni tashkil etgan holda aniqlab olishi mumkin edi.

5- keys. Pedagogika boʻyicha yaratilgan adabiyotlarni oʻrganish shuni koʻrsatdiki, ularda “taʼlim jarayoni” tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Taʼlim jarayoni bu:

1. Oʻquvchilarga bilimlarni berib, ularda koʻnikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning oʻzlashtirilishini taʼminlash (oʻqitish)ga qaratilgan faoliyat.
2. Oʻquvchilar tomonidan BKMning oʻzlashtirilishi (oʻqishi)ni taʼminlovchi jarayonini boshqarishga yoʻnaltirilgan oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki oʻqitish va oʻqitish – taʼlimning oʻzaro aloqador va oʻzaro shartlangan tomonlaridir).
3. Oʻqituvchining oʻquvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta oʻzlashtirilishiga yoʻnaltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini oʻzlashtirish, dunyoqarashni boyitish va oʻquvchilar xulq-atvorining shakllanishini taʼminlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.
4. Oʻquvchilarning oʻqituvchi rahbarligida BKMni oʻzlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri taʼlim jarayonining mohiyatini toʻla yoritadi?
2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Pedagogika” faniga oid bir necha manbalar.

Tinglovchilar uchun koʻrsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

1. Mazmuniga koʻra barcha ta'riflar ham ta'lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya boʻyicha oʻzining aniq terminologiyasiga ega boʻlishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obyekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.
2. Keltirilgan ta'riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta'lim jarayoni – oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qoʻllash koʻnikma, malakalarini oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon.

6- keys. Nodir oʻzini oʻrtoqlari kutishayotganligi sababli,

koʻchaga chiqmoqchi. Dadasi boʻlsa, bunga ruxsat bermayapti. Nodir esa darslarini tayyorlab boʻlganligini aytib ruxsat soʻrayapti. Biroq dadasi kutilmaganda “Bunday daydi va beboshlar bilan koʻchada tentirab yurgandan koʻra uyda oʻtirib, kitob oʻqi!” – dedi.

Savollar:

1. Bu vaziyatda kim haq?
2. Dadasi qanday pedagogik xatoga yoʻl qoʻydi?
3. Sizningcha, Nodirning keyingi harakatlari qanday boʻladi?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Pedagogika” va “Psixologiya”ga oid adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun koʻrsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

Har bir shaxs ijtimoiy, xususan, mikromuhitda shakllanadi va

rivojlanadi. Bolalar o‘z tengdoshlari bilan muloqot qilish, o‘qish, o‘ynash, bellashish, baxslashish ehtiyojiga ega. Ular tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda o‘zidagi kamchilik va nuqsonlarni sezadi, ularni bartaraf etish haqida o‘ylab ko‘radi. Tengdoshlarining ta’siri bilan mehnatga munosabatlari shakllanadi. O‘smirlar esa deyarli barcha hayotiy vaziyatlarda tengdoshlaridan namuna olishga intilishadi. O‘zlari mansub bo‘lgan muhitda lider bo‘lishga harakat qiladi. Shu sababli Nodirning dadasi nohaq.

Dadasi Nodirni kitob o‘qishga o‘rtoqlarini haqorat qilmagan holda undashi zarur edi. Qolaversa, dadasi o‘g‘lining o‘rtoqlari kimlar ekanligini bilishga intilmagani holda ular haqida noto‘g‘ri xulosa chiqardi.

Eng to‘g‘ri yo‘l Nodirga ko‘chaga chiqishi uchun ruxsat berish, biroq, uzoq qolib ketmasligini eslatib qo‘yish, u qaytib kelganidan keyin esa o‘rtoqlari kimlar ekanligini, vaqtini tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlarga ham sarflashi mumkinligini, ammo, ko‘proq vaqtini tejashga e’tibor qaratishi zarurligini tushuntirishi lozim.

7- keys. Birinchi sinfda o‘qiyotgan Dilshod she’rni ifodali o‘qib bergani uchun “besh” baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o‘zi yod olgan she’rni oyisiga ham o‘qib bermoqchi bo‘ldi. Ammo, oyisi

Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o‘g‘liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta’sir o‘tkazadi.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Pedagogika” va “Psixologiya”ga oid adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun koʻrsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.

3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.

4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.

5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.

2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida ragʻbatlantirish tamoyillariga zid ish qildi.

3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta’sir oʻtkazadi, asta-sekin unda qoʻrslik, befarqlik, oʻz-oʻzini past baholash, oʻziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

8- keys. Rus tili darsida oʻqituvchi oʻquvchilarga: “Oʻrtogʻingdan koʻchirma!”, “Oʻzing yoz, birovlarning daftariga qarama!”, “Obbo, koʻchiradigan odamingni ham topibsanmi-a! Uning oʻzi hatto koʻchirib olishni ham qoyillata olmaydi-yu!” singari zaharxanda soʻzlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfda esa oʻqituvchi darsiga yoʻl-yoʻlakay, albatta, ammo ta’sirli qilib: “Bolalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan koʻchirayotgani yoʻq!”, - dedi.

Savollar:

Ta’lim jarayonida individual nazorat topshiriqlarini har bir oʻquvchi mustaqil bajarishi lozim.

1. Birinchi oʻqituvchining oʻquvchilarga bu boradagi yondashuvi toʻgʻrimi? Pedagogik talabni shunday tarzda qoʻyish qanchalik toʻgʻri?
2. Ikkinchi oʻqituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. Oʻqituvchining xatti-harakatini oqlash mumkinmi?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan material:

“Pedagogik talab” va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar.

Tinglovchilar uchun koʻrsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

1. Birinchi oʻqituvchi tomonidan garchi pedagogik talab qoʻyilayotgan boʻlsa-da, biroq bu talabning yuqoridagi kabi ifodalash mumkin emas. Aslida oʻqituvchining yondashuvi pedagogik talabni ifodalashi lozim. Ammo qoʻpollik, qoʻrslik bilan qoʻyilgan pedagogik talab hech qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi, aksincha, ta'sir koʻrsatadi. Qolaversa, oʻqituvchining yondashuvi bilan oʻquvchilarda bir-birlariga nisbatan ishonchsizlik, bir-birini hurmat qilmaslik kabi sifatlar qaror topishiga zamin yaratib beradi.

2. Bir qaraganda ikkinchi oʻqituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. Ammo, oʻquvchilarga nisbatan xayrixohlik, samimiylik oʻquvchilarga, aksincha, ta'sir koʻrsatadi. Oʻqituvchining oʻzlariga nisbatan xayrixohligini his etgan oʻquvchilar pedagogik talabga zid ish qilmaslikka harakat qilishadi.

9- keys.

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini

yuksaltirishda samarali boʻlgan shakllarni aniqlash.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

Tinglovchilar uchun metodik koʻrsatmalar

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini

chuqur o‘rganing.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma’naviyatini yuksaltirishda samarali bo‘lgan shakl, metod va vositalarni aniqlang.

4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma’naviyatini yuksaltirishda samarali bo‘lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.

5. “Ko‘zgazma” metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma’naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1-topshiriq bo‘yicha



2- topshiriq bo‘yicha



3- topshiriq bo‘yicha



10- keys.

1. Quyida berilgan ta’riflar qanday tushunchalar mohiyatini yoritishini toping.

2. Ta’riflar va ularning mohiyatini yorituvchi tushunchalar asosida jadval shakllantiring.

Ta’riflar:

1. Shaxsni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, uning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

2. Shaxsning tabiatga, jamiyatga va o‘zining ijtimoiy muhitdagi o‘rniga, o‘z- o‘ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e’tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimi.

3. Muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Didaktika” va “Ta’lim menejmenti”ga oid materiallar.

Tinglovchilar uchun koʻrsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jaryoni:

1. Tinglovchilar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Tinglovchilar sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Tinglovchilar (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan koʻproq dahldor boʻlgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.
4. Tinglovchilar (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

Oʻqituvchining yechimi

Muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni	Shaxsni nazariy bilim, amaliy koʻnikma va malakalar bilan qurollantirish, uning bilish qobiliyatlarini oʻstirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan jarayon	Shaxsning tabiatga, jamiyatga va oʻzining ijtimoiy muhitdagi oʻrniga, oʻz-oʻziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, eʼtiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat

		tamoyillarining tizimi
Tarbiya	**Ta’lim**	**Dunyoqarash**

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning mamla¬ka¬ti¬mizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi materiallari.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonun 2016 yil 14 sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2016-yil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani¬ning 24 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzasi materiallari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 12 yanvar “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risi”da farmoyish.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan 2017 yil 13 yanvardagi ma’ruzasi materiallari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” 2017 yil 15 yanvardagi ma’ruzasi materiallari.
7. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantrishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi materiallari.
8. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
9. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.

10. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.
11. Usanova O.N. Ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar. –Moskva: Pedagogika, 1995.
12. Novotortseva N.V. Korrektsionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiY. Slovar. – Moskva: Pedagogika, 1999.
13. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
14. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: Fan, 2001.
15. Quronov M. Milliy tarbiya – T.: Ma’naviyat. 2007.
16. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika nazariyasi. T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
17. Xasanboev J, To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
18. Komilova N, Xaydarov F. Muammoli o‘smir: moslashuv, tashxis, korrektsiya usullari. T.: RBIMM, 2008.
19. Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.
20. M.X.To‘xtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik.T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
21. 2. Hoshimov K.,S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘ll.
22. I-jild. – T.: O‘qituvchi1999.
23. 3. Hoshimov K., S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘ll.
24. I-jild. – T.: O‘qituvchi,2010.
25. 4. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
26. 5. B.S.Abdullaeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. Pedagogika nazariyasi va tarixi Darslik. –T. Nodirabegim nashriyoti,.

27. 6. SH.S.SHodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzaeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2022.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

11. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni.

13. “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 -sonli Farmoni.

Axborot manbaalari

14. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

15. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

16. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.

17. www.pedagog.uz

18. http://www.ziyonet.uz/

MUHDARIJA

	Kirish.....	3
1-mavzu	“Kreativ pedagogika” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	4
2-mavzu	Kreativ yondashuv asosida didaktik ta’minotni yaratish.....	28
3-mavzu	Kreativ pedagogika fanini o‘qitish mazmuni va mohiyati.....	61
4-mavzu	Kreativ ta’lim muhiti: mohiyati, xususiyatlari...	91
5-mavzu	Kreativ pedagogika fanini o‘qitish shakllari.....	96
6-mavzu	Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda metod va vositalar.....	119
7-mavzu	Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	146
8-mavzu	Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati.....	170
9-mavzu	Kreativ pedagogika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari tashxis etish.....	190
10-11-mavzu	O‘rta sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda kreativ yondashuv.....	219
12-13-mavzu	Yuqori sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda kreativ yondashuv.....	236
14-15-mavzu	Tarbiya fani darsliklariga kreativ yondashuv	267
	Tarqatma materiallar, mustaqil ta’lim uchun materiallar.....	280
	Keyslar banki.....	295
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	313

Karimova Barno Ergashevna

KREATIV PEDAGOGIKA

Darslik

Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo” - 2022

Muharrir: Xolsaidov F. B.
Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 14.09.2022. da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90. “Times New Roman” garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 20. Nashr bosma tabog‘i 19,75.
Adadi 200 nusxa.

“Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko‘chasi, 6-a uy.

+99893 552-11-21

Muallif va nashriyot roziligisiz chop etish ta’qiqlanadi.